

T.Vesos

**“Yetim qolgan opa-uka”
(Qushlar)**

BIRINCHI QISM

1

Oqshom Mattis osmonni ko'zdan kechirdi. Bulut yo'q edi. Shunda u opasi Xegening ruhini ko'tarish maqsadida:

— Sen chaqmoqqa o'xshaysan, — deb qo'ydi. Shunday deyishga dedi-yu, o'zi seskanib ketdi,

ammo osmon musaffo bo'lgani uchun, darrov o'zini bosib oldi.

— To'quv simlaringni nazarda tutyapman, ular chaqmoqday yilt-yilt qiladi, — deb izoh berdi u.

Xege to'qishini to'xtatmasdan loqayd bosh silkib qo'ydi. Qo'llarida simlari lipillardi. U to'qilishi qiyin bo'lgan sakkizta gulbargli gulni bitkazayotgan edi. Yaqin orada bu libos yigitlardan birining egnida yal-yal ochilib turishi turgan gap.

— Tushunarli, — deb qo'ya qoldi Xege.

— Men seni yaxshi bilaman-da o'ziyam, — dedi Mattis.

U bir nima haqida qattiq o'ylay boshlasa, barmog'ini tizzasida u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa yurgizardi. Hozir ham shu qilg'ini qildi. Xege esa undan bu beo'xshov odatini tashlashni so'rayverib zerikkan, endi buni iltimos qilmay qo'ygandi.

— Sen to'qishni ham, har qanaqa ishni chaqmoqday ado etasan, — Mattis gapida davom etdi.

— Balkim, — dedi opasi.

Mattis, ko'ngli tinchlanib, jim bo'ldi. Mattis «chaqmoq» degan so'zni takrorlashdek jozibadan o'zini tiyolmasdi. Nazarida shu so'zni tilga olishi bilan xayollari boshida g'ujg'on o'ynar va allaqayoqlarga olib qochardi. Chaqmoqning o'zidan esa o'lguday qo'r qar va hatto yoz oylarida ham havo bulutlanib qolsa, bu so'zni tilga olmasdi. Ammo bugungi oqshom sokin va havo ochiq edi. Bahorda ikki marotaba quloqni qomatga keltiruvchi momaqaldirqli yog'in bo'ldi. Odatda, Mattis guldurosalar juda qattiq gulduraganda kichkina yog'och xalajoyga bekinib olardi, chunki bolaligida aytishgan: bunday katalak uychalami chaqmoq urmaydi. Bu tartib butun dunyoga ham taalluqlimi-yo'qmi, Mattis bilmasdi, lekin, uning baxtiga, u yashayotgan o'lkalarda bu qonun hozircha hukmron edi.

— Ha-ha, chaqmoqday, — deya g'o'ldiradi Xegega gapirayotganday bo'lib. Ayni damda opasi uning to'satdan aytgan maqtovlarini eshitadigan holda emasdi.

Ammo Mattis hali gapini tugatmagan edi.

— Aytmoqchimanki, fikrlashing ham chaqmoqday. Xege, ukasi hozir bir nojo'ya gapni aytib yuborishidan xavfsiraganday:

— Bo'ldi qil, bugunga yetar, — dedi sovuqqina, ro'yxush bermay.

— Biron nima bo'ldimi? — deb so'radi Mattis.

— Hech nima bo'lgani yo'q. Jim o'tir.

Xege aytvoray degan gapini ichiga yutdi. Ukasining ovsarligi uni ezardi, ayniqsa, «fikrlash» degan so'zini eshitganda og'rinar va ruhan tushkunlikka tushib ketardi.

Mattis opasining ko'ngli cho'kkanini sezdi, ammo buni boshqa narsaga yo'ydi: o'zining ishlamayotganidan norozi deb o'yladi. Hamma odamlar kabi ishlamasligi tufayli o'zining ham vijdoni azobda edi. U ikkoviga ham yod bo'lib ketgan o'sha eski nag'masini yana boshladi:

— Sen ertagayoq menga biron ish topishing kerak. Senga umrbod yuk bo'lolmayman.

— Yaxshi, — Xege bo'shliqqa qarab javob berdi.

— O'zimniyam jonimga tegib ketdi. Bitta non ham topib kelmayman qachondan beri...

— Ha, anchadan beri hech nima topib-tutib kelganing yo'q, — deb yubordi opasi beixtiyor, biroz keskinroq tarzda.

Va shu zahoti o'zi afsuslanib qoldi, lekin endi kech: u ukasining «yarasiga» tuz sepib bo'lgandi. Mattis bunday tanbehlariga toqat qilolmas, bu borada gapirishga Mattisning o'zidan bo'lak hech kimning haqqi yo'q edi.

— Sen men bilan bunaqa muomala qilishing kerak emas, — dedi u gezarib.

Xege qizarib ketgancha boshini quyi egdi. Mattis davom etdi:

— Sen men bilan hamma odamlar bilan gaplashganday muomala qilishing kerak.

— Ha, ha, to'g'ri.

Xege bosh eggancha o'tirardi. Nima ham qilsin, istiqbolda bir tola ham nur yo'q, kelajak umidsizlikdan iborat edi. Ammo u ba'zan chidayolmay qolar, oqibatda uning gaplari Mattisga nashtarday botardi.

2

Opa-uka ko'hna uylarining bo'sag'asida qo'lbola «eshak»da (kursida) o'tirishardi. Iyunning iliq oqshomi edi. Kunduzgi issiqning taftidan so'ng qovjiragan og'ochlar erinibgina xush bo'y taratardi.

Avvaliga Xege bilan Mattis talay vaqtgacha jim, bir-birining pinjiga tiqilib o'tirishgandi, chaqmoq va ish to'g'risidagi dilni xira qiluvchi munozara keyin bo'lib o'tdi. Mattis toshday qotgancha daraxtlarning uchlariga qarab oldi. Xege uning bunday o'tirishlarini ko'raverib, parvo qilmaydigan bo'lib ketgandi. Chunki bunday

o'tirishni man qilishdan foyda chiqmasligini yaxshi bilardi, aks holda hozir unga birpasda tanbeh bergan bo'lardi.

Opa-uka yon atrofda boshqa uylar yoqligi tufayli, bir chekkadagi uylarida go'yo boshqalardan ajralib qolganday yashardilar. O'rmon ortidagi yo'l bilan ketaverishda katta qishloq joylashgandi. O'rmon bilan tutashib ketgan ko'l esa olisda jimir-jimir qilar, go'yo uning chek-chegarasi yo'qday edi. Mattis va Xegelar kulbasi ko'l bo'yidagi tepalik yonbag'rida bo'lib, qirg'oqda ularning qayig'i va qayiq turadigan supachalari bor edi. Uy tevaragidagi shox-shabba bilan ajratib olingan va tozalab qo'yilgan yerlar ularga qarashli edi, to'siq ortidan u yog'i esa batamom begona edi.

Xege nimani ko'rayotganimni ham bilmaydi! — o'ylardi ichida Mattis.

Bu yerda ular to'rtta — Mattis va Xege ikkitadan edilar, Xegening esa bundan xabari yo'q. U buni aytay-aytay deb turardi-yu, ammo og'iz ochmay jimgina o'tirardi.

To'siq ortidagi archazorning qoq o'rtasida uchlari singan bir juft quruqshagan yovvoyi terak bir-biriga chirmashgan ko'yi qad ko'tarib turardi. Odamlar ularni «Mattis-u-Xege» deyisharkan va bu birta so'zday talaf-fuz qilinarkan, buni Mattis yaqinda tasodifan kimdandir eshitib qolgandi. Teraklarga bunday ot qo'yishganiga ko'p vaqt bo'lgandir-ov...

Uchlari ko'm-ko'k top-toza archazorning qoq o'rtasida quruqshagan ikki yovvoyi terak yonma-yon qad rostlab turishardi.

Mattisning g'azabi qaynardi, shuning uchun ham te-raklardan ko'zini uzolmasdi. Har doim eshik oldida o'tirishganda u Xegeni bu sirdan voqif qilmoqchi bo'lardi-yu, ammo avtish mumkin emas, degan xulosaga kelaverardi. Opasining achchig'i qistashi mumkin, bo'ladigan gap shu, teraklar esa baribir Mattis-u-Xege deyilaveradi.

Har neki bo'lmasin, teraklar hozircha o'z joylarida turar va Mattis bunda o'ziga nisbatan qandaydir g'amxo'rlik alomatini tuyardi. Lekin bu daraxtlar odamga xalaqit berar, ulardan tirnoqcha ham foyda yo'q edi. Har qalay ularning egasi chiqmadi, hech kim ularni pechkada yoqish uchun Mattisning ko'z o'ngida kesib olmadi. Agar opa-uka nomini tashuvchi bu daraxtlarni kimdir halok etsa, bu o'taketgan bir shafqatsizlik bo'lar edi. Balki shuning uchun ham egasi bu teraklarga tegmasa kerak.

Qachon bo'lmasin, shu odamni bir ko'rsaydim, o'ylardi Mattis. Ammo egasi bu yerlarga kelmas edi.

Mattis fikrlashda davom etdi.

Qiziq, daraxtlarga hazillashib opa-ukaning nomini bergan odam nimalarni o'yladi ekan? Kim biladi. Yoz oqshomlari Mattis eshik oldida o'tirib, nuqul shu haqda bosh qotirardi. U odam, albatta, erkak kishi bo'lsa kerak. Mattis ayollarga nisbatan

yaxshi munosabatda bo'lganidan, buni avollardan ko'rgisi kelmasdi. Hammasidan ham Xegeni qurigan daraxtga tenglashtirganlari unga alam qilardi — Xege sirayam unaqa emas... Bu besh qo'lday ko'rinib turgan narsa-ku! Xege juda aqlli, farosatli... Bo'lmasa nima uchun buni eshitish unga og'ir botadi?

Buning javobi hech bir ma'nisiz va ayni haqiqat ekanini o'zi biladi-ku!

Men ertalab o'rnimdan turgan zahotim va kechqurun yotishdan oldin doim o'sha teraklarga qarayman, axir, u tarafga qarashning nima keragi bor, bilmayman. Bularning bari tushunarsiz edi.

— Mattis!

Uning xayoli bo'lindi.

— U yoqda nimani ko'rib qolding? — so'radi Xege.

Mattis bunday savollarning ma'nosini jūda yaxshi bilardi. Ish qidirib yoki yumush bilan biron yerga borganda, unday qilish mumkinmas, bunday qilish mumkinmas, odam Tentakka o'xshamasdan, o'zini hamma odamlarday tutishi kerak, bo'lmasa hamma ermak qiladi.

U opasining ko'zlariga qaragancha jim turib qoldi. Qachon qarama, har doim hadikli, qushlarday hurkak, g'alati ko'zlar.

— Hech nimani, — javob qaytardi u.

— Shunday bo'lsin...

— Qiziqsan-a, — dedi u. — Har gal atrofga qarasam biron narsani ko'rib qolgan bo'lamanmi? Aqlga to'g'ri keladigan gapmi shu?

Xege bosh silkib qo'ydi, xolos. Uni xayol dunyosidan moddiy dunyoga qaytarganday bo'ldi, endi bemalol ishga sho'ng'isa bo'laverardi. Xege hech qachon eshik oldida ishsiz o'tirmasdi, qo'llari juda mohir, usta to'quvchi edi, va bu ularning tirikchiligiga juda asqotar edi.

Mattis opasining ishiga katta hurmat bilan qarar, shu hunar ikkovlarini boqar, faqat shuning orqasidan kun ko'rardilar. O'zi hech nima topib-tutmasdi. Hech kim uni ishga olishni xohlamasdi. Odamlar uni Tentakvoy deb atashar, uning nima ish qilganlari eslariga tushganda, rosa kulishardi. Mattis ish uchun yaralmagandi. U qanday ishning boshini tutmasin, oxiri voy. Bu to'g'rida Tentakvoy Mattisga atab mehnatkash qishloqliklar turli latifalar aytib yurishardi. Tomdan tarasha tushganday bir nima miyasida yarq etdi va u seskandi.

Nima bu?

Ammo hammasi g'oyib bo'ldi-qoldi.

Timsol va so'z uning butun vujudini tilib o'tdi va g'oyib bo'ldi — ularning o'rniga o'rin Mattisning oldida devor qad ko'tardi.

U opasiga o'g'rincha qarab qo'ydi. Xege hech nimani sezmadi. Qirq yoshga borib qolgan opasi nozikkina bo'lishiga qaramay, saranjom-sarishta, eshik oldida

yig'inchoqqina bo'lib o'tirardi. Agarda ukasi tomdan tarasha rushganday lop etib miyasiga urilgan so'zlami aytsa, Xege uni tushunmagan bo'lardi.

Ular yonma-yon o'tirisharkan, Mattis opasining sillicl, to'q jigarrang sochlariga qaradi. To'satdan u bir oqargan sochni, keyin ikkinchisini, uzun-uzun kumushrang tolalarni ko'rib qoldi.

Balki, ko'zlarim qarchig'ay ko'zlariday o'tkirlashgandir? — hayratlanib, o'zidan mamnun holda ko'nglidan kechirdi. Ilgari men ularni sezmagandim.

— G'alati-ya, Xege! — deya xitob qildi u.

Xege boshini ko'tarib, ukasining tetikligini ko'rib quvondi.

— Nima g'alati? — qiziqsinib so'radi.

— Soching oqara boshlabdi. Xegening boshi egildi.

— Ha, shunday.

— Sochlaringga oq oralaganini hozirgina sezib qoldim. Sen o'zing bilarmiding?

Opasi javob bermadi.

— Sochlaring erta oqaribdi. Axir, yoshing endigina qirqda bo'lsa...

U birdan kimningdir nigohi o'ziga qadalganini sezdi. Unga Xege emas, boshqa birov yeb yuborguday nazar bilan qarab turardi. Harholda bu, Xegening nigohidir balkim? Shunda Mattis o'z xatosini tushunib, qo'rqib ketdi, ammo nega bunchalik yovqarash? Bor-yo'g'i ko'zi o'tkir bo'lib ketibdi, shunga shunchami?

— Xege.

Nihoyat opasi boshini ko'tardi.

— Yana nima deysan?

Mattis aytmoqchi bo'lgan gapini shu ondayoq unutib qo'ydi. Opasi undan ko'zlarini uzdi.

— Ha, yo'q, o'zim, shunchaki, — dedi u. — To'qiyver.

Opasi kulib qo'ydi.

— Xo'p, yaxshi, Mattis.

— Demak, hammasi joyidami? — ehtiyotkorlik bilan so'radi. — Sochlaringga oq tushganini avtvorgan bo'lsam ham, xafamasman?

Xege mamnun holda astoydil boshini chayqadi.

— Qo'yaver, hechqisi yo'q, sochimga oq oralaganini bilaman.

Bu asno uning yarqiroq simlari bir dam ham to'xtagani yo'q. Mattisga ular xuddi o'zidan o'zi harakatlanayotganday tuyulardi.

— Sen dahshatli darajada aqllisan, — dedi yo'l qo'ygan kamchiligini tekislash maqsadida. — Bu dunyodagi eng aqlli odamsan.

Shundan keyin yana o'zini rom etuvchi so'zlardan birini aytdi. Eh, munchalar sertikon, xavfli so'zlar ko'p-a! U aytishi mumkin bo'lmagan, ammo yashirincha

bo'lsa ham aytib yuboradigan so'zlar! Miyani qitiqlaydigan bu so'zlarni aytish, garchi anchagina xatarli bo'lsa ham, odamga huzur bag'ishlaydi.

— Xege! Eshityapsanmi, Xege?

— Ha, — deb xo'rsindi u. Ortiq hech nima demadi.

Xegega nima bo'ldi o'zi? Yo maqtovlarni oshirib yubordimikin?

— Lekin qarishga hali erta, — opasiga eshitilmaydigan qilib ming'irlab qo'ydi. — Qiziq, meniyam sochimga oq oralaganmikin? Esimdan chiqmasidan oldin tekshirib ko'rish kerak.

— Uxlamaysanmi, Mattis?

— Yo'q, men hozir... — U o'zini oynaga solib tekshirmoqchiligini aytishdan vaqtida to'xtatib qoldi. Keyin uyga kirib ketdi.

3

Mattis xonaga kirgandagina bu oqshom o'zgacha go'zalligini bildi. Katta bahaybat ko'l xuddi oynadek silliq edi. Narigi qirg'oqning g'arbiy do'ngliklari yengilgina bug' bilan qoplangan, bu tepaliklar deyarli har doim shu tarzda bug'lanib yotardi. Erta boshlangan yoz isi kelardi. Uyni to'sib qo'ygan qarag'ayzor ortidagi yo'ldan xuddi odamni ermak qilayotganday guvillab mashinalar o'tardi. Oydin kecha momaqaldiraq bo'lmasligidan dalolat berardi.

Momaqaldiraq gumburlab turganda jalada yurish to'g'risida o'yladi-yu, o'z o'ylaridan qo'rqib, seskanib ketdi.

Qaniydi jalani yorib o'tsa!

Shunday qila olarmikin?

Mattis qarshisidagi yig'ma divan-karavot oldida xayol surib turardi.

U bolalikdan bēri qorong'i tushganda yoziladigan shu divanda uxlar va bu divanni qayerda uchratmasin albatta taniy olishiga ishonchi komil edi. Ayni chog'da bu holat butun umr saqlanib qolishini istardi. Divanda Mattisning bolalikdagi sho'xliklari evaziga orttirilgan pakki pichoqning izlari bor edi. Bo'yoqlanmagan divanning yog'ochlarida qalam bilan chizib tashlangan va chala o'chirilgan aji-buji chiziqlar ham bor edi. U vaqtlar Mattisning qo'lga birinchi bora qalam ushlatishgandi. Bu chizma va «tasvir»lar divanning ko'tarma yog'ochida ichki tarafda bo'lib, Mattis har kech uxlash oldidan talay vaqtgacha bu g'aroyib chiziqlari va tushunarsiz tasvirlarni ko'zdan kechirib o'tirardi. Bolaligidan qolgan bu yodgorliklar unga yoqardi, chunki ular har doim qanday bo'lsa shundayligin turardi. Va har doim o'zlariga tegishli joyda bo'lardi. Ulardan ko'ngli xotirjam edi.

Xege yonginasida, mo'jaz xobxonada uxlardi. Mattis xayollarini tark etib, opasining xonasiga qarab yurdi — opa-ukaga tegishli bitta-yu birta oyna u yerda osig'liq edi.

Mattis Xegening xonasiga kirdi. Bu yer top-toza, bahavo va deyarli bo'm-bo'sh edi. Shu tobda unga kerak bo'lib qolgan oyna osilib turardi.

— Hm! — deb qo'ydi u o'z aksiga.

U anchadan buyon o'zini ko'zguda yaxshilab ko'rmagandi. Kirs birda-yarim soqolini olishga kirardi. Ammo u paytlarda asosiy maqsad soqol olish bo'lgani uchun, o'ziga uncha ahamiyat bermas, hatto yuzining anchagina qillari olinmay qolib ketardi.

Hozir Mattisni o'z ko'rinishi qiziqtirardi. Yo'q, yo'q! — beixtiyor uning ichidan bir gung nido otilib chiqdi.

— Qarashga arzigulik joyim bor ekanmi? — g'o'ldiradi u.

— Yuzim ozg'in, — dedi yana.

— Yonoqlarim botiq.

— Soqollarim dikkaygan.

Odamni behuzur qiladigan turq-angor.

— Ammo har qalay nimadir bor, — dedi u, o'zini o'rganishda davom etarkan shosha-pisha. Ko'zgu sifatsiz edi, odamning chizgilarini to'g'ri aks ettirmasdi, ammo Mattis ila Xege allaqachon bunga ko'nikib ketishgandi.

Mattis shu zahoti bu mo'jaz va qizlarga xos orasta xobxonada go'yo sehrlangandek boshqa narsa to'g'risida xayol sura ketdi.

Men oynaga qiz boladay qarayapman, o'yladi u, va bu xayoli o'ziga xush yoqdi. Mana shu xira ko'zgu oldida qancha qizlar o'zlariga oro berar, qayta-qayta yechinib-kiyinardilar.

U bir-biridan go'zal manzaralarni ko'z oldiga keltirardi va bu shunchalik jozibali ediki...

Bo'ldi, qizlarni o'ylayman.

Lekin darhol o'zini qo'lga oldi.

Yo'q, haftaning o'rtasida qizlarni o'ylash yaxshi emas. Kelishmagan qiliq. Hech kim bunday qilmaydi.

U ikkilanib qoldi.

Lekin baribir goho ularni o'ylayman-ku, iqror bo'ldi u.

Faqat buni hech kim bilmasligi shart.

U oynadagi aksiga qaradi. Ko'zlarini ko'rdi, ularda qaysarlik bor edi. Yo'q, qizlarni o'ylayveraman. faqat buni hech kimga aytmayman.

Modomiki men shunaqa ekanman...

U ovnada yana o'z nigohini uchratdi — katta-katta ochilgan ko'zlari qandaydir tushunib bo'lmaydigan umidlarga to'la edi.

Nima bu?

Yo'q, yo'q, dēdi ichida, nimadir hech gapdan hech gap yo'q hayrat bilan. Modomiki men shunaqa ekanman... — odamlarning besababdan besabab, hozir uni hayajonga soigan, ammo ahamiyati oz, arzimagan narsa munosabati bilan ham o'zi haqda shunday deb yuborishi uchrab turadigan hodisa.

— Qarashga arzigulik joyim bor ekanmi? — dedi u ovoz chiqarib.

Haftaning o'rtasida o'ylash nomaqbul bo'lgan, ammo uni o'z komiga tortayotgan bu o'y-xayollardan o'zini tortishi kerak edi.

Ko'zgu ichidagi yuz o'ychan va ozg'in, ayni chog'da rangpar edi. Ammo ko'zlar jozibali, ohanraboday o'ziga tortardi.

U bu yuzga:

— Sen qayoqdan kelib qolding?

— Nega kelding? — degisi kelardi. Mattis bunday savolga javob kutmasdi.

Ammo qo'zgu ichidan qarab turgan bu ko'zlarda, o'ziga tegishli bo'lmagan, tunu kun jovdirab qarab turadigan bir juft hamroh ko'zlarda u bor edi. Javob yodiga kelganday, hammasi aniq-ravshanday edi. So'ng shu ondayoq xayoldan forig' bo'ldi.

Mattis birdan o'ylab qoldi:

Mattis kaltafahm.

Tentak.

Oyna oldida qanday turganimni ko'rishsa bormi, odamlar hozir rosa miriqib kulgan bo'lishardi.

Nihoyat bu yerga, Xegening yotoqxonasiga nega kelganini esladi: sochiga oq oralamaganmikin, qarab ko'rishi kerak edi.

Old tarafda yo'q edi. Mattis boshini egib, manglayiga tushgan sochlarining osti-ustini ko'zdan kechirdi. boshining o'rak qismlariga ham oq tushmabdi. Yo'q, oqargan soch yo'q. Keyin, bir amallab quloqlarining orqasidagi sochlarini ko'ruvdan o'tkazdi.

Sochlari oqarmabdi, bironta ham oqargan tola topmadi. Axir u qirqqa kirgan opasi Xegedan atigi uch yoshgina kichik edi.

Mening sochlarim hali yaxshi, oqarmagan, o'yladi u.

Lekin uch yildan keyin men ham xuddi Xegeday bo'laman.

Hozir bir tola ham oq sochim yo'q. Buni albatta Xegega aytish kerak, u xursand bo'ladi, o'yladi Mattis; bu mavzudagi suhbat Xegega yoqmagani Mattisning yodidan chiqqan edi.

Mattis shaxdam yurib, uydan chiqdi. Xege hali ham hovli eshigidagi kursida kiyim to'qib o'tirgan bo'lishi kerak.

Rostdan ham, Xege o'sha yerda o'tirardi. Uning chaqqon qo'llaridagi kofta xuddi joni borgan o'xshab qimirlardi. Qo'llar go'yo soqovlar raqsini ado etayotganga o'xshar, kofta esa, qo'llarning hech qanday ishtirokisiz yiriklashab, kattalashib borayotgandek edi.

— Hm, nima? — so'radi, Mattis uydan shoshib chiqqanida, Xege.

Mattis sochlarini ko'rsatdi.

— Xege, ko'zguga qaradim, mening bittayam sochim oqarmapti.

Bu mavzudagi suhbatga yana qaytishi Xege istamasdi.

— Xo'p yaxshi, — deb ukasining gapini cho'rt kesdi.

— Sen bunga xursand emasmisan? — hayron bo'ldi.

— Xursandman, albatta, — bamaylixotir javob berdi u.

— Xursandligingni ko'rmayapman, men boisam o'ylovdimki...

— Voy-ey! — deb yubordi Xege.

U shu ondayoq jim bo'ldi. Opasidagi o'zgarishdan u esankirab qoldi.

— Nima bo'ldi? — qo'rqa-pisa so'radi u. Nihoyat opasi o'rnidan turdi.

— Oh, Mattis, Mattis!

U opasidan hadikli ko'zlarini uzmasdi.

— Ha, nima, gapirsang-chi!

— Buning xursand bo'ladigan yeri yo'q, muncha shu sochlarga yopishib qolmasang.

— Xursand bo'lish yo bo'lmaslikning bunga nima aloqasi bor? Nima, biz xursandchilik qilyapmizmi? — hayron bo'di u. Qayoqdagi g'aroyib gaplarni gapiradi-ya.

Xege xuddi dahshatga tushganday nochor ahvolda ukasiga ko'z tashladi. Tezlik bilan bu holning oldini olish kerak: hozir Mattisning gapdan chalg'itilmasa, kc m unga bas kelib boimaydi.

— Biz doim katta xursandchiliklar ichida yashaymiz, sen shunchaki unutib qo'yibsan! — dedi u, xuddi kallasiga mixlagunday uqtirib. — Bir eslagin-a. Biz har kuni xursandchilik qilamiz-ku!

Mattis qattiq siqildi, ammo:

— Qachon? — deb so'radi.

— «Qachon» deganing nimasi? — qat'iyat bilan so'radi opasi.

So'ng yana ukasiga tashlandi. U boshlangan gapni to'xtatishi kerak edi.

— O'zing bir kallangni ishlatib ko'rsang-chi, — dēdi Xege har doimgiday zaharxanda qilmasdan. Kichkinagina jussasiga qaramay, opasi o'z so'zida qat'iy tura olardi.

Mattis:

— Men shundoq ham doim jon-jahdim bilan o'ylayman, — deb javob berdi.

— Demak, sen jūda ko'p xursandchiliklarni eslashing mumkin!

Ukasi xayolga cho'mdi, javob bermadi.

Xege hujumni davom ettirdi. Ukasida hech qanday shak-shubha qoldirmaslik uchun, uning xayollarini boshqa yoqqa burib yuborish kerak edi.

— Hayotimiz boshqalarga nisbatan xursandchilikka boyroq!

— Rostdanmi? — dedi u eshitilar-eshitilmas jonsiz ovozda

— Albatta, — dedi opasi. — Sen buni unutmasliging kerak.

Ortiq hech nima demadi. Mattis boshini ko'tardi, ammo e'tiroz bildiradi. Xege jūda aqlli, quvonch nima-yu, uning aksi nimaligini juda yaxshi tushunadi. Bekorga bahslashib, tentakligingni ko'rsatmaganing ma'qul. Xege ukasiga achchiqlanib qarab turardi.

— Men bo'lsam bilmas ekanman, — deb g'o'ldiradi u.

Birdan Mattisning chehrasi yorishib ketdi.

— Qanday yaxshi bo'ldi-ya buni menga aytganing! — dedi xursand bo'lib.

— Nimaga?

— Men o'zim buni anglab yetmaganimdan keyin... Mattis terisiga sig'may ketib, yoyilib jilmaydi.

— Darrov ketyapsanmi? — deb so'radi.

Javob o'rniga Xege bazo'r bosh qimirlatib, uyga kirib ketdi.

4

O'sha oqshom Xege odatdagidan ertaroq yotdi. Nima bo'lgandayam har qalay uyiga barvaqt kirib ketdi. Mattis buning boisini so'ramoqchi bo'lgandi, ammo savol berib ulgurmad, opasi:

— Bo'ldi, bugunga yetar, Mattis, qolganini ertaga gaplasharmiz, — deb sabrsizlik bilan uni to'xtatdi.

Opasining ovozida shunday bir narsa bor ediki, Mattis gap nimadaligini bilish niyatidan qaytdi. Xegening kayfiyati yaxshi emas, shuning uchun ketib qoldi. Balki behuda gap aytib yuborgandir. Balki oqargan sochlar daxldordir bunga? Nahotki, hamma gap opasining qarib qolgani-yu, sochlariga oq oralaganida bo'lsa? Lekin uning aybi nima?

Xege uni boqardi, g'amxo'rlik qilardi. Muhimi, u juda aqlli edi, shuning uchun Mattis uni chuqur hurmat qilardi.

U ortiq bir so'z ham demasdan yotog'iga kirib ketdi. Mattis esa eshik yonida har xil xayollar bilan serryib qoldi.

Ertaga ertalab chorbog'ma-chorbog' yurish, qayerdan bo'lmasin, qanaqa bo'lmasin, o'ziga munosib ish surishtirib topish kerak, o'yladi u, va shu ondayoq uni oldindan o'kinch qamrab oldi.

Gap shunda, Xege mana shundan norozi. U necha yildan buyon meni boqadi. Qirq yildan buyon, dedi va shu tariqa Xegening xizmatlarini kamsitmay hisobni yaxlitlab qo'ya qoldi.

U meni boqqani boqqan.

Bu so'zlar terakning po'stlog'iday achchiq edi.

Yildan yilga, qayta-qayta u buni eslashi kerak, takrorlashi kerak. Bugungiday, yolg'izlikda qolgan paytlarida, ayovsiz ravishda buni takrorlashga o'zini o'zi majbur qilar, ularning achchiq ta'mini totardi. Va bular u bilgan so'zlar ichida eng achchiqdan ham achchiqrog'i edi.

Ertaga ertalab ish qidirishga ketaman.

Agar hech nima xalal bermasa, qo'shimcha qildi u, nomusli yigitlar qatoridan joy olaman.

Uning g'ira-shira xotiralari aro u ishga kirishga uringan paytlarida yuz bergan ko'p voqealar saqlanib qolgan edi. Bu voqealar chorbog'larda, dalada yo o'rmonda yuz berardi. Uning ishlariga har doim nimadir xalaqit berar, shunga qaramay u biron marta ham bundan saboqchiqarib ololmagan edi. Qishloqda endi hech kim unga ish taklif qilmas edi. Hamma ish qo'lidan keladigan bu odamlar, unga qo'lidan hech narsa kelmaydigan notavon deb qarar, aksariyat unga ish berganJaridan pushaymon bo'lib qolardilar. U, uyiga quruq qaytar, qo'lida hech nimasi bo'lmas edi. Xege bunga ko'nikib ketganidan hech qachon jahli chiqmasdi. Ammo Mattis opasi uchun og'iryuk edi. Va u buni tushunardi.

Ertalab u o'zini qo'lga olib, chorbog'u tomorqalaridan o'ziga ish qidirib ketishi kerak.

— Axir, qachondir mening ham qo'limdan ish kelishi kerak-ku, — u alam va qat'iyat bilan bo'shliqqa qarab gapirdi. — Men ishlashim kerak, meni deb Xegening sochlari oqardi, qarib ketdi bechora.

Bu fikr uning tinchini buzdi:

Xegening sochlari meni deb oqardi.

Nihoyat unga bor haqiqat ayon bo'ldi! V o'zidan judayam uyalib ketdi.

Vaqt o'tib borardi. Mattis odatda bunaqa kech yotmasdi. Negadir uyga kimgisi yo'q, xayollari unga tinchlik bermayotgan edi. Odamning ichini bir nima kemirayotganda, u yonboshdan bu yonboshga ag'anab to'lg'onishdan yomoni yo'q. Balki Xege ham uxlamayotgandir. U meni ko'rmaslik uchun yotog'iga erta kirib ketdi.

— Bunaqa qilig'ini yoqtirmayman, — Xege devor ortidan eshitadigan qilib baland ovozda gapirib yubordi. U juda xafa bo'lgan edi.

Shu payt to'satdan kelgan bir o'y butun vujudini teshib o'tdi.

Faqat meni tashlab ketma! — degan iltijo boshida aylanardi. Bu iltijo yotoqxonasida yotgan Xegega qaratilgan edi. Sengami, mengami, qay birimizga nima bo'lsa bo'lsin, faqat meni tashlab ketma!

Bu unchalik yangi fikr emasdi, ammo har gal hozir kelgan xayolday unga yangitdan azob berardi. Xege biron marta og'iz chayqab uni tashlab ketish haqida so'z ochmagan bo'lsa-da, ko'ngliga bunday o'ylar qaytib kelaverar va u har vaqt ularni haydash bilan o'zini o'zi ovutardi. Nimaga bunday gumonlar bilan o'zimni o'zim qiynashim kerak?

Shunga qaramasdan uning ko'z o'ngida doim bir manzara gavdalanar — Xege o'z yo'lida uzoqqa ketib borayotgan bo'lar edi. U lashlushlarini bir bo'g'chaga bog'lab, qo'ltig'iga qistirgancha ketib borardi. Ketyapsanmi? Ha, Mattis.

Bunaqa hayot joningga tegdimi?

Ha, Mattis.

So'ng ketardi.

Xege o'z yo'lida ketarkan, boshqa so'z eshitmasdi, undan yiroqlashgan sari kichrayib borar, olisdan kichkina nuqtaday bo'iib ko'rinardi. Bu g'urbat o'yinda har qalay u butunlay yo'q bo'iib ketolmasdi.

Mana shu yerga kelganda birdan mo'jiza yuz berdi. Mattis, Xegening o'z yo'lida ketib borishiga qarab o'ylab o'tirarkan, — aslida o'zining odatiy o'rni — eshik oldidagi kursida o'tirardi, — nigohlari ko'l ortida qorayib turgan tog' yonbag'irlari bo'ylab suzdi. Endi suvlar butunlay qop-qora, yonbag'irlar esa qorong'i, vahimali bo'lib ko'rindi. Osmonda va yerda sirli yoz zulmati hukm surardi. Mattis tevarak-atrofning beqiyos go'zalligiga befarq emasdi.

Ularning uylari tog' yonbag'rini to ko'lgacha kesib o'tuvchi, botqoqlashgan, unchalik chuqur bo'lmagan soyliqda edi. Ignabargli daraxtlarga burkangan o'rmon birda qayinzor, birda terzakzorlar bilan navbatma-navbat bo'linib borardi. Soyliqning eng tubida bir jilg'acha oqib yotardi. Gohida Mattisga bu joylar u ko'rgan boshqa joylarga nisbatan eng go'zali bo'lib tuyulardi.

Balki u hozir ham shuni o'ylayotgandir — har qalay uzoq-uzoqlarga termulib, g'ira-shira qorong'ilikning u otini bilmagan nafis allanimaga aylanishini kuzatardi.

Ayni shu lahzada kutilmagan hodisa yuz berdi.

Mattis, u taraflarda shabada ohista-ohista esadi, deb o'yladi, quruqshagan teraklarning tun osmonida qorayib turgan uchlariga qarab. Ularning orasidan bir nima otilib chiqqanday bo'ldi, havo shu qadar tiniq ediki, Mattisga go'yo bu harakat rostdan ham ko'ringandek tuyuldi. Bu shamol emas, allaqanday havo oqimi

edi, holbuki, tevarak shu qadar sokin ediki, qurimagan teraklarning bironta yaprog'i hatto hilpiramay qotib turgandi.

Kutilmaganda g'alati bir zaif ovoz tug'ildi. Noaniq bir chorlov. Mattis boshi uzra osmonda bir tekis qanot qoqayotgan bir qushning hadikli parvozini ko'rib qoldi. Keyin yana notavon bir qush tilida sokin chorlov ovozi eshitildi.

Shundoq uylarining ustidan nimadir g'irillab o'tdi.

Go'yo Mattisning ichidan o'tganday bo'ldi. U bo'shashib, esankirab, tilsiz hayrat qo'ynida nafasini ichiga yutib o'tirardi.

Bu, balki, qandaydir g'ayritabiiy, ilohiy narsadir?

Yo'q, tabiiydan ham tabiiy, eng oddiy narsa edi, lekin...

Bu — o'rmon qushi — loyxo'rak edi. Kechaning shunday bir daqiqalarida bu oddiy hol bo'lishi mumkin emas: Mattisning uyi ustidan loyxo'rak juft izlab o'tdi-ya!

Qachondan beri o'tarkin?

Oldingi yillar bu yerda loyxo'raklar juft izlamasdi. Balki, izlasa izlagandir, ammo Mattis esini tanigandan buyon bunday hodisani hech ko'rmagandi. U deyarli har oqshom eshik oldidagi mana shu kursida soatlarcha o'tirardi, agar bu verlarda loyxo'rakning juft izlashi yuz berganida, buni albatta nazardan qochirmagan bo'lardi.

Bugungi oqshom loyxo'rak to'ppa-to'g'ri uylari ustidan, Xege bilan uning ustidan juft izlab o'tdi-ya. Endilikda bu verda har tong va har oqshom juftiga qarab suzib o'tadi u.

Mattis o'z uyiga nazar tashladi, uy o'zgarib qolganga o'xshardi, endi u bu uyga boshqacha nazar bilan qaradi. Juft izlash hodisasi uning dunyosi hududidan tashqarida, yuksak-yuksaklarda yuz beradigan qandaydir g'ayrioddiy, mo'jizaviy bir hol edi. Bugun esa ko'rdiki, mana shu yerning o'zida ekan, loyxo'rak indamaygina uchib keldi-yu, shu yerni makon qildi-qo'ydi.

Ehtimol, faqat unga shunday tuyulgandir? Mattis, o'z boshida bunday voqealar bo'lib furishini bilardi. Ammo, ajabo, juftlashish uchun loyxo'raklar har yili har xil joydan makon izlasharmikin? U hech qachon hech kimdan bungā o'xshash gaplarni eshitmagan edi. Loyxo'rak nima uchun aynan shu yerdan juft izladi ekan?

Mattis nafasini yutib, endi nima bo'lishini kutardi. Agar loyxo'rak chindan ham juft dardida kelgan bo'lsa, demak, u yaqin orada qaytadi. Qisqa muddatli tungi juftlashuv davomida u bir joyning o'zidan bir necha marta u yoqqa va bu yoqqa uchib o'tadi. Mattis buni bilardi. Saharlab loyxo'rak yana o'sha joyning o'zidan juftining yoniga keladi — buni Mattisga bir ovchi hikoya qilib bergandi. Mattis ba'zan qurigan ko'lmak qatqaloqlarida qushlarning tumshuqlari va panjalaridan qolgan nafis izlarni ko'rib qolardi.

U jim poylab turdi, nazarida juda uzoq vaqt o'tganday ko'rindi, endi o'tmasa kerak, deb shubhalana boshladi.

Biroq — jim! — mana u! Lipillayotgan qanotlar, qushning g'ira-shira sharpasi endi ters tarafdin uy ustidan uchib o'tdi. So'ngra g'oyib bo'ldi — mayin qorong'ilik va uyqudagi o'rmon uni o'z qo'yniga yashirdi.

Mattis havajonlanib:

— Juftlashish degani mana shu! — deb qo'ydi.

Bu so'zlarni nima uchun aytdi, o'zi ham bilmaydi. U nimadir deyishi yo nimadi qilishi kerak edi-da... Inchunin bu yerda hech kim uni eshitmas edi.

Uzoq davom etgan bu mashaqqatli vaqt alal-oxir nihoyasiga yetdi — uning tuyg'ulari qanoat hosil qildi.

Shundan keyin eng oldin uning xayoliga kelgan narsa — yugurib borib Xegega hammasini aytish edi — opasi uxlab qolganmi, yo'qmi, baribir, hammasini aytishi shart... Ammo Mattis o'zini tiydi. Ko'rganlari-ning hammasi rost bo'lsa, hozir loyxo'rak uchinchi bora uchib kelishi kerak; Mattis o'ziga ishonqiramasdan, uchinchi galgisini ham kutishga qaror qildi.

Agar uni uchinchi marta ko'rsam, Xege menga ishonishi kerak bo'ladi. Hamma ham ishonishi kerak bo'ladi.

Jim! — yana.

Qaytadan, xuddi boyagiday, tez-tez qoqilgan qanotlar, qorong'ilik qo'ynida sirg'alayotgan soya va o'sha ajoyib, balki, hech kim eshitmagan, eshita olmaydigan tolg'in chorlov sadolari... Shu yerda, naq ularning tomlari ustida, cheksizlik qa'ridan eshitilgan da'vat ovozlari...

Demak, hammasi haqiqat. Hammasi aniq-tiniq. Mattisning endi gumoni yo'q. U o'zini boshqa odamday his qildi.

Xege bo'lsa uyquda.

Endi u ham boshqacha bo'lib qoladi.

6

Xege uyquda. To'qilishi g'oyatda murakkab bo'lgan sakkizta guibargli qancha-qancha koftalarni yashin tezligida to'qib tashlaydigan Xege shunday pallada uxlab yotipti-ya! Mattis doim birinchi o'rinda bo'lib kelgan opasining o'zidan usrunligiga shu tobda unchalik ishongisi kelmas, o'zini undan ustunroq qo'yishga moyil bir holatda edi.

U tapir-tupur qilib hovliqqancha opasining yotoq-xonasiga kirdi.

Bu g'irt tentaklik edi. Xege yotganiga ancha bo'lgan — hozir uxlab ham qolgandir — u esa opasini shunday bemahalda uyg'otdi. Xegening jahli chiqdi.

— Yana nima bo'ldi? — deb to'rsilladi u, hali Mattis bir og'iz so'z bilan yuragidagi bor gaplarini to'kib solmasdan turib. Mattis opasining ovozida bunaqa dag'allikni ko'p eshitgan edi. Ha, to'g'ri, u opasining xonasiga tapir-tupur qilib bostirib kirganida u uxlayotgan edi. Ammo Mattis opasi bunday dag'al muomala qilsa, biror lahza o'tar-o'tmas yana o'zini qanday tutishini ham bilardi. Xege dag'al savolidagi keskinlikni yumshatish uchun, aybdorlarcha bir yo'talib qo'ydi.

— Nima deysan, Mattis? — dedi ohista, uzncoh va horg'in ovoz bilan.

— Uyimizning tepasida o'rmon loyxo'rasi uchib yuripti! — dedi o'zini qo'lga olib. Xegening karavoti yonida turgan Mattis o'zini deyarli yot odamday his qilardi. Xege uning hayajonlanayotganini darhol payqadi. Allaqanday zavq-shavq ta'sirida Mattisning tili tutilib qolayotgan edi. Ukasi boshlab keladigan mo'jizalarning hammasi Xegega yod bo'lib ketgan edi. Ular tezda xira tortib, ajoyibligini yo'qotardi.

— Loyxo'rak uchib yuriptimi? Yaxshi bo'пти, jūda yaxshi. Bor, uxla, Mattis, — dēdi u bamaylixotir.

Mattis hayron bo'lib qoldi.

— Boraqol, yotib uxla, — uning yuzidagi hayratni payqab, Xege o'z so'zini mayinlik bilan takrorladi.

Mattis, hafsalasi pir, qotib qoldi.

— Sen nima deganimni eshitmadingmi? Loyxo'rak juftlashuv yerini o'zgartiribdi, endi u uyimiz ustidan uchyaпти! Aynan shu tobda. Sen o'rningda yotganingda.

Xege awalgiday qilt etmasdi, ko'rinishi ham xotirjam edi.

— Hammasini eshitdim. Xo'sh, nima bo'пти? Nega endi loyxo'rak bizning uyimiz ustidan uchmasligi kerak?

Mattis opasini tushunmasdi. Go'yo begona tilda gapirayotganga o'xshardi.

— Seningcha, bu ahamiyatsiz narsami? Sen o'zing umringda loyxo'raklar qo'shiluv yerini o'zgartirganini eshitganmisan? Hech odamning ustidan uchib o'tganini ko'rganmisan?

— Men qayoqdan bilay, — Xege salgina yelka qisib qo'ydi.

— Albatta, bilmaysan. Kiyin, hozir tashqariga chiqamiz.

— Tashqariga? Kechasi-ya?

— Ha. Sen ham buni ko'rishing kerak.

— Istamayman!

— Ko'rishing kerak deyapman! Loyxo'rak hali ham juftining ketidan yuripti. Agar senga bu ham qiziq bo'lmasa...

— Albatta, senga loyxo'rakning jufti ketidan uchib yurishi qiziq bo'lsa kerak, mayli, sen ko'raver, men boshqa safar ko'rarman, — dedi u. — Modomiki, qush juftlashuvga shu yerni tanlagan ekan, tamom, u hech qayoqqa ketib qolmaydi. To'g'rimi?

Mattis og'zini ochgancha unga qarab turardi.

— Modomiki, qush juftlashuvga shu yerni tanlagan ekan, hech qayoqqa ketib qolmaydi, — hadik bilan opasining gapini takrorladi u. So'ng nima deyishni bilmay:

— Bu gapni, hammadan aqlli bo'laturib, sen gapiryapsanmi? — deb yubordi.

— Bu bilan nima demoqchisan? — so'radi Xege. Hamon uning ko'zlari opasiga qadalgan edi.

— Demak, sen hech nimani tushunmas ekansan, — dedi u qat'iyat bilan.

Hafsalasi pir bo'lib, boshi qotgan Mattis opasining karavoti yonida turardi.

Xege uning qo'lini ushladi. Bu do'stlik alomati edi. Ammo Mattis shu daqiqada Xegening qanchalar ezilib va charchab ketganini payqamadi. Opasi o'zining yuvilaverib unniqib ketgan ich ko'ylagida yotardi va devorga o'girilib olgandi, ukasiga qaramasdi.

— Kel, qushlarning juflashuvi haqida ertalab gaplashamiz. Hozir yotib uxla, eshitdingmi?

Mattis bunday voqeadan bexabar qolishni kaltabinlik deb hisoblardi.

— Aytyapman-ku senga, modasining chorloviga hozir kelyapti, axir, nahotki, ko'rging kelmasa?! Senga tushunmay qoldim, qanaqasan o'zing, senga nima muhimroq o'zi?

Xegega endi bu ortiqcha edi, toqati toq bo'ldi. Karavotini mushtlab, baqirdi:

— Bunga sening aqling yetmaydi! Anaqalarga o'xshab gapirasan!

Lekin gapi og'zida qoldi.

— Qanaqalarga o'xshab? — qo'rqib so'radi Mattis. Xege unga o'girilmasdan qichqirdi:

— O'z holimga qo'y! Ortiq chiday olmayman! Agar sen hozirning o'zida... Chiqib ket, iltimos! Vaqt allamahol bo'lsa... dam olishimiz kerak, axir!

U devorga qapishib oldi. Mattis, uning yelkalari titrayotganini ko'rdi. Bu manzara uni chuqur larzaga soldi. Garchi nazdida qandaydir aybli ish qilib qo'ymagan bo'lsa-da, o'zini aybdordek his qildi.

Mattis esankirab qoldi. Nahotki u Xegeni xafa etadigan ish qilgan bo'lsa? Aksincha, u opasini bu yangilik bilan xursand qilmoqchi edi-ku! O'zi uchun muhim bo'lgan voqea uning uchun ham shunday, deb o'ylagandi. Loyxo'rak uylarining ustidan jufti tomon uchib o'tyapti-yu, Xegega bo'lsa baribir, avval Mattisni urishib berdi, endi bo'lsa yotgan joyida yig'layapti. Bu — zaiflik alomati va xunuk-ku!

— Qo'ysang-chi, Xege... Men seni xafa qilmoqchi emasdim, men faqat seni...

Xegening achchig'i oshib ketdi:

— Men senga nima dedim! — baqirib berdi yot ovoz bilan.

Mattis bir sakrab tushganda eshik oldiga borib qoldi.

Go'yo Xege uyquda edi-yu, uni uyg'otib yuborishdan cho'chiganday, sekingina eshikni yopib qo'ydi.

Hamma odamlar har xil, sarosimaga tushib o'ylardi, ko'cha eshigicha chiqib. Xuddi Xege ikkimizday har xil.

U hatto menga ishonmaydiyam.

Qasam ichib aytamanki, loyxo'rak da'vatga kelganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Faqat bugun bo'lari bo'ldi — oqshom bitdi.

Ich-ichida allanima, qaytar jafosiga bir qo'shiq aytaylik, deganday bo'ldi. Yo'q, u qo'shiq aytmadi. Oqshom bitdi! — degan so'zlarga qo'shiq yarasharmidi. Men turli uchrashuvlar va kechalarda bo'lganman, bilaman qanaqa paytlarda qo'shiq aytilishini.

Oqshom bitdi. Loyxo'rak sevikli juftini topdi.

Mattis boshini ko'tarib yuksaklarga qaradi, osmonning qush uchib o'tgan joylarida, shundoq uylarining ustginasida endi yorug' bir iz cho'zilib turar edi.

Balki ko'zlari aldagandir, lekin u yerda, yuksaklarda nimadir o'zgargan, osmon endi ilgarigiday emasdi. Ertalab esa, xuddi oqshomdagiday, yana o'shanaqa ajoyib juftlashuv bo'ladi. Mattis Xegeni eshik oldi kursisiga bog'lab qo'yishga majbur bo'lsa-da, Xege tonggi juftlashuv marosimini albatta ko'radi.

Endi hammasi boshqacha bo'ladi, deb o'yladi, uxlagani yotarkan. Mattis o'zining yig'ma divanini yozdi-da, yosh boladay g'ujanak bo'lib yostiqa bosh qo'ydi.

Men ham hammaga o'xshagan odam bo'larman, axir?

Bu o'ydin butun vujudiga bir ilqlik yugurdi.

7

Mattis loyxo'rak voqeasini tushida ham ko'rdi, bu kimning irodasi bilan bo'ldi, ahamiyati yo'q, ammo bu ajoyib tush edi.

Ko'z o'ngida hech nima paydo bo'lmasidan burun, u oldin ularning ovozi eshitdi:

— Biz uchib keldik, biz uchib keldik! Sen shu yerdamisan?

Mattis, albatta, shu yerdaman, deb javob berishi mumkin edi.

Ovoz: «Bu uzoq davom etdi, Mattis, ammo endi hammasi o'zgardi», dedi muloyimlik bilan.

Uy ustida, yuksak-yuksaklarda yop-yorug' bir iz, quyida, naq tom ustida ham, hamma yoqda ham yorug'lik, keyin Mattis aynan o'ziga kerakli ovozni eshitdi. Uy bir zumda ichlari ham ko'rinib yap-yangi bo'lib qoldi.

— Lekin eng asosiysi, bu — uy emas, — dedi Mattis.

Ha, uy emas, eng asosiysi — Mattis. Yorug'lik Mattisni boshidan oyog'igacha qamrab oldi va u tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. U o'zining hozir bo'rtib chiqqan mushaklarini sinab ko'rish niyatida, o'ng bilagini bukkan edi, ular shu qadar taranglashdiki, natijada yenglari tirsillab sitilib ketdi. O'zining dum-dumaloq chiroyli mushaklarini ko'rib, Mattis kulib yubordi.

— O, bu qanday yaxshi, — dedi.

— Kuch-quvvat menga asqotadi, — dedi u va sergaklik bilan atrofini ko'zdan kechirdi.

— Qayerdasizlar? — qichqirdi u.

Ular o'rmon ichkarisiga biqinib, kulib yuborishdi:

— Har doimgi joyimizdamiz.

Kulbalari chindan ham yangi bo'lib qolgandi. Mattis yaqin borib, qorong'i derazadan o'ziga qaradi. Derazada aks etib turgan shunday kuchli, pahlavon yigimi umri bino bo'lib sira ko'rmagan edi. U o'ziga har tarafdin qarab ko'rdi — hammasi joyida.

Mattis kerilib so'radi:

— Ko'ryapsizlarmi?

— Ko'rvapmiz, xavotirlanma, — o'rmon ichkarisidan turib javob berishdi, — faqat senigina ko'rib turibmiz.

— Birpas to'xtab turinglar, — iltimos qildi.

— Nimaga? — bir ovozda so'rashdi.

— Nima istaysan, ayt, Mattis?

— Hozir bo'l, Mattis!

— Ha, ha, xavotir olmanglar, — Mattis ularning so'zlarini takrorladi.

Mattis boshini chayqadi va shu ondayoq miyasi aql bovar qilmas darajada hamma-hamma nodir so'zlarga, qolaversa, qizlarga aytiladigan antiqa va muqaddas so'zlarga to'lib ketganini his qildi. Ilgari uning qarashlari o'zini eplay olmaydigan odamlarning qarashlariga o'xshar edi. Mattis kulib yubordi, yana derazaga qarab, ko'ngliga kelgan bu mardona so'zlardan ba'zilarining aytayotgan yangi tilini ko'zdan kechirdi.

— Hoy, o'rmon ichidagilar! — deb qichqirdi u. — Sizlar tayyormisizlar?

— Tayyormiz, tayyormiz, — javob berishdi ular. — Kim kelsin?

— Ko'nglimga yoqqani kelsin, ko'nglimni oladigani kelsin, — dedi va mushaklarini shunday taranglatdiki, ko'ylagining yenglari so'kilib ketdi.

Bu hammasi ajoyib edi!

— Men senga borishni xohlayman, — deb javob berdi biri unga.

Qolgan ovozlar yo'q bo'ldi-qoldi.

Mana u daraxtlar orasidan chiqib keldi, endi uni hech nima to'sib turmasdi. Mattis uni xayolida ming marta tasavvur qilgandi, ammo u tamoman boshqacha

ekan. Shunga qaramay Mattis uni darhol tanidi va hecham xijolat bo'lmadi. U yaqinlashganda, Mattis muattar bo'y taralayotganini his etdi.

Mattis hali unga qo'l tekkiza olmasdi.

— Bir nima qil, — deb o'tindi. U darhol Mattisni tushundi.

— Yaxshi. Qara!

U qo'lini sal qimirlatgan edi, hammayoqni qushlar sayrog'i tutib ketdi.

— Bilaman, sen oqshomgi qo'shiluvdan yaralding, — gap boshladi Mattis. — Sen anchadan buyon mening xayolimdasan. Aytadigan gaping bo'lsa, hoziroq ayt.

— Aytaymi?

— Ha.

— Yo'q, ortiq so'zlagim kelmayapti.

Mattis tikka uning ko'zlariga qarab, ohista chap qo'lini bukdi, yengi tirsillab chok-chokidan so'killib ketdi, Bo'rtib chiqqan silliq mushaklari shundoq uning ko'z o'ngida quyoshda yiltirab ketdi.

— Hechqisi yo'q, — dedi Mattis. — Ko'ylaklarim ko'p.

— Chapaqaymisan? — U hayron bo'lib so'radi.

— Ha yo'q, — beparvo javob berdi Mattis. — Shunchaki o'ng qo'limning yengi boya yirtilib ketgandi.

U boshqa bir so'z ham demadi: Mattisning kuchiga mahliyo bo'lib qolganidan, tili kalimaga kelmas edi. Mattisga xuddi shu kerak edi. U o'z orzusiga yetgan edi. Bundan tashqari, u so'zlarni kerak joyida ishlata bilish qobiliyatiga ham ega bo'lgandi.

— Endi nimaiki xohlasang, qilaver, ixtiyor senda, — dedi u erkanib. — Sen oltin yigit ekansan.

Shunday dedi-yu, unga yanayam yaqinroq keldi.

— Seni nima uchun buncha ko'p kutganim boisini endi tushundim, — dedi Mattis.

Unda bir sir bor edi va bu sirni Mattisga ochmoqchi bo'lib, indamay turardi. Faqat yanayam yaqinroq keldi. Avvalgi safar u qo'lini sal qimirlatganda, hammayoqni qushlar sayrog'i bosib ketgan edi, endi bo'lsa o'zi ham tebrana boshladi, bu qandaydir afsungarlik edi.

U qimirlay boshladi, Mattis nima bo'lganini tushunmadi. Bunga izoh yo'q edi. U faqat yanayam yaqin keldi. Oqshomgi juftlashuvdan dunyoga kelgan bu mo'jizaviy zot Mattisni o'z komiga tortdi.

Xege odatdagiday birinchi bo'lib turdi. Mattis ham uyg'ondi-yu, o'rnidan turmadi, ko'rgan tushining ta'sirida yotardi. U, Xegening o'z xonasida kuy-malanayotganini, nihoyat chiqib kelganini eshitdi. Mattis tez devor tomonga o'girilib, o'zini uxlayotganga soldi. Bu kechagi alamli kunni eslab qilingan injiqlik edi.

Xege hech nima bo'lmaganday oshxonaga o'tib ketdi. Uning asablari tarang tortilgan edi. Lekin shu zahotiyuq ishga kirishdi. Tezda odatdagi ertalabki tovushlar — idishlarning taraqa-turuqi yangray boshladi.

Mattis, endi hammasi boshqacha bo'ladi, deb xayolan osmonlarda parvoz qilardi. U kiyinib, ust-boshini tartibga soldi. Oqshom chog'idagi juftlashuv voqeasi hamda tunda ko'rgan tushi go'yo uni ikki tomonidan tutib ko'kka ko'tarib ketganday, o'zini juda boshqacha his qilardi. Mattis quloq tutdi: balki bugun ham biror bo'lakcha voqea yuz berar. Endi hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketgan bir vaqtda uni qandaydir bir xush-xabar va bir og'iz shirin so'z kutayotgan bo'lishi mumkin.

Yo'q, hozircha hech nima bo'lmadi. Ammo bugungi kun o'tgan barcha behisob kunlarga o'xshamasligi kerak va buning uchun uning o'zi jon koyitishi lozim edi.

— Oltindan qimmat, — dēdi u Xegega, oshxona ostonasida to'xtab. U «Tonggi fursat oltindan qimmat» degan eski bir maqolni salom-alik o'rnida ishlatmoqchi bo'lgandi.

U qat'iyatsiz bir ahvolda edi. Opasining kecha yig'lagani hali Mattisning ko'z oldidan ketmagan edi. Axir, Mattis tufayli devorga o'girilib yig'lagandi-ku!

Shundan keyin u darhol o'sha tushni ko'rdi!

Nima bo'lgan taqdirda ham, Xege uxlab turgan va endi xayoli boshqa yoqda edi. Kichkinagina, chaqqon opasi stol yonida tippa-tik turgancha, non kesardi. U, kechqurungi voqea taassurotlarini silliqlash uchun, atay o'zini beparvo tutardi.

Xege ukasining g'alati salomlashuviga:

— Kayfiyating yaxshi-ya? — deb javob berdi. Mattis ichida kulib qo'ydi.

— Nega bunday deb o'ylading?

— Axir, shunday emasmi?

— Shunday, lekin sen negaligini bilmaysan, — dedi. Xege kechagi voqea to'g'risida so'z ochmadi. Lekin baribir xavfli mavzuga til tekkizishga jur'at etdi.

— Menimcha, bilaman: sen bugun kechagi gaplarimizni amalga oshirishga urinib ko'rasan. Ya'niki biz uchun oltindan qimmat bo'lgan narsani.

Eh, bugun ish qidirishga va'da berganini tamoman unutibdi-ku. Ammo Xege, bundan chiqdiki, unutmabdi. Uning quvonchiga ko'lanka tushdi.

— Topolmading, — dedi u.

— Sen shunday qilmoqchi eding-ku, to'g'rimi?

— Uyimizning ustidan loyxo'rak o'tdi! — deya opasining gapini bo'ldi u, kayfiyati nima sababdan o'zgarganini izohlab. Shunaqanggi quvonarli hodisa yuz bergan bir paytda, qishloqda ezilib ish izlashning nima keragi bor?

Lekin Xege uning kayfiyatiga sherik bo'lmadi.

— Xo'sh, nima bo'пти? — so'radi u. — Loyxo'rak juftlashgani bilan bir narsa o'zgarib qoldimi?

— Xo'sh... bilmadim... Sen chindanam hech nima tushunmayapsanmi?

Mattis har doimgidan ko'ra dadilroq edi, ammo bundan hech qanday naf chiqmadi.

— Tamaddi qilib ol, — dedi Xege.

Mattis tamaddi qila boshladi. Uning xayolidan ko'rgan tushi ketmasdi. Mayli, hozir nonushta qilib olsin, keyin bo'lgan voqeaning muhimiigi, buni Xege tushunishni istamayotganini uning kallasiga quyib qo'yadi.

— Ihm! — birdan u kinoyali ohangda tomoq qirib, polni uch marta boshmog'i bilan tepib qo'ydi.

— Ha, nima gap?

— Buning senga ahamiyati yo'q.

— Menimcha, ahamiyati bor, — dedi Xege. — Ko'rinishingdan, menga bir nimani ayta qolsam deb turibsan.

Mattis indamay tanovul qilib o'tirdi, nihoyat sabri yetmadi.

— Odam istasa, nimalar tushiga kirmaydi, — dedi u. Uzoqdan boshlanadigan gaplarga Xegening toqati yo'q edi.

— Ha-a, demak, tush ko'ribsan-da? — deb so'radi, go'yo buning hech qanday ahamiyati yo'qday.

— Ihm! — Mattis yana kinoyali ohangda tomoq qirdi.

— Bo'пти, gapirib ber, bir nima aytging kelayotganini ko'rib turibman, axir!

Bu gaplardan keyin Mattisning tushi yanada aniqroq, yanada ahamiyatliroq bo'lib ko'rindi. Bamisoli o'ngida bo'lganday.

— Nima tush ko'rganimni aytib beraymi? Xege boshini liqillatdi.

— Bunday qilolmayman, — deya Mattis opasiga mag'rur qaradi.

— Demak, sen hech qanday ahamiyati yo'q tush ko'ribsan, — dedi Xege qaysarlik bilan va unga usti g'adir-budur qahvaqaynatgichdan qahva quyib berdi. Xege endi boshqa narsa to'g'risida o'ylay boshlagan edi.

— Andishali odamlar, bunday tushlarni gapirmaydilar. Bilib qo'y, — dedi Mattis.

— Shunaqa degin?

— Meni qiyin-qistovga olganingdan foyda yo'q. Shuni yaxshi bilib qo'y.

Xege zarracha bo'lsa ham qiziqsinmadi, ustiga ustak:

— Quvonaver, tushlarning doim teskarisi bo'ladi. Odamning tushiga bo'lmag'ur narsalar kiradi, — deb Mattisning ustidan bir chelak suv quyganday bo'ldi.

— Yolg'on! — xitob qildi Mattis.

U opasining so'zlaridan bir seskanib tushgandi. Opasi atayin uni ranjitmoqchiday tuyuldi. Masala shundaki, Xege nima haqda gap ketayotganini bilmaydi.

— Nega sen bunday shumnafassan-a? — hayajonlanib so'radi u, so'radi-yu, ishtahasi ham bo'g'ildi-qo'ydi.

U shasht bilan o'rnidan turgan ham ediki, stolning bir tomoni ko'tarilib tushdi, chinni finjon ag'darildi va qahva to'kilib ketdi.

— Obbo, Mattis, hamma yoqni iflos qilib, ish orttirding-ku!

— Bunga kim aybdor?

Qilg'ilikni qilgan o'zi-ku, menga to'nkashini qarang! Nahotki, shuni ham tushunmayotgan bo'lsa?

— Doim kayfiyatimni buzasan!

— Mayli, Mattis, o'zingni bos. Mattis o'ziga keldi.

— Hechqisi yo'q, endi bu yerda hamma narsa o'zgaradi, hamma narsa. O'zgarish kecha kechqurundan boshlangan.

Xege kecha kechqurun qaysarlik qilgani esiga tushib, afsuslandi.

— Jahl qilma. Bugun kechqurun sen bilan loyxo'raklar uchrashuvini tomosha qilgani chiqaman.

— Ammo endi bu birinchi kundaqa bo'lmaydi. Xege ukasi bilan bahslashib o'tirmasdan, dasturxonni yigishtirdi, so'ng koftaning qolganini to'qishga tutindi. Ayni chog'da zimdan Mattisni kuzatardi. Mattis buni sezdi va:

— Senga yana nima kerak? — dedi cho'rt kesib.

— Ish qidirishga bormasmikansan, deb qarab turibman. Va'da berganding-ku.

U shafqatsiz edi.

— Ha, lekin loyxo'rak...

U chekinadiganga o'xshamasdi.

— Hech qaysi qushlar, hech qanaqangi juftlashuv senga yordam bermaydi. Va'da berdingmi, bas, borib ish qidirishing shart.

Mattis hayiqdi. O'z so'zida qattiq turib olibdimi, tamom, Xegeni ko'ndirolmasligi aniq. Nahotki, opasi ish qidirishdan ham og'ir azob yo'qligini bilmasa? O'tirgan joyidan irg'ib turib ketgan Mattis xavotirlanib so'radi:

— Loyxo'raklar juttlashuvidan keyin ham uyimizda hech nima o'zgarmasmikin?

— Biz bo'sh kelmasligimiz lozim, buni ming marta aytganman.

— Senga aytish oson. Mattis o'ylanib qoldi.

— Nega mening yenglarni yirtib yuboradigan kuchli mushaklarim yo'q? — dedi Mattis shikoyatli ohangga to'la baland ovoz bilan.

Xege javob bermadi.

- Sen hech qachon mendan so'ramaysan! — deya davom etdi hayajon bilan.
— Nima haqida?
— So'rash mumkin bo'lmagan narsalar haqida.
— Bo'ldi qil, yetar, — Xege keskinlik bilan javob berdi.

Bu ikkalasining ham nozik joyi edi.

- Menga ruxsat ber, ertagacha kutay... — iltimos qildi Mattis, ish qidirib borsa qo'shni qishloqdagilar uni qanday mazax qilishlarini ko'z oldiga keltirib. Xege doim mehribon opa bo'lib kelgan, faqat keyingi vaqtlarda uning ham toqati toq bo'lib, birdan achchiqlanadigan bo'lib qoldi.
— Nega desang, bugun — boshqacha kun. Tushunasanmi?
— Mayli, — dedi Xega. — Ertagacha kutamiz bo'lmasa.

9

Bugun — bugun edi.

Mattis uylari atrofida aylanib yurardi.

Tushimda uchta bebaho xazinam bor edi, o'yladi u: aql, kuch, muhabbat.

Uch jihatdan boshqacha edim.

Yozning tiniq bir tongida uylari atrofida tentirab yurardi. Hozir, albatta, Xege u ish izlab ketmaganiga uyda arazlab o'tiribdi, mayli, arazlasa arazlayversin. Yangilik axir nihoyatda u bilan bog'liq, nihoyatda ahamiyatli edi. Yengil shabadalar, sal-pal seziladigan muattar bo'y!ar Mattisni sarhush etardi.

Uch xazina. Erta bilan ular yana g'oyib bo'lgandi. U o'zini aldamasdi — faqat oyog'i ostida yangrayotgan narsalarni esidan chiqarmay, ularning ovozig quloq tutardi. U go'yo bexosdan klavishlarni bosib olganga o'xshar, tuproq ostidagi yashirin musiqa yangray boshlagandek tuyulardi va bu musiqa maftunkor, hatto ushlab ko'rsa bo'ladigan darajada jonli edi.

Uch jihatdan boshqacha. Ammo bugun — bu bugun. Xege buni tushunmayotgani qiziq, o'vladi Mattis, ko'l bo'yiga tushib borarkan.

U qirg'oqqa kelib to'xtadi va, boladay, suvga toshlar ota boshladi. Suv oynaday sip-silliq — bugun baliq ovlashdan foyda yo'q edi. Mattis eskirib ketgan qayiqchasiga hatto yaqin ham kelmaganiga vijdoni qiynalgani yo'q.

Uch xazina. Ular Mattis bilan birga, shu vurning o'zida edi. Bugun kechasi uning o'zi o'zgardi. U orzu qilgan narsalarning hammasi, o'z xohishi bilan vujudida paydo bo'ldi.

Mattis suvga mushtday-mushtday toshlarni otar, uning ko'zlari ma'yus, ammo nam emasdi.

— Mattis! Tushlikka kel! — Xege eshik oldidan uni chaqirdi.

Mehribon ayol ovozi.

Uch bebaho xazina sarosimada qoldi.

Xegening «tez kel!» deyishiga hojat yo'q edi. Mattisni ovqatga chaqirganlarida sira kuttirib qo'ymasdi. U tezgina yonbag'ir bo'ylab tepaga ko'tarildi va dasturxonga o'tirdi.

— Bundan keyin ovqat bo'ladimi-yo'qmi, bilmayman, borida yeb ol, — dedi Xege, unga tovoqni uzata turib.

Ish qidirishdan bosh tortgani uchun opasi uchiriq qilayotganini Mattis tushunib turardi. Xege undan achchiqlangan edi.

— Agarda odam uch jihatdan o'zgargan bo'lsa-chi! — dedi lunjini to'ldirib.

— Uch jihatdan? Bu nima deganing?

— Bu sen bilishing shart bo'lmagan narsaga bog'liq. Qizlar bilan va yana...

— Tushunarli.

— Sen qanday bo'lsang o'shandaysan, hech qachon boshqacha bo'lolmaysan, — dedi Mattis jahli chiqib. — Sen buni tushunmaysan.

— Ha mayli, — rozi bo'ldi Xege. — Xo'sh, shunday qilib, ertaga ishga borasanmi? Munchayam bir so'zli va kallavaram, deb o'yladi u. Biroq ikkimizni boqadi.

— Avtdimmi, demak, boraman, — deb javob berdi Mattis, ammo kuchli va epchil ishchilar yonida o'zining ojizligini o'ylab, birdan siqilib ketdi.

Xege yana koftasini to'qishga tutindi.

— Bugun qushlar uchrashuvini ko'rasanmi? Ertalab va'da berganding, — Mattis devarli yalingan ovoz bilan so'radi.

— Faqat bugun emas, ular uchrashuvga juda kech kelarkan.

— Ertalab ko'rishni xohlaganding-ku...

— Men buning uchun uyquga to'yib olishim kerak, — Xege so'zida qat'iy edi.

— Agarda sen boshqa hecham uyg'onmasang-chi? — qaysarlik bilan so'radi Mattis. — O'shanda sen judayam achinasan.

Xegening ichi jimirlab ketdi. Mattis nimagadir bu so'zlar opasiga qattiq botganini tushunmadi.

— O'chir ovozingni!

Mattis qo'rqib ketib, eshikka urilganча tashqariga otildi. Opasi orqasidan allanima deb javraganча qoldi.

Kechqurun Mattis eshik oldiga chiqib o'tirdi, barmoqlari tek turmas, yuragi taka-puka edi. Xege aytganini qilib, yotib uxladi.

Kutilgan vaqt ham yetib keldi, juftlashuv marosimi boshlandi.

Tanish ovozlari yangrab, shovqin ko'tarildi, qanotlarini shiddat bilan silkitib o'rmon loyxo'ragi mayingina uchib kelardi.

U tunning yengil havosi bag'rida qo'shiqday parvoz qilar, qanotlari esa naq Mattisning yuragiga kelib urilardi. Go'yoki anglashilmas bir mayinlik qorong'ilik

qa'ridan kelib teginib ketayotganday edi. Mattis bundan o'zida yo'q xursand edi. Biz joyxo'rak ikkalamiz bir xilmiz, der edi, hech gapdan hech gap yo'q.

Xursandligidan o'z-o'ziga so'z berdi: modomiki Xege istayotgan ekan, ertaga ish qidirib ketaman, jala bo'lmasa albatta. Momaqalldiroq baribir momaqalldiroq-da, jala yog'sa men hech qayoqqa borolmayman — Xege buni yaxshi biladi.

Mattis qushning ikkinchi bor uchib kelishini ham poyladi, keyin yoz kechasining issiq tafti hukm surgan xonasiga kirdi va tez uxlagani yotdi. Ammo kechagi tushim takrorlanadi, deb bekor umid qilgan ekan. U hatto o'sha tushga sal bo'lsa ham o'xshab ketadigan biron manzarani — na daraxtzorlar-u na qizlarni ko'rdi.

10

Qurigan Mattis-u-Xege teraklari tonggi quyosh nurlari ostida ko'k toqiga bo'y cho'zib turardilar. Mattis ularning yonidan o'tib ketdi. U lablarini qimtib olgandi: agar hammasi eskicha qolgan bo'lsa, unda nima uchun loyxo'rak juftlashgani uylari ustidan o'tdi? Balki biroz kutish va nima bo'lishini ko'rish kerakdir? Xege bunga yo'l bermadi-ku, axir.

Kechasi loyxo'rak kelib uni qutlagan chog'ida ishga borgisi kelgan edi, endi unda ishlashga xohish qolmadi.

Xegening o'rnida boshqasi bo'lganida, u hech qachon Mattisni dunyoda behuda tentirab yurishga yubormagan, bundan biron ish chiqmasligini tushunib yetgan bo'lardi. Biroq Xegeni o'zgartirib bo'lmaydi. O'zgarishning unga keragi ham yo'q. Shundayligi ko'rinib turibdi.

Mattis sudralib ketaverdi.

Nihoyat o'rmon tugadi va butun qishloq uning ko'z o'ngida namoyon bo'ldi. Bu yerdagi har bir chorbog', har bir tomorqa uning qaysidir omadsiz kunlarini xotirasida jonlantirar edi.

Yo'l gavjum edi. Bu yerlarda yurishga o'rganib qolgan mashinalar odamlarni chetga, yo'l bo'yidagi zovurlarga surib tashlardi, yo'l yoqalari changdan xira tortib ketgandi.

Mattis bu yo'llarda faqat ish qidirib yurmagan. Ba'zi bir paytlar Xege unga pul berib, do'kondan oziq-ovqat xarid qilishga yoki bitkazgan koftasini egasiga berib kelishga yuborardi. Shunday paytlarda ishni silliqqina bajarib keladimi yoki odamni o'rtab yuboradigan mazaxlarga duchor bo'ladimi — u buni hech oldindan bilmasdi.

Tomorqalarda odamlar ishga kirishgandilar. Mattis ularni har bir polizda yo maydonda uchratardi. Yozning boshlanishi. Hozir eng muhimi — o'toq. Odamlar o'zlariga ishongan, kuchli ko'rinardilar, ular uchun ishga borish xuddi yashash va

nafas olishday tabiiy bir hol edi. Birlarining tishlarida chilim burqsir, boshqalari o'zlaricha hushtak chalar, uchinchilari qo'llarini silkib-silkib indamay ishlardilar.

Bo'пти, kerakmi — kerak, mulk sohiblari bilan u ham gaplashib ko'radi, chog'i. Birinchi uchragan tomorqaga kiraversamikin? Yo'q, yo'q. Xo'jayinlar nega bugun xizmatchi kerakmasligiga turli bahonalarni ro'kach qilib, faqat achchiqlanishadi. Mattis bir qator tomorqa yonidan indamay o'tib ketdi. Uning nazarida agar u ish so'ramay o'tib ketsa, tomorqa sohiblari yengil tortadiganday ko'rinar edi.

Ammo-lekin ular men ko'rgan tushni ko'rishlari dargumon, deb o'ylar edi u. Bu fikrdan u terisiga sig'may yayrab ketdi.

Uning ko'nglida ko'p uyatli xotiralar saqlanib qolgan, lekin ular hammasi har xil edi. Bugun ham uchragan ayrim yigitlar bilan birga ishlagandi, buni eslagan-da, yerga kirib ketguday uyalardi. Yigitlar ham tezroq o'tib ketishga oshiqar, jangda yengilgan jangchilar hech nimani eslagisi kelmaganday, bular ham bo'lgan voqealarni unutgilari kelardi.

Bugun hammasi albatta boshqacha bo'ladi. Xege ham, men ham buni bilamiz.

Men hozir uyga burilaman, o'yladi u, o'tgan yili meni tanib qolgan tomorqalarga borolmayman-ku!

Ammo qismatning g'alatiligini qarang: shunday deb o'ylagan zahoti o'ylaganining teskarisini qildi — yo'ldan burilib birinchi tomorqaga kirdi. Nega? Xayolida bir xotira yilt etib uyg'ondi: xuddi shu tomorqada hech qanaqa uyatli ish bo'lmagandi.

Balki bugun shu yerda omadi o'ngidan kelar?

Mattis uy burchagidan o'tishi bilan xo'jayinga to'qnash keldi. Xo'jayinning o'zi, uning yonida esa qo'lda teshalari bilan bir qiz va bir yigit turishar, ular dalada o'toq qilib, so'ng yangi unib chiqqan sholg'omni yaganalashlari lozim edi.

Mattis avvaliga, ularga urilib ketmaguncha, hech birini ko'rmagandi, ular uchun Mattis ham osmondan tushganday edi.

— Assalomu alaykum, senda menbop ish topilmaydimi? — so'radi darhol, hadikli ko'zlarini xo'jayindan uzmay. Bunday paytda eng muhimi — dangallik. U yigit bilan qizga o'zini ko'rsatmaslik uchun, orqa o'girib turishga harakat qilardi.

Xo'jayin ham Mattisning o'ziday dangai javob qaytardi:

— Sholg'om yaganalashni bilsang — topiladi. Mattisning tiliga o'ylagan gapi keldi va yoyilib jilmaydi:

— O'zimam aytdim-a, — dedi u. — Hamma narsa o'zgardimi, demak, aynan shunday bo'lishi kerak.

— Bu bilan nima demoqchisan?

— Aytmoqchimanki, bugun hayotimda hamma narsa boshqacha bo'lishi kerak. Ammo buning senga aloqasi yo'q.

Qiz bilan yigit o'rin almashib, Mattisning old tomoniga o'tib olishdi. Ular bir-birlari bilan ma'noli ko'z urishtirishardi, Mattis bunday nigohlarni yaxshi tushunar, ulardan yaxshilik kutib bo'lmasdi.

— Bu gapim loyxo'raklar juftlashuvi bilan bog'liq, — u xo'jayinga asabiylashib, tez-tez gapirib qo'ya qoldi.

— Loyxo'raklar juftlashuvi bilan?

— Iya, sen bu nimaligini bilmaysanmi?

Faqat shu gapdan keyingina tomorqa sohibi oldidagi odamning aqli noqisligini payqadi, ammo kechikkan edi — u o'z lafzidan qaytgisi kelmadi.

— Men, albatta, loyxo'raklar haqida eshitganman, — dedi u. — Ammo sen, nazarimda, ish so'raganding, shekilli? Hozir men senga tesha beraman, ana undan keyin biz o'toqda va yaganalashda kim o'zdi o'ynaymiz, tushundingmi?

Xo'jayin shunday deyishni lozim topdimi, demak, gap qaytarish mumkin emas.

Mattis anchagina sezgir edi, darrov hammasini payqadi.

— Balki yana kim o'zdiga yugursak ham kerak? — deb so'radi u va xaxolab kuldi.

U, zo'r berib o'z kulgusini odatdagi kulgularga o'xshatishga harakat qildi. Tomorqa sohibi dovdirab qoldi, ammo darrov o'zini rutib olib, Mattisning kulgusiga qo'shildi.

— Polizga kim oldin yetib borishini ko'rging kelyaptimi? — deb uning gapini davom ettirdi.

Ular erkakchasiga hazillasha boshladilar, hazilda goh unisi, goh bunisi ustun kelardi.

— Ish oldidan ovqatlanib olishing kerak, to'g'rimi? — Xo'jayin hazil-huzulni to'xtatdi.

Mattis bosh chayqab:

— Uyimizda ovqat yetarli, — deb javob berdi. Doim shunday deya olsang, qanday yaxshi!

Endi faqat ishni boshlab olsa, bo'ldi. Mattis ham bitta tesha olib, hamma bilan birga sholg'om o'sgan dalaga ketdi. Dala unga cheksiz-chegarasiz bo'lib ko'rindi, oxiri qayoqdaligini ilg'ayolmadi, chunki ekinzorning davomi tepalikdan ham o'tgan, undan u yog'i ko'rinmay ketardi.

Mattis tomorqa sohibiga o'girildi:

— Shuncha sholg'omni nima qilasan? — Uning ovozida salbiy munosabat bor edi.

Chindan ham u buni tushunmas va ma'qullamas edi.

— Ish boshlamasimizdan oldin bu nima deganing? — dedi tomorqa sohibi. Bu gap bema'ni ko'rindi, ammo Tentak Mattis darhol hammasini tushundi va boshini quyi soldi.

Nozik mavzudan uzoqlashgisi kelib:

— Men manavi jo'yakni olsam maylimi? — deya so'radi shosha-pisha. Oyog'i ostidagi jo'yakni ko'rsatdi. Xo'jayin bosh irg'ab qo'ydi.

— O'ylaymanki, Mattis, senga bu ish tanish? Tupchalaming orasi qanchadan bo'lishini bilsang kerak? — Xo'jayin buni so'ramasa bo'lmas edi: yaganalash — muhim ish, hosilning salmog'i shunga bog'liq, mehnat haqi ham shunga yarasha bo'ladi.

— Shuni ham bilmay o'libmanmi, yoshim qirqqa borib qoldi, —javob berdi Mattis. — Uch kam qirq, — deb qo'shimcha qildi yana. Bunday gaplarga sovuq ohang munosib ko'rinardi. Mattis hatto o'z javobidan mag'rur va mamnun edi.

— Shundaylikka shunday-ku-ya, — dedi xo'jayin. — Senga tupchalaming orasini qanchadan qil, deb o'rgatishgan — shuni bilishim kerak. Qani menga ko'rsat-chi...

Mattis tavakkaliga qarichlab ko'rsatdi.

— Yo'q, noto'g'ri, — dedi xo'jayin. — Senga yaganalashni o'rgatgan ustozing o'zi ham buni yaxshi bilmagan ko'rinadi. Ko'rib ol, tupchalaming orasi mana bunchadan bo'lishi kerak.

Mattis yana boshini quyi soldi.

Qiz bilan yigit ko'z urishtirib olishdi. Ular yonma-yon ishlash maqsadida yonma-yon jo'yaklarni egallashdi. Qiz bilan tomorqa sohibi oralig'idagi ikki jo'yak Mattisga qoldi. Bu unga yoqmadi.

— Diqqat! — dedi baland ovoz bilan yigit. — Kim paykal oxiriga birinchi bo'lib chiqarkin? Ketdik!

U qizga nazar tashlab, kulib qo'ydi. Ikkovlari nuqul kulishar va bir-birlariga qarardilar. Buni payqagan zahoti, Mattisning ichida bir gumon uyg'ondi. Ammo og'zaki buymq berildi. Mattisning ishlashdan boshqa iloji qolmadi. U hamma odamlarga o'xshab tez va chaqqon ishlashga harakat qilardi. Jo'yaklarning yonlarini o't bosgan va o'sib ketgan, sholg'om tupchalari oralarigacha hammayoqni qoplab olgandi. Endi ularni ildizi bilan yulib olish va jazirama oftobga tashlash kerak edi. Bundan tashqari ortiqcha sholg'om tuplarini ham yulib tashlash kerak edi, chunki ular haddan ziyod zich bo'lib ungandi. Mattis birda tesha bilan, birda qo'lning o'zi bilan tez va puxta ishlashi kerak edi.

U, ishi uncha yurishmayotganidan, asabiylashar edi.

Tez orada odatdagi ahvol yuz berdi. U doim bir ishga tutinsa, fikrlari bir-biriga chirmashib, tugun bo'lib ketgan ip singari chigallashar, butun borlig'ini chulg'ab olib, ishlashga xalaqit berardi.

Uning xohishlariga qarama-qarshi o'laroq bu chigal fikrlar esini yig'ib olishga yo'l bermay, barmoqlarini chirmab tashlardi, shu tariqa ishi bora-bora susayib ketardi.

Mattisning so'l tomonida xo'jayinning tomoq qirib yo'talgan ovozi eshitildi: u o'z jo'yagiga engashib, bir yovvoyi o'tni tortayotgan va sholg'omlami ehtiyotlab yaganalayotgan edi.

Mattis sergaklandi. Bu tomoq qirib yo'talish, balki hech nimani bildirmasa ham kerak. Odamlar ba'zida hech qanday g'arazsiz ham yo'talishadi-ku!

Shunday bo'lsa-da, asabiyligi borgan sari ortar, qo'llari o'simliklar aro sarosimaga tushib, o'tni emas, sholg'om tupini yulib olar edi. Bir mahal teshada ishlash noqulay ko'rinib, uni tashlab yubordi.

— Men teshaga o'rganmaganman, — dedi u xo'jayinga, — sopi haddan ziyod uzun ekan.

— Tashlasang tashlay qol, qo'ling bilan o'tayver. Bunaqasi yanayam yaxshi — tozaroq chiqadi.

— Yaxshi so'zingiz uchun rahmat, — Mattis chin yurakdan minnatdorchilik bildirdi. U xo'jayinning so'zlarida do'stona xayrixohlik ohangini tuydi. O'ng tarafidagi yoshlar yonida bunday xayrixohlikka juda muhtoj edi.

Birinchi odimlarda ular bilan baravar ishlay oldi. Axir uning ham o'n barmog'i soppa-sog'-ku! Yigit va qiz esa, ish zerikarli bo'lishiga qaramay, bir-biridan ortda qolmasdan kula-kula ishlayotgandilar. Mattis ular bir-birini sevishini allaqachon tushunib yetgandi. Bu Mattisga alam qilar, lekin baribir ulami kuzatish qiziqarli va dimog'ini chog' qilardi. Mattis shu paytgacha sevishganlarni hech bu qadar yaqindan ko'rmagan edi. Qiz Mattisga baxtiyor ko'zlar bilan boqar edi. Mattis qizdan hadiksiramasa ham bo'lardi, chunki u o'zi bilan yonma-yon ishlayotgan yigitni yaxshi ko'rar, Mattisdan kulish esa xayolining bir chetiga ham kelmasdi, u o'z yigitiga xumor ko'zlar bilar qarashdan ortmasdi. Yigitining har bir gapidan zavqlanib kular edi. Nihoyat, u Mattisga ham o'girilib qaradi. Mattis esa buni intizorlik bilan kutardi. Mattis qizning shu birgina qarashidan ta'riflab bo'lmaydigan bir baxtiyorlik his etdi. Qizning hayot jo'sh urib turgan kulcha yuzlari unga xursand bo'lib qaradi.

— Shu iflos dalada faqat biz ikkimiz emas, sen ham kelib ishlayotganing zo'r bo'ldi-da, — dedi u xuddi samimiy gapirganday.

Mattis o'ziga ishongisi kelganday unga ham ishonishga tayyor edi. U dadillanib, bu qizga tashakkur aytmoqchi bo'ldi va ko'nglining tub-tubida asrab kelayotgan bir narsasi bilan uni quvontirgisi keldi.

— Sen loyxo'raklar juftlashuvi to'g'risida biron narsa eshitganmisan? — deb so'radi qizdan. Ular o'z jo'yaklarida bir-birlariga shunchalik yaqin turardilarki, Mattis faqat qizning o'zi eshitadigan qilib past ovozda gapirishi mumkin edi.

Qiz:

— Albatta, eshitganman, nimaydi? — dedi tez va beg'amlik bilan.

— Yo'q, shunchaki aytaman-da.

Umuman olganda Mattis shu chog'da loyxo'raklar haqda o'ylamayotgan edi. Ko'nglini, mana, men qiz bola bilan gaplashyapman, degan xayol band etgan edi. Ehtimol, bu faqat boshlanishidir.

— Ammo loyxo'rak juftlashish uchun uyingning ustidan uchib o'tmagan, to'g'rimi? — davom etdi u, o'zini har qachongidan ham dadil his qilib.

Qiz boshini chayqab qo'ydi, ammo ishini to'xtatmadi: g'ovlab ketgan yashil sho'ra butasini ildiz-pildizi bilan sug'urib olib, oftobga uloqtirdi. Mattis qizdan ortda qolmaslikka tirishar, ayni chog'da ular gaplashishda davom etardilar,

— Sening uying ustidan ham loyxo'rak juftlashgani o'tmaydi, — dedi qiz, umuman uni xafa qilishni xayoliga ham keltirmay.

— Hali bir narsa deyish qiyin, — javob qaytardi Mattis.

Uning ichida hammasi o't bo'lib chirsillab turardi..

— Ha, albatta, — dedi qiz loqayd yuz bilan, u shu topda narigi yonida o'toq qilayotgan yigitning ishiga mahliyo bo'lib qolgandi.

Ortiq juftlashuv haqida gaplashmadilar. Mattis, loyxo'rak haqida juda ustalik bilan gap qistirdim, degan xayolda edi. Bu qiz unga ju da yoqardi, ammo uning yonida do'sti bor edi, shuning uchun Mattis u bilan boshqa gaplasholmadi.

Bunday narsalarda bosiqlik zarur, u buni bilardi. Ozgina gaplashdi — yetadi shunisi ham.

— Men... — U yana gap boshlayotgandi, qiz unga quloq solmadi. Yonidagi yigiti oyog'ining ochiq joyini chimchilab oldi. Qiz shu ondan e'tiboran Mattisning borligini unutdi: go'yo endi Mattis o'toq qilayotgan tarafda hech kim yo'qday edi.

Ha, hayotda hamma narsa boshqacha, tushda boshqacha. Mattis buni endi tushunib yetdi. Hayot har jihatdan ayovsiz — balki suhbat shunday tugagani ma'quldir.

Hammadan yomoni shundaki, bunday mulohazalar uning ko'p vaqtini oladi — oshiq-ma'shuqiar o'z jo'vaklarida Mattisdan biroz oldinga o'tib ketdilar. Tezda ular yanada ilgarilab ketishdi, endi u faqat ularning sirtlarini ko'rardi. Mattis birdan seskandi va xo'jayinga o'girilib qaradi. U yana bir marta seskandi: xo'jayin birvarakay uchta jo'yakni o'toq qilardi. Holbuki, u ham eng oldin hamma qatori o'ziga ikkita jo'yak olgan edi.

— Nega sen bir yo'la uch jo'yakni o'toq qilyapsan? — Mattis o'ylamasdan savol berdi.

— Ha... — xo'jayin dabdurustdan gap topolmadi, — menga shunaqasi qulayroq... umuman, qulayroq. — U, sho'ra bilan oyquloqni bor kuchi bilan yulgan edi, yerdan havoga kesaklar otilib ketdi.

Mattisning xayoli boshqa yoqda edi, xo'jayinga yaqin bordi-da:

— Menimcha, manavilar bir-birini sevishadi. Shunaqaga o'xshaydi, to'g'rimi? — dedi pichirlab.

Xo'jayin bosh irg'adi.

— Sen buni bilarmiding?

— Ha. Ularni shuning uchun ishga olganman, — dedi xo'jayin ham pichirlab va Mattisga ko'z qisib qo'ydi. — Bilasanmi, men doim sholg'om o'tog'i va yaganalashga sevishganlarni yollayman. Sevib qolgan odam, bu ishning zerikarli va og'irligini sezmaydi. Sen bilan mendaqalarning yo'rig'i boshqa, to'g'rimi?

Xo'jayin aqlli edi. U ertalab Mattisni samimiy kutib olgan va hozir ham samimiy gaplashayotgan bo'lsa-da, Mattis undan biroz hayiqdi. Yo'q, tirnoqcha ham hayiqqani yo'q: u bilan bemalol gaplashib o'tirish mumkin, chunki uning o'zi ham o'toq zerikarli va og'ir ishligini biladi.

— To'g'ri, biz bu qanaqa ishligini bilamiz, — dedi Mattis.

— E, buni gapirishga erta, ishni endigina boshladik-ku, — dedi xo'jayin cho'rt kesib. — Charchaydigan vaqtga hali ancha bor.

Mattis yana boshini quyi soldi.

— Gaping to'g'ri, — deb uning fikriga qo'shildi Mattis.

Xo'jayin bir yo'la uch jo'yakni o'toq qilayotgan bo'lsa-da, tez ilgarilab ketdi. Keyin hamma qatori yana ikki jo'yakni tozalashga o'tdi. Shunda u Mattisdan yanada tezroq uzoqlasha boshladi.

— Mem tashlab ketyapsanmi? — zorlanib so'radi Mattis.

— Na iloj? — javob berdi xo'jayin. — Sen ham g'ayrat qil, qarabsanki, menga yetib olasan.

— Menga yo'l bo'lsin, ko'rib turibsan-ku, qancha kavlamay, qolib ketyapman.

— Ihm, — sho'raga qarab to'ng'illadi xo'jayin. So'ngra Mattis orqada yolg'iz qolib ketdi. Bu «ihm» nidosi xo'jayinning so'nggi so'zi bo'ldi. Qiziq. Buni nima deb tushunish kerak? Fikrlari bilan ishi orasidagi masofa ortib borayotgani uchun Mattis yana asabiylasha boshladi. Uning jo'yaklari orqada dumday sudralib qolgan, boshqa o'toqchilar ilgarilab ketgan sari bu dum yanada uzunlashib borardi. O'tog'i bitmagan bunday jo'yaklarni bu yerdagi odamlar «yalqov dum» deyishardi.

Yo'q, bu «yalqov dum» emas, deb qo'ydi Mattis o'ziga o'zi, men tez o'toq qilishni bilmayman, xolos.

Ne bo'lganda ham, bu — Mattis singari har narsadan tez ta'sirlanuvchi odam uchun g'irt sharmandalik edi. Uning o'toq qilinmagan jo'yaklari, ikki yonida tep-tekis sholg'om tuplarini sirtida ko'targancha qorayib turgan qora jo'yaklararo dalada ko'm-ko'k bo'lib ajralib turardi.

Eh, qaniydi endi borgan sari uzoqlashayotgan boshqa o'toqchilarni sal sekinlatishning iloji bo'lsa... Yo'q, ko'ngilsiz voqea yaqinlashmoqda. Xo'jayin

chaqqon va ishchan edi, u sevishganlarga ham tez etib oldi, hozir ular vchovi tepalikning ortiga o'tib, ko'zga ko'rinmay ketishadi.

Mana, tepalikdan o'tib ketishdi.

Endi Mattic hayhotday keng dalada bir o'zi yoppa-yolg'iz qolganga o'xshardi. U o'zini butun dunyoda tanho qolganday his qildi, issiqdan holsizlandi. Quyosh qizdirgandan qizdirar, ko'ylagi issiq badaniga chip-chip yopishib, jirkantirardi.

Muncha oyquloq ko'p bu yerda! — o'ylardi Mattis ijirg'anib. Kimga kerak ekan u? Xuddi boshqa o'simlikyashashga haqsizday, boshqa o'simlik o'simlik emasday! Bu yerda faqat u hokimday!

Mattis endi hech tiklanmay cho'kkalab ishlar, oldinga sekin-sekin surgalardi. Barmoqlari itoatsiz, allaqayoqdagi fikrlarga alaxsib, kerakli ishni qilmas, hatto ba'zida ishlamay turib qolardi.

Bunday hol Mattisga eskitdan tanish, ko'pdan bungā ko'nikib qolgan edi. Qo'lidan kelgancha — qanday o'rgangan boisa shunday ishlardi — kallasida ming xil fikrlar uymalashardi. U tez orada sho'ra o'rniga sholg'om yulayotganini sezib qoldi. Qilgan ishidan cho'chib, sakrab oyoqqa turdi, butun vujudini qaltiroq bosdi.

Nahotki, yana aqldan...

Yo'q,yo'q.

Tepalik tarafda xo'jayin va oshiq-ma'shuqlarning sharpasi ko'rindi — ular endi qarshi tomondan o'toq qilib kelayotgandilar, har birlari ikkitadan jo'yakni o'tdan tozalab kelishardi. Uchovlari ham butun orzu-umidlaridan ayrilgancha mushkul ahvolda turgan Mattisni ko'rishdi. Qiz boshini ko'tarib, qo'l silkitib qo'ydi, lekin bu deyarli sezilmadi, chunki bu — ekinni teshalash oralig'idagi oniy bir harakat edi. Ammo Mattis buni aniq-taniq payqadi, holbuki, hali hech kim Mattisga bunday imo qilmagandi.

Uning menga qo'l silkishi tasodifiy emas, o'zini o'zi ruhlantirardi u, demak, men dadilroq bo'lishim kerak, yonida yigiti bo'lishiga qaramay, jo'yaklarimiz baravarlashganda, u bilan yana bir marta gaplashib olsam yomon bo'lmasdi.

Bir muhlat g'ayratiga g'ayrat qo'shilganday bo'ldi. U egatga cho'kkalagancha yovvoyi o'tlarni shart-shart yulib, tizzasida olg'a siljib borardi. Xato ham qilmayotgan edi. Endi, ular bir-biriga yaqinlashib kelisharkan va Mattis, o'zining nazarida, ishni epchillik bilan ado etarkan, oralaridagi masofa tez qisqarib bordi. Ammo, mana, Mattis o'toqni to'xtatdi va sevishganlarga termildi.

Harholda bular haqiqiy oshiq-ma'shuqlar edi.

Xo'jayin ish orasida ularning qilgan o'toqlarini ko'rib mamnun jilmayar va buning hech qanday ajablanarli joyi yo'q edi. Xo'jayin faqat ularning ishidan xursand edi, deyish uncha to'g'ri bo'lmasa kerak, bu bepoyon dalada sevishganlar ishlayotganining o'zi ham har qanday odamga xush kayfiyat ato etishi turgan gap

edi. Qiz bilan yigit birda haholab kulishar, birda tinimsiz jovillashar, ammo ayni chog'da unumli va tez ishlardilar. Gohi-gohida ular bir-birlariga yaqinroq kelib qolgan paytlari ham bo'lardi, shunda Mattis ularning hech bir harakatini nazardan qochirmas, har bir qadamlarini diqqat bilan kuzatardi: axir, u bunday hollarni hech qachon hech qayerda ko'rmagan edi-da!

Haqiqiy sevishganlar shunday bo'larkan-da! Xizmatchi tanlashda omadi yurishgan tomorqa sohibi ulardan ortda qolmay, o'z jo'yaklarini tozalab borardi. Mattis o'z ishi bilan bu uch insonning ishi orasidagi farqni ko'rdi: uning ko'z o'ngida ular tozalagan jo'yaklar shundoq qop-qora bo'lib yaslanib yotardi. O'zi ishlagan jo'yaklar esa ko'm-ko'k o'tlar ostida ko'zga qarovsiz va xunuk ko'rinardi. Ammo bo'lari bo'ldi: ahvolni tuzatishning iloji yo'q, u gul-gul ochilgan yoshlardan, ularning jo'shqin-toshqin quvonchlaridan, yulduz bo'lib chaqnayotgan baxtiyor ko'zlaridan ko'zlarini uzolmas edi.

Mana, sevishganlar yana Mattis bilan bara vari ashdi-lar. Ularning gangir-gungurlari hamma boshqa ovozlarni bosib ketdi.

Mattis qaddini rostladi.

— Sizlar oshiq-ma'shuq bo'lsanglar ham, men xohlaymanki... — dedi dadillik bilan gap boshlab, ammo ovozi ahvoli mushkulligini bildirib qo'ydi. U, ochilib ketgan qizga tikka nazar tashladi va jim bo'lib qoldi.

Ular — yigit ham, qiz ham — hayron bo'lib to'xtashdi. Ortiq kulmasdilar. Mattis, o'zi farqiga bormay, bexosdan, yuz-ko'zlarida va ovozida shundoq aks etib turgan zo'r muhabbati bilan ularning kulgisiga xalal bergandi.

Hatto xo'jayin ham to'xtab, o'z jo'yagida jim turib qoldi.

— Gapir, Mattis, gapirsang-chi! — dedi u past ovoz bilan.

Qiz indamas, yigit ham jim turar, maroq bilan gapning davomini kutardilar.

Ammo kutishlari behuda edi. Mattis aytmoqchi bo'lgan gapning davomi yo'q. Ovozi allanimaga ilinib qolganga o'xshardi va uning yonida yana kimdir bordek edi. Albatta, u ko'proq narsa aytgisi, boshqacharoq aytgisi kelardi, ammo aytmoqchi bo'lgan gapi, har doimgiday, g'oyib bo'lgan va boshqa fikrlar bilan qorishib ketgandi.

— Ha... chunki sizlar bir-biringizni sevasiz, — dedi u nihoyat, avvalgi so'zlariga qaytib.

— To'g'ri, bir-birimizni sevamiz, — dedi qiz.

— Menam shunday sevsaydim, — deb yubordi u, es-hushini yig'ib ulgurmasdan oldin.

— Senda ham bo'ladi bunday muhabbat, — dedi qiz va unga juda boshqacha bosh silkib qo'ydi.

Mattis, men unga o'z tushimni oxirigacha aytsam bo'lardi, deb o'yladi.

— Bor-yo'q gapim shu, — g'o'ldiradi u, o'zidan o'pkalanib. — Aytmoqchi bo'lgan hamma gapim shu!

— Esizgina, — dedi qiz.

— Ishga! — buyruq berdi yigit, bu bilan o'zining shu yerdaligini, «kim o'zdi»ga o'ynayotganlarini eslatdi.

Sal narida shunday ishchan xizmatchilar yollaganidan o'zini mas'ud his qilayotgan omadli tomorqa sohibi kulib turardi. Tentak Mattis ishchan xizmatchilar hisobida emasdi, hech kim unga jiddiy ahamiyat bermasdi.

— Xo'p, xo'p, eshitdim, — dedi qiz buyruqqa javoban.

Ishga! — Mattis bu so'zni eshitilar-eshtilmas takrorladi va bu — yelkasiga hazilakam shapati olgan yigitga qaratilgan edi.

Hamma yana ishga tushdi.

Quyosh qizdirgandan qizdirardi... Egatlaming har yer-har yerida yulingan o'tlar soiib borardi. Sho'ralardan hovur ko'tarilardi.

Mattis, nahotki xo'jayin haliyam charchamagan bo'lsa, deb orqasiga o'girilib qaradi. Yo'q albatta, u juda kuchli va aqlli edi. Mattisning o'zi esa chanqab, tamom holdan toygan, barmoqlari tartibga itoat etmasdi. Qiz uni ancha tetiklashtirgandi, ammo bu ham asta-sekin yo'q bo'lib ketdi, hech eplayolmayotgan ishi uni bezor qilib tashlagandi. Uchovlon yana tepalik ortida ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Dala sahroday kimsasiz va mungli edi. Bir muddat yana ishni qo'ya turishga to'g'ri keldi, fikrlari shu qadar ayqash-uyqash bo'lib ketdiki, oqibatda yana o'tlar qolib, bo'lajak sholg'om tuplarini yula boshladi.

Nihoyat u ham tepalik ortiga o'tdi, ammo o'zini undan battar yolg'iz his qildi. Xo'jayin va sevishtganlar xuddi daladan ketib qolganga o'xshardi.

Mattisning jo'yaklari manaman deb o'tlari gurkirab yam-yashil bo'lib turardi. U o'toq qilarkan, o'z nonimni o'zim topishim kerak, deb o'ylardi. U ozgina vaqt o'tirdi. Uni hech kim ko'rmasdi, fikrlaridagi besaranjomlik qo'llarini ishdan chalg'itardi. Charchaganingda biroz o'tirsang, joning kiradi-da o'ziyam!

Tepalik ortida yana uchovlonning sharpasi gSmir-layotganini ko'rib, Mattis dahshatga tushdi. Birpasda bu yerga yetib kclishibdi-ku! U o'zini noqulay his qilib ishga kirishdi va birdaniga bir necha sholg'om tupini yulib oldi. Nima bo'lgandayam bu mungli dala adog'ida odamlarning paydo bo'lgani yaxshi! Sevishtganlarning gangir-gungurlarida endi ilgarigiday xursandlik sezilmasa-da, har qalay gangir-gungur qilishardi. Xo'jayin esa umuman charchamagan edi. Odamning shunday katta dalasi bo'lsa, charchamay ishlayveradi-ishlayveradi. Xo'jayin bir marta ham bosh ko'tarib atrofiga qaramadi. Shu payt birdan:

— Bir daqiqa to'xtanglar! — degan o'tinch ovozi yangrab ketdi.

Ular bu g'alati ovoz — Mattisning yalinchoq nidosini eshitib, bir seskanib tushdilar. Ingroq Mattisning ichidan beixtiyor otiib chiqqan edi.

Xo'jayin shu ondayoq qaddini rostladi, kir qo'li bilan manglayini artdi. U qattiq terlagan edi.

— Nimabo'ldi, Mattis?

Mattisning ko'rinishi ayanchli, garchi u dalaning adog'iga yetmagan bo'lsa-da, holida hol qolmagan edi. Ustki labining mo'yloviga chang o'tirib qolganidan, qorayib turardi. Balki boshqalaming ham mo'ylovlari shunday bo'lib qolgandir, ammo ularniki hisobga o'tmasdi. Mattis qo'rqa-qo'rqa xo'jayinga yaqinlashdi.

— Qara, qancha orqada qolib ketdim?

— Nima bo'пти? — Xo'jayin xohishsiz javob qaytardi.

— Shunday bo'lishini bilmaganding, to'g'rimi? Xo'jayin «e, arzimagan narsa» degandek qo'l siltadi.

— Bu o'zinga yoqmayapti, g'irt noshudlik bu, — Mattis jiddiy gapirardi.

— Tushunaman, — xo'jayin engashib, yerdan nimadir olganday bo'ldi.

Mattis, sen meni ishdan ketkizging kelyaptimi, deb so'ramoqchi bo'ldi-yu, tag'in o'zini tutdi. Xo'jayin qovog'ini uygancha allanima deb to'ng'illadi. Sevishganlar, tanaffusdan foydalanib, bir-birlariga tegishardilar. Oxiri xo'jayin Mattisdan to'g'ridan to'g'ri:

— Sening jo'yagingni ham ola qolaylikmi? — deb so'radi.

Ko'zlarini kulrang parda qopladi. Avvallari — loyxo'rak voqeasidan burun ham — bunday hol yuz berib turardi.

— Yo'q, xohlamayman, — deb qat'iy javob berdi u.

— Mayli, o'zing bilasan. Xo'jayin tesha bilan ishlashga tushdi.

Mattis o'z jo'yaklariga qaytdi. Qizning yonidan o'tarkan, unga o'tinchli nazar tashladi. Hamma ishlar hammaga ham yengil va yoqimli bo'lishi uchun, bir iloj qilar, balki. Axir, u xushchaqchaq va yosh, buning ustiga ustak yigiti ham bor.

Mattis yo'talib qo'ydi, bu bilan qizning tez yordamiga muhtoj ekanligini bildirmoqchi edi.

Qiz hammasini tushundi va unga jilmayib qo'ydi. Go'yo bu yerda biz — sen ham, men ham birgamiz, dalada ishlayotganda bir-birimizga qo'l silkib qo'yamiz, deb eslatmoqchi bo'lardi.

Bundan ortig'iga zarurat yo'q edi. Mattis buni shu qadar aniq eshitganday bo'ldiki, ovoz chiqarib:

— Ha, biz — sen ham, men ham — dalada birga ishlayapmiz, — deb takrorladi. U bu so'zlami o'shandoq mehr bilan, ammo qizday ochiq-oshkor emas, boshqalarga bildirmayroq aytdi.

— To'g'ri, — deb uning gapiga qo'shildi qiz.

U Mattisga razm solib qaradi, garchi Mattisning ko'rinishi u qadar chiroyli bo'lmasa ham, ko'ngilda g'ulg'ula uyg'ota olardi.

— Ishga! — qichqirdi yigiti va qizning oyog'ini chimchilab oldi — u buni, aftidan, sho'xlik, quvnoq hazil, deb hisoblardi. Qiz yana ma'shuqaga va Mattis uchun begona odamga aylandi.

— Ha! — dedi xo'jayin ham.

Katta yeri bo'lgan odamning sadosi edi bu. Yigit bilan qiz xo'jayinga qarab, nima demoqchi bo'lganini anglashdi: ishlash kerak edi.

Shundan keyin uchovlari yana Mattisni orqada qoldirib ketishdi. Mattis ularga nazar tashlab, o'zi orzu qilgan o'sha uch xazina aynan shularda bor deb o'yladi. Bu odamlar umr bo'yi shu uch xazinadan bahramand bo'lganlar. Ular bu boylikka o'rganib ketganlar va o'zlari buni payqamaydilar — ular uchun hammasi qonuniy, boshqacha bo'lishi mumkin ham emasdi. Aks holda bemalol sholg'om o'toq qila olarmidilar?

Mattis qornida yotib olib o'toq qilarkan, notinch o'ylari tinkasini quritardi. O'zing madad ber, deb o'ylardi u.

Har doimgiday, fikrlari ishlashga xalal berar, o'sha-o'sha o't o'rniga sholg'om tuplarini yulardi. Yo'q, menga hech kim madad bermaydi, o'ylardi u, ko'z o'ngida qora va qizil ro'yolar jimirlardi.

Mattisning qimmatbaho sholg'om tupchalariga yuragi achishardi, chunki ular, atrofidagi manavi o'tlar yulib tashlanganda, suyanchig'idan ayrilganday majmagil va ayanchli bo'lib ko'rinardilar. Mattis bunday haqir baxtsiz bukurlarni majruhliklari uchun koyib tashlagisi kelar, uning nazarida, ular insonning tuproq titib qiynalishlariga arziyas edilar.

Fikrlari har tomonga sochilib ketayotganga o'xshardi. Mattis ishlay boshlaganda doim shunday bo'lardi — demak, hayotida hech nima o'zgarmabdi. Bugungi kun aynan shu sirni qo'ynida yashirgan ekan: hech nima o'zgarmagan, hammasi o'sha-o'sha joy-joyida qolgan edi.

Xudoga shukur, tepa ortiga yashiringanlar uni chaqirishdi:

— Mattis!

Uni aqlli xo'jayinning o'zi chaqirgandi. Anov ko'rkam va kuchli yoshlar jim turishardi, ammo buning nima ahamiyati bor? Ularning uch xazinas bor, axir!

— Tushlik vaqti bo'ldimi? — deb so'radi Mattis darhol.

— Ha, ketdik! — deb qichqirdi xo'jayin tepa ortidan. Bu da'vat ovozi kishini havratga solib avval osmonga o'rladi va tepadan osha yana yerga tushdi. Mattis ularning qatoriga qo'shilish uchun tez-tez odim-lay ketdi.

Uning jo'yaklari chala o'talgancha qoldi. Ammo u ham har qalay dalaning adog'iga chiqay-chiqay deb qolgandi. Bundan ham yomonroq bo'lishi mumkin edi-ku! —

deb o'yladi Mattis bir muncha jonlanib, chunki endigi yo'l tushlik dastunconiga boshlab borardi.

Hech kim unga, sen yomon xizmatchi ekansan, deb ta'na qilmadi, u bamaylixotir sheriklariga yetib olgach, uy tarafga ular bilan birga odimlab ketdi. Hech kim bir og'iz ham so'z aytgani yo'q, ammo Mattis ular ichlarida faqat shuni o'ylashayotganiga shubha qilmas edi: oldiniga biroz tetiklanib oldi, ammo keyin chidamadi.

— Nega tilingizning uchida turgan gapni ayta qolmaysizlar? — Ular ariqchadan qo'llarini chayib olisharkan, shunday deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

— Nima tilimizning uchida turgan ekan? — deb hayron bo'ldi yigit. Bu uning Mattisga birinchi murojaat qilishi edi.

— Men nima deb o'ylayotganlaringni bilaman, — dedi Mattis. U uvalganidan laqqa cho'g'day qizarib ketgan, o'zini ozroq qiynashi kerak edi.

— Qo'ysang-chi! — dedi xo'jayin. — Ketdik uyga, ozi'oq totinib olamiz, hordiq chiqaramiz.

Ular dala etagida jildirab oqib yotgan tiniq ariq suvidan olib, qo'llarini yuvishdi. Mattis bilan qiz bir suv idishdan qo'l vuvishdi. To'kilgan kir suv vonida Mattis bexos qizga tegib ketdi va butun vujudiga o't tutashganday bo'ldi.

Bir o'rachaga to'plangan suv o'z-o'zidan toza tortib, qaytadan tiniqlandi va ikkovlarining tozalangan qo'llari suvda yil-yilt akslanib ko'rindi. Mattis ortiq qizga teginishga botinmadi.

Qiz Mattisga qaradi, lekin Mattisning o'ylashga vaqti yo'q, baxtiyor gandiraklab borardi.

— Odam elektr simiga tekkanday bo'larkan, — deb qo'ydi u.

Bu gapi o'ziga anchagina aqlli bo'lib ko'rindi, biroq qiz beparvo yuzlarini o'girib olgandi. Balki unga bu gapi kulgili ko'ringandir? Sevgan yigiti yonida yuvinar, u hech nima bo'lmaganday, qizni belidan quchoqladi va ular to uygacha, hatto dasturxon tepasigacha quchoqlashib bordilar. Balki ular umuman charchashmagandir? Mattis, yigit qo'llarini bukayotganini ko'rди — mushaklari dirkillab o'ynab turardi — u ana shu kuchli bilaklari bilan qizni belidan quchib olgandi. Shunday bo'lishi ham kerak, hammasi qonuniy, risoladagiday.

— Salom, Mattis.

Bu tomorqa sohibasining ovozi edi. U Mattisni samimiy kutib oldi. Tushlik juda mazali bo'lgan edi. Mattis burnidan chiqquncha to'yib ovqat yedi. Odam, axir, ishlaganiga yarasha tishlashi kerak, deb qo'ydi o'ziga o'zi. To'yib ketganidan ko'zlarini mudroq bosa boshladi va dam olgani o'tloqqa cho'zildi. Sevishganlar qayoqqa g'oyib bo'lishganini ko'rmadi. U uxlab qoldi.

Jazirama oftobda uxlagandan keyin Mattis qaynatilgan go'shtga o'xshab qolgandi. Kallasi sal uni-buni farqlay boshlaganda eng oldin uchovlon dalada ishlayotganini ko'rди. Ular bu jonga tekkan jo'yaklarga boshlari yerga tegar darajada engashardilar. Ishni boshlaganlariga ancha vaqt boigani talay joyni o'toq qilib qo'yganlaridan bilinib turardi.

Ular Mattisni uyg'otmay ketib qolishgandi. Mattis uyalib ketdi, ammo bunda uning aybi yo'q edi. Tomorqa sohibasi uydan chiqib uning oldiga keldi va:

— Men seni uyg'otishga qo'ymadim, — dedi.

Xo'jayin seni turtib uyg'otmoqchi bo'lgandi, shirin uxlayotganingni ko'rib rahmim keldi. Ular ketishganiga ikki soat bo'ldi.

Mattis nima deyishni bilmay ko'zlarini pирpiratdi. Sohiba xonim juda mayin, mehribon edi. Shuni ko'rganda nima uchun ertalab yo'lini qat'iy shu tomorqaga burganini tushundi. Bir paytlar u shu yerda bo'lgan va tomorqa sohibasining chehrasi xayolida muhrlanib qolgandi. Ha, ilgari bu ayolni ko'rgan edi.

— Sen kechasi yomon uxlagansan, to'g'rimi? — so'radi u, Mattisga tuzukroq bahona topib berib.

— Ha! Ha! — xitob qildi Mattis. — Men ikki kecha uxlolmadim, bilasanmi, uyimiz tepasidan loyxo'rak juftlashgani o'tadi.

Mattis bu gapni shunday hayajon bilan aytdiki, buni eshitgan sohiba oldiniga qo'rqib ketdi, keyin yonidagi odam tentakligi esiga tushib, darrov o'zini o'nqlab oldi. Mattis buni payqadi.

— Tushunaman, — dedi ayol xotirjamlik bilan. — Bunaqa paytda uxlab bo'ladimi? Qanaqa bo'ldi o'zi? — so'radi u sabr-toqat bilan.

— Qanaqa bo'lardi, bo'lganicha bo'ldi, tamom-vas-salom. Kechasi, qop-qorong'i edi. Keyin men bir g'aroyib tush ko'rdim.

— Ha, shunday bo'lib turadi. Lekin odam o'z tushi-ni boshqalardan sir saqlashi kerak, shuning uchun uni menga gapirib berma, — dedi ayol, boshqa ishlari qolib ketayotganidan bezovtalanib.

Bu ham aqlli, o'yladi Mattis va jazirama oftobda sholg'om o'toq qilayotganlarga xavotir bilan qarab qo'ydi. Sohiba uning qarashlarini tushundi.

— Qani o'zing aytchi, dalaga, ularning oldiga borging kelyaptimi yo oshxonaga kirib qo'limdan bir finjon qahva ichmoqchimisani?

— Qahva ichsam yomon bo'lmasdi, qahvang juda mazali ekan, — tez javob berdi u.

— Tog'ri qilasan, — dedi sohiba.

— Anavi oshiq-ma'shuqlarni tomosha qilganda ham odam maza qiladi, — dedi Mattis, to'g'riso'zlik qilib.

— Albatta, lekin ular o'toq qilishsin, biz qahva ichaylik.

— Rahmat, agar malol kelmasa...

Mattis uning ketidan oshxonaga kirib borarkan, xotin kishi shunday bo'lishi kerak, deb o'yladi.

Qahva mazali edi. Sohiba Mattisdan opasini, u nima bilan mashg'ulligini surishtirdi.

— Ha, bilasanmi, u har doim to'qigani to'qigan. Ular birpas gaplashmay o'tirishdi. Mattis, o'zini

boqishga majbur bo'layotgan Xegeni o'ylab, siqilib ketdi.

— Men ko'p ovqat yeyman, — Mattis sohibani aldash mumkin emasligini o'ylab, to'g'ri-to'g'ri gapi-rardi. — Uning butun topgan-tutgani mening qornimga ketadi.

Bu gapiga sohiba javob qaytarmadi, faqat Mattisga tinmay qahva quyib uzatardi.

— Endi uning sochi ham oqardi, — deb ma'lum qildi Mattis.

Sohiba indamadi.

— Men bilan yashash qiyin, — dedi u. Sohiba o'rnidan turdi va:

— Bunday narsalarni og'izga ham olmaydilar, Mattis, — deb uning gapini cho'rt kesdi.

Og'izga ham olmaydilar? Mattis esa o'zi va Xege haqida ko'p gaplashgisi kelardi. Unga ayol kishi bilan qahva ustida barcha kechinmalari haqida hasratlashish imkoniyati doim ham kelavermasdi.

— Mayli, gapirmayman, — dedi u. Ovozi qaltirardi.

Shu asno sohibaning boshqa bir xonada zarur ishi chiqib qoldi va Mattis bir o'zi qolib ketdi. Ayol qaytib kelganda Mattis og'ir va yoqimsiz xayollarga cho'mgancha joyida qilt etmay o'tirardi. Birdan uning tiliga aylanib bir muhim savol kelib qoldi:

— Sendan bir narsa so'rasam maylimi? Sohiba istar-istamas boshini liqillatdi.

— So'rashing mumkin. Ammo unga javob bēra ola-manmi, yo'qmi — bilmayman. Balki javob berolmasman.

Mattis savolini berdi:

— Nega hamma narsa qanday bo'lsa shunday? Sohiba faqatgina boshini chayqab qo'ydi. Mattis

savolini qaytarishga botinmadi. Sabr qilib kutdi. Ammo sabri yuzaki edi. Ichida sabrsizlik g'alayon qilayotgan edi. U yana «xo'sh?» deganday sohibaga yuzlandi. Sohiba esa yana boshini chayqadi.

— Tag'in qahva xohlaysanmi? — so'radi u. Mattis hammasini tushunar va ayni chog'da tushunmasdi. U sovqotganday titray boshladi. U muammolarga to'la jarlikka qarayotgan edi.

— Xohlashga xohlayman, — dedi u, qahvani nazar-da tutib. — Ammo o'rmon loyxo'ragi har qalay uchib kelgan, axir?! — davom etdi keyin, ovozida hayrat ohangi yangramoqda edi.

— Ha, biz uyimiz tepasida hech qachon bunday voqeani ko'rmaganmiz, — dedi sohiba tez-tez, Mattisga javob berolganidan xursand bo'lib. — Sen birpas o'tirib tur, — dedi va «men hozir kelaman» deb yana chiqib ketdi. Mattis uchun kasallikka aylangan bu muammo yana tubsiz jarlikka tushib ketganday bo'ldi. Bu muammoning javobi shu teranliklarda abadiyan yashirinib yotardi.

Vaqt o'tib borar, Mattis oshxonada o'tirardi.

— Ular issiqda qolishgandir, — dedi u sohibaga. Sohiba naridan-beri bir yegulik pishirib, stolga dasturxon yozdi, kechki ovqat vaqti yaqinlashib qolgandi.

— Men dalaga borsammikan, nima deysan?

— Endi kech bo'ldi. Ular tezda qaytib kelishadi. Senbezovta bo'lma, — deb qo'shimcha qildi, Mattisning xijolatligini ko'rib. — Agar sen hozir u yoqqa borib qolsang, ularga yoqmasligi ham mumkin.

Ayolning ovozi va yuz ifodasi juda qat'iy edi. Mattis ishlab kelganlar bilan uchrashuvdan qo'rqib, tikonda o'tirganday bezovtalanar edi. Mana, nihoyat sohiba eshik oldiga chiqib ularni yemakka chaqirdi. Endi Mattis ular bilan yonma-yon bo'lib, ariqdan ular bilan baravar qo'llarini yuvgisi kelardi.

Nihoyat ular kelishdi. Eshik keng ochildi. Ular hov-lida biroz tutilib qolishdi. Mattisning eshitish sezgisi o'tkir bo'lib, hozir ulardan biri «tentak» so'zini ishlatarmikin deb qulog'i ding edi. Shunday bo'ldi ham. Bu so'zni birinchi bo'lib yigit aytdi. Biroq nima munosabati bilan aytganini Mattis aniq bilolmay qoldi. Mana ular oshxonaga kirishdi. Mattis kursida o'tiraverib charchab ketgandi. U, uyalganidan lovullab bo'lsa-da, o'zini tomorqa sohibiga so'z qotishga majbur etdi: — Men ham dalaga chiqishim va o'z jo'yaklarimni oxirigacha o'toq qilib qo'yishim kerak edi, ammo tushunasanmi meni qahvaxo'rlikka taklif qilishdi, men yo'q deyolmadim.

Xo'jayin sal bosh silkib qo'ydi. U horigan, sirlari og'rirdi, shuning uchun ertalabkiday juda xushmuomala emasdi.

— Sening dumingni ham oxiriga yetkazib o'toq qilib qo'ydik, — dedi u. — Shunday qoldirib bo'lmasdi-ku, axir!

Qiz bilan yigit Mattisni ko'rmaganga olib, yonidan o'tib ketishdi, ko'rinishlari xijolatli edi.

— Kel, Mattis, — dedi xo'jayin har qalay gap mavzuini boshqa yoqqa burib.

— Ovqatdan qochish yo'q, — dedi Mattis va bu gapidan uyalib titrab ketdi.

Dasturxon ustida oshiq-ma'shuqlar har qalay Mattisni noqulay ahvoldan qutqarishdi. Aslida Mattis bunaqa yoshlardan qing'ir nazar va mazax so'zlarnigina kutardi. Ammo bular vazmin edilar va Mattisga yaxshi munosabatlarini

o'zgartirmadilar. Balki sohiba hovlida, Mattisga yaxshi so'zlanglar, deb qo'ygandir, Mattis bunday hollarni ham ko'p ko'rgandi. Mayli, gapirsa gapiraversin, der edi u o'ziga o'zi. noxush xayollarni ko'nglidan haydab.

Afsuski, yoshlar qattiq charchashibdi, ertalabkiday oshiqona hazil-huzullarga hollari qolmagandi. Odam charchaganda shunday bo'larkan-da, afsus, ming karra afsus. U qizga bu haqda gap ochgisi kelardi. Ular yuzma-yuz ovqatlanib o'tirisharkan, Mattis qizdan ko'zlarini uzmasdi. Qizning hozirgina vuvilgan oppoq qo'llari yonginasida stol ustida turardi, o'zi esa shaxtidan tushib tinchlanib qolgandi.

— Charchadingmi? — deb gap boshladi biroz dadillik bilan.

U, xuddi onalar so'raganday, o'z ovozida katta mehr-muhabbat tovlanishini tasavvur ham qilmagandi. Dasturxon ustida o'tirganlar Mattisga hayrat bilan qaradilar. Qiz qizarib ketdi.

— Ha, — past ovoz bilan javob qaytardi qiz. Mattisning ovozidagi mehr va g'amxo'rlik uni tong qoldirgandi.

Hammalari, endi Mattis nima derkin, deb kutib tu-rishardi.

— Demak, oshiqlar ham ayanchli ekan-da, — dedi u. Miyasida hamma narsa qorishib ketdi va kalavanning uchini yo'qotib qo'ydi. Shunga qaramay gaplari o'ta samimiy edi.

O'tirganlar yengil tortib kulib yuborishdi va yana tamaddi qilishga tutindilar. Mattisning o'zi ham hiringlab qo'ydi. Balki u juda ham aqlsiz emasdir? Uning hiringlashi otning kishnashiga o'xshardi, bu ham hammaning kulgisini qistatdi. Keyin qaldiroqdan keyindalalarga cho'kadigan jimlikday, o'rtaga sukunat cho'kdi. Nega bunday bo'ldi? Hech kim bilmasdi.

Ular dastuncondan turdilar. Bugungi ish bitgan edi. Xo'jayin sevishganlardan, ertaga ham ishga kelasizlarmi, deb so'radi.

— Albatta kelimiz, — javob berishdi ular, jo'nab ketarkan.

Mattis ularning orqasidan uzoq qarab qoldi. Endi ularga qarab zavqlanish yo'q, chunki ertaga Mattis ishga keimaydi.

— Sen ertaga ham kelishimni xohlamaysan, albatta, to'g'rimi? — Mattis o'zini shunday savol berishga majbur qildi — bugungi ishidan keyin bunday deb so'rash bezbetlik edi.

Xo'jayin ham o'zini noqulay his qildi.

— Sendan hech qanday foyda yo'q-da, — dedi zo'r-bazo'r. — O'zing nima deb o'ylaysan? Ammo bugu-ning uchun haqingni beraman.

- Kerakmas! Men hech nima qilmadim. Shunday emasmi?

— Oz bo'lsa ham ishlading, haqingni berishim kerak.

— O'sha arzimagan ikki jo'yak uchun-a? — dedi Mattis, haq olishdan deyarli umid qilmay.

— Ha, o'sha ikki jo'yakda qilgan ishing uchun... Shunda oramiz ochiq bo'ladi, — dedi u.

Xo'jayin Mattisga pul uzatdi va, rasm-rusumga ko'ra, mehnati uchun tashakkur aytdi.

— Hm, — ming'illadi Mattis.

— Nima, ko'ngildagidek emasmi?

— Yo'q. Hammasi joyida. Oramiz ochiq. Oramiz ochiq, deb o'zicha po'ng'illadi yana. Bu ajoyib so'zlarni yana bir bor takrorlash qandaydir yoqimli ko'rinardi — erkaklar o'zaro shunday gaplashadilar, axir.

U shapkasini qo'lga oldi.

— Mana shunaqa, — dēdi u, ostonadan hatlarkan. Xo'jayin va xotini unga esankirab qarab qolishdi.

12

Uylarida Xege eshik oldiga chiqib koftasini to'qib o'tirardi. Shunday o'tirib olgandiki, katta ko'chadan uyga tushib kelgan so'qmoq uning ko'z o'ngida edi. Mattis o'rmondan chiqib, shu ondayoq opasini ko'rdi, opasi unga kul tusiga kirib ketgan kichkina latta-puttalar o'ramiga o'xshab ko'rindi.

Bu yerdan u bir qisimgina bo'lib ko'rinardi. Shunday g'ujanak bo'lib olgan va shu qadar kichkina ediki, bordan ko'ra yo'q desa ham bo'lardi.

Qiziq, uning kallasi qanday qurilgan ekan? — deb o'yladi Mattis to'satdan. Xege shunday oqilaki! Mattis opasini shuning uchun yaxshi ko'rardi. To'g'ri, ba'zi bir paytlar u Mattisni quturtirib yuborardi.

U opasi emas, singlisi bo'lganda yaxshiroq edi, chunki o'shanda u jajjigina bo'lardi. Mattis qoshiqda ovqatini yedirib qo'yardi, og'zining burchaklari shirgurch bo'lib ketardi. Lekin dunyoda hech bir narsa keragiday bo'lmaganiday, opasi ham singil bo'lib qolmaydi.

Daraxtlarning soyalari uzunlashib borardi. Qosh qorayib, oqshom shabadasi esa boshlagandi. Kun bo'yi jazirama oftobda sillasi qurib ishlaganlar uchun bu shabada ayniqsa orombaxsh edi.

Mattis yetib kelganda, Xege o'rnidan turdi.

— Qorning to'q, deb umid qilsam bo'lar? — deva qutladi uni.

- Bo'lmasam-chi? — Mattis ma'nodor qilib javob berdi. U loaqal bugun bir zo'r ish qilib kelganidan va endi buni aytib berishi mumkinligidan xursand edi. — Meni ovqatsiz qo'yishmadi, — deb qo'ydi kerilib.

Xege, qayerda bo'lding, nima ish qilding, deb surishtirishga tushdi, kuni qanday o'tganini bilgisi kelardi. Mattis hammasini aytib berdi.

— Shu paytgacha o'sha yerda edim.

— O'h-ho', — dedi Xege.

— Kofta to'qiysan, hisoblashish nimaligini o'zing ham bilasan.

Hayajondan uning ovozi titrar, tezroq Xegega sevishganlar to'g'risida gapirib bergisi kelar edi.

— Keyin men tomorqa sohibasiga bir savol berdim, u savolimga javob berolmadi, — deb hikoyasini tugatdi.

— Yana-ya? Tag'in o'sha savolni berdingmi? — so'radi Xege afsuslanib.

— Bilasanmi, u shunaqa yaxshi ayolki...

- Nima ahamiyati bor, sen savol berishni butunlay bas qilishing kerak, — dedi Xege qat'iy ohangda.

— Nega?

— Chunki bu tentaklik, — dedi alam bilan opasi. Mattis siqilib ketdi va jim bo'ldi. Xege, ukasining tomorqa sohibasiga qanday savol berganini so'ramadi. Shundog'am u buni bilardi.

Ammo qorong'i tushganda Xega loyxo'raklar juftlashuvini ko'rgisi kelayotganini aytdi, Mattis buni bu kungi ezilganlari evaziga berilgan mukofotday qabul qildi. Bora-bora Mattis loyxo'raklar juftlashuvi - bu mening ishim, bu — mening irodam bilan yuz beradi, deb o'ylaydigan bo'lib qoldi. Mana, nihoyat Xege ham buni ko'rgisi kelyapti.

— O'ylab ko'rganing yaxshi bo'ldi, — dedi u. Jimlik hukmron, hamma narsa ko'ngildagidek ketayotgan edi. Mattis xursand, boshini bir u yoqqa, bir bu yoqqa burib atrofga quloq solar va qushlar kelishini kutardi.

Loyxo'rak ta'rifga sig'maydigan, doimiy mo'jizalari bilan uchib kelganda Xege ham yonida edi. Yiltirashlar, yurakni rom etgan qanotlar, so'ng yana huvillagan jimjitlik.

Xege indamasdi, ammo yaxshi kayfiyatda ekanligi ko'rinib turardi.

Mattis hayajonda edi.

— Mana shunday, qayta-qaytadan, qayta-qaytadan, — dedi u.

Xege, endi uxlashga ketish kerak, deb qo'ydi. Lekin uni ham loyxo'raklar juftlashuvi hayajonga soldi, deb o'yladi Mattis.

Mattis opasining kiftiga qo'l tekizdi. U, uylari o'zgarishi, boshqa uylarga qaraganda unda afzalliklar yuzaga kelishi va hammasidan ham yuksakroqqa ko'tarilishi to'g'risida opasiga gapirib bergisi kelardi. Buni opasiga anglatishi amrimahol edi, lekin yelkasiga qo'l qo'ya olar edi.

— Mana, endi sen ham juflashuvni ko'rding, — dedi u va shunday deyishi bilan yuzlarida mulkdorlikka xos bir ifoda paydo bo'ldi.

Xege xayolga cho'mib:

— Xuddi bu sening ishing-u, hammasi sening irodang bilan yuz berganday gapirasana...

Mattis dovdirab qoldi. Cho'chinqirab opasiga tikildi. Kelib-kelib shu daqiqada qayoqdagi gaplarni gapiradi-ya!.. Ichida lop etib g'azab olovi yondi:

— Hey, sen nega munaqasan-a? Doim kayfiyatni buzasan?!

— Tinchlan!

Ammo u tinchlangisi kelmasdi, xuddi opasining alamini keltiradigan bir narsa izlayotganday atrofiga alanglardi. Dastlab uning ko'ziga tashlangan narsa qurib qolgan qo'shterak bo'ldi.

— Manov teraklarni ko'ryapsanmi? Ulami ikkimizga o'xshatib Mattis-u Xege deyishadi. Ularni hamma shunday deydi! Shuni bilib qo'y! Odamlar sendan ham kulishadi.

Darhol Xegening ruhi tushib ketadi, deb o'ylagandi. Qayoqda deysiz! Bugun u hech qanaqasiga opasining achchig'ini chiqara olmasdi.

— Demak, buni sen ham bilarkansan-da? — dedi opasi vazminlik bilan.

Mattis unga ko'zlarini ola-kula qilib qaradi.

— Bizning uyda buni faqat men bilaman deb yur-sam... — dedi u va opasining yelkasini silab qo'ydi.

Xege undan ko'ra g'ururliroq ekan. Uning bunday mag'rurligini shu paytgacha bilmabdi-ya!

Opasi o'zlarining sha'niga daxldorday bu daraxtlarni nazarda tutib:

— Bizga bularning nima aloqasi bor? — dedi. — Hech qanday aloqasi yo'q. Ahmoq bolakaylar to'qigan gap. Bema'ni hazil-huzuldan boshqa narsa emas.

Xege uning ko'z o'ngida balandlab ketganday bo'ldi. Mattis ham balandladi, chunki Xege bilan yonma-yon edi, uning ukasi edi, chunki qurigan daraxtlarning biriga uning nomini berishgandi, unga esa baribir edi.

Umuman olganda u Xegening fikriga qo'shilmasdi. Xegega gapirish oson. Lekin uni eshitish yoqim!i edi, Xegening ko'rinishi uning kuchiga kuch qo'shardi. Xege Mattisdan ko'zini olmay:

— Kel, bu daraxtlarni unutaylik. Ular bu yerda ming asr tursa ham, bizga baribir, — dedi qat'iyat bilan.

— Ha, ming asr tursa ham, — uning fikriga qo'shildi Mattis va jim bo'ldi.

Ikki kundan keyin Xege:

- Menimcha, sen yana borishing kerak, — dedi. Bu xuddi buyruqday eshitildi.
- Qayoqqa, ishlashgami?
- Loaqal bilishga. Oxirgi gal ishing o'ngidan kelgandi-ku!
- Axir, tez orada hammasi o'zgaradi. — U gapga kirgisi kelmayotganga o'xshardi.
- O'zgarishlarni kutsang kutaver, ammo ishlab tur, — dedi Xege dag'allik bilan.

Ertalabdan kun issiq bo'lishi ko'rinib turardi. Mattis ikki kunni qirg'oqda o'tkazdi, suvga tosh otib, o'ylab o'tirardi. Qayiqda suzdi, baliq ovladi, ammo odatdagiday, qarmog'iga hech nima tushmadi. Xege bir narsani — ukasining bekordan bekor suvga tinmay ahmoqona toshlar otib o'tirishini ko'rmasam derdi. U Mattisni ishlash uchun emas (bundan umid yo'q edi), shunchaki bir narsa bilan mashg'ul qilib qo'yish uchun yuborgandi.

Xegening ovozidagi dag'allik ishni buzdi.

- Lekin sholg'om o'tagani bormayman! — yolvordi Mattis.
- Menga nima ish qilsang ham baribir, uyga pul olib kelsang — bo'ldi, — dedi Xege. — Biror ish bilan mashg'ul bo'l.
- O'ylashlarim xalaqit beradi, hammasi shunga bog'liq. Sen bo'lsang shu o'ylarimday qaysarsan, — deya qo'shimcha qildi, dadillanib.
- Mana ko'rasan, hammasi yaxshi bo'ladi, — dedi Xege. — Ishlagisi kelganlarga bu yerda mayda ishlar to'lib yotibdi.

Xege bugun Mattisni qattiq siquvga oldi — ishqilib Mattis uydan chiqib ketsa — bas. Xege oldingidan qaysarroq, kelishishning iloji bo'lmay qoldi, deb o'zicha opasini ayblardi u.

Qayoqqa borsin? U opasining amri bilan ish qidirib ketdi. So'nggi marta ishlagan tomorqasi bilan abadivan xayrlashgan. Ustiga ustak, ular hamon sholg'om o'tayotgan bo'lishsa kerak. U tomorqa tarafga qaradi.

Ha, xuddi aytganiday. Huv ana dalada uch kishi. Hozirgina kelishibdi. Hayhotday dala hali o'toqdan chiqmagan... Bu yerda g'iq etmay o'tib ketish Mattisga g'alati ko'rindi. Ular bilan uzzu kun ishlab, ko'p narsalarni boshidan kechirdi. Hozir tong, hali sevishganlar tetik, ularning dimog'i chog'.

U yo'ldan o'tib ketayotganini ko'rishdimikin?

Yo'q.

Menga qo'l silkisanglar-chi, deb o'ylardi xayolan. Bu, odam vodida saqlasa arziydigan oltin dog' edi. Mayli, qiz qo'l silkisin. U, erkaklar qo'l silkishini xohlamasdi, bu uni xijolat qilgan bo'lardi. Qiz boshqa gap. Holbuki, hozir qizning xayoli boshqa narsada — yigiti oyog'ini chimchilashini kutardi, xolos.

Sal nariroqda yo'l yoqasidagi o'tloqda ikki qizcha o'tirar, to'siq shoxlar panasida tinchgina o'yinchoq o'ynashardi. Ular o'zlari ham qo'llaridagi qo'g'irchoqlarday kichkina, hali vijdonlarida hech qanday gunoh yo'q edi. Ular o'z o'yinlari bilan ovora edilar, ammo ulardan biri har qalay qo'ng'iroqday ovoz bilan: — Hoy Tentak, qayoqqa ketyapsan? — deb so'rashga ulgurdi va moviy ko'zlarini ola-kula qilib Mattisga qaradi.

Qizcha bergan savolining javobiga qiziqmas, xuddi majburiyat yuzasidan so'raganday so'ragandi. Yaqin tomorqalarning bolalari bu yerda turuvchilarning ham-masini bilishar, bekorga yo'l yoqasida yashashmasdi. Ular allaqachon Mattisga o'rganib ketishgandi.

Xotirjam bo'l, o'zingni tut, dedi u o'ziga o'zi, bular hali kichkina.
— Shunchaki o'zim... Aylanib yuribman... —javob berdi u.

Qizchalar boshqa savol berishmadi: qayoqqa keta-yotganining ularga qizig'i yo'q edi.

Lekin u ketishga shoshildi. Quvib o'tgan top-toza yaltiroq mashinalar sal kayfiyatini ko'tardi. Notanish mashinalarni ko'rish har doim yoqimli taassurot qoldirardi. Chunki ularda ketayotgan odamlar Mattisning Tentakligini bilmaydilar. Mattis ularga mustaqil tusda nazar tashlar, ular Mattisni hamma qatori aqlli odam deb o'ylardilar.

Mattis tomorqalarni birma-bir ortda qoldirib ketaverdi. Ishga tutinadigan payt o'ta boshlagan edi. U navbatdagi tomorqaga buriladigan joyga kelganda, to'xtadi va oyoqlariga diqqat bilan quloq soldi — u shunday chorasiz ahvolda qolganda o'zini shu tarzda sinashni o'ylab topgandi.

— Yana u yoqqa yurmoqchi bo'lsangiz, men sizlardan bir turtki bo'lganini sezishim kerak, — deb, biroz kutib turardi.

Yo'q, bu burilishda ham u hech qanday turtki-purtki bo'lganini sezmasdi, oyoqlari undan ko'ra aqlliroq edi. Bundan bu yog'iga Mattis o'zini, oyoqlarini har muyulishda sinar, ammo natija bitta bo'lar edi.

Ammo Xege butun kunini shunday o'tkazganiga qanday munosabatda bo'larkin — bilib bo'lmasdi.

«Oyoq sinovlari» to'g'risida Xege hech nima bilmasdi, chunki bu uning shaxsiy siri edi. Bunday narsalarni u ma'qullamasdi.

Nihoyat u do'konga yetib bordi — umuman butun yo'l davomida do'konga qarab ketayotganini o'zi anglar, bunga oyoq sinovining keragi ham yo'q cdi. Do'kon, hammani tutadigan qopqonday, yo'l yoqasida joylashgan, ikkinchi tomoni qirg'oq, qayiqlar to'xtaydigan joy edi.

Do'konda obakidandon sotilar, Mattis esa obakini yaxshi ko'rardi. Do'konchi yaxshi odam bo'lsa kerak, Mattis o'zini telbalarcha tutgan paytlarida ham, hech qachon uning ustidan kulmagandi.

Bu soatda tanishlardan hech biri do'konda yo'q edi, faqat velosipedda kelgan yozlik kiyimdagi bir necha sayyohlarga ma'danli suv ichardilar. Mattis bir fursat ulardan ko'z uzolmay qarab turdi, lekin harholda bir amallab o'girilishga o'zida kuch topdi. Cho'ntagini kavlashtirib yashirib qo'ygan bir tangasini chiqardi-da:

— O'n besh erelik (ere — Norvegiya, Daniya, Shvetsiyada pul birligi, tanga, chaqa) obakidan bering, — deb iltimos qildi loqaydlik bilan, xuddi har kuni olib yurgandek.

— Yalpizligidanmi? — qoidasi bilan so'radi do'konchi ham.

U Mattisning didini bilardi, bu yerda turganlar ham gapni eshitganlari Mattisga xush yoqdi. Bu qisqagina beg'araz suhbat uchun minnatdor edi.

— Ha, har galgiday, —javob berdi u.

Lekin bugun uning zaxirasida jūda muhim savol bor edi.

— Sen umringda loyxo'rak joy o'zgartirganini ko'rganmisan? Hech gapdan hech gap yo'q, masalan, uy ustidan o'tib juftlashganini? — Bu murakkab savol edi, lekin Mattis uni bu yoqqa kelayotganida yodlab olgandi.

— Ha yo'q, loyxo'rak har doim bir joyning o'zida juftlashadi, — dedi do'konchi. — Agar birdan juftlashuv yangi joyda yuz bergan bo'lsa, demak, o'tgan yili tug'ilgan yangi loyxo'rak juftlasha boshlagan bo'ladi, menimcha shunday.

Do'kondor shunday deya turib, mitti kurakchasi bilan yonidagi idishdan obakidandon oldi. Idish tagi oltin tusda tovlanib turardi.

Aramo Mattis do'kondorning javobidan xafa bo'lib ketdi.

— Sen shunday deb o'ylaysanmi?

— Ha, menimcha, shunday. Nima, sen yaqin orada juftlashuvni ko'rdingmi?

— Gap bunda emas. Seningcha, loyxo'rakning joy o'zgartirishi hech nimaning alomati emasmi? Nega bunday deysan? Bu chakana emas, jūda muhim masala-ku! U bitta obakini og'ziga otdi.

Shu asno bir velosipedli sayyoh sherigiga:

— Obbo iblis-ey, anov bulutlarga qara! Endi ko'z ochib yumguncha jala quyadi, — deb qoldi.

Mattis cho'chib tushganidan, og'zidagi obakisiga tiqilib qolay dēdi. Derazadan boshini chiqarib osmonga qaradi, tepalik ortidan shiddat bilan suzib kelayotgan qora bulutlarni ko'rди. Ammo quyosh hali yashirinmagan edi.

— Jala bo'ladimi? — Junli qo'l-oyoqlari kunda qoraygan sayyohdan Mattis qo'rquv aralash so'radi.

Sayyoh unga ajablanib qaradi va:

— Bo'lganda qandoq! — deb po'ng'illadi. U Mattisga emas, asosan ola-bula kiyingan o'z hamrohlariga murojaat qilgandi. — Biz esa, sayohatimiz yoqimli o'tadi, deb umid qilgandik.

Endi Mattisni do'konda hech nima tutib turolmasdi. Jala quyadi, momaqaldiroq bo'ladi, uyga, uyga, — kallasida shundan boshqa fikr yo'q edi. Uning bosh-panasi olisroqda, tezroq unga yetib olishi kerak.

Mattis do'kondan shosha-pisha chiqib ketdi. Ochiq qolgan eshikdan do'konchining velosipedli sayyoh savoliga javoban o'zi haqda bir nima degani eshitildi. Odatda, odamlar Mattisning eshitish sezgisi kuchli ekanini unutardilar. O'ziga tegishli gaplarni u devor ortidan ham eshitardi. Dunyodagi bironta odam bunday olis masofadan bunaqa gaplarni eshitishi dargumon. Mattis o'z quloqlariga tegishli bo'lmagan gaplarni eshitaverib, bunga o'rganib ketgandi.

— Bu yigitning esi sal kirdi-chiqdiroq, — deb tushuntirdi do'konchi velosipedli sayyohlarga.

Bu do'kondor ham g'iybatchi ekan-da. Mattis hech uni bunday odam deb o'ylamagan edi. Sirasini aytganda, nega endi bu do'konchi boshqalardan afzalroq bo'lishi kerak? Mattis bu gap to'g'riligini tan olishga majbur edi. Do'kondor bor gapni aytdi, xolos. Mattisning esi sal kirdi-chiqdiroq. Shundan keyin Mattis uning: — Ammo opasi mard ayol, unga tushov bo'lib yuribdi bu, — deganini ham eshitdi.

Do'kon eshigi taraqlab yopilgani yaxshi bo'ldi, unig'iybatning davomini eshitishdan xalos qildi. Balki Mattis hamma kabi ishlay olmasligi to'g'risida ham gap bo'lgandir.

Lekin qora bulutlarning qorong'isi va bo'lajak qaldiraqlar dahshati bu o'ylarni bosib ketdi. Endi tezroq uyga yetib borish va xatarsiz joyga yashirib olish kerak edi. Mattis jon-jahdi bilan uyga oshiqar, obaki o'ralgan xaltachasini qo'lida ushlab borardi. Quyosh hali ham o'zini panaga olmay, doim jala oldidan bo'lganiday. odamni kuydirardi.

Mattisning orqasidan bir mashina jahllanib signal berdi va u yo'l chetiga, kimdir otgan toshday, irg'ib rushdi. Mashina keskin tormoz berib, Mattisga yetib olganda, havdovchi ochiq derazadan:

— Ahmoq, kim yo'lning o'rtasidan yuradi? — deb baqirdi.

Ovoz qo'rqinchli va g'azabnok edi. Mattis ochiq derazadan darg'azab ko'zlarni ko'rdi. Bu butunlay notanish odam edi.

— O'lishingizga bir bahya qoldi, — dedi hayajonli ovoz. — Sizni urib yuboray dedim. Bunday ehtiyotsiz bo'lish kerak emas.

Deraza oynasi ko'tarilib, mashina bir zumda tegishli tezlikka erishdi va Mattisga isini bitkazgan gazlarning zaharli bulutini purkagancha ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Mattis gazni yutib, yo'l chetidan olg'a odimladi. Mashinadagi odam kimga bo'lsa ham o'sha gapini aytgan bo'lardi — Mattis buni anglashga anglardi-yu, ammo juda qo'rqib ketgandi. U sayyoh edi, kim bilan gaplashayotganini bilmasdi — Mattis buni ko'p karra takrorladi va o'zini emin-erkin his qildi — yuz millionlab odamlar u haqda hech nima bilmaydilar. Mattisni ulardan bir xayrixoh ko'rinmas narsa ajratib turardi. Ko'pchilik odamlar hatto mening tentakligim haqida gumonga ham bormaydilar.

Endi Mattis momaqalldiroq bilan «kim o'zdi» o'ynardi. O'z tajribasidan qalldiroqlar har xil bo'lishini bilardi. Birlari to'satdan qarsillaydi, boshqalari asta-sekin yig'iladi, yengil-yelpi qalldirab qo'yadi-da, ana undan keyin xatarli tus oladi. Uchinchilari hamma vaqt o'zlarini olisroqda tutadilar va o'shanaqasi boshqa yo'ldan ketadilar. Bir muqim qoidasi yo'q ularning. Bugungi bulutlar sekin-sekin kuchayib bormoqda edi. Mattis uyga deyarli o'z vaqtida yetib borishiga ishonchi komil edi.

To'siq ortidan uning otini aytib chaqirgan qizchalar ko'rinmasdi. Ammo anovi uch inson hamon dalada ishlayotgan edilar.

-Qiz qo'l silkiganday bo'ldimi?

-Yo'q.

Charchagan bo'lsa kerak.

Ammo uni o'ylashga vaqtim yo'q, tez orada momaqalldiroq boshlanadi, hozir bunday narsalarni o'ylaydigan vaqt emas. Buni o'ylagim ham kelmaydi. Momaqalldiroq — bu hazil emas.

Kutilmaganda Mattis oshnasi bilan to'qnash keldi — harholda qachon uchrashsa, bu yigit bilan hech xavotir-lanmay suhbatlashardi.

Yigit, bamisoli avtobus to'xtatmoqchi bo'lganday, Mattisga qo'l ko'tardi.

— To'xta! Qayoqqa oshiqyapsan?

— Hey, sen osmonga qarasang-chi, — dēdi Mattis jiddiy tusda.

— Osmonda nima bor ekan?

— Tezda momaqalldiroq bo'lib, jala quyishini ko'rmayapsanmi?

Yigit, jalada qolsa Mattisga nima bo'lishini yaxshi bilardi, shuning uchun bulutga qarab:

— Qo'rqma. Bu momaqalldiroqli bulut emas, — dedi. — Deyarli tarqalib bo'lganini ko'rmayapsanmi?

Mattis boshini chayqadi, yigitga ishonmadi, u meni shunchaki tinchlantirmoqchi deb o'yladi. Jala yog'adi, yog'ganda qandoq, dedi do'kondagi velosipedchi — uning aytgani haqiqatga yaqinroq.

Biroq ayni shu asnoda bulut xuddi yuqorilab ketganday bo'ldi va olis tog'laming cho'qqilari bilan bulutlar oralig'ida moviy osmon ko'rindi. Hozirgina jalani

daraklab turgan bulut o'zining dahshatli ko'rinishini yo'qotgan edi. Endi bulut ostida ochilib ketgan samo hayratlanarli darajada xayrli va ko'm-ko'k edi.

— Ana, aytmadimmi? — dedi yigit. — Bu jala yog'diradigan bulut emas, ko'rdingmi, undan asar ham qolmadi.

Mattis yeng'il tortib, chuqur nafas oldi.

— Obaki xohlaysanmi? — U minnatdorligidan yigitga obaki taklif qildi.

Yigit oltin obakidandonni og'ziga suqib, jo'nab ketdi.

Mattisning odimlari vazminlashdi. Ammo endi ish so'rab yurishdan foyda yo'q, degan qarorga keldi. Har qalay u tahlikada edi: uyga qaytib, Xegega ancha ish qidirganini aytish kerak. Endi, momaqaldiraq xavfi o'tgandan keyin, uni odatiy vijdon azoblari qiynay boshladi.

Mattis yo'ldan uyga qarab burildi. Qurigan teraklar yalang'och shoxlarini ko'kka ko'tarib turibdi. Mattis hatto ularga qaramadi ham.

Yo'q, Mattis ularga hatto qaramadi ham, chunki hozir bir mo'jiza yuz berdi va u olamdagi hamma narsani unutdi: uy yaqinida, shundoq so'qmoqning o'zida bir qush ko'rdi.

So'qmoqning o'rtasida kattakon ajoyib bir qush turardi.

Bu noma'lum qush edi, boshini ko'tarib, tepadan uyga tushib kelayotgan Mattisga qaradi.

Ajabo, qanaqa qush bu? — havratlanib o'yladi u.

Yuragida g'alati bir bo'shliq paydo bo'lib, qotib qoldi, qush ham qotib qoldi. Nima bu?

Qush so'qmoqda turardi, ammo endi, uni ko'rib qolganidan keyin, bu yerda qolish mumkin emasdi - shunday bo'ldi ham: u parr etib havoga ko'tarildi. So'ng ovozsiz qanot qoqqancha daraxtlar ortiga yashirindi. Bu o'rmon loyxo'rasi emas, loyxo'rakdan anchagina katta va unga o'xshamagan qush edi. Ammo uning so'qmoq bo'ylab yurishlari qiziq edi.

Yo, biron narsa bo'ldimikin Xegega? — o'yladi u. Uning xayoliga shundan boshqa fikr kelmadi. Uyga otildi.

Tezda Xegeni ko'rdi. U, Mattis qishloqqa ketganda so'qmoqqa qarab o'tiradigan odatdagi joyida edi. Eshik tagidagi kursisida o'tirar va o'sha-o'sha kichkina bir tutam latta o'ramiga o'xshardi. Barmoqlarining mohirona harakatlarini olisdan payqash qiyin edi, ammo Mattis bilardi: opasining barmoqlari harakatda.

Mattis ko'zlarini ola-kula qilib, Xegening yoniga keldi.

— Sening oldingda birov bormidi? — so'radi u. Xege hech nimaga tushunmay yalt etib unga qaradi.

— Senga nima bo'ldi?

— Anov yerda, so'qmoqda qandaydir bir ajoyib qush yurgan ekan, — dovdirab gap boshladi u.

Xege to'qishga tutindi. Simlarini bir zumbina to'xtatib turishini istab, Mattis unga xijolatli ohangda dedi:

— Men katta, juda chiroyli bir qushni ko'rdim. Bu yerdan uzoqda emas, anov so'qmoqda.

— Shunday degin? — o'ta beparvo javob qaytardi Xege. Ammo odatdagi dag'alligi yo'q edi, ovozida qush chindan ham go'zal edi, deganday ohang tovlanardi. Bu go'zallik shu uyda vashovchi bir odamga atalganday edi. O'rta jimlik cho'kdi — kutilmagan to'xtam. Ammo uning nomi yo'q edi.

— Men uni ko'rgan zahotim uchib ketdi, — dedi Mattis.

Mana, hozir... hozir Xege o'zining darg'azab savolini beradi: nega qaytib kelding, ish qidirishing kerak edi-ku... Yaxshisi, o'zi boshlagani ma'qul.

— Menbop ish topilmagani uchun qaytib keldim. Shunday bo'lishini bilgandim. Undan tashqari bir odam, hozir jala quyadi, dcb qoldi. Ammo jala bo'lmadi, — dedi Mattis.

— Ha, bo'lmadi, — dedi Xege.

— Undan tashqari yo'lda meni bir tanishim to'xtatdi.

U bor haqiqatni aytgisi kelgandi. Va aytganlari hammasi haqiqat edi.

— Ana shunday.

Xege achchiqlanmadi, ammo qandaydir boshqacharoq edi. Boisi Mattisning yuzida o'sha go'zal qush juda chiroyli aks etgan edi.

14

Ertalab Mattis uyg'onganda, bugun loyxo'rak bilan birga bo'lamiz, degan quvonchli fikrdan yuragi hapriqib, o'ylab yotdi.

Buning ma'nosi nimaligini u tushuntirib berolmasdi, izohning hojati ham yo'q edi. Mattis uxlab yotganda bu yerlardan loyxo'rak uchib o'tadi va uylari ustida havoda yorug' yo'llar qoldiradi. Bugun kechasi ham, ertaga ham, har doim kechalari shunday bo'ladi. Uxlash Mattisga gunoh bo'lib ko'rinardi.

U qancha o'ylab ko'rmasin, bari bir loyxo'rakning paydo bo'lishi unga yaxshilik alomati bo'lib ko'rinardi. Nimadir o'zgardi. Mana, endi loyxo'rak shu yerda ertaib ham, oqshom usti ham juftlashmoqda, faqat ular odamlar uy-uylariga kirib ketishgandan keyin juftlashadilar.

Mattis, bu — yaxshilik keltiradi, deb hisoblardi. O'zi esa eshik tagida xohlagancha bu marosimni kuzatib o'tira olar, Mattis va loyxo'rak bir-birlari bilan hamjihat edilar.

Bugun ularni yangi kun kutayotgan edi.

Mattisning butun fikri-yodi loyxo'rak bilan band edi. U hech o'zini tutolmas, faqat u haqda gapirardi. Bu Xegening joniga tegib ketdi. Shunda Mattis loyxo'rak haqida Xege tushunmaydigan qilib gapirishga ahd qildi. Ana shunda Xege gap nima haqda ketayotganini tushunmaydi. Mattis esa gapirib xumordan chiqadi. Bugun ertaiab Xege uning oldiga taqsimchada ovqat qo'yayotgan edi, Mattis unga: — Endi u yoqqa, bu yoqqa uchaman, — dedi.

— Qanaqasiga? — sabr-toqat bilan so'radi Xege.

— Shunaqasiga. — Mattis barmog'ini loyxo'rak uchgan tarafga qarata suzdirdi. Xege ishga tutinmoqchi bo'ldi. U har vaqt shoshgani-shoshgan. Mattis esa ichidagi hayajonlarini u bilan baham ko'rgisi keladi, ammo Xege ko'rso'xtaday buni ko'rmaydi.

— To'xta, Xege, hali gap ko'p. — Tezroq bo'l.

— Sen ba'zi bir narsalar to'g'risida hech nima bil-maysan.

U bu gapni yumshoq qilib, biroz hadik bilan aytdi: har qalay u aqlli odamlardan biri bilan gaplashyapti, axir!

— Bo'la qol, ayt, nima gap?

— U yoqqa, bu yoqqa uchaman, — dcdi u. — Kechasi sen uxlab yotganningda... — deb tugatdi gapini.

Endi Xege unga katta odamga qaraganday qaradi. Keyin birdan g'alati bir narsani aytib yubordi:

— Senda shunday holat bo'lib turadimi, bu juda yaxshi. Lekin, menda ham shunday bo'lib turadi, deb maqtanolmayman.

Xege qimir etmay turar va endi o'zining sakkiz yaproqli murakkab gullariga shoshilmas edi. Bugun Xege ham shunga o'xshash allanimani eshitib, qotib qolgan ekan.

— Sen busiz qanday yashaysan? — deb so'radi Mattis va xatoga yo'l qo'ydi.

Shirin kayfiyat g'oyib bo'ldi. Xege, o'zi aybdor bo'isa ham, yana yakkalanib oldi — Mattisni yolg'iz qoldirib xonasiga kirib ketdi.

Mattisning ichida hamma narsa jo'sh urar va, biz loyxo'rak bilan birgamiz, deb qo'shiq aytardi. U har kuni osmonida ko'rinmas yo'l qolgan o'rmonchani bir kesib o'tmasa, joni joyiga tushmas edi. Endi, oxiri quvonchga ulanuvchi bu yo'l, uning yo'li edi. Mana, umidi haq ekan — bir joyda taqqa to'xtashga to'g'ri keldi.

Sen — bu sen, degan bir ovoz keldi ich-ichidan, har qalay shunday ovoz eshitildi.

Bu unga qush tilida aytili va qush yozuvida yetkazildi.

U aynan loyxo'rak juftlashgan joydan, qurigan ko'lmak ustidan chiqib, sehrlanganday turib qoldi. Va o'z nomiga yozib qoldirilgan maktubni o'qishga tutindi, shunday qilmasa kelajakda nima bo'lishini bilish mushkul edi.

Qurigan ko'lmakning silliq qoramtir o'zanida qush paypoqlaridan qolgan yozmalar, undan tashqari quruq yerda ko'pdan ko'p chuqur dumaloq teshikchalar

ko'rinib turardi. Loyxo'rak shu yerda yurgan. Teshiklar— tumshuqlar qoldirgan izlar — loyxo'rak tuproq ostidan qandaydir yegulik topib, tortib olgan, ba'zida yerga shunchaki yozuv yozgan, xolos.

Mattis engashdi va nimalar yozilganini o'qidi. Yengil raqs izlariga razm solib qaradi. Oh, mening loyxo'ragim, mana u qanday yengil va chiroyli ekan, deb o'yladi Mattis. Osmondan charchaganda botqoqlik bo'ylab mana qanday yengil-yengil odimlarkan.

Sen — bu sen, deb yozilgandi yerda.

Xuddi qutlovday.

Mattis bir tayoqcha topib, qoramtir maydonchani bo'sh bir yerga javob yozdi. U odatdagi harflar bilan yozolmasdi, bu axir loyxo'rakka bitilyapti-ku! Mattis ham qush tilida yozdi.

Loyxo'rak yanagi safar bu yerga uchib kelganda bu maktubni o'qiydi. Bu yerlarda faqat men yuraman, demak, bu xatni ham faqat men yozgan bo'laman. Atrof sokin va sirli, uchrashishga bundan yaxshiroq joy yo'q edi. Bu kichik botqoqlikni baland-baland daraxtlar o'rab olgandi. Quyosh bu sayhonlikka ham yorib kirib, saxovat bilan yoritir va hammadan qo'rqib yuradigan zotlar shu yerda raqsga tushsin uchun tuproqni quritib qo'ygan edi.

Uzzu kun va butun oqshom davomida shu yerda bo'lsa va qushni kutsa bo'laverarmikin? Balki, shu yerga kelib qo'nar va u bilan yonma-yon o'tirar, kim biladi deysiz?

Bu fikr ko'nglini jūda sust ketkazardi. Ammo Mattis, yo'q, degan qat'iy qarorga keldi. Bunday qilish-ga haqqi yo'q. Hammasi shu qadar g'ayrioddiy ediki... Qush cho'chib ketishi mumkin. U holda nimadir chil-chil sinadi... bungā esa aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

U loyxo'rakdan salom oldi, shuning o'zi yetarli. U ertalab yana bu yerga keladi va loyxo'rak maktubini o'qiganini ko'radi. Mattis uyga ketarkan mayin-mayin hushtak chalib borardi, ammo Xegega bo'lgan voqealarni aytib berardi: opasi bunday narsalarni anglab yetarmidi...

15

Mattis o'sha yerga sabrsizlikdan o'tday yonib ertasi kuni ham bordi — kutganlari uni aldamabdi. O'z belgilari yaqinida qush tumshug'i bilan o'yilgan yangi nuqtalar va chiziqlarni topdi.

Mattis bunga tayyor edi, lekin olgan taassuroti shu qadar kuchli bo'ldiki, bir toshga o'tirishga to'g'ri keldi.

Demak, oralarida chindanda aloqa bor ekan-da! Qush o'zining g'aroyib tilida unga nima dedi ekan?

Mattisning yuragi shubhadan xoli edi: qush unga otashin do'stlik to'g'risida yozgan. Nuqta, nuqta, nuqta. Bu belgilar mangu do'stlik ma'nosini bildiradi. Mattis tayoqcha olib, tantana bilan o'zi ham qushga aynan shunday munosabatda ekanligini bildiruvchi chiziqlar chizdi.

Qush tilida yozish oson. Ular bir-birlariga ko'p narsalardan darak berishlari kerak edi.

Yerda qush paypoqlarining yangi yozmalari paydo bo'lgandi. Mattis bu yozuvlar raqslardan qolgan izlarga o'xshaydi, degan xulosaga keldi. Mana bu yerda bir yolg'iz qush raqs qilgan.

Ammo pistirma yasab, raqsiga mo'ralash vijdonga xilof edi. Mattis atrofiga alangladi va:

— Qoyil-e! — dedi baland ovoz bilan.

Buni u odatda qo'pol eshitiladigan, kundalik inson tilida aytdi. Holbuki, u endi faqat qush tilida so'zlashgisi kelardi — uyga borganda Xegega ham qush tilida gapirsam derdi. Ehtimol, o'shanda opasi hozir tushunmayotgan narsalarini anglay boshlarmidi.

Ammo Mattis bunday qilishga botinmasdi, chunki bu nima bilan tugashini, g'ira-shira bo'lsa-da, tasavvur qilardi. Agar unday qilsam, ular meni tegishli joylarga tiqib qo'yishadi. Ular tillararo eng ajoyibi bo'lgan qush tilini bilgilar ham kelmaydi. Ular qush tilini yomon ko'radilar.

Mattisning ich-ichidan faworaday otilib chiqayotgan quvonch uning butun borlig'ini qamrab olgandi. U engashdi va yozuvlariga yana ozgina yozuv qo'shdi. U qurigan ko'lmakning butun o'zanini o'z xatlari bilan to'ldirib tashlashni ham eplay olardi. Lekin bunday qilmaslik kerak — loyxo'rakka yozish uchun joy kerak. Ular ikkovi har kuni bu yerga shoshilib keladilar, xuddi raqs tushganday yengillik bilan yuraklaridan otilib chiqayotgan so'zlarni yozib qoldiradilar.

Mattis bu yerni kashf qilganining uchinchi kuni ham yana hammasi takrorlandi, to'rtinchi kuni ham... Keyin Xege nima uchun Mattis har kuni o'rmonga borayotgani bilan qiziqib qoldi.

— Ihm! — deb javob berdi u. Opasi surishtirmay qo'ya qoldi.

Mattisda pistirma qurish ishtiyoqi bosh ko'tardi, ammo bu istagiga bo'ysunmadi. U har bir yangi kunni sabrsizlik bilan kutardi.

Beshinchi kuni u loyxo'rakdan navbatdagi xatni topmadi. Nima bo'ldiykin? Bugun ham o'rmonda hammayoq tippa-tinch shekilli?

Mattisni, loyxo'rak o'lgan, degan fikr kuydirib oldi.

Yo'q, yo'q!

To'rt kunlik yozishma Mattisni jūda qattiq rom etgan edi, o'zandan yangi maktub topmagandan keyin, darhol tasavvurida xilma-xil baxtsizliklar gavdalana boshladi, biri-biridan dahshatli. Shunday bo'lsa ham uyiga ketaturib, u yana

loyxo'rakka xat yozdi. K.echqurun esa, u eshik tagiga chiqib, navbatdagi juftlashuvni kutdi. Xege uxlardi.

Havo mayin va nam. Hammasi keragiday. Mattis kutilmaganda hayotni tushundi.

Vahti-soati yetgach, juftlashuvlar bo'lmaydi. Vahti-soati yetgach loyxo'rakning o'zi ham qolmaydi.

— Kim bu yerda baxtsizliklarni bashorat qilayotir? — dēdi Mattis birdan nam havoga vuzlanib. Shu payt o'sha tarafda u paydo bo'ldi — Mattisni intizor qilgan, har vaqt qalbini havratlarga soladigan qush, tanish va jonajon ovozlarni atrofga tarab, o'z odatiy yo'nalishida bamaylixotir uchib kelayotgan edi. Mattis Xegeni uyg'otishga ehtiyoj sezmadi.

Ertasiga Mattis uchrashuv joyiga kelganda uni yangi maktub kutar edi. Mana bizning oramizdagi do'stlik, o'yladi u.

Ko'lmak o'zanida hali bo'sh joylar bor edi, tez orada bu joylar ham nuqtalar va raqs tushgan loyxo'rak paypoqlarining izlari bilan qoplanajak.

16

Ammo bir necha kundan keyin Mattisni qattiq og'riq tutdi. To'satdan. O'zini qo'yarga joy topolmay zir-zir yugurardi. Xegening, senga nima bo'ldi, degan savoliga u:

- Qornim og'riyotganga o'xshaydi. Faqat o'xshaydi, xolos, — deb javob berdi.

— Biron nima yeganmiding? Yo havodanmi bu?

— Uyam, buyam emas, — deb javob berdi va hovliga uchib chiqib ketdi.

Loyxo'rak xavf ostida edi.

Shu kuni ertalab u yo'lda bir yigitni uchratdi, u yigit Mattislar uyi ustidan loyxo'rak o'tgani rostmi, deb so'radi.

— Albatta, rost, — javob berdi Mattis, odamlar loyxo'raklar juftlashuviga qiziqib borayotganidan mamnun bo'lib. Bu kungacha Mattisning o'zi bu haqdagi gaplari bilan odamlarga elakishardi.

Ammo shu ondayoq u qo'rqqanidan muzlab ketdi va javob qaytarganiga achindi. Oldidagi yigit ovchi edi — Mattis buni uning yonib turgan ko'zlaridan anglagandi.

— Lekin endi o'tmayapti. Juftlashuv mavsumi tugadi. Men achadan beri loyxo'rakni ko'rmadim.

Yigit miyig'ida iljayib qo'ydi: go'yo, meni aldab bo'psan, degandek.

— O'z ko'nglingda meni juftlashuv qachon to'xtashini bilmaydi, deb o'ylayapsan shekilli?

Mattisning hiylasi o'tmadi. Shunda u, yigitdan qushga tegmasligini so'ramoqchi bo'ldi, ammo har vaqtdagiday, bunga ulgurmasdi.

— Yaxshi qol, — dedi yigit va shaxdam qadam bilan tez jo'nab qoldi. Oftobda toblangan, xizmatchi desa degundek, baquwat edi. Bundaylarni mulkdorlar jon-jon deb ishga yollashadi, ularga ko'proq haq berishadi, qizlar ham bunaqa yigitlarga yopishib oladilar.

Lekin Mattis uning ko'zlari birdan yonib ketganini unutolmasdi. Bu — ovchi, endi bu yoqqa miltiq bilan keladi, o'rmon yoqasiga yotib olib, loyxo'rakni pistirmada kutadi. Otib o'ldiradi, xolos.

Balki bugun kechqurunoq kelsa kerak. Agar uning qorni og'rib qolgan bo'lsa — buning nimasi ajablanarli?

U buni Xegega aytgisi kelmadi — chunki aytsa, uning o'zi juftlashuv haqidagi gapni ovoza qilgani ochilib qoladi, bundan dahshatlisi yo'q edi. Endi juftlashuv haqida Mattis tufayli hamma xabardor — u o'zini o'zi yupatib ko'rdi, ammo bu yordam bermadi. Bugun ham u o'zidan hammasini bilib ketgani atay kelgan ovchiga juftlashuv haqida axborot berib qo'ydi-ya! Faqat Mattis buni juda kech fahmladi.

Qorni yanada qattiqroq eza boshladi.

Bu oqshom ajoyib edi, iliq va bulutli. Havodan yomg'irning ta'mi kelardi. Mattis biron joyda quro'li odamni ko'rsa xalaqit bermoqchi bo'lganday, har bir butani ko'zdan kechirib, uy atrofini aylanib chiqdi.

U hech narsadan umid qilib bo'lmasligini angladi. Bu o'rmon u yigitga o'xshagan vuzlarcha miltiqli kishilarni panasiga olishi va Mattis ularni hech qachon topolmasligi mumkin edi. Shunday bo'lsa ham u bu yerlarda borgan sari quyuqlashayotgan qorong'ilikni va butazorlarni ko'zdan kechirib aylanib yurardi. Vaqt o'tgan sayin ko'rinmas miltiqlardan qo'rquvi ortib borardi. Ha, ular bu yerda ko'pchilik bo'lsa kerak.

Yo'q, yo'q, yo'q.

U xuddi uyni qamalga olganday bo'ldi. Ammo buning vordami tegarmikin? Qushlar axir havolarda, baland-baland uchishadi. Mattis ularni ogohlantiribo'lganmikin, ular bo'g'otlarga kelishi mumkin, u holda kech bo'ladi. Juftlashuv boshlanganini ko'rib, u butunlay siqilib ketdi. Yuragi to'xtab qoldi. Mana, qush uchib keldi.

Bir lahza o'tdi. Mana, u qo'ndi. Mana, u yo'q. Mattisning yuragi teshilganday bo'ldi. Ammo, xayriyat, qush hech qanday xatarga uchramadi, o'q ovozi yangramadi.

Balki Mattis bularni o'ylab topgandir? Yo'q, u yanglishishi mumkin emas. Miltiq shu yaqin orada, birinchi urinishda u otilmay qolgandir. Mattis o'zining foydasiz aylanishini davom ettirardi.

— Hey! — u butazorni ogohlantirib qichqirdi. Hech kim javob bermadi.

— Hey! — qattiqroq qichqirdi u.

Javobdan asar yo'q. Lekin shu asno butalar ichida nimadir qisirladi. Tinch, ammo tahdidli.

Nima bu? Mattis ovoz qayoqdan kelganini payqamay qoldi. U yerda odamlar borligi aniq edi. U yana qattiqroq qichqirdi.

— Mumkin emas! — qichqirdi to'g'ri o'sha yoqqa qarab. — Bu yerda hech kim yovuzlik qilishga haqqi yo'q!

O'rmon sukut saqlar edi.

Hozir loyxo'rak ikkinchi marta uchib keladi.

— Kerakmas! — kuchsiz qichqirdi Mattis — ovozi bo'shashib ketdi. U biqingan o'qchini jinoyat qilmaslikka chaqirib, ogohlantirdimi yo yaqinlashayotgan qushni bu yerdan uchib ketishga undab, saqlab qolmoqchi bo'ldimi — buni o'zi ham bilmasdi. Balki ham undoq, ham bundoqdir.

Bu kungi oqshom o'rmonni tanib bo'lmay qolgandi. Har doim Mattis o'rmonda o'zini emin-erkin his qilgan bo'lsa, bugun kechqurun bu yerda ajal yashiringanga o'xshar, har yoqdan o'lim tahdid solar edi. Ko'k toqidan yoz oqshomi oqim bo'lib yog'ilar va sayhonlikni to'latib yuborgandi, ammo butazorlar ichida miltiq yashiringan edi. Va bu hamma narsani nobud qilishi mumkin edi.

Mattis uchinchi bora qichqirmoqchi bo'ldi, biroq qanotlar hushtagini eshitib, ochilgan og'zidan bironta sado uchib chiqmadi.

Mumkin emas, ichida mungli va sadosiz yig'i hiqilladi.

Qars! — Mattisning nazari yetmaydigan ichkarilikda, o'rmon bo'ylab gulduragan sado yoyildi. Shu ondayoq osmonda qush chinqirdi.

Qars! — tepaliklar bo'g'iq aks sado berdi.

Mattisni bamisoli joyiga mixlab qo'yishdi. Avval otilgan o'q uni qora tutun bo'lib bosdi, so'ng qorong'i osmondan yaralangan loyxo'rak quladi va Mattisdan ikki qadam narida yerga shalop etib tushdi.

Mattis avvalgidav, qimirlashga majolsiz edi. U xayollarini, itoatsiz o'ylarini tartibga solishga urindi. Shu payt butazorlar ichidan yigit yugurib chiqdi, Mattisning badani ham shu daqiqaning o'zida o'zini erkin his qildi. u lip etib sakradi va qo'rg'oshin bilan teshilgan iliq qushni darhol qoiiga oldi, ezilgan patlarini tekislab, qora ko'zlariga nazar soldi.

Qush unga qaradi.

Yo'q, yo'q, bu haqda o'ylamaslik kerak. Bunday o'ylash mumkin emas. Bu qush o'lik.

O'likmi, nega u o'lik bo'lishi kerak?

U axir Mattisga qaradi-ku!

Ovchi ochiq joyga chiqdi, yaxshi ovidan quvonib bemalol Mattisga qarab chopib kela boshladi. To'g'ri, bu o'sha, ertalab Mattis uchratgan xushchaqchaq va kuchli yigit edi.

Mattis hali ham qushni qo'llarida ushlab turardi.

— O'q uzishim zo'r-a, to'g'rimi? — Yigit yaraqlagan qora miltig'ini silkitib qo'ydi.

— Qush o'qday g'izillab ketayotgan edi, biroq men uni ko'rgan zahotim, miltiqni shart qo'lga oldim.

Mattis javob bermadi.

— Darvoqe, sen bunday narsalarni tushunmaysan, — dedi yigit. — Ammo bu, haqiqiy merganlik, zo'r o'q uzish edi. Ko'rdingmi, tap tortishga yo'l bermadim, u hatto tebranib ham ulguradi.

Mattis esankiragancha qushni qo'lida ushlab turar, indamas edi. Qushli qo'li qamchiday osilgandi, u xuddi nimani ushlab turganini unutgandek edi.

— Sen buni o'zingniki deb o'ylayapsanmi? — hayron bo'lib so'radi yigit.

Mattis indamas edi.

— Qani bu yoqqa ber, men qanday merganligimni uydagilarga ko'rsatishim kerak. Yigit Mattisga ko'z qisib, do'stona bosh ham silkib qo'ydi, ayni paytda miltiqni yelkaga osib, ketishga chog'landi.

Ammo Mattis unga qushni bermadi, itoat ham qilmoqchi emas, yigitga yeb qo'ygudek qarab turardi. Yigit ortiga tislandi.

— Nega indamaysan? — deb so'radi u, o'rmondan chiqayotgan paytidagi quvonchidan asar ham qolmagandi.

Mattis o'zini qo'lga oldi, hozirgina o'ziga qaragan o'sha qora ko'zlar haqida nimadir demoqchi bo'ldi-yu, ammo birdan u qora ko'zlar endi yo'qligini ko'rdi. U ko'zlarni endi to'r qoplagandi. Boshqa gapiradigan gapi yo'q edi. Shunda ham qushni bermadi.

Mergan yigitning hafsalasi pir bo'ldi. Mattis uning xursandchiligini buzib bo'lgandi. Shunda u bu ishning hech qanday xursand bo'ladigan joyi yo'qligiga aqli yetdi. Jismu jonida yoshlik, kuch va quvnoqlik jo'sh urardi. Ammo bu jimgina yuradigan Tentak uni qo'rqitib yubordi.

U butunlay boshqa ohangda:

— Nima gap, Mattis? — deb so'radi. Sukut.

Yigit tamoman dovdirab so'radi:

— Menga shundan jahling chiqdimi? Yana, avvalgiday, sukut.

Mattis qovushimsiz qimirlab qo'ydi. «Yo'q»mi yo shunga o'xshash bir so'zmi, ishqilib, nimadir deb to'ng'illagisi keldi. U, yerdan ko'z uzmasdi — qush qulagan joyda, o't ustida ozgina qon yiltillardi. Bu yoqda tumshug'idan haliyam

qon tomchilayotgan edi. Mattis boshini ko'tardi, bir so'z ham aytmay yigitga qaradi.

Yigit ortiq gap boshlashga urinmadi va Mattisdan qushni zo'rlik bilan tortib olmadi. U nima bilandir to'qnash keldi, nima bilan to'qnashganini tushunmadi va buni unutgisi kelib, yelkasidagi miltig'ini rosladi-da, ko'zdan daf bo'ldi.

Mattis loyxo'rak bilan qoldi. Uzun tumshug'idan o'tga qon tomardi.

Yigit ketgach, Mattisning tili kalimaga keldi va:

— Ko'zlarini to'r qopladi... Endi ko'rmaydi... Qanotlari ichida qo'rg'oshin, — dedi ming'irlab, ovozi arang eshitildi.

Mattis yigitni o'ylamasdi. Qushni bermay ahmoqona ish qildim, degan tuyg'u yo'q edi. U eshik tagiga keldi, ostonaga qoqilib, uyga kirdi. U yerda loyxo'rakni stolga qo'ydi.

Yo'q, bu bosinqirab ko'rilgan dahshatli tush emas, o'ngida bo'lib o'tgan hayotiy voqea edi.

Loyxo'rak tanida og'ir o'q bilan ko'zlarini yumib yotardi.

Uni yerdan ko'tarib olganda, u Mattisga qaradi, bunisi aniq.

Mattis bemahal paydo bo'lgan chog'larida Xege uni yomon qarshilashini ham unutib, uning eshigirii ustma-ust taqirlatdi. Albatta, u uxlab yotardi.

— Xege! Tur! Tezroq tur! Turmasang bo'lmaydi! — deb qichqirdi yot ovoz bilan.

Xege uyg'ondi, turmayman, deb javob berdi xohishsiz va asabiylashgan holda.

— Aramo turishing zarur, Xege. Bu yoqqa chiq. Falokat yuz berdi.

— Yana nima bo'ldi?

Mattisning ovozi shunday ediki, Xege shu ondayoq:

— Chiqyapman, chiqyapman. Nima bo'ldi u yerda? — dedi.

Xege o'z xayollariga cho'mgan, sochlari yoyilgancha o'rnidan turib keldi. Mattis bezovta qilganidan norozi edi. U hech nimani ko'rmadi. Mattis stolda yotgan loyxo'rakni ko'rsatdi.

— Ko'ryapsanmi?

— Uffo, nega bu irkitni stolga qo'yding? — Xege stoldagi qon tomchilarini ko'rib, odatdagidek, javraqi ohangda tergay boshladi. Ammo Mattisning yuzini ko'rib, darrov hushini yig'ib oldi. Yaqinroq keldi. Xege o'rmon hayotini yetarli darajada farqlay olar, stoldagi qush nimaligini bilmasligi mumkin emasdi.

— Bu sening Loyxo'raging-ku? Mattis ezilib bosh irg'adi.

— Men o'q ovozini eshitdim, — dedi Xege. — Buni senga kim berdi? Ovchimi?

— Yo'q, unday bo'lmadi, — dedi Mattis. — U otdi, ammo bu — qush uniki bo'ldi, degani emas.

— Bu loyxo'rakni sen o'zing oldingmi?

— U e'tiroz qilolmadi. Bu, axir, uning qushi emas! Tushunasanmi, Xege?

Xege javob bermadi. U buni tushunmadi, u buni tushuna olmas edi. Opa-uka stolda yotgan qushga qarab turishardi. Mattis uchun bu — tushunish juda og'ir bo'lgan muammo edi. Endi tushunish yanada og'irlashdi.

— Tushunasanmi, Xege?

— Yo'q.

— Demak, sen ham hammaga o'xshagan ekansan, — dedi Mattis alam bilan. — Gap jiddiy masalaga borib taqalganda doim shunaqasan.

U qattiq iztirobda edi. Xege yashin tezligida biron narsa o'ylab topishi zarur edi.

— Qushlar shundog'am oz yashaydi. Buni bilmaysanmi, axir? Aytmoqchimanki, agarda uni hech kim otmasa ham, uzoq yashamagan bo'lardi...

Mattis bosh chayqadi.

— Men qushlar uzoq yashaydi deb eshitganman. O'layotganda menga qaradi.

— Kim?

— Loyxo'rak! Uni verdan ko'tarib olganimda...

— Hali tirikmidi?

— Bilmayman, lekin u menga qaradi. Qaragani aniq.

— Bu haqda o'ylamaslik kerak, — dedi Xege. — Agar o'lgan bo'lsa, senga qarolmasdi. Bular bari keraksiz gaplar.

— Ko'zlari keyin to'r bilan qoplandi.

Xege gapga chek qo'yish uchun qat'iyat bilan dedi:

— Bu haqda o'ylashni bas qil. Qushni bu yerdan yo'qot, men uning stolda yotishini xohlamayman. Biz uni yemaymiz.

Mattis qaltirab ketdi.

— Uni yeyish... yo'q...

— Obor, uni biror kattaroq tosh tagiga ko'm.

— Karta tosh tagiga? Nima uchun?

— Unga boshqa hech kim zarar yetkazmasin uchun.

— To'g'ri aytasan, — Mattis minnatdorlik bilan gapirdi.

— Keyin tez qaytib kelib, uxlaysan. Boshqa hech nima qilishning iloji yo'q. Tushunarlimi? Bunday narsalarga sabr qilish kerak.

— Ha, lekin...

— Bo'ldi, Mattis. Ba'zida shunday ham bo'lib turadi.

— Buni o'zim ham bilaman, — deb qo'ydi Mattis. — Men sendan boshqa narsani so'ragandim, Xege yotog'iga kirib ketdi, yupun kiyimda bo'lgani uchun sovqota boshlagandi. Mattis esa loyxo'rakni opchiqib ketdi va hammasini Xege aytganiday qildi.

Mattis terlab-pishib ketdi, aramo ishning eng og'ir qismi bitgan edi. U loyxo'rakning bexatar yotishini o'ylab va uning izzatini joyiga qo'yish uchun, bahaybat bir toshni dumalatib keldi. Bu xarsangni olib kelishga bor-yo'q kuchini sarfladi. Tun yarimlagan edi.

Keyin biroz dam olgani shu toshga o'tirdi.

Agarda bu Xege bo'lganida... — deb o'yladi kutilmaganda.

Sokin iyun kechasi bu fikr boshidan izg'irib kabi seskantirib o'tdi. Mattis o'z fikridan o'zi qo'rqib ketdi. Birdan o'zini hamma tashlab ketganday ko'rindi — Xege ham, loyxo'rak ham — har ikkovi xarsang ostida yotardilar.

Shunda ko'zlarini to'r qopladi.

Shunda daryolar to'xtab qoldi.

U bor-yo'q quvonchidan ayrilganday, g'o'ldiradi. Uning barcha g'ayrioddiy so'zlari hamma vaqt quvonch bilan bog'langan bo'lardi. U xavotir bilan ko'lmakka, o'tlarga, uyqudagi o'rmonga qarab qo'ydi. Birdan sovqotib ketdi. Ming bor shukrki, Xegening yoniga borsa bo'ladi. Shuncha voqealardan keyin bu yerda Xegesiz qololmasdi.

U yana opasining eshigini tiqirlatdi.

— Oldingga kirib yotay, Xege, bir o'zim yotolmayapman, — dedi u eshik tirqishidan.

U g'ira-shira qorongida devorga taqalgan oyna tagida yotgan Xegeni ko'rdi.

— Kira qol, — dedi u, hayron qolarli darajada itoat bilan.

Demak, u ham uxlamagan ekan. Mattis kirganda:

— Aytganimni qildingmi? — deb so'radi mayin ovoz bilan.

— Ha, lekin...

— Yana bir narsa bo'ldimi? — deb so'radi u tezgina.

Uning mayin gapirishlaridan u battar qiynalib ketdi, uxlatmagani uchun jahl bilan urishib bergani yaxshiroq edi.

— Ha, ammo buni senga aytolmayman. Aslida shu boisdan sening oldingga uxlagani kelgandim.

— Hech nimadan qo'rqma, — deb qo'ya qoldi Xege.

— Qo'rqma? Nimadan?

— Bilmayman, ovozingdan shunchaki qo'rqayotganday ko'rinding. Sen bu qushni unutishing kerak.

— Yo'q! — Mattis qichqirib vubordi.— Men faqat loyxo'rakni aytmayapman.

— Kel, yonimda yot. Darrov uxlab qolishingga ishonaman.

U keldi. Opasining vonida, ko'rpa ustiga yotdi. Garchi u opasi bo'lsa ham, undan ayol hidi kelardi. Mattisning fikrlari aralashib ketdi.

— Boshmog'ingni yechib tashladingmi? — so'radi Xege.

— Ha, — dedi u. So'ng qo'shimcha qildi: — Qanday achinarli edi-ya, bu qush...
— Endi u tosh ostida tinch yotibdi, — Xege unga taskin berdi.
G'alati so'zlar.
— Nega bunday deyapsan? Javob o'rniga opasi ikki marta uning yuzlarini siladi. Qanday yaxshi-ya. Go'yo hamma dardlari ariganday bo'ldi.
— Uxla, Mattis.
— Xuddi qush qanotiday, — dedi u opasining yengil qo'llarini o'ylab.
Xege bamaylixotirjavob berdi:
— Ha, biz ikkimiz bu yerda... har doimgiday yonma-yonmiz. Qo'rqma.
U nima sabab bilan bu yerga kelgani borasida to'g'risini aytib yuborishiga sal qoldi. Agar senga hammasini tushuntirib bersam bu kecha ortiq uxlay olmasding, o'ylardi u.
— Sen menga nima demoqchisan? — so'radi u, chunki ukasini besh qo'lday bilardi. Mattis cho'chib tushdi.
— Hech nima!
— Bo'pti-bo'pti, keyin, bir kunmas bir kun aytarsan, hozir esa kel, uxlaylik.
U shu topda opasining qo'llari qaytadan yuzlarini silashini orzu qilardi, ammo orzusi behuda edi.
Eh, anavi qora ko'zlar.
Endi ularni to'r qoplagan.
Ustidan katta og'ir tosh bosib yotibdi.
Ammo ular insonga bir qaradimi, tamom, bu yerda na to'r, na tosh najot bera oladi.
— Xege, — dedi u ehtiyotlik bilan.
Opasi javob bermadi, endi uni chinakamiga uyqu bosganga o'xshardi — Mattis yonida, opasi tinchlangan edi.

IKKINCHI QISM

18

Beda sepilgan o'tloqlar shu qadar yaqin ediki, o'sha tomondan esgan shamol o'rmon osha ularning hidini olib kelardi. O'rim boshlandi.

Mattisning uyda oila boshlig'i bo'lib qolgani tinchlik bermay qo'ydi. Bunday paytlarda u kimgadir o'rimga yollanmasa bo'ladimi? Mas'ullik majburiyati ertadan kechgacha qoqqan qoziqday xayolida turardi. Haqiqatan ham kap-katta erkin bir odam dala ishlari qizigan paytda yulduz sanab o'tirsa uyat emasmi?

Uyda-ku o'rim haqida hatto og'iz ham ochilgani yo'q, ammo har daqiqada biron tomorqadan pichan o'rimiga yordam so'rab odam kelib qolishi mumkin. Shu boisdan Mattis hozir uyda Xegega qaraganda yetakchiroq shaxs edi. O'ziga ishonchi bo'lmagan odamga esa, yetakchi bo'lish — ham oson, ham qiyin.

Erta sahardan to qora shomgacha o'tloqlarda chalg'ilar shig'illashi eshitilardi. Mattis endi yetakchilik faqat o'zining haqqi ekanligini, yig'im-terimlar bevosita unga aloqadorligini bildirmoqchi bo'lganday ma'nodor qilib yo'talib-yo'talib qo'yardi. Ha, tez orada uni olib ketgani kelishadi.

Yo'q, hech kim kelmadi.

Yo'q, avvalgiday, bu yer tip-tinch.

Ya'ni Xege, odatdagiday, yashin tezligida to'qigandan to'qir, yangi koftalarni yoniga taxlab tashlayotgan edi.

Ammo bugun ham hech kim kelmadi. Mattis hamon ish kutayotganini bildirmoqchi bo'lganday yo'talib qo'yardi. Ertasiga ham uni olib ketgani hech kim kelmadi.

Umuman olganda, Xege ham, Mattis ham shunday bo'lishini oldindan bilardilar. Qishloqdagilarning hammasiga Tentak qanday ishlashi ma'lum edi. Xege bilan Mattisga ham bu ayon edi, ammo tevarakda chalg'ilar shig'illab turganda va hamma qora terga botib, pichan quritayotganda, odam beixtiyor, hozir birov chaqirib qoladi, deb umid qilarkan.

— Ular hozir rosa tez ishlashyapti, — Mattis xuddi o'zini oqlamoqchi bo'lganday gap tashlab qo'ydi. — Ularning mashinalari bor.

U parvosiz gapirishga uringan bo'lsa ham, baribir hayajonlanayotgani yaqqol sezildi. Bu ketishda u qanday qilib uy boshlig'i bo'lsin! Uyquga ketish oldidan:

— Loyxo'rak bo'lsa tosh ostida yotibdi, — dēdi. Xege ishini to'xtatib, norozi ohangda:

— Nima bo'пти? — deb so'radi.

— Ha yo'q, hechqisi yo'q, men, har neki qilsam-da, u tosh ostida yotaveradi.

— Sen qip-qizil mahmadanasan, quruq safsa-tavoz... — dedi cho'rt kesib Xege va o'z xonasiga qarab ketdi. Lekin xonasiga kirar-kirmas bunday ayovsiz so'zlar aytgani uchun afsuslandi.

— Men o'ylamasdan qo'rslik qildim, — dedi u. Mattis ajablandi. Xege sira bunday osonlik bilan so'zidan qaytmasdi. U fursatdan foydalanib:

— Ha, sen ko'p narsalarni tushunmaysan, — dedi Xegega.

Xege e'tiroz bildirmadi.

Bahorda u bunday gaplarni aytishga botinmagan bo'lardi. Balki Xege ajablangandir, ammo o'zini go'llikka soldi.

Ertalab Mattis yig'im-terimdan bosh ko'tarmay ishlayotgan, hali shudring nami ketmagan qishloq bo'ylab yo'lga tushdi. Yo'q, odamlarga o'jarlik bilan o'zini

ko'rsatib qo'ymoqchi emasdi. Sababini tushuntirish qiyin, uni ko'proq ishning ovozi o'ziga jalb etayotgandi. Chalg'ilar shig'illardi. O'tlar yiqilar, quritkichlar ustiga uyulayotgan pichanlar balandlab borar, chollar ham, yoshlar ham mehnat qilardi. Ko'rinib turipti, ular hammalari kuchli va aqlli edilar. Mattis to'xtadi: u har doim biron chiroyli narsani ko'rganda beixtiyor to'xtab qolardi.

Unga yo'lni kesib o'tayotgan bir kishi uchradi, quritkich yasashga kerak bo'ladigan bir quchoq tayoq olib kelayotgan edi, o'zini chetga olib ulgurmadi.

— Haliyam daydib yuribsanmi? — deb so'radi u. Mattis unga umid bilan qaradi.

— Biz g'aramlayotganimizda sen, balki pichan yig'ishga kelarsan, — dedi u noiloj.

— Mayli, — Mattis xursand bo'ldi. — Bu qo'limdan keladi, men ilgari ham pichan yig'ganman.

Kishi nafasini rostlab, nari ketdi.

Uyda Xege, bular bari quruq gap, dedi. Mattisni ikki haftadan beri qiynab kelayotgan mas'uliyat hissi xayolidan biroz chekinganday bo'lgandi — ammo bu gapdan keyin uy boshlig'i bo'lish yana Xegening zimmasida qolganini angladi.

Tun.

Atrofingdagilar hammasi faqat kuchli va aqlli kishilar bo'lsa, nima qilish kerak? Hayronman. Ammo har qalay. Nima qilish kerak? Odam tinimsiz nimadir qilishi kerak. Tinimsiz.

Uy tepasida, havolarda loyxo'rakdan qolgan yo'l cho'zilib turibdi. Qush-ku o'zi o'ldirildi, u endi katta tosh tagida ko'zlarini yumib yotibdi, ammo havoda yo'l qoldi.

Endi nima qilish kerak?

Xegening ahvoli yomon, bunga nima chora ko'rish kerak?

Hayronman.

Deraza ortida esa shamol guvullayotir, aslida, ehtimolki, shamol yo'qdir.

19

Kunlardan bir kun iyulning oxirida Mattis baliq ovlagani jo'nadi. Jilla bo'lmasa, ko'l bo'ylab o'z qayig'ida suzmoqchi bo'ldi. Haftaning o'tgan ikki kunida odamni sevintiradigan hech nima bo'lmadi. Qo'shninikida pichan tashigan kun hisob emas, birgina kunning nimasini hisobga qo'shasan?

Bugun Xega o'zi uni koiga jo'natdi. Ko'l jivir-jivir qilar, cheksiz-chegarasiz edi. Mattis uzoq-uzoqlarga, to kichkina tosh orolgacha suzib bordi. Qayerdadir,

olis bir joyda avval bir motor, keyin boshqasi tar-tar qildi, ammo umuman olganda ko'l kimsasiz, huvullagan edi. Qirg'oqning yaqin joylarida tanish tomorqalar, olis-olislarida esa notanishlari ko'rinardi.

Mattisning baliqchilik anjomlari ikki pulga qimmat, qayig'i esa undan battar — suv kiradigan yorig'i bor edi. Mattis qayiqda o'ylab o'tirgandi, boshmoqlariga suv tegib, seskanib tushdi va suvni cho'michlab sepib tashlay boshladi. Keyin yana o'yga cho'mdi. Qarmog'i qayiq quyrug'iga ulangan, po'kagi esa baliq ilkishini kuta-kuta uyquga ketgandi. Ufq tarafda teranlikdan iyul quyoshi lovullab ko'tarilardi. Mattis goh quyoshga, goh uning suvdagi aksiga qararkan, o'zini go'yo ikki quyosh oralig'ida o'tirganday his qilardi. Va o'zidan boshqa hech kim ěrta bilan bunday tinch havoda baliq ovlamasligini bilardi.

Ovlamasa ovlamasin, menga nima?

Baliq o'zi, odatda, hech kim kutmagan paytda qarmoqqa ilinadi, deb o'ylardi Mattis, shunday bo'lgach, men emas, ular Tentak.

U otlanib yo'lga chiqayotganda, Xege aytgan gapini o'ylardi:

— Sendan hech kim kulmayotgan bo'lsa ham, sen odamlar mendan kulyapti, deb hisoblaysan.

Xege shunday degandi. Bu so'zlar tomorqalar ko'ringanda xotirasiga qalqib chiqdi. U o'zini ochiqdan ochiq kimlar xafa qilganini eslashga urinardi. Ammo xira bolakaylardan boshqa, hech kim yodiga kelmadi. Orqasidan uni turli laqablar bilan atashardi, ammo odamlar har doim hammaning orqasidan gapirishadi. Shunisiga hayronman.

Suv bilq-bilq qilib boshmog'iga oqib kira boshladi. U yana cho'michiga yopishdi.

Ko'lda suzavotganda o'yga cho'mish mumkin emas, o'yni qirg'oqda o'ylash kerak, dedi o'ziga o'zi va qayiqqa kirgan suvni shunday jon-jahdi bilan sepib tashladiki, quyruq tomonda nuqralar buluti ko'tarildi.

Ammo tez orada yana o'yga cho'mdi — bu o'z-o'zidan yuz berdi. Baliq ilinmayotgani uchun ortiqcha vaqti ko'p edi.

U yashagan umri haqida edi. Hayoti ko'ziga xuddi tuman qoplaganday xira ko'rinardi. Mattis kichikligida oilani otasi tebratardi. Xegega o'xshagan kichkina va aqlli edi. Esini tanigandan buyon hamma uni bironta ish bilan mashg'ul bo'lishga undardi. Otasi erta taslim bo'ldi. Onasi esa Mattisga, hali hammasi o'zgaradiganday, umid ko'zi bilan qarardi. Ammo u Mattis o'spirinligida olamdan ko'z yumdi. Bir necha yildan so'ng baxtsizlik yuz berib, otasi ham o'rmonda halok bo'ldi. Bu voqea yodiga tushsa, har gal o'sha manzaralar ko'z oldida gavdalanib, Mattisni dahshatga solardi.

Xege ikkovlari yolg'iz qolishdi. Ular hozirgiday yashay boshlashganiga ancha bo'lgan. Mattisni birinchi marta Tentak deyishlaridan oldin, u hammaga o'xshamasligini tasavvur ham qilmasdi. Bu so'zni eshitgan kun hayotining bir chegarasi bo'lib qoldi.

Mattis tomorqali sohillarga qararkan, hech kim menga yomonlik tilamaydi, deya takrorlab qo'yardi. U Xegedan aytgan bu so'zlari uchun minnatdor edi va chindan ham shunday degan fikrni o'ziga singdirishga harakat qilardi.

U cho'michi bilan yana suvni sepib tashlamasa bo'lmay qoldi. Bu suv degani ham qaytmas balo ekan-da! Uni cho'ktirmoqchi shekilli?

Men cho'kkim kelmaydi, men yashagim keladi!

Eh, shu asno qarmog'iga ko'lga kelganiga arzigulik katta bir baliq ilinsavdi! Uyga zo'r ov bilan qaytardi!

Suvning tub-tublarida, qumloqlar aro naqshin soyalarday baliqlar ko'rinar, Mattisning qarmoqchasi aynan ular ustiga tashlangandi. Ular ham, xuddi Mattisning o'ziday, qilt etmay qotib qolishdi. Lekin juda hushyor, qochishga shay edilar. Mattis qo'lini sal qimirlatsa, shu ondayoq ular qaysidir bir qora chuqurga bekinib olishardi. Qarmoqdagi yemishga uchmasdilar. Ular ham aqlli edilar. Mattis qayoqqa bormasin, har yerda aqllilar tiqilib yotardi.

Xege bo'lsa bir ahvolda, deb o'yladi u birdan.

Xegening ahvoli yomon.

Mattis ko'l uzra buni o'ylamoqchi emasdi. Ammo bu o'zidan o'zi bo'ldi. Xegening bugungi tuni og'ir bo'ldi. Mana shuning uchun ham u tong otishi bilan Mattisni ko'lga jo'natdi.

Mattis kechasi uyg'onib kctdi, uning qulog'iga yoqimsiz narsalar eshitildi. Tovushiar Xegening xonasidan kelardi. Mattis oyoq uchida eshikka biqinib bordi va ichkariga qaradi. Xege yuzini devorga o'girib yotardi. Mattis chiroqni yoqdi, ammo Xege qimirlamadi.

Uni vijdon azobi qamrab oldi — hammasiga u aybdor.

— Yana men-a? — eshik yonida turib, ehtiyotkorlik bilan so'radi u.

Xege Mattisga o'girilmay:

— Yo'q! Senga nima a!oqasi bor? — deb javob berdi.

— Bo'lmasa kim aybdor?

— Hech kim, — javob berdi u. — Menga nima bo'lganini o'zim ham bilmayman.

U o'girildi — ko'zlari iztirobga to'la edi. Hammasi Mattis o'ylaganidan ham yomonroq edi. Mattis uchun yana bir muammoning cheti ochildi.

— Qo'limdan hech nima kelmaydi, — dedi Xege. — Bor, joyingga borib yot, Mattis!

Har doimgiday, u yana bir to'siqqa to'qnash keldi. Xegening holi yomon, deb o'yladi Mattis birdan. Xege meni boqadi, meni boqish uchun har kuni kofta to'qib, pul topisni kerak.

U opasining qoiini siladi:

— Xege! Lekin hali to'qiy olsang kerak-a? Xcge shart o'zini tortib, teskari o'girilib oldi.

— «To'qiy olsang?» Gapirma, nima deyayotganingni o'zing ham tushunmaysan.

Bu so'zlardan keyin Mattis ko'nqlidagi o'ylarini, avval uyalganidan aytolmagan fikrlarini to'kib sochishga majbur bo'ldi:

— Sen meni boqasan, har doim boqib kelgansan, — dedi.

Xege g'iq etmadi. - Men sen tufayli yashayapman. Bu kammi, axir? Bu juda ham muhim.

Umuman u bunday deb o'ylamasdi, unda bunday o'y butunlay yo'q edi, ammo aqliga kelgan dastlabki gapni aytdi.

Xege uning gapini tasdiqlab boshini Liqillatmoqchi bo'lgandi, manglayi devorga urildi, yengil gurs etgan ovoz eshitildi.

— Menimcha, bu juda ham muhim, — takrorladi tamoman esankirab. — Men uchun.

— Albatta, Mattis. Men uchun ham shunday. Ammo bu gap Xegega ozlik qildi. U devorga o'girilganicha yotar, yuzini Mattisga ko'rsatgisi kelmasdi.

— Meni o'z holimga qo'y. Mattis, bu mening ishim. Amal-taqal qilarmiz.

— Unday bo'lsa menga qara.

— Yo'q, — qaysarlik bilan javob berdi u. Bu safar Mattis Xegening yuzini ko'rmadi.

Mattis qo'llari shalvirab turardi. Xegega nima desaykin? Xegening o'zi ham o'ziga nima bo'layotganini bilmasdi. Holbuki, u juda aqli. U Xegeni yupatmay shatir-shutur qilib o'z xonasiga chiqib kctdi. Xege endi shunaqa bo'lib qoldi. Shu yildan e'tiboran. Unga nima bo'ldiykin?

Ertalab Xegening aftidan hech narsani bilolmadi, nonushta ustida ham Mattisdan baliq oviga borish-bormasini so'ramadi. Mattis taqdirga tan berib. ovga otlandi.

Qiziq, hozir Xege nima qilayotgan ekan? Nima uchun uni hech kim ko'rmasligi kerak?

Mattis qayiqda o'tirar va o'ylab o'yining tagiga yetolmasdi.

Bilq-bilq, qayiqning ichida suv gapirganday bo'ldi, bu gal uning ovozi balandroq eshitildi. Mattis cho'chib tushdi va o'ylashdan to'xtab hushyor tortdi — suv uning tizzasigacha chiqib ketibdi. Aftidan, qayiqqa o'tirayotganda, uning chirigan tubiga shikast yetkazgan shekilli — endi suv avvalgidan tezroq yig'ilayotgan edi.

Haddan ziyod berilib uzoq o'ylagan bo'lsa kerakki, iliq suv oyog'ini ko'ma boshlaganini ham sezmad: qayoqdagi narsalarni o'ylayvergandan keyin iliq suv odamga sezilarmidi?

Bu asno suv uni halok etishi ham mumkin edi, chunki u suzishni bilmasdi. Hozir u qayiq bilan birga suvning tubiga cho'kib ketadi.

— Xohlamayman! — deb qichirdi u ko'zlari qinidan chiqib. So'ng bor kuchi bilan suvni cho'michda tashqariga sepib tashlay boshladi. U suvga o'tirib olib, suvni yarim cho'michlab separd.

Men qirqqa ham kirganim yo'q, o'ylardi u, hali juda erta.

Mattis qora terga botib, suvni qancha sepib tashlmasin, u kamayish o'rniga ortib borayotganini angladi.

— Yordam beringlaaar! Cho'kyapmaaaaan! — U bor ovozi bilan baqirdi. — Hoooy, kim booor? Yordamgaaaa! Tezrooooq! Tezrooooq!

U haddan tashqari uzoqqa suzib ketgan ekan, baqirgani foydasiz, ovozi qirg'oqqacha yetib bormasdi.

Havo xiraligidan ko'rinmayotgan tomorqalarda uning chaqirishlari eshitilmasdi. U qancha harakat qilmasin, qayiqda suv hamon ortib borardi.

Bu hammasi juda tez yuz berdi.

— Yo'q! — qichqirdi u.

Mattis to'ppa-to'g'ri o'ziga qarab turgan ko'zlardan ko'zlarini uzolmasdi. Ko'zlar, faqat ko'zlar, ajalning ko'zlari.

Ammo Mattis o'lgisi kelmasdi.

— Xohlamayman! — qichqirdi u bo'zarib.

Suv sepib tashlashni davom ettirarkan, nihoyat, kichkina yalang'och orolchaga ko'zi tushdi. Yap-yaqinida. Faqat ungacha yetib olish kerak, shunda u qutuladi.

Kallasi tez va aniq ishlardi. U, cho'michni tashlab, eshkaklarga yopishdi.

Qayiq ancha o'tirib qolgan va suvi ko'payib og'irlashgan bo'lsa-da, harholda joyidan siljidi. Mattis jon-jahdi bilan eshar, kuchi odatdagidan ortib ketgan edi. Hozir u kuchi bormi-yo'qligi to'g'risida o'ylamas, faqat suvdan o'ziga qarayotgan bu ko'zlardan nariroq suzib ketishga oshiqardi.

— Xege! — qichqirdi u.

Xege uni eshitolmasdi, ammo u faqat Xegeni yordamga chaqirishi lozim edi. U har qanaqa falokatga uchraganda ham, har doim Xegeni yordamga chaqirardi.

Bu orada qayiq oz-ozdan orolchaga yaqinlashib borardi. Undagi suv yana bir necha taxta yuqoriga ko'tarilgan va o'ziga yangi teshiklar topa boshlagan edi. Qaytish to'g'risida Mattis o'ylamasdi.

U orolchaga yetib borishiga aqli yetgach, ortiq qichqirmadi. Hozir, hozir! U eshgan sari, butun borlig'i shodlikka to'la borardi. Mana, nihovat u qutuldi — toshloq orolga yetishiga ozgina qoldi.

Qayiqning tubi suv qa'riga tegdi va burni qirg'oqqa taqalib turib qoldi. Mattis qayiqdan chiqdi, obdan tinkasi quribdi, chiqa solib yerga o'tirdi. Qo'llarini yerga tiradi, terini artadi.

Sal bo'lmaganda...

O'tib ketdi-ya!

Xudoga shukur!

Bu orolcha kichkina suvosti qoyasining cho'qqisi edi, yoriqlaridan zaif o'tlar o'sib chiqqandi. Har qalay o'tiradigan joyi bor edi. Mattis nafasini rostlab oldi, hafta qayig'ini ham qutqarishga harakat qilib qo'rdi. U qayiqdagi suvlarni sepib tashlashga qaror qildi, ammo qirg'oqqa chiqarolmasligiga ko'zi yetdi, unga baribir suv kirishda davom etardi. Qayiq og'irlashib, o'tirib qoldi — uning hamma yog'i chirigan edi. To'g'ri, u endi suvga cho'kib ketmayotgan edi.

Bu yer sayoz bo'lgani uchun, u suv tubiga o'rnashib qolgan, Mattis qirg'oqda, qayiqning arqonidan tutib o'tirardi. O'tirishdan boshqa iloji ham yo'q edi. Boshqalarning yordamisiz bu yerdan suzib ketolmasdi. U arqonni qo'lidan qo'yib yubormasligiga sabab — uni bog'lab qo'yadigan hech narsa yo'q edi. Garchi u suv tubiga o'rnashgan va havo ham sokin bo'lsa-da, Mattis baribir uni qo'yib yuborishdan qo'rqqar, birdan shamol turib qolsa, bu chirik matohni surib ketishi mumkin, degan fikrda edi. Holbuki, uni hali sozlab olish ham mumkin — o'zini o'zi quvontirib, o'zini o'zi umidlantirar edi.

Ozgina bo'shashib olgandan keyin, yana biroz o'yga cho'mish — qanday rohat! Ammo bunga shoshilmasa ham bo'ladi. Quyosh qizdira boshladi, Mattisning joni yayrab ketdi — egni-boshi jiqqa ho'l bo'lib ketgandi. Kun shu qadar qizidiki, u hatto yechina boshladi. Uyga qanday yetib borish to'g'risida Mattis hozircha o'ylamasdi — hayoti yonga qoldi, boshqasi asta-sekin bo'laveradi.

— Eh, qanday zo'r bo'ldi-ya! — dedi u baland ovoz bilan, uyalmasdan. Bu yerda, bu orolchada o'zing bilan o'zing xohlagancha gapirishaverasan.

Favqulodda ruhiy hayajon va og'ir vumushdan so'ng Mattis bo'shashib ketdi, shunday chiroyli qizitib turgan oftobda tovlanib uxlagisi keldi. Qirg'oqqacha borish esa bir gap bo'lar. Ertami, kechmi kimdir bu yerga suzib kelar-ku! Qorni ochmagandi, faqat uyquasi kelardi. Biron kishi kelib qolmasidan oldin uxlab olish mumkin.

Ammo Mattis arqoni qo'lidan chiqib ketishidan qo'rqardi. Bu — uni o'zi sevgan hamma narsalar bilan bog'lab turuvchi rishtarasan edi. U uyqusini yengib ololmasligiga amin bo'lgach, birdan-bir narsaga, ya'ni o'ziga bog'lamoqchi bo'ldi. U arqonni to'pig'iga o'rab, pishiq tugun bilan tugdi. Qayiq suv tubiga mahkam o'rnashgan bo'lsa ham, kim biladi devsiz, bu hol uzoq davom etadimi, yo'qmi.

— Men seni, sen meni — ikkimiz bir-birimizni asraymiz, — dedi u qayiqqa qarab. Keyin hammasi birdan g'oyib bo'ldi.

21

Bu gal Mattisning tushiga hech nima kirmadi. Uyg'onganda, uzoq uxladimmikin, deb o'yladi-yu, lekin bilolmadi. Uni qulog'i ostida jaranglagan qiyqiriq uyg'otdi.

— Bir-ikki, tortdik! — qiz bolaning ovozi yangradi.

Mattisning to'pig'iga bog'langan arqon shu ondayoq taranglashdi, kuchli siltov uni suvga sudradi. Yo Rabim, bu nimasi?

— Yo'q! — qichqirdi u, aqliga kelgan birinchi so'z shu bo'ldi, o'tirdi, hamon yumilib ketayotgan ko'zlarini ishqaladi.

— Yana bitta tortdik! — qiyqiriq yangradi.

— Bir-ikki, tortdik!

Yana bitta siltov — suvga yaqinlashdi. Mattis o'nnglanishga urindi.

— Qo'yvor!

Nihoyat, qizlar hazillashyotganini tushundi.

Atrofiga qahqaha no'xatlari sochildi. Hatto og'ziga sariq no'xatchalarning mazasi kelganday bo'ldi. Qiz bolaning ovozi unga amr qildi:

— Qani tur, yigit, yo'qsa seni suvga bo'ktiramiz! Ikkinchi ovoz:

— Nega qayiqdan suvni sepib tashlamading? Qayig'ing suv tubida turibdi-ku!

Mattis boshini cbayqab-chayqab oldi — bu tush emasligiga ishonch hosil qilmoqchi edi. Keyin qo'lini qoyaga urib ko'rди, lat yedi, nihoyat ko'zlariga ishondi. Yuragi qinidan chiqib, naq tomog'iga tiqildi. Yo'q, bu tush emas, o'ngida chiroylikkina ikki qiz u bilan yonma-yon turishardi.

— Seni qayiqdan yechib olaylikmi? — deb so'rashdi ular, kula-kula. — Bunday qilish telbalik-ku!

— Ha, to'g'ri, bu — telbalik, — u darhol ularning gapini qabul qildi va fikrlarini jamlashga urindi. — Men bunga o'rganib qolganman, — deb qo'shimcha qildi, uning biroz jonlangani sezildi — katta-katta ko'zlari yanada kattalashdi.

Qizlar uni eshitishmadi, nimaga ishora qilayotganini anglashmadi ham. Ulardan biri oyog'iga engashib, bog'ni yecha boshladi. Mattis yashiriqcha qizga qaradi,

uning barmoqlari yalang'och oyog'iga tegayotganini sezdi; bu manzara ham, sezgi ham Mattis uchun odatdagidan boshqacha edi. Nihoyat birato'la hammasini ko'rdi: qizlar minib kelgan, yaqinginada qo'ldan chiqqan orasta qayiq uning suvga botib turgan qayig'i bilan yonma-yon turardi; qizlaming o'zi, hamma dam oluvchilar singari, xushchaqchaq, oftobda qoraygan edi. Qayiqda sarg'ayib ketgan kurtkalar yo qandaydir boshqa kiyimlar yoyilib yotardi. Qizlar ichki cho'milish kiyimida va xohlagan daqiqasida suvga otilishlari mumkin edi.

Mattis tez-tez ularni ko'zdan kechirdi. Hozir muhimi — bironta telbalikka yo'l qo'ymaslik. Agar ishni buzsa, keyin uzoq vaqtgacha uyalib va o'kinib yuradi. — Orzu qilgan narsalarim doim tushimga kiradi, bu esa xuddi tushing o'zi, — olis sohillarga qarab, u shunday gap boshladi. Bu qizlarga, ularning ziynatlariga qarash mumkin emas. — Men, ochig'ini aytsam, ko'p narsalarni orzu qilaman, — qo'qqisidan qo'shimcha qildi u.

Qizlar unga hayron bo'lib qarashdi:

— Nimalar deyapsan?

— So'ramanglar. Buni hech kim tushunmaydi.

— Mayli, so'ramaymiz, — dedi qizlardan biri. — Biz ham nimalarni orzu qilmaymiz deysan, bu bizga tushunarli.

Qizlar unga xayrixohlik bilan qarab qo'yishdi. Ha, ular aqlli, o'yladi Mattis.

— Men sizdaqalaming ko'pini ko'rganman! — U yana o'zi uchun kutilmaganda o'rinsiz gapirib qo'ydi. U o'znini o'zi ruhlantirmoqchi edi. — Yozda biz tomonlarda dam oluvchilar tiqilib ketadi: yo'llarda ham, do'konlarda ham — hamma yoqda ularni uchratish mumkin. Sbunday bo'lgach, juda o'zinglar-dan ketmanglar...

Mattis jim bo'ldi. So'ng ularga achchiqlanib qarab qo'ydi. Ularga achchiqlanib va g'azab bilan qarashga haqqi bor, har qalay unga shunday tuyulardi.

Qizlar awalgiday ochiq chehra bilan jilmayishdi.

— Biz seni tushunamiz, — deyishdi ular. — Sen jūda sodda odam emasligingni bir qarashdayoq bilganmiz.

Mattis ular o'zi haqda hech nima bilmaganlari uchun xursand bo'lib, darhol boshini ko'tardi. O'z jur'atiga o'zi qoyil qolayotgan edi. Qizlar bilan xotirjam gaplashib, ko'zlariga bemalol qarayapti.

Ammo birdan yana uzoqlarga tikildi va juda sekin, butunlay boshqacha ovoz bilan:

— Sizlar qayoqdan suzib keldinglar? — deya so'radi.

Ular siyrak tuman ichra zangorlanib turgan qirg'oqlarga qarata beg'amgina qo'l silkib qo'yishdi.

— Biz ikki haftadan beri o'sha yerda turibmiz. Bugun havo yaxshiligi munosabati bilan qayiqda aylanib kelishga ahd qilgandik, — deb javob berdi qizlardan biri.

— Orolchada cho'milamiz dedik-da, shu yerga kelaverdik, — dedi boshqasi Mattisga ko'z qisib qo'yib. — Suzib kelganimizda, bu yerda ba'zi bir narsalarni

ko'rib qo!dik. Har safar qizlarga o'girilib qaramoqchi bo'lganda, ichidan, bunday qilma, degan ovoz kelardi. Avvalgiday, uning nazari yot qirg'oqlarga qadalgan, qizlar esa hikoyani davom ettirishardi:

— Oldiniga biz bu yerda kema halokati yuz beribdi, deb qo'rqib ketdik, lekin yaqinroqqa suzib kelganimizda, qo'rquvimiz tarqab ketdi.

— Bu yoqimli halokat edi, — dedi Mattis sabrsizlik qilib, chunki baxtiyorlikdan orziqib ketayotgan edi.

— Ammo sen har qalay halokatga uchragansan, — dedi qizlardan biri, — aftidan, cho'kib ketayotganingda, orolchada jon saqlagansan.

Mattis «ihm» deb qo'ydi.

— Sizlar bu yerga suzib kelganinglar, bu endi arzimagan narsami? — dedi u yurak-yurakdan.

— Qanday go'zai aytiladi-ya bu gap! — deb maqtab ketishdi ular.

Bu so'zlar uning xotirasiga muhrlandi. Go'zai aytiladi, deyishdi ular. Balki, aqlli hamdir.

— Sizlar ilgari qachondir meni ko'rganmisizlar? — so'radi u va yuragi entikib ketdi, axir bu savolni berishdan o'zini tiyolmadi-da. — Masalan, aytaylik yo'ldami. do'kondami va yo boshqa yerdami?

Ular bosh chayqashdi. Qanday ajoyib manzara!

— Yo'q, biz axir uzoqda turamiz va bu yerda hech kimni tanimaymiz.

— Men to'g'rimda hech nima eshitmagansizlar-a?

— Nima eshitishimiz mumkin, biz hatto sening kimligingni ham bilmaymiz-ku!

Munchayam aqlli-ya, bu qiz! Shunaqalariyam uchrab turadi.

Mattis uzoqlarga qarayotgan bo'lsa-da, baribir ko'z qiri bilan qizlarni ham sal-sal kuzatardi. Ular qanday bosh chayqashganini ham ko'rdi: yo'q, bular hech nimani bilishmavdi. Mo'jiza!

— Eshitganimdan xursandman, — dedi u. Bu naqadar ajoyibligini izohlay olmasdi.

Qizlar tegajaklik qilishdi:

— Nima, yomon ot chiqarganmisan?

Gapni qarang! Kulishsa kulishaversin, unga nima. U so'ragani butunlay boshqa narsa, hozir bu — hayot va mamot masalasi edi.

— Nega sen nuqul suvga qaraysan? — deb qiziqish-di ular. — Suvda nima ko'rib qolding?

— Hech nima, — tez javob berdi u. — Qiziqadigan hech nima.

— Ko'rgandirsan har qalay?

— Yo'q-yo'q, — jiddiy javob qaytardi u. — Buning uchun emas. Nafs balosiga duchor bo'lmaslik uchun o'sha yoqqa qarayapman.

Qizlarning ovozi o'chdi, jilvalari, nigohlari so'ndi: Mattis birdan jūda g'alati bo'lib qoldi.

— Sen bizga qarashdan qo'rqasanmi? — ehtiyot bo'lib so'radi qizlardan biri.

— Nafsning so'ziga kirish boiadi bu, — past ovozda javob berdi Mattis, ammo qimir etmadi.

Qiz nima deyishni bilmay qoldi. Mattisning yuragi kaftda turganday va sal narsaga jarohatlanishi mumkin edi. Dugonalar bir-biriga qarashdi: ular, aftidan hech nimaga tushunishmagan edi. Mattisning ovozi, yuzi, nigohi ularning hingir-hingir kulgisini taqqa to'xtatib qo'ydi. Dovdirab, xijolat boiib turishardi.

— Xohlaysanmi, qirg'oqqacha suzib borib, bitta-yarimta odamni chaqiramiz, qayiq bilan kelib yordam bersin? — dēdi ulardan biri uyalib.

— Yo'q-yo'q! — yolvorib xitob qildi u.

— Anna, kel yaxshisi, niyat qilganimizday, bir cho'milaylik, — gap topdi boshqasi. — Hozir ayni cho'miladigan mahal.

— Bo'pti! — Anna degani yengil tortib javob berdi. — Shundan zo'ri yo'q!

— Tezda ko'rishguncha! — deb ketishdi Mattisga, yelka osha luqma tashlab.

So'ng yozning iliq suviga otilishdi. Baliqday suvga sho'ng'ib, uzoqlarga suzib ketishdi. Endi Mattis ularga bemalol qarayverishi mumkin edi.

Ular yana bu yoqqa qaytishadi, o'ylar edi u, quvonchdan titrab. Qayiqdari shu yerda. Qirg'oqqa chiqishadi.

— Men ular haqda o'ylashgayam qo'rqaman, — dedi u shivirlab, olislarda ularning sho'ng'ishlaridan ko'z uzolmasdi. Ular o'sha joyda allanimalar deb javrashardi. Keyin suzishdan to'xtab, unga qo'l silkitishdi.

— Heeey!

Mattis joyidan siljimadi. Ammo qaddini rostlab, o'ng'aysiz qo'l ko'tardi va hadik bilan shu ondayoq past tushirdi.

Nihoyat qizlar orqaga suzib kela boshladilar, yana dadil va xushchaqchaq bo'lib qolishgandi.

— Biz hayotingni saqlab qolishimiz, seni qirg'oqqa olib ketishimiz kerak! — deb qichqirishdi unga. Ular suvda sakrab, suvni shapillatishar, oyoqlarini shunday yuqori ko'tarishardiki, suvdan chiqqan barmoqlarigacha yaqqol ko'rinardi.

— Biz taraf uzoq! — Mattisning qo'rqib ketgan ovozi o'qday yangradi. Ularning so'zlari naq ustiga issiq suv sepganday bo'ldi.

— Bizning shoshilinch ishimiz yo'q, vaqtimiz bemalol, — deyishdi ular va pishqirib suvni ko'piklan-tirishdi. Lablari qip-qizil yoqutday edi. — Agar oting nimaligini aytsang, seni qirg'oqqa oborib qo'yamiz. Beshikast, bus-butun holda.

Mattis boshini chayqadi. Ammo ular so'zini o'tkazish payida edilar. Ular shundoq orolcha yonida vaqtichog'lik qilib suzishar va unga o'zlari haqida so'zlashardi:

— Mening otim Anna, buniki — Inger. Ko'rdingmi: hech qiyin joyi yo'q. Endi sen ayt.

Mattis boshini chayqadi.

— Yo'q, sababini sizlarga aytdim-ku!

— Aytmasang aytma, keragi yo'q. Taslim bo'lmaguningcha shu yerda o'tirasan, qaysar eshshak! — Ular bir-birlariga suv sepa boshlashdi.

— Unday deyish kerak emas! — deb qichqirdi Mattis ularga. — To'xtanglar, axir! Sizlar hech nimani bilmaysizlar!

Qizlar uni tushunmay, orqalarini o'girishdi. Yana vaqtichog'lik bilan goh bir-birlariga suv separ, goh suvga sho'ng'ishardi.

Ishqilib, meni tashlab ketishmasaydi, o'ylardi Mattis. Suzib ketib qolishmasin-da. Bunday voqealar har kuni bo'lmavdi, axir, umrda bir marta bo'lishimumkin. Keyin u boshini egdi va yana taqdiridan nolidi: mayli, hozirning o'zidayoq, men to'g'rimda hech nima bilmasdan oldin, suzib keta qolishsin: shunday bo'lgani yaxshiroq.

Qizlar uh-uhlab qirg'oqqa chiqdilar, sochlarini orqaga tashlab olgandan keyin, qayiqqa borib engashdilar, sochiqlarini olib artinch, Mattis bilan yonmayon oftobda toblanib yotdilar — orolchada baribir boshqa joyning o'zi yo'q edi.

— Sen bizni aybga qo'shma, — dedi Inger. — Bu orolchada pana bo'ladigan joy yo'q, hamma yoqda faqat qirrador toshlar. Bizning bunday yotishimizga chidaysan endi.

So'ng ikkala qiz ham ko'zlarini yumdilar. Oftob ularni qizdirdi. Qizlarning muattar hidi Mattisni behush qilardi.

Uning vujudida dovul guvullardi. U qilt etishga ham botinmasdi. Qayig'iga ham ketolmas — qayiqning tubi o'sha-o'sha suvga to'la; qo'l silkib chaqirishga boshqa qayiq ko'rinib qolmasmikin, deb g'ussa bilan suvga qarardi. Ammo qayiqlar ko'rinmasdi.

Xudoga shukur, der edi ichida boshqa bir ovoz.

Har qancha xijolat bo'lishiga qaramay, bu holni dunyodagi hech bir narsaga almashmasligini ham bilardi. Qizlar Mattisning qanaqa odamligini payqashmadi, shuning uchun u o'zini eng oddiy odamlarday tuta olardi. U hatto ozgina nafsga ham berilib ularga qaradi — qizlar ko'zlarini yumib yotishardi.

Nima bu?

Juda qiziq. Haddan tashqari.

Bunaqasi bo'lmaydi.

Doim meni entiktirgan tanish hid jonimga jon baxsh etmoqda.

Bularning hammasini ko'rib yotish.

U, yaqinida yotgan Anna bir ko'zining xiyol ochiq yorig'idan ko'z nurini yiltiratib o'zini kuzatayotganini sezdi va titrab ketdi. U xuddi bir joyi kuygandek, darhol nigohini chetga oldi.

Nafsim hech bunday xuruj qilmagandi. Xege nima derkin?

Vujudida hamon dovul guvullardi. Hech kim qimirlamadi. Yalang'och badanlardan xushbo'y hid taralardi.

Sal fursat o'tgach, Mattis osmonga qarab:

— Per, — dedi. Badanini qaltiroq bosdi. Annaning ko'zlari katta ochildi, shundoq biqinginasida sal ko'tarildi.

— Nima deding?

— Per.

Bu dahshat edi. Ammo Mattis yolg'on gapirib qo'ydi, endi jim bo'lolmasdi.

Annadan ko'ra Ingerning fahmi o'tkirroq chiqdi. Mattis nima demoqchi bo'lganini darhol tushundi va boshini ko'tardi.

— Uning oti Per ekan, shuni aytmqchi. Biz unga po'pisa qilgandik, shundan qo'rqib ketgan.

Annaning chehrasi yorishdi.

— To'g'ri. Yashavor, Per. Oxiri bizga otingni aytganingdan xursandman.

Mattis o'z qilg'idan cho'chinqirab bosh irg'adi.

— Endi uyingga oborib qo'yamiz, so'zimiz so'z, chekinish yo'q. Lekin oftobda biroz toblanaylik, maylimi, Per? — dedi Anna.

— Albatta, ozgina toblanamiz, — uning uchun javob berdi Inger.

Ajabo, u Mattis qanday odamligini bilib olganga, xohishlarini payqab turganga o'xshardi. Mattisning og'zi qulog'ida edi.

— Faqat qo'rqib turibman, Xege... — deb gap boshladi-yu, tili aylanmay qoldi. — Mayli, hechqisi yo'q.

Ammo ular eshitib ulgurishgandi.

— Kim u, Xege? Sevgan qizingmi?

— Yo'q, opam. Men boshqa narsa demoqchiydim... — U yana gap topolmay qoldi.

— Yo'q-yo'q, muhimi bu emas, eshitdinglarmi? Agar odam Xegeday fahmi o'tkir bo'lsa...

— Bunga shubham yo'q, — dēdi Inger.

— Odam Xegeday fahmi o'tkir bo'lsa, unga hammasi ham pisand emas, — dēdi Anna.

— U chanhlangan pichoqday keskir bo'ladi, — dedi Mattis, qo'rqinchli so'z o'yini qilib.

— Uh, seni qara-yu, muncha odamning kayfini uchirmasang! — deyishdi qizlar birin-ketin.

Esingni yig', Mattis, ehtiyot bo'l, unga ogohlantiruvchi sado keldi. Tahlikali sado. Lekin bunday hol boshqa takrorlanmaydi. Bunday gaplarni gapirish mumkin emas. Odamlarni aldash mumkin emas. Bilaman. Ammo bu umrda bir marta, bir martagina bo'ladi!

— O'tgan gapga salavot! — dedi u jiddiy, baland ovoz bilan, fikrini davom ettirib.

— Dono so'zlar, — dedi sabr-toqat bilan Inger. Balki baxt degani shudir. Baxt, shu qoq quruq orolchada, undan so'ramasdan keldi. Baxtga erishish uchun u hech nima qilmadi.

Ikki qiz u bilan yonma-yon yotar va undan zarracha ham qo'rqmasdi. Ular shundoq yonginasida. Mattis ularga qo'l tekkizishi ham mumkin edi. Quyosh Mattis uchun ularni zarhallagan, ikki haftadan beri tilla rangiga bo'yagan edi.

U bir nima deyishi, qandaydir bir antiqa gap aytishi kerakligini sezib turardi.

— Inger! Anna! — dedi u ilk bora otlarini tilga olib. Ovozidagi jiddiy ohang, ko'zlaridagi chaqnagan yulduzlar ularni turib o'tirishga majbur qildi.

— Nima deysan? Ayt aytadiganingni, qulog'imiz senda, — deyishdi ular maroq bilan.

Hech qachon hech kim ulaming nomini bunday mehr bilan tilga olmagandi. Shuning uchun qizlar darhol: «Nima deysan? Ayt aytadiganingni, qulog'imiz senda» deyishdi itoat bilan. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan holat.

Endi Mattis bu holatning hokimi edi. U yosh ayollarga qaradi. Keyin vujudini lim-lim to'latgan go'zal tuyg'ularni xuddi to'kib yuborishdan qo'rqqanday ehtiyotlik bilan:

— Hech nima. Faqat shu, — dedi.

Shu bilan xuddi hamma gap aytilganday edi. Qizlar qalblarining tub-tubida neniki sog'inib yurgan bo'lsalar, Mattis ularga o'sha narsani aytdi. Shunday bir shaklga solib aytdiki, ular buni tushunishdi va ma'qullashdi.

— Per, — deyishdi ular ham, Mattisning notavon va yangilangan qiyofasiga nazar tashlab: bu ayanchli va baxtsiz qiyofa birdan anglashilmas darajada go'zallashib ketdi. Ularning hech biri shu onda qimirlamadi.

Bunday hodisalar uzoq davom etishi mumkin emas. Mattis buni bilardi. Ich-ichidan tahdid solib yomg'irli daqiqalar yaqinlashib kelardi. Bundan qutulish uchun insondan qat'iyat talab qilinardi.

— Inger! Anna! — dedi u endi boshqa ohang bilan. Shunda qizlar xavotirga tushdilar.

— Nima bo'ldi? — dedi cho'chib Anna.

— Maza qilayotgandik, — dedi Inger. — Kel, yana biroz yotaylik.

Anna atrofini ko'zdan kechirdi: suvni, olis qirg'oqlarni, moviy bulutlar ostidagi tog'larni — o'zining tarovatli badanini bergan bu ajoyib kunni ko'rdi va shartta Mattisga qarab o'girildi.

— Agar sen jannatda yashamayotgan bo'lsang, bilmadim, qayerda yashaysan, — dedi u. Mattisning termilib qarashlaridan o'zini yo'qotib.

— Bu jannatda vashash oson emas, — Mattisning ichidan bir nido otilib chiqdi.

— Bu bilan nima demoqchisan?

— Sizlar hech nimani tushunmaysizlar! Sizlar meno'ylaydigan narsani emas, boshqa narsani o'ylaysizlar. Qizlarning aftidan, ular buni gapirishga mayllari yo'qligi ko'rinib turardi.

— Nimani o'ylaymiz?

— Sizlar menda biron narsani payqadinglarmi? — deb so'radi Maftis. U hech tinchlanolmay, flkri-yodi faqat bir narsa atrofida aylanardi.

Anna qattiq va qat'iyat bilan javob berdi:

— Yo'q, Per, biz sen haqda bilganlarimizdan ortig'ini bilishni xohlamaymiz. Shuning uchun — gapirma!

Inger esa qo'shimcha qildi:

— Ha, Per, yaxshisi gapirma!

Bu uni jim bo'lishga majbur qildi, ich-ichidan chiqib kelayotgan ovoz ham jim bo'ldi. Mattisga ortiq qat'iyatning zarurligi yo'q edi. Bular ajoyib qizlar edi.

— Hamma narsa go'zal, — dēdi u. — Inson gapirishni bas qilganda keraksiz gaplar gapirilmaydi.

Bu gapi o'ziga aqili bo'lib tuyuldi.

Qizlar ma'qullab bosh silkitishdi.

Endi ular, allaqanday sinuvchan, murakkab va chigal narsadan qutulib, kulishar, oyoqlari suvga tegib turardi.

— Biz bugun sening shu orolchada bo'lib qolganingdan behad xursandmiz, — dedi Inger.

Mattis Annaga qaradi, undan ham bir gap kutardi.

— Men ham xursandman, — dedi Anna, birdan xatosini anglab.

— Men ham, — dedi Mattis, har qachongidan bo'lakcha muomala qilib.

— Endi esa biz seni uyingga oborib qo'yamiz! — Ular sakrab o'rinlaridan turishdi va Mattis yana ularning go'zalligini ko'rib, ko'r bo'layozdi.

22

Inger va Anna o'z qayiqlarini suvga itarib tushirishdi. Bo'sh qayiq to'lqinlar ustida chayqaldi, u shu qadar yengil ediki, tirnoqcha ham botmay, suv ustida yotganday tuyulardi.

— O'tir, Per.

— Buni nima qilamiz? — dedi Mattis, suv to'la qayig'ini ko'rsatib. — Men uni obketishim kerak, bo'lmasa bu ko'lda suzolmay qolaman.

— Biz uni nima qilishimiz mumkin?

Bu yog'ini Mattis bilardi, shu bois butunlay xotirjam edi.

— Men buyruq beraman, sizlar aytganimni qilasizlar.

U bunday ahvolga tushganidan benihoya xursand edi, qizlarga suvga tushinglar deb buyurdi, uchovlari birgalashib qayiqni engashtirdilar va suvning bir qismini to'kdilar. Hammasi u aytganday bajarildi, shunda kichkina qayiq suvda, suzib yurgan holda chayqaldi. Keyin Mattis ularga qayiqni qirg'oqqa itarishni buyur-di, o'zi arqonidan tortdi. Qizlar qiychuv ko'tarib qayiqni itarishdi, nihoyat deyarli butunlay qirg'oqqa chiqarildi.

Qizlar shovqin solib, besababdan belsabab xaxolashardi, so'ng o'z cho'michlarini olib kelib, qayiqdagi suvning hammasini sepib tashlashdi.

Qayiqning yon devorida teshigi topildi, ammo bugun Mattisning kallasi har qachongidan yaxshi ishlayotgan edi — qayiqning uchidagi burunchasini kesib olib, pichoq bilan uni teshikka qoqdi.

— Agar qayiq bo'sh bo'lsa, bu yoqqa suv kirmaydi, teshik suvdan yuqoriroqda-ku, — dedi u.

Bularning hammasini qizlarning ko'z o'ngida qoyillatib qila olganidan xuddi is tekksanday mast edi.

— Qarab tursak, sen qayiq boshqarishda ustasi farang ekansan, — dedi Anna.

Mattis mag'rur jilmayib qo'ydi.

— Shoshmay turinglar, hali boshqa jihatimni ham ko'rasizlar.

Uning yana bir zo'r tomoni bor, tezda buni ham ko'rsatadi — u ajoyib eshkakchi!

Mattisning qayig'ini shatakka oldilar. Inger o'rgan-gan joyiga eshkak eshgani o'tirdi.

— Yo'q, bunaqasi ketmaydi, — dēdi Mattis. — Eshkakni men eshishim kerak. Tushunarlimi?

— Nega endi?

Mana o'sha, ularni tong qoldiradigan lahza!

— Chunki men eshkaklarning ta'zirini berib qo'yaman!

— Tushunarli. U holda, o'zidan o'zi, eshish sendan. Bir yog'i erkak kishisan.

— Ha, bu yog'i ham bor, — tasdiqladi Mattis. — Ko'rdinglar, bir yoqda teshik-tirqishlarga tiqin qoqishni ham qoyillataman.

Anna iljaydi.

— Ha, Inger, o'rningni bermasang bo'lmaydi, u qayiqni yaxshi haydaydi shekilli.

Inger qayiqning ichiga o'tdi. Mattis erkakchasiga eshkaklarni ishga soldi.

— Men sizlarga buni eldan burun aytmay qo'ya qolay degandim, — dēdi qizlarga. U o'zini ishonchli sezayotgani uchun sal-pal maqtanishni ham o'ziga ep ko'rayotgandi.

— Nimani?

— Eshkakni yaxshi eshishimni.

O'ziga ishonchi tufayli Mattisning butun borlig'i zavqqa to'la edi. Umrda hech qachon eshkak eshishni yaxshi eplashidan, — gap ochilgan ekan, aytishi mumkinki, — uncha-muncha aqllilardan yaxshiroq eshishidan bu qadar quvonmagan edi. Mattis uzun-uzun va keskin siltovlar bilan eshardi.

— Yaxshi narsa, — dedi u.

— Nima, qayiqmi?

— Albatta. Bo'lmasa nima bo'lardi? — so'radi u, biroz o'ylab.

Ular xursand bo'lib, ochilib kulib yuborishdi.

— Yo'q, boshqa hech nima, aniq aytding.

— Biz seni xohlagan joyingga eltib qo'yishimiz mumkin, vaqtimiz ko'p, bizni kechki ovqatga kutishadi, xolos. Bu yerda kun bo'yi bekorchilikdan ortmaymiz.

— O'zimam shunday bo'lsa kerak deb o'ylagandim, — qisqa javob qaytardi Mattis.

Ana shunday bo'lishi kerak. Odam degan har narsa haqida gapirganda: bilaman, yoki: shunday deb o'ylagandim, deyishi, shunga o'xshagan jummalarni aytishi kerak. Eshkaklar siltovida zaiflanish, xatoliklar yuz bera boshladi.

— Hey, ko'zingga qara, — qichqirdi qizlar.

U cho'chib tushdi. Qizlar unga qiziqsinish bilan qarashdi.

— Per, uxlab ketishingga sal qoldi, shekilli.

— Kechiringlar, — dēdi u va orzularini bosib oldi. Shatakda kelayotgan qayiq goh burnidan suvga botar, goh to'lqin uzra sakrar, ammo cho'kmasdi, chunki bo'sh edi. Mattis qizlarga qaradi. Ular bugun Mattisga qanday yaxshilik qilganlarini xayollariga ham keltirmasdilar.

— Inger! Anna! — dedi u chin yurakdan.

Uning ovozi shu qadar latofatli ediki, qizlarning ko'zlarida yana qattiq qiziqish alomatlari chaqnadi. Ammo u bundan boshqa hech nima demadi.

— Ko'zingga qara, qayiqni to'g'ri yurg'iz, zo'r eshaman, deb maqtangan eding, — dedi ular, qayiq tubida oyoq barmoqlarini qimirlatib. Qizlar bu telbaning nimadandir minnatdorligini his qilishar va bundan o'zlari ham xursand edilar.

— Men har doim qayig'imni to'g'ri yurg'izaman... birdan-bir eplaydigan ishim shu,

— Mattis shunday deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi va nojo'ya gapidan titrab ketdi. Ammo, ha, uning baxtiga, ular o'ylamay aytgan so'nggi so'zlarini eshitishmadi.

— Voy maqtanchog'-ey! — deyishdi ular. Oldiniga Mattis qayiqni to'g'ri uylariga qarabyo'naltirdi. Ammo keyin uning kallasida bundan boshqa, yaxshiroq reja tug'ildi: *u qayiqni odamlar bor joyga suzdirib boradi*. Mattisni qizlar bilan birga ko'rishsin, bunday imkonni qo'ldan boy berish mumkin emas. Qayiqni qishloqning qoq markazida, do'kon yaqinidagi bandargohga bog'lab qo'ymoqchi bo'ldi. U yerda har doim odamlar tiqilib yotadi, kamdan kam uchraydigan bu voqea, ya'ni Mattisning qizlar bilan yurgani, albatta, ko'zga tashlanmay qolmaydi.

Men shahzodaday suzib boraman, o'yladi u. Hamma ko'rib qo'ysin.

— Biz do'kondorning bandargohida arqon tashlasak, nima deysizlar? — niyatini bildirdi u. — U yerda doim odam liq-liq, ular bizdaqalarni ko'rgisi keladi.

— Bizdaqalarni ko'rgisi keladi? Nega endi? — Ular ketma-ket savol berishdi.

Mattis ularni tushunmadi.

— Bu qanaqa telbalik, Per? — so'radi Inger, erinchaklik bilan barmog'ini suvda o'ynatib.

- Telbalik? — Mattis esankirab qoldi.

Shunday bo'lsa ham, Anna dugonasiga imo qilganini payqadi.

G'am chekma, qayerga desang, o'sha yerga bog'laymiz qayiqni, — dedi Inger.

Shu sababli Mattis yo'nalishni keskin ravishda o'zgartirdi. Qayiq odamlar to'planib turgan bandargohga borib to'xtadi. Xuddi boshlaridagi osmonday bu kunning boshi ham, oxiri ham yo'qqa o'xshardi. Xegega hammasini aytib bersam, ishonmaydi hali. Umuman qizlar bilan uy tomonga suzib borganimda, yomon bo'lmasdi. Ammo ular bilan do'kon yonidagi bandargohda paydo bo'lish — mana buni tomosha desa bo'ladi!

— Tomoshaning tomoshasi. — Ovoz chiqarib aytilgan bu ikki so'z ma'nosiz ko'rindi.

— Nimani nazarda tutyapsan, Per?

— Kunni, albatta! Bugungi kunni tomosha desa bo'ladi.

Endi hamma narsa uning kallasida ko'ngildagiday joy-joyiga tushdi.

— Zo'r gap! — deb ma'qullashdi qizlar. Ular Mattis nima desa, hammasini maqtashardi.

— Keyin biz bu kunni eslab yuramiz, Per, — tagdor gap qildi Inger.

Uning «keyin» degan so'zidan Mattisga soya tushdi. Ha, ular jo'nab ketishadi, yonlarida Mattis bo'lmaydigan qandaydir notanish joyda bu uchrashuvni eslab yurishadi. Shu «keyin» degan so'z hech qachon bo'lmasaydi!

Qizlar uni diqqat bilan kuzatardilar. Anna darhol:

— Nima bo'ldi? — deb so'radi.

Mattis eshkaklarni qattiq siltadi, keyin yana bir marta, so'ng yana bir... Inger bunday daqiqada qanday gap aytish kerakligini angladi:

— Nima deyapsan, Anna? Unga hech nima bo'lgani yo'q, hammasi joyida!

U juda aqlli, Ingerga ma'yus qarab, o'yladi Mattis.

Ha, endi Mattis, qizlar deyarli yalang'och bo'lsalar-da, ularga to'g'ri qarayotgan edi. Orolchada xalaqit bergan uyatchanlik endi uni tark etgandi. Ular endi xuddi eski o'rtoqlarday edi.

— Inger! Anna! — dēdi u o'tirgan joyida. Qizlar kutishardi.

U boshqa bir so'z ham demadi. Shuning o'zi yetarli edi.

Qishloq va bandargoh tez yaqinlashardi. Mattis eshkaklar bilan yanada kuchliroq ishlardi. Qay birini tanlasin: agar u eshkaklarni asta-asta eshsa, uning tantana lahzasi tez kelmaydi, agar tez eshsa, qizlar tezroq ketib qolishadi, lekin har qalay u qanday epchil eshkakchi ekanligini eslab yurishadi. Mattis keyingisini tanladi.

— Eshkak eshishlaring naqadar ajoyib, Per! — zavqlanishardi qizlar.

U to'g'ri tanlabdi.

— Baribir bu haddan ziyod tez bo'lmaydi, — dedi Mattis, ammo bu gapini ular anglasholmadi. — Sizlar qirg'oqqa qarab o'tiribsizlar, u yerda, bandargohda yoki qayerdadir yo'lda odamlar bormi, sizlarga ko'rinyaptimi?

— Hech kim ko'rinmayapti, lekin biz hali haddan ziyod uzoqdamiz.

Anna nimanidir ko'rdi.

— Ana, u yerda avtomobil ketyapti.

— Avtomobillar hisob emas, — dedi Mattis. — Ular shunday g'izillab o'tishadiki, natijada hech kimni ko'rishmaydi.

Tezda Anna o'z kuzatuv nuqtasidan xabar berdi:

— Bandargohda bir odam bor, ammo u bizga qarab turibdimi yo orqa o'g'irib turibdimi, menga aniq ko'rinmayapti.

— Mana, yana bittasi do'kondan chiqdi, Per, — gapni ilib ketdi Inger. — Endi bizni talab darajasida kutib olishadi.

— Voy, Per, ikkoviyam ketib qoldi. Bayonotlar shu tarzda almashinib turardi. Mattis indamas, ammo bor kuchini eshkak eshishga sarflardi. Qancha og'ir bo'lmasin, u qirg'oqqa chiroyli suzib borishi kerak edi. Hayotida bunday voqea — qayiqda chaqnab turgan ikki qiz bilan bandargohga kirib kelish boshqa takrorlanmaydi.

— Bizni ko'rishdi! — xitob qildi Anna. — U yerda o'g'il bolalar turishibdi va bizga qarashyapti. Biz endi ulardan kimligingni bilib olamiz.

— O'g'il bolalar, — dedi g'ashi kelganini bildirib, — bizga aynan o'shalarning keragi yo'q edi.

— Ana, bir velosipedchi kelib to'xtadi.

— Yo'q-yo'q, to'xtamadi, do'konga kirib ketyapti.

— Ee, bir balo boshlanyapti, — dedi Mattis jiddiy. U qattiq charchagan edi, qo'llari shalviradi. Bunday zo'r berib haydash unga to'g'ri kelmasdi, ammo taslim

bo'lishga ham haqqi yo'q edi. Bir zum alangladi va bandargohda turi» odamlarni ko'rdi. Endi u to'g'ri yo'lni yo'qotmaslik to'g'risida o'ylardi.

Odamlar Tentak suzib kelayotganini, ammo u qandaydir o'ziga o'xshamay, g'ayrat bilan, chiroyli suzayotganini ko'rib, bandargoh bo'yida to'xtashdi. Manzara to'xtab ko'rishga arzigulik edi: quyosh nuridan yiltir-yiltir qilayotgan qayiq bandargohga g'olibona yaqinlashib kelar, uning quyrug'ida oftobda qoraygan ikki qiz o'tirar va sohilda to'plangan odamlarga qarab erinchaklik bilan qo'l silkitar edi. Ammo hammadan ham hayron qoldiradigani eshkaklarni rasamadi bilan mohirona eshib kelayotgan Mattis edi: u qayiqni ishonch bilan aniq biron xatolikka yo'l qo'ymay boshqarib kelardi.

Hammasi benuqson-bequsus ado etildi.

Mattisning qayig'i shatakda kelardi, endi unga ozgina suv kirganligi sababli eshkak eshish ancha og'irlashgan edi. Ammo har qalay Mattis tezlikni pasaytirmay qayiqni bandargohgacha olib kirishni epladi. Unga qarab turgan odamlar, u holdan toyib, bo'lari bo'lganini payqashmadi. Qolaversa, ular sevinib va hayajonlanib ketib, Mattisning oldiga kelishdi.

Bandargohda jamoat ko'pchilikni tashkil qilmas, bor-yo'g'i besh-olti kishi edi, xolos. Ammo keyinchalik bu voqea tafsilotlarini bu olti kishidan boshqa odamlar ham eshitadi-ku! Muhimi mana shu. Olti karra olti, olti karra olti, olti karra... Mana anig'i.

Mattis keyin nima qilish kerakligini oldindan o'ylab olgan edi, endi o'ylaganini amalga oshirish vaqti keldi. Qayiq to'xtashi bilanoq qaddini rostladi, eshkaklarni batartib joy-joyiga qo'ydi.

— Mana endi, qizlar, mening o'rnimni egallaysizlar, — Mattis baland ovoz bilan, hamma eshitadigan qilib gapirdi. — Eson-omon marraga suzib keldik.

— Ular ko'r emas, ko'rib turishipti, — dedi bir dag'al bolacha ovoz, ammo boshqa bir odam uni cho'rt kesdi:

— O'chir...

— Mening qayig'imni yechib olsak bo'ldi, — davom etdi Mattis, qizlarga o'girilib. Qizlaming kulgisidan o't chaqnab turardi.

Ana shu o'ziga ishongan qizlar tufayli, bandargohdagi odamlar tillariga erk bermadilar. Mattisning o'zi esa shu qadar emin-erkin ediki, uni tanib bo'lmay qolgandi. Boya gapirgan bola har qalay Mattisning mayib qayig'ini ko'rib, yana shovqinladi:

— Iya, Mattis, suv tagida bo'ldingmi, deyman? Mattis xuddi uni eshitmaganga o'xshardi. U parvo

ham qilmay, jimgina o'z qayig'ini yechib oldi. So'ng yana qizlarga o'girildi:

— Inger! Anna! — dedi ularning nomini yana o'sha bo'lakcha ovoz bilan tilga olib.

Qizlar Mattisga qarashdi. U o'zi bilan o'zi olishib, odamlar qurshovida, bandargoh chetida turardi.

— Sayru tomoshalar uchun rahmat! — dedi u.

U hayotida ilk bora qizlarga odamlarning ko'z o'ngida bunday so'zlarni aytishi edi.

— Senga rahmat, Per, — javob berishdi oftobda qoraygan qizlar — Inger bilan Anna. — Biz hech qachon bu sayru tomoshani unutmaymiz.

Mattisning miyasidan, mana shunday paytda o'lsayding, degan fikr o'tdi. Ammo shu ondayoq bu mulohazasidan qaytdi... E yo'q, u holda menda bundan ortiq hech qanday quvonch bo'lmaydi-ku!

Bola ovozi yana valdiradi:

— Per? U qanaqasiga Per bo'ladi? Uning oti Mattis-ku!

Mattisning orqasiga pichoq urilganday bo'ldi. Ammo bunisi mayli-ya! Bu yaramas bolalar u haqda: «Bu Mattis Tentak-ku! Biz uni Tentak deymiz!» deb bor haqiqatni ochvorishmasaydi. E Xudoyim, faqat shunisidan asra!

U yana omon qoldi. Turgan gapki, yana Inger bilan Anna joniga oro kirishdi. Mattis o'ylar edi. Xuddi shu payt qizlar qayiqqa minib ulgurishgan edi. Bu go'zal va yosh ikki qiz ochiqdan ochiq Mattis tarafda edilar. Ular o'sha bolaga jūda ham qat'iy yuz bilan qaradilar.

— Mattismi, Permi, bizga buning hech ahamiyati yo'q, — deyishdi ular, o'zlarini baland tutib, shu tariqa bola gapiga yarasha tanbeh oldi va tilini tishlashga majbur bo'ldi.

Qizlar Mattisga qo'l silkidilar.

— Bu ajoyib kun uchun rahmat senga, Per. Biz uyga qaytadigan payt bo'ldi. Balki yana uchrashib qolarmiz.

Qizlar qayiqclarini burishdi. Mattisning tomog'iga allanima tiqildi. Ammo boshini baland ko'tarib turardi. Keyin o'z qayig'ini temir ilmoqqa bog'ladi.

Bandargohda turgan besh-olti odam savol bermadi; ular nimadandir xijolatda edilar. Hatto ezilgandilar. Shu asno kimdir Mattisga:

— Qara, ular senga qo'l silkiyapti, — dēdi. Mattis shu ondayoq qaddini rostladi va ularga javoban qo'l silkidi. Qayiq tezda kichrayib ketdi. Qizlar ham eshkak eshishni boplasharkan. Ha, aytgancha, qayiq endi ancha-muncha yengillashgan-ku, axir! Nihoyat odamlar orasida kimdir:

— Mana, Mattis, sen ham qizlar bilan tanishib olding, — deb qo'yishga jur'at etdi. Mattis endi yetarli darajada kuchli edi.

— Ha, tanishdim, — deb javob berdi u. Bolaga yana jon kirdi:

— Ular bilan yana qayiqda aylanasan-a?

— Bo'lishi mumkin, — kiprik qoqmay javob berdi Mattis.

U bungā ishonardi. Va bu so'zlarni aytganda, ular haqiqatga aylanganday bo'ldi. Bu takrorlanishi mumkin-ku, axir!

— Eh, bugun nimalar bo'lmadi-ya! — dedi u bolaga yuzlanib.

Allakim kulganday bo'ldi, ammo bu alam qilmadi. Har qalay, Mattis bu kulgida biron dil og'ritar ohang sezgani yo'q. U qayiqni bog'lab qo'ygan, endi ketishi ham mumkin edi. Bandargohdagi odamlar uning do'stlari edi, ular yaxshi odamlar ekan, uni qizlarga sotib qo'yishmadi. Endi uyga! Xegening yoniga! U shoshib ketib borardi, deyish unchalik to'g'rimas, u xuddi qanot chiqarganday uchib borardi. Ammo ko'zlari ko'lga qadalgandi: qayiq olis-olislarda kichraygandan kichrayib borardi. Alvido, qizlar!

23

U uyga yaqinlashganda, hayajoni bir muncha pasaygan edi. Bo'lgan voqealarni bosiqlik bilan xotirjam aytib berishi uchun bu ayni muddao edi. Baxt qayig'i ko'l burni tomonda abadiyan ko'zdan g'oyib bo'lgandi: qizlar ketishdi, Mattis endi ularni hech qachon hech qayerda uchratmaydi.

Harholda bu ajoyib va muhim voqea chindan ham yuz berdi. U, bu haqda opasiga hikoya qilarkan, voqeani hech qanday xayoliy uydirmalar bilan bezamadi, bu gal haqiqatning o'zi kifoya qildi. Xege uni tinglab o'tirarkan, go'yo to'qishga odatdagidan ko'proq berilib ketganday, unga javoban ora-chora allanima deb noaniq ming'irlab qo'yardi.

— Meni eshityapsanmi? — so'radi u. — Aytib qo'yay: bunday voqealar har kuni bo'lavermaydi.

— Albatta, —javob berdi Xege. — Har bir so'zingni eshityapman, xohlasang hammasini takrorlashim mumkin.

O'sha paytda Mattis qizlarni qayta ko'rmasligini sezibmidi, nega muncha mahzun ahvolga tushgani, bu uchrashuv nega muncha shukuhli ko'ringani to'g'risida hatto o'ylamagan ham edi.

U hikoyasini davom ettirardi. O'zi va o'sha ikki qizning boshida qanday voqealar yuz berdi-ya! Xege mamnun qiyofada tinglayotgan bo'lsa ham, to'quv simchalari har qachongidan ham tez ishlayotganidan. Mattisning zardasi qaynardi. Xege odatda yakshanba kunlari umuman to'qimas, bugungi kunning ahamiyati esa yakshanbadan ham muhimroq edi. Oxiri Mattisning toqati toq bo'ldi.

— Iltimos, koftangni qo'ya tur.

— Nega endi?

— Chunki bugungi kun bamisoli yakshanbaday. Men uchun.

Xege koftani tizzasiga qo'ydi va ukasiga quloq tutdi.

Mattis voqeaning eng muhim joyini hikoya qilayotgan edi. U minnatdorlikka to'la bir kayfiyatda Inger bilan Annaning xayrlashuv so'zlarini takrorladi:

— Biz bu sayru tomoshalarni hech qachon unutmaymiz, deyishdi ular. Permi, Mattismi — bizga bu-ning tamoman farqi yo'q, deyishdi ular.

Yo'q, Inger bilan Anna ko'lda suzishga boshqa kelmadilar. Lekin Mattis endi butunlay boshqa havodan nafas olayotgandek edi. U o'zini avvalgidan emin-erkinroq his qilar, yo'llarda ishonch bilan odim otar, do'konga kirishlari ham butunlay boshqacha edi. U bu odamlarning yuzlaridan hamma ham voqeadan xabardorligini sezardi. O'sha olti odamdan ovoza tarqalgan, qolgani o'zidan o'zi bo'lgan edi.

Endi do'konda hammasi boshqacha edi.

Mirti paketchadagi qahvani tortarkan, do'konchi taroziga qarab, parvosizgina:

— Sen bugun ham ko'lda bo'ldingmi? — deb so'rarcli.

— Yo'q.

Mattis ham, garchi butun borlig'i yayrab ketayotgan bo'lsa-da, qisqa va beparvo javob qaytarardi. Muhim voqealar haqida shunday gapirish kerak. Mana shu do'kondor uni orqasidan g'iybat qilganiga ham e'tibor bermasligi kerak. Yana shunisi ham borki, Mattis endi obakidandon sotib olmasdi. Endi u qalin o'rmondagio'tin kesuvchiday do'kondan shakar va qahva sotib olardi.

Bir kuni do'konchi Mattisdan, Inger bilan Anna yurtiga ketib qolgani rostmi, deb so'radi. Ha, ular yashaydigan joydan odamlar kelishganda, Mattis dangai qizlarni surishtirgan ekan. Ular ketishgan emish. Ta'tillari tamom bo'libdi.

24

Qizlar kelmadi, qizlar o'rniga namgarchilik keldi, birdan yarim yoz ularni ko'zi qiymay chetlab o'tgan yog'inlar tashrif buyurdi. Ertami-kechmi shunday bo'lishi kerak edi. Ko'l bo'ylab sayru sayohatlardan to'rt kun keyin boshlandi bu. Erta bilan barvaqt.

Mattis buni uydan chiqqan zahoti payqadi: havo qo'rg'oshin quygandek og'ir edi, bunday lahzalar bilan hazillashib bo'lmaydi. Qop-qorong'i o'lik osmon. To'g'ri, bunday bulutli paytlarda hammasi shunchaki yomg'ir bilan cheklanishi ham mumkin, ammo... Mattis bu qo'rg'oshinday og'irlikni o'z jismu jonida his qildi. Shunda uni nima kutayotgani yaqqol ko'rindi-qo'ydi. Xuddi zehnu idroki uni tark etganday edi. U diqqat bilan Xegening aft-angorini kuzatardi.

Xegening o'zini tutishiga qaraganda, go'yo hech qanday xatarli voqea yuz bermayotgandek edi.

— Nahotki ko'rmayotgan bo'lsang? — Mattisning ichidan nihoyat shunday xitob otilib chiqdi.

— Nimani? Menimcha, hammasi odatdagidek, — javob berdi u, uyni yig'ishtirarkan. — Sen biron narsani ko'ryapsanmi?

— Ha, momaqaldiroqni.

— Qo'y aqlsiz gaplarni.

Mattis tinmay eshik oldiga yugurib chiqardi.

U momaqaldiroqlardan bekinishga to'g'ri kelgan butun yillari davomida yig'gan turli belgilarni xotirga keltirdi. Havodagi va o'z vujudidagi qo'rg'oshinday og'irlik eng ishonarli nishonlar edi.

— Qo'rqma, hech qanday jala bo'lmaydi. — Xege uni tinchlantirishga urinib ko'rdi. — Bulutlar tezda tarqalib ketadi, so'ng sening qaldiroqlaring ham ancha naridan o'tib ketganini ko'rasan.

— Bugun bu gaping bilan meni aldayolmaysan, — javob berdi u. — Momaqaldiroq oldidan bo'ladigan bunday dahshatli havoni men ilgari ko'rmaganman.

U shu gapni aytgan zahoti yiroqda sal-pal momaqaldiroq valdiradi. Xuddi uyqusirayotganday, ammo anchagina dahshat solib valdiradi u.

Mattis qizishdi:

— Eshitdingmi?

— Eshitdim, nima bo'пти? Balki, boshqa hech gap bo'lmas. Sen qo'rqma, — dēdi Xege. — Uyda o'tir, mana ko'rasan, hammasi tinchlik bilan o'tib ketadi.

— Momaqaldiroq bo'ladi. Shu topda sen idish-tovoqlarni yuvib turganing haq-rost bo'lganiday, hozir gumbur-gumbur boshlanishi ham aniq. Quloq sol — eshitasan. Ikkinchi marta momaqaldiroq gulduradi. Bu galgisi qattiqroq bo'ldi. Har doim o'zi shunaqa bo'ladi.

— Nima bo'lganda ham sen biroz kut, — dedi Xege.

— Yaxshisi, yur, baravar qochamiz, — o'tindi Mattis, borgan sari xavotiri ortib.

— Hech qayoqqa bormayman. Sen ham ketma. Ammo bunday onlarda har qanday undovlaru yaxshi maslahatlar Mattisning qulog'iga kirmasdi. Rangida rang qolmay bo'zargancha boshpanasiga yugurdi. Uning eng ishonchli yeri xalajoy edi. Mattis turli-tuman yerlarga yashin tushgani to'g'risida ko'p rivoyatlar eshitgan, ammo xalajoyni yashin urgani to'g'risida hech gap eshitmagandi. Xoh ajablaning, xoh ajablanmang — bu bor gap.

U xalajoyga yetib borguneha jūda yaqin bir joyda uehinehi marta momaqaldiroq qarsilladi. Atrofda notabiiv sukunat hukm surar, qushlar sayrog'i to'xtab qolgandi. U faqat bir narsani — elektrlangan havoda yonginasidan uchib o'tgan kattakon ko'k pashshaning g'ing'illaganini eshitdi.

Mattis xalajoyga bekinib oldi.

U yerda uzoq o'tirmadi. Ko'p o'tmay momaqaldiroq chinakamiga qasira-qusurini boshladi. Devor ortidan dastlab momaqaldiroqning past, ammo darg'azab qaldir-qulduri eshitildi. Mattis ko'zlarini yumib, junjaygancha, bir, ikki, uch deb

sanay boshladi, — nihoyat u chinakamiga gumburladi. Mattis barmoqlarini quloqlariga chuqurroq tiqishga harakat qilar, dahshatli qasirga sadolarini ozgina bo'lsa-da bo'g'ish uchun, quloq kavagidagi jimjiloqlarini tinmay qimirlatardi. Ammo momaqaldiroq kuchli bo'lgach, bunday harakatlar yordam berarmidi...

Mana u! Eshit...

Jazavali qalldiroq ketidan qalldiroq.

Xege esa u yerda, gumbur-gumburlar tagida.

U hozir nima qilayotgan ekan? Nahotki shunday daqiqada ham o'tirib, koftasini to'qiyotgan bo'lsa? Shunday qasira-qusurda-ya? Yo'q, mumkin emas. Nahotki, hech nimaga aqli yetmasa?

Guldurosalar borgan sari avjlanardi. Hali jala boshlangani yo'q. Bu bor-yo'g'i kelayotgan jalaning birinchi, eng dahshatli daqiqalari, xolos. Bordi-yu, eski taomillar, sinashta alomatlar kuchini yo'qotgan, xalajoy ham ishonarli boshpana bo'lmay qolgan bo'lsa-chi?!

Bir kun emas bir kun shunday bo'lishi hech gap emas. Ertami, kechmi, bari bir shunday kun keladi.

Bu yer ham juda bexatar emas.

Mattis quloqlarida jimjiloqlarini shiddat ila aylantirar, endi qaldir-quldur va gumbur-gumburlar bir vaqtning o'zida birvarakay yangrayotgan edi. Hozir, hozir, der edi u, borgan sari bo'shashib. Bir, ikki, uch. U chaqmoq bilan momaqaldiroq orasi qanchaligini emas, necha soniya umri qolganini sanar edi. Bir gal unga hatto yer ham qaltirab ketganday tuyuldi. Keyin sharros jala quydi. Momaqaldiroq gulduragan sari battar qo'rqib ketyapman, deb o'ylardi u, chunki u borgan sari xavfliroq bo'lib ketyapti.

Xege bo'lsa o'choq boshida hech nimadan qo'rqmay o'tiribdi. O'zicha o'tiraveradi va hech nimadan qo'rqmaydi.

Bosiriq uzoq davom etdi. Yomg'ir xalajoy tomini takillatar, shipdan chakka o'tardi — darvoqe, bu yerdagi hamma narsa kabi, torn ham xarobgina edi.

Har neki bo'lmasin, momaqaldiroqning kuchi sina boshladi. Mattis esa momaqaldiroqdan chetda qoldi, bu endi mo'jiza edi.

Demak, bugun ham taomildan chiqish yuz bermadi.

Katalak ishonarli boshpana bo'lib chiqdi. Badandagi og'irlik tarqalib, bosh ham bir muncha yengil tortdi. Hali ham momaqaldiroq zaif va, endi bexatar bo'lsa-da, sal-pal qaldirab-qaldirab qo'yar, yomg'ir esa chelaklab quyishda davom etar edi. Qanday ajoyib-a, momaqaldiroqdan chetda qolish! Tezda jala qoldirgan ko'lmaklardan sakrab-sakrab, Xegening oldiga uyga yugurishi mumkin.

Mana, o'sha fursat keldi!

Mattis eshikni lang ochib, yomg'irda engashgancha g'irillab ketdi. Ho'l yaproqlar va o'tlardan o'tkir hid taralardi. Faqat yomg'irdan keyingi lahzalardagina shunday muattar hid taraladi.

Mattis jala qoldirgan shu'lalardan sakrab-sakrab, o'ylab borardi, eshik oldida to'xtab, ustidagi namni silkib-silkib tashladi. U, Xege o'choq boshida xotirjam o'tirganiga bir daqiqa ham shubha qilmagandi: Xege hech qachon momaqaldiroqdan qochmasdi.

Opasi haqiqatan ham o'z joyida o'tirar, harholda hozir ishi to'la tezlikda ketayotgan edi.

— Nahotki, hamma vaqt shu yerda o'tirgan bo'lsang?

— Darrov keldingmi? — deb ovoz berdi u, ukasining savoliga javob bermay.

— Jala qoldirgan shu'lalardan sakrab-sakrab keldim, — dedi u, yomg'irdan ho'l yuzlari yorishib. U birdan dadillashib qolgan edi.

25

Mattis har doim jaladan keyin jonlanib qolardi, bu gal ham shunday bo'ldi va u atrofdagi ahvolni o'rgangani jo'nab ketdi. Yonbag'irlar bo'ylab oppoq ko'piklangan soylar oqardi. Bu gal Mattis uzoq ketib ulgurmadi, birdan to'xtab, qoqqan qoziqday turib qoldi.

Iya, bu nimasi?

Tiniq osmonda quruqshagan Mattis-u-Xege teraklarining faqat bittasigina qad ko'tarib turar, ikkinchisini chaqmoq urib sindirgan edi — pastda, daraxt o'zagida uning oppoq jarohati yiltillab turardi. Daraxt yonib ulgurmagan, jala olovni o'chirib ketgan edi.

Bu yerda ajal raqsga tushibdi.

Mattis uzoq turib qoldi. Bu axir... bu ogohlantirish-ku! Faqat bu qay birimizga tegishli ekan? Teraklardan qay biri Mattis, qay biri Xege edi?

Oldin u Xegeni chaqirmoqchi bo'ldi, ammo keyin bu fikridan qaytdi. Balki Xege teraklardan qay biri o'zi ekanligini bilar... yo'q, u bilan bu haqda gaplashish mumkin emas. Kimning daraxtini chaqmoq urganligini surishtirib bilib olish kerak. Ammo bu borada ayyorlik zarur.

U xotirjam Xegening yoniga qaytdi.

— Sen o'z joyingda hamisha to'qib o'tirdingmi?

— Ha, — deb javob berdi Xege. Mattis «hamisha» deganda qaysi vaqtning nazarda tutgani tushunarli edi.

— Bu yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin edi.

— Nima uchun?

— Shox devorimiz ortida bir joylarni chaqmoq uribdi, — dedi u qat'iylik bilan, go'yo hukm e'lon qilganday.

— Ha, — uning gapiga qo'shildi Xege, — bir gal ayniqsa kuchli zarba bo'lganini sezgandim.

— Chaqmoq daraxtga uribdi.

— Voy-bo', — javob qildi Xege, to'qigan ilmoqlarini sanab.

— Qurigan teraklarning birini uchirib yuboribdi. Xege qaltiragani yo'q.

— Shunaqami? — deb qo'ya qoldi shunchaki.

— Bilasanmi, — dedi Mattis achchiqlanib, — agar sen uchun bu ham arzimagan narsa bo'lsa, u holda. demak, sen uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q ekan.

— Chaqmoq quruq daraxtlarni yaxshi ko'radi, — dedi Xege.

O'ylamasdan gapirdi. Shunchaki.

— Bor, qarab ko'r, balki yana boshqa daraxtlarni ham urgandir, — qo'shimcha qildi u.

— Hozir, — Mattis shaylik bilan rozi bo'ldi, bu uning kuchi yetadigan ish edi.

Uydan uchib chiqib ketdi va hamma daraxtlarning uchlarini ko'zdan kechira boshladi. Ammo Xegening hiylada o'zidan ustun kelganini fahmladi. Opasi u bilan chaqmoq urgan o'sha terak haqida gaplashgisi kelmagan va Mattisni boshqa daraxtlarni sanashga yuborishni o'ylab topgan. Ammo nega gaplashgisi kelmadiykin?

Mattis uyga qaytib keldi va:

— Yo'q, faqat o'shani uribdi, — deya ma'lum qildi.

— Yaxshi bo'пти, — dedi Xege, javobi jo'yali bo'lmadi.

Chaqmoq bilan terak hodisasi Mattisning ichini xavotirga to'latdi. U, uyining atrofida va yo'l bo'ylab u yoqqa bu yoqqa betinch tentirab yurardi. Hech bu jumboqning javobini topolmasdi.

U bilardi: bu aslida — hayot va mamot masalasi.

Ammo kimga tegishli?

U, Xegedan biron bilim ololmadi: opasi bilganlarini aytgisi kelmagandan keyin, Mattisning boshqalarga murojaat qilishdan o'zga chorasi qolmadi, ammo bu haqda o'ylashning o'zi ham yoqimsiz edi. Ustiga ustakbu masalada juda oqillik bilan harakat qilish kerak. Bordi-yu, hayot-mamot masalasi Xegega daxlsiz bo'lsa, u holda bu unga daxldor deganidir.

Sen o'zi nimani xohlaysan? — deb so'rardi ichidagi allakim.

Buni o'ylash mumkin emas, dedi u o'zi o'ziga va: «men buni o'ylayotganim yo'q!» deb xayolini cho'rt kesdi.

Martis o'zini do'konchining yoniga otlanayotganday qilib ko'rsatdi — endi u do'konga ilgariidan ko'proq qatnardi.

Mattis bandargohdagi buyuk zafaridan keyin hammaning ko'z o'ngida do'konga bermalol kirib kelar, ilgari u hech qachon o'zini bunday dadil tutmas edi. Kim biladi deysiz, ehtimol, endi u muhtaram inson bo'lib qolgandir, bu — bandarohga qizlar bilan suzib kelganining qonuniy bir mukofotidir.

— Bugun do'konga borib kelsammikin? — deb so'radi u tushga yaqin. Ertalabdan soqolini qirtishlab olib qo'ygan edi.

— Seni boshqa birov bilan almashtirib qo'yishganga o'xshaydi, — dedi Xege. — Do'konga borishni o'zing so'raysan...

Nima desa deyaversin. Xege gap nimadaligini bilmaydi, bu hayot-mamot masalasi ekanligidan xabari yo'q.

— Pul berasanmi? — U aybdor odamday so'radi. Go'yo darrov bo'yi pasayib qolganday edi.

Xege xaridga pul berdi va o'zi uchun bir necha ere uzatdi:

— Bunisi o'zing uchun...

— Yo'q, agar sen obakini nazarda tutayotgan bo'lsang, bugun men obaki olmayman, — dedi tangalami qaytarib.

— Nega? Pul topishimiz har doimgidan yomon emas.

— Daraxtni chaqmoq urgan bir paytda odam degan obakini unutishi kerak, — javob berdi Mattis, xavfli mavzuga til tekkizib. Ammo Xegening daraxt bilan ishi yo'qday edi.

— Biri ikkinchisiga to'siq bo'lolmaydi, — dedi Xege, o'z yengiltakligi bilan Mattisni dahshatga solib.

— Ammo bu obakiga qaraganda ancha muhimroq-ku! Nahotki, shuni ham tushunmasang?

— Baribir o'n erega odatdagiday obakidandon sotib ol, — dedi Xege, yuzida tirnoqcha ham o'zgarish ko'rinmadi.

— Ehtiyot bo'li! — dedi Mattis to'lqinlanib. U tangani qaytarib berib, faqat jiddiy xaridlarga keragicha pul oldi. Xege yana yuragini vahmga soladigan gaplardan aytib yubormasin deb, ketishga oshiqdi.

Unga bor-yo'g'i bir narsa — tabiiy ravishda yo'lga chiqib ketishga bahona kerak edi. U yo'lda bu teraklarni yaxshi biladigan yaqin qo'shnilardan birontasini uchratib qolishdan umidvor edi. Do'kondor haddan tashqari uzoqda turadi, teraklarning qay biri Mattis-u qay biri Xegeligini, qaysinisini chaqmoq urganligini bilmasligi mumkin.

Bu paytda qishloq aholisi ish bilan mashg'ul bo'lardi, shuning uchun yo'l kimsasiz edi. Mattis bunday bo'lishini tamoman unutibdi. Uning yonidan g'izillab mashinalar o'tardi. U xotirjam do'konga kirib bordi va dadillik bilan hamma kerakli narsalarni sotib oldi. Har vaqtdagiday, bir qancha sayyohlar shu yerdan pechenye va limonad sotib olishdi.

U endi chiqib ketay deb turganda noxush bir voqea yuz berdi. Mattis, odatdagiday, obakidandon olmaganiga, do'konchi uning puli qolmagandir, degan xayolga borib, mitti kurakchasi bilan ozgina qand oldi-da, qog'ozchaga o'radi. O'ramni boshqa xaridlari yoniga qo'yib, Mattisga ko'z qisib qo'ydi.

— Ol, olaver, — dedi do'konchi. — Pulini boshqa safar berarsan. Bu so'zlar Mattisni tuproqqa qorganday bo'ldi. U chaqmoq urgan daraxt va o'limning ogohlantirishi kabi muhim narsalarni bilsa hamki, odamlar unga boladay shiralik berishadi. U obakini olib, «rahmat» deya po'ng'illadi va eski odati bo'yicha shirinlikni og'ziga tiqdi. Do'kondor uni kamsitdi. U yaxshi odam edi — eng dahshatlisi mana shu. Mattis ahvolni o'nglashga tirishdi.

— Darvoqe, senga bir narsa deyish qiyin, sen aybdor emassan, — dedi u do'kondorga baland ovoz bilan dona-dona qilib.

Ovozining dadil chiqqani uni yana ruhlantirib yubordi.

— Nimada aybdor emasman? — Do'kondor Mattisga hayron bo'lib qaradi.

- O'zgarmasliging, qanday bo'lsang shundayligingda! — deb javob berdi Mattis. U, o'zicha, tang ahvoldan obro'yni saqlagan holda qutulib qoldim, degan fikrda edi.

Do'kondor mamnunlik bilan kulib yubordi, u endi tinchlangan edi.

— O'ylaymanki, aybdor emasman. Mattis chiqib ketdi.

Yo'1-yo'lakay o'zini tiyolmasdan ikkinchi obakini ham og'ziga soldi, endi ikkala lunjida ham bittadan qand bor bo'lib, shirasi tili ostiga oqib borardi. O'sha-o'sha avvalgiday.

Yonda Mattisga faqat begonalar uchradi. Guldurab kelayotgan mashinalarga ahamiyatsiz nazar tashlab, biroz u yon-bir oz bu yon yurib borardi; qurigan teraklar ko'rinadigan joyda ketishga harakat qilardi. Nihoyat ish kuni bitdi, endi odamlar o'tloqlardan uyga qarab cho'zilib kelishardi. Bir tanish yigitni ko'rib, Mattis uning yoniga keldi; gapga solishga o'ylab qo'ygan savolini berdi.

— Bugun nima ishlar qilding?

Gapning boshi yaxshi chiqmadi. O'lguday charchab kelayotgan yigit Mattisga xo'mrayib qaradi.

— O'zing-chi, o'zing nima ish qilding? — deya keskin savol berdi yigit va yonidan o'tib ketmoqchi bo'ldi.

Mattis qaltirab ketdi, ammo bunday daqiqada u qo'rqib ketishdan o'zini tiya olardi.

— Senda bir muhim ishim bor edi, — dedi u qaysarlik bilan. — Men sendan gapni gapga qovushtirish uchun shunchaki so'ragandim.

Yigit Mattisni bilardi, shuning uchun gap ohanginni o'zgartirdi.

— Men o'roq qildim, o'rim ishlarini hamma bajarib ulgurmadi, —javob berdi u. So'ng yo'l chetidagi pastak tosh supachaga o'tirdi. — Qani, kel, Mattis, lo'nda qilib, tez-tez to'kib sola qol gaplaringni, men charchaganman, qornim och.

— Bilmadim, buni qanday qilib lo'nda aytish mumkin? — o'zini katta olib gap boshladi Mattis. — Buni tez-tez aytishning ham iloji yo'q.

— Bo'lmasa, boshqa safar gaplasharmiz. Maylimi? Mattis javob o'rniga qurigan qo'sh terakka imo

qildi, ulardan birini chaqmoq urganini ko'rsatdi. Yigit shoshilardi.

— Agar sen gapingni tez aytolmasang, yaxshisi...

— Men imo qilyapman-ku, — dedi Mattis, yigitni hayratda qoldirib.

— Xo'sh-xo'sh?

— Nimaga imo qilayotganimni ko'ryapsanmi?

— O'rmonga.

— Ha, ammo butun o'rmonga emas, —javob berdi Mattis, to'ppa-to'g'ri teraklarga qarab.

— Tushunganga o'xshayapman, — dedi yigit va birdan xijolat bo'ldi.

Mattis sezgir odam bilan munosabatga kirishganini ko'rdi.

— Demak, sen aqllisan, — dedi yigitga. — Bundan yengil tortdim.

Mattis bu xususiyatini yuqori baholashini yigit xayoliga ham keltirmagan edi.

Endi Mattisning so'zlarni topib-topib aytishi muhim ahamiyat kasb etardi.

— Ana biri, ana boshqasi, ko'ryapsanmi? — so'radi u va o'zi o'zidan mamnun bo'ldi.

— Ko'ryapman.

— Ikkinchisini chaqmoq nima qilganini ko'ryapsanmi?

— Ha, bu senga hazil emas, — javob berdi sezgir yigit.

Mana endi — olg'a!

— Anov singani kim?

Nihoyat Mattis o'z savolini berdi, ammo bundan bu yog'iga ish to'xtab qoldi, yigit darhol o'zgarib qoldi.

— Men seni tushunmadim, — u gapga nuqta qo'yish uchun lop etib bitta jumla aytdi-qo'ydi.

Mattis chekinmadi. Yigit hammasini tushungan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham bu haqda ortiq gapirgisi kelmayotgandir.

— Bu hozir uyda o'tirgan ayolmi? — so'radi Mattis va o'z gunohidan o'zi qo'rqib ketdi. U qora bir amalni ado etdim, deb o'yladi.

— Sen kimni aytyapsan? — Yigit g'o'r odamga o'xshab ko'rinardi.

Mattisni vahm bosdi. Kimni aytyapti? Gap ana shunda-da! U, hatto buni xayoliga keltirsa ham dahshatga tushardi.

— Ha yo'q, hech kimni... zarari yo'q, — u hadiksirab g'o'ldiradi. — Sen noto'g'ri tushunding, men unday deb o'ylamadim. U uyda o'tirib, qahva pishiryapti, angladingmi! U hammaga o'xshab, uyda o'tiradi va qahva pishiradi!

Yigit toshdan turdi, suhbatni davom ettirishni xohlamayotgani yaqqol ko'rinib turardi.

— Hay, mayli, men bora qolay, — dedi u. — Ertaga yana o'rim, o'zing bilasan.

Ammo nafs balosi Mattisdan kuchliroq edi: javob topilishiga juda yaqin kelgan bir paytda uning ketib qolayotgani alam qilardi. U, masalaga boshqa tomondan yondashib ko'rdi:

— Bir daraxtning oti nima va boshqasining oti nima?

— Bilmayman, — gapni cho'rt kesdi yigit, boshqa savollarning oldini olib.

So'ng jo'nab qoldi.

Mattis hech narsani aniqlayolmay yo'l uzra yolg'iz o'zi qoldi, bu ham yetmagandek, ortiqcha gapirib yuborganining qo'rquvi uni qiynayotgan edi. Ortiq bunday savol bilan boshqa odamlarga murojaat qilishga botinmadi.

26

Chaqmoq Xegening teragini urdi, Xegeni ogohlantirdi — Mattis qalbining ich-ichida bunga zarracha ham shubha qilmasdi. Xege, axir. undan katta, umuman shunaqa gaplar... U, bu haqda o'ylayotganini tan olgisi kelmasdi. U emas, allaqanday bir ablah shunday deb o'ylashi mumkin.

— Endi sen bilan ikkimiz kelajagi noma'lum bir qorong'ilik ichida yashayapmiz, — dedi u Xegega.

— Buni qanday tushunish kerak? — Xege umr bo'yi Mattisga bunday savollar berishga o'rganib qolgan.

— Aytolmayman, ammo bu dahshat! —javob berdi u. — Men qorong'ilik haqida gapirganimda, qandaydir juda yomon narsani nazarda tutdim.

— Qo'rqma, hammasi o'tib ketadi, har doim o'tib ketgan-ku, bu gal ham shunday bo'ladi, — Xege uni tinchlantirdi. — Buyurtmalarim ko'p, ulgurgancha ishlab turibman.

Mattis tushundi: Xege qornimizni o'ylayapti.

— Sen yeyish-ichishimizni o'ylayapsanmi?

— Buni o'ylamasam bo'lmaydi.
 Mattis xafa bo'lib ketdi. U, o'zini Xegega tahdid solayotgan xavfni ko'rib turganday his qilardi. Uni ogohlantirib qo'yish kerak.
 — O'q yegan qush esingdami?
 — Ha.
 — Umuman gap bunda ham emas.
 Xege indamay, gapning davomini kutib turdi.
 — Men aytayotgan narsa ikkimizdan birimizga oid, — dedi u, tagdor gap qilib.
 — Nima bo'lganda ham hammasi joyida, — dedi Xege tavakkaliga. — Umuman,
 — deb birdan gapini davom ettirdi u, — sen keyingi paytlarda shunday ko'p o'ylaydigan bo'lib qoldingki, seni hatto tanib ham bo'lmaydi.
 Opasining bunday deb koyishidan Mattis yayrab ketdi. Xege, agar xohlasa, odamni xursand qilishni biladi. Mattis bu quvonchining gashtini surish uchun yolg'izlikda bir aylanib kelmoqchi bo'ldi.
 Ammo yolg'iz aylangan joylarida birdan yana dahshatga tushdi: iya, men chala o'ylabman-ku! O'sha qush agar Xege boisa, dedi u o'ziga o'zi va o'z fikrini davom ettirdi, unda mening holim nima bo'ladi?
 U bu haqda o'ylamabdi.
 Masalaga qay tomondan qarama, baribir, ahvol yomon.
 U bu fikrlarni nari-beri xayolidan haydab, Xegening yoniga qaytdi va:
 — Kel, bu haqda ortiq gaplashmaylik, — dedi unga.
 — Men ham shu fikrdaman, — deb uning fikriga qo'shildi Xege.

27

Mattis o'z qayig'ini yamadi, teshiklariga tiqin qoqdi, endi yana unda suzib yurish mumkin edi. O'sha yili yozda u juda ko'p baliq ovida bo'ldi, ba'zan bir nechtagina bo'lar-bo'lmas baliq tutib kelar, ammo ko'proq poyonsiz ko'l bo'ylab shunchaki bekor suzib yurardi va ilgari ko'rmagan-bormagan qirg'oqlariga borardi. Eshkak eshishlari tuppa-tuzuk edi — fikru xayollari bevosita eshkaklarga o'tar, qirg'oqda ish chog'larida bo'lganiday, ishga xalal bermas edi.

Bu yoz ko'lda nimadir o'zgardi. Inger va Anna uning qirg'oqsiz kengliklariga boshqa kelmadilar. Ular bilan uchrashib qolishga hech qanday umid yo'q edi... yana, kim biladi, deysiz. Birdan allaqaysi qo'ltiqchadan suzib chiqib qolishlari yoki buruncha ortida paydo bo'lishlari ham mumkin-ku? Hech kim bundan ortig'ini tilayotgani yo'q.

Mattis har tomondan ko'rinib turish maqsadida uzoq-uzoqlarga suzib ketardi. Qizlar esa ko'rinmasdilar.

Uyda u Xegening qarshisida to'xtadi.

— Sen ham avvalgiday emasmisan?

Xege javob bermadi. Ammo so'zlari unga yoqma-ganini ko'rdi.

— Seningcha, men o'zgarishim kcrakmidi? — dedi u nihoyat.

Mattis opasiga tikilib qaradi.

— Kim biladi, — javob berdi Mattis. — Shunaqaga o'xshaydi. Ko'zlaringni tekshirib ko'rsam maylimi?

Xege bunga ruxsat bermadi. Nimadan xavfsiradiykin? Mattis vahimaga tushdi. Balki bu o'ziga taalluqlidir?

— Faqat meni tashlab ketma! — deb yubordi to'rsillatib.

Endi u Mattisga boshini ko'tarib qaradi.

— Yo'q, Mattis, men seni tashlab ketmayman. Agar xohlasam, allaqachon shunday qilgan bo'lardirn.

Odatda u tinchlanishi uchun shu gapning o'zi kifoya qilardi, ammo bugun hammasi boshqacha, u o'zini qo'yarga joy topolmayotgan edi. Endi bo'lsa to'qishiga ham yopishdi!

— Loaqal bir daqiqa to'qishingni qo'yatur! — U koftani yulib olib, stolga uloqtirdi. Keyin Xegening qo'lidan ushlab oldi. Xegening ko'zlarida qo'rquv miltillab ko'rindi.

— Senga nima bo'ldi?

— Faqat meni tashlab ketma!

Uning xayolidan tumanli fikrlar o'tdi: Xegening daraxtini chaqmoq urgan. U o'z hayotini saqlab qolish uchun o'zi shunday to'xtamga kelgandi. Shuning uchun hozir Xegening hayoti qil ustida turgan bo'lishi mumkin. Mattis uning qo'lini ushlab olib, o'rnidan turg'azdi. U, ertami-kechmi shu portlash qo'qqisidan yuz berishi kerakligini tushunganday, Mattisga qarshilik ko'rsatmadi.

— Ketdik!

U Mattis bilan ketdi. Hovlida Mattis:

— Yo'q, biz bu yerda ham qololmaymiz, — dedi qo'rqa-pisa taraddud bilan. — Bizga uzoq joylar kerak. Uzoq-uzoq.

Xege pinagini buzmay:

— Biz hech gapdan hech gap yo'q shartta ketib qololmaymiz, — dedi, — oldin yo'lga yegulik va ul-bul tayyorlab olishimiz kerak.

— Nega endi?

Xegening xotirjam ovozi uni hayratlantirdi:

— Tushunsang-chi, agar uzoqlarga ketadigan bo'lsak, bunga tayyorlanish kerak.

Xegening gap ohangidan go'yo ularning uzoqlarga ketishida hech qanday ajablanarli narsa yo'q edi. Mattisni xavotir qamrab olgan bo'lsa-da, hozir Xegega ishondi. Hatto shu tobda uzoqiarga birga ketishga undashi ham o'ziga telbalik bo'lib ko'rindi.

— Unday bo'lsa, aqalli ozgina yuraylik, — deb o'tindi u. — Uzoqqa bormasak, shu yaqin atroflarda!..

Xege unga qarshilik qilmadi va darrov gapga unadi:

— Ketdik.

Mattisni vijdon azobi qiynardi.

— Sen hali senga nima qilganimni bilmaysan, — dedi u. — Ammo bu juda xavfli. Sen o'z hayotingni asrab qolish uchun juda ehtiyot bo'lishing kerak.

Xege beixtiyor titrab ketdi.

— Xudo haqqi, jim bo'l! Bugun hushing joyida emas. Ammo tez o'zingga kelasan. Biz - sen va men — hali uzoq yashaymiz.

— Ammo bo'lar ish bo'ldi-ku! - Mattis qiynalib gapirdi. — Faqat men buni senga aytolmayman.

Xege hech qachon Mattisni bunday ayanch ahvolda ko'rmagan edi. Endi Xege uning qo'lini ushlab oldi.

— Yur, yursang-chi, — dedi u. — Men sen bilan boraman. Bunday turma.

Ular, o'ylab ham turmay, ko'l bilan yo'l orasidagi ingichka so'qmoqqa tutash archazorga qarab ketishdi.

Ammo Mattis gapni davom ettirishi, o'zini qiynayotgan narsani unga bir amallab yetkazishi kerak edi.

— Men o'zim aybdorman, lekin endi buni senga aytolmayman, ishon menga, hammasi men aytganday bo'ladi.

— Mayli, bo'lsa bo'laversin, — Xege uni tinchlantirdi. — Men hech nimani bilgim kelmaydi. Hammasi joy-joyida deb bilaver. Tushundingmi? Gapga shu yerda nuqta qo'yamiz.

— Rostdanmi? — U suyunib ketdi.

Ular, xuddi bir yoqqa oshiqayotgandek, tez yurishardi.

Mattisni tavba-tazarru tez odimlashga majbur qilayotgan edi, Xege unga zo'rg'a yetishib yUrardi. Ular Mattis loyxo'rak bilan qush tilida xat yozishgan kichikbotqoqlik yonidan o'tishdi. Mattis bu haqda g'ing demadi: Xege agar ularning yozishmalaridan gumonsirasa, hammasi rasvo bo'lishi mumkin edi.

Ular botqoqlikni ortda qoldirib, o'rmonga ichkarilab ketishdi, bu joylarda o't o'smas, yalang yerlarni qoramtir ignabarglar, yashil yo'sin orolchalari qoplagan edi.

— Kel, birpas to'xtab turaylik, — iltimos qildi Xege, bu yerdagi jimlikni his qilib.

— Qayerdamiz? — esankirab so'radi u.

— Uyimizga yaqin joyda, — sabr-toqat bilan javob berdi Xege, — o'zimizning o'rmonimizda. Nahotki tanimayotgan bo'lsang?

Mattis hatto qiyo boqib qaramadi.

— Qiynalib ketdim, — dedi buning o'rniga. — Men bir narsadan juda qattiq afsus-nadomatdaman.

— Mattis, men nima deganimni eshitdingmi o'zi? Hammasi joyida. Nuqta qo'ydik.

— Ha, ammo...

— Boshqa bir so'z ham ortiqcha, aytyapman-ku, hammasi joyida.

— Ammo unday emas-da, — qaysarlik qilardi Mattis.

— Manov o'tli do'ngga o'tir! — dedi birdan Xege, u esankirab qolgandi. Ular doira shaklidagi yo'sinli do'ng yonida to'xtashdi.

Mattis itoat bilan gurs etib o'tirdi. Xege aytdimi, tamom, bo'ysunish kerak, bo'lmasa baribir kuch bilan o'tqazadi. Mattis javob bermadi, u negadir tinchib qoldi. Ular uncha katta bo'lmagan yo'sinli do'ngda o'tirishardi. O'rmondan tiq etgan tovush ham kclmasdi. Faqat ularning gursillab urayotgan yuraklari asta-asta tinchlandi. Mattis indamasdi, chunki shu do'nglikda uning kallasiga yangi fikrlar kelgandi. Bu fikrlar Mattisni bu yerga yetaklab kelgan fikrlardan yoqimliroq edi.

— Agar sen qiz bola bo'lganingda, — Mattisning ichidan ana shunday so'zlar otilib chiqdi, ammo shu ondayoq o'zini o'zi to'xtatib qoldi: — E, bema'ni gaplar bu! Sen qiz bolasan. Men boshqa qizni o'ylagandim.

— Bo'ldi qil, — Xege uni siltaladi. — Bugun senga nima bo'lyapti? Tinchlan, axir. Xegega, u o'z iztiroblaridan qutulganday ko'ringandi. Endi, yana o'zi ham sezmagan holda, odatiy valdirashlariga va nasihatomuz ohanglariga qaytdi. Ammo Mattis buni to'xtatdi.

— Sen shunday qo'rqib ketdingki, hatto menga qarashga ham holing qolmadi, — dedi u, qiz bola haqidagi fikrini unutishga urinib.

— Qo'rqib ketdim? Sendanmi? Men sendan mushukchalik ham qo'rqmayman. Sen buni yaxshi bilasan. Kel, yaxshisi, shu yerda o'tiraylik-da, har xil vijdon azoblarini unutaylik.

Xege juda jiddiy va shaddod edi.

— Sen tavba qilishga arzigulik ish qilganing yo'q, Mattis, — deb qo'shib qo'ydi. — Boshqalar tavba qilishsin.

Mattisning vujudi qushday yengil tortdi. Haqiqatan ham aqlli deb mana shu Xegeni aytsa bo'ladi: odamni ezib turgan har qanday yukdan faqat Xegegina shunday xalos qila oladi.

— Qanday yaxshi, Xege, — dedi u minnatdorlik bilan. So'ng qo'shimcha qilib qo'ydi: — Shu do'nglikda o'tirishni aytyapman...

Xege ham, hammasi yaxshi, hammasi ajoyib. deb o'ylayotganday ko'rinardi.

— Biz bu yerga yana kelamiz, — dedi Mattis. Ammo endi do'nglikning keragi yo'q edi, shu boisdan Xege:

— Qani, ketdik, — dedi.

Ayni chog'da u o'zini boshqacha tutdi: uyga, kofta to'qishga oshiqish o'rniga:

— Bunday paytda ozgina dam olish kerak, — deb taklif qildi. — Biz ikkalamiz ham ancha-muncha qiynaldik.

Mattis yayrab ketdi — Xegedan sira buni kutmagandi.

— To'g'ri aytasan, — deb ma'qulladi u. — Sen bunday narsalarni ham qoyillatasan... Xohlasang, yana bir oz o'rmonda yuraylik.

O'rmon yerlari gilam bilan qoplangandek edi. War bu gilamni bitta-bilta bosib indamay ketib borishardi. Biroq o'rmon kichik edi, ular tezda ko'l bo'yiga chiqib qolishdi. Inger va Anna suzib kelgan katta ko'l bo'yiga.

Ko'l oynadek silliq edi.

— Huv anovi joyda biz kun bo'yi suzgandik, — dedi Mattis.

Xege, bu qachon edi, deb so'ramadi — Mattis uchun faqat bir kun mavjud edi.

Ko'l bo'yida turganlarida Xege tasodifan Mattis uchun bir ajoyib ish o'ylab topdi.

Menga qara, dedi u, sen bu ko'ldan odamlarni tashisang bo'lmasmikin, rosa foydali ish bo'lardi-da! Mattis bu fikrni, uchib ketayotgan to'pni tutganday, ilib oidi:

— To'g'ri! Buni qila olaman!

— Qizlarni ko'ldan o'tqazib qo'yasan, — dedi Xege.

U Xegega shubhali qarab qo'ydi.

— Shunday deb o'ylaysanmi?

Ammo, afsuski, Xege uning hafsalasini pir qildi:

— Yo'q, bundan hech nima chiqmaydi. Narigi qirg'oqda aholi yashamaydi. U yoqlar hammasi o'rmon va yalangliklar. O'tadigan odam bo'lishi dargumon. Agar u yoqda kimlardir yashaganida edi, sen haqiqiy tashkachi bo'larding.

Ammo baribir fikr Mattisga yoqqan edi. Xegening u tomonda hech kim yashamasligi haqidagi so'zlariga ahamiyat bermadi.

— To'g'ri, — dedi u o'ziga o'zi.

Mattisning o'ziga hech qachon bunday xayol kelmagan bo'lardi. Xege uni sevintirmoqchi bo'lgandi — maqsadiga yetdi. U o'zini chulg'ab olgan fikrlar tufayli, o'zi bilan o'zi bo'lib qoldi; qayerdan ketayotganlarini ham ko'rmas, yo'lda yotgan shoxlarga, toshlarga qoqilardi. Xege uni gapga solmoqchi bo'ldi, ammo Mattis endi poyintar-soyintar javob qaytarardi.

— Uyga ketar vaqt bo'ldi, — dedi Xege nihoyat. — Dam olish tugadi. Men uchun harholda. Ular qirg'oq bo'ylab gaplashmay ketishdi. Mattis to'ppa-to'g'ri qayig'i bog'langan joyga qarab yo'l oldi.

— Sen shu yerda qolasanmi?

— Ha, sen ketaver, — deb javob berdi Mattis xayolga cho'mib. — Men endi bir oz qayig'im bilan o'ralashaman.

Xege ketdi. U yonbag'irga ko'tarilayotganda Mattis, xuddi hozir uyg'ongandek, Xegega qarab qichqirdi:

— Nega oldinroq menga bu haqda aytmaganding? Javob o'rniga Xege qo'l silkib qo'ydi va tezda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Nega u ilgari menga bu haqda gapirmagan ekan? U aqllimi o'zi yo yo'qmi? Nima bo'lganda ham, bugungi suhbatlari ajoyib bo'ldi: endi u o'ziga yoqadigan ish bilan band bo'ladi. Ortiq biz o'sha chaqmoq haqida gaplashmaymiz, o'ziga o'zi va'da berdi u. Chaqmoqning menga ham, Xegega ham aloqasi yo'q. Ertaga esa, balki, men kimnidir ko'ldan o'tkazib qo'yarman.

Endi pul sarflamay qilish mumkin bo'lgan barcha ishlarni qilib, qayiqni tartibga solib qo'yish kerak edi.

Mattis qorong'i tushguncha ishladi. Iyulning oxiri, shomlar anchagina zimiston edi. Mattis, hamma ishlarda bo'lgani kabi, duradgorlikda ham haminqadar usta edi, ammo bu gal jo'ngina asbob-uskunalaridan unumli foydalanib, qayig'ini mehr bilan tuppa-tuzuk sozladi. Uyda, ishlari qandayligini surishtirgan Xege Mattisningertaga ertalabdan ish boshlamoqchi ekanligini bilib oldi.

— Ish? Nima ish boshlamoqchisan?

— O'sha, sen aytganingni. Odamlarni ko'ldan o'tkazib qo'yaman. Buni zap o'ylab topding-da!

Xege to'g'risini aytishga majbur bo'ldi:

— Nahotki hazilimni tushunmagan bo'lsang! Tashiydigan odamning o'zi yo'q-ku!

— Nega bunday deyapsan? — dedi u jahli chiqib. Xege Mattisning qarorini o'zgartirolmadi. — Meni aldamoqchimisan?

— Yo'q, bu yerda hech kim ko'ldan o'tmaydi, dedim, xolos. — Xege bir oz o'ylab ko'rib o'z fikridan qaytdi va tezda qo'shimcha qildi: — Yana o'zing bilasan, boshlasang ham bo'ladi, shekilli; sinab ko'rishning zarari yo'q. Har qalay, biror ish bilan band bo'lasan-ku!

Mattis bu so'zlarni xuddi xira pashshaning g'ing'illashiday qabul qildi. Xege Mattisni qattiq xavotirga solib qo'yganini tushunmagan edi. Holbuki, Mattisning hayotida hal qiluvchi, eng muhim burilish— muammolardan qutilish pallasi boshlanayotgan edi.

Mattis bolg'ani bor kuchi bilan barmog'iga urib olganidan keyingina ishni to'xtatdi: qorong'ida barmoq qayerda-yu mix qayerda, ko'rish qiyin edi.

U yonbag'irdan ko'tarilib borarkan, loyxo'rak tosh ostida yotgan bo'lishiga qaramay, bu yilgi yoz har-holda yomon emas degan xayolga bordi.

UCHINCHI QISM

28

Bugundan boshlab u tashkachi-kirakash. Mattis uchun bu quvonchbaxsh fikr edi.

Oynaday silliq ko'l yaslanib yotar va Mattisni kutardi.

Xege, Mattisni tashkachi qilishni allaqachon o'ylab qo'ygan-u, o'ziga faqat endi aytgandek ko'rinardi. Mattis ich-ichida u nima uchun buni o'ylab topganini fahmlar edi: o'zining kun bo'yi sandiroqlab yurishi uning joniga tekkan. Vaqtincha bo'lsa ham mendan qutulgisi keladi — bo'lgani shu. Ammo Mattis bu taklifi uchun Xegedan minnatdor edi, sabablar uning g'ashiga tegmasdi.

Xege uch-to'rt burda nonga saryog' surib, qog'ozga o'radi.

— Bular hammasi mengami?

— Ha. Sen axir kun bo'yi o'sha yoqda bo'lasan-ku? Yo tez qaytmoqchimisan?

— Yo'q, yo'q! — Mattis opasiga va'da berayotganga o'xshardi.

Xege unga haqiqiy tashkachilar nima qilishini uqtirardi:

— Hatto narigi qirg'oqdan hech kim chaqirmasa ham, tashkachi u yoqqa o'tib, sabr-toqat bilan odamlarni uzoq kutishi kerak.

Mattis yalt etib qaragandi, opasi qizarib ketdi. Harholda Mattisning ko'proq o'sha tomonda bo'lishini xohlardi.

Mattis yo'lga shay bo'lganda, birdan savol berdi:

— Men odamlarni ko'l ensiz joylarda tashisam bo'larmikin?

— Menimcha, bo'ladi.

— Ensiz joyi bo'lmasa-chi? Unda nima qilaman?

— Qayig'ingda xohlagan joyingga suzib boraverasan, — dedi Xege. Uning bu gapi Mattisga moyday yoqdi. Shundan keyin u bunday paytlarda aytilishi lozim bo'lgan gapni aytdi:

— Kechqurun qaytaman. Xege bosh irg'adi. Hammasi to'g'ri edi.

Mattis qayiqqa o'tirib, eshkaklarni suzishga hozirladi. Endi faqat kutishi kerak edi.

Bu sohilda narigi qirg'oqqa o'tishni xohlovchilar yo'q edi. Biroq u ikkala qirg'oqdan ham odam tashishga shay bo'lishi kerak, shuning uchun tezlikda ko'l bo'ylab suza ketdi. Odam tashiydigan vaqtning tayini yo'q edi, biroq Mattis qayiqning ta'mirdan keyingi ahvolini sinab ko'rgisi keldi. Birdan doimiy ishlik bo'lgani ichini shodlikka to'ldirib yubordi. Birovlarning tomorqasida kamsitilish

yo'q, aqllilar va chaqqonlar bilan qiyin ishlarda ishlash yo'q. Orqaga suyanib olib, uzun-uzun eshkak siltashlar — mana bu menbop ish, o'yladi u. Ishlab yangi qayiq olganimdan keyin bu eski kalishni tashlasam ham bo'ladi. Qayig'im qancha yaxshi bo'lsa, men bilan suzishni xohlovchilar ham shuncha ko'p bo'ladi. Ehtimol, o'shanda o'zim tashishni xohlagan kishilarim ham kelib qolishar...

U to'g'ri chiziq bo'ylab aniq eshib borardi. Fikrlari bir maromda ishlar, unga xalaqit bermasdi. To'g'risini aytganda, men o'zi qayiqda suzish uchun yaralganman. Xudo biladi, qancha vaqtimni bekor ketkazdim ekan?

Narigi qirg'oqqa suzib o'tib, yo'lovchilarni o'sha yerda kutish kerak.

Ammo u ko'kimtir g'arbiy yonbag'irlar etagidagi qirg'oqdan chiqqanda, u yerda biron-bir tirik jonni ko'rmadi. Qolaversa, shunday bo'lishi ham kerak, axir, bu uning birinchi ish kuni, xolos. Odamlar ko'lda kirachi borligini bilishgandan keyin, hammasi boshqacha bo'ladi.

Mattis serdaraxt qirg'oq yoqalab sskin-sekin suzarkan, biron joyda ko'lga qarab kelgan so'qmoq yo'l yo'qmikin, deb qarab borardi. Yo'q, ko'rinmaydi. Nima ham der edik, faqat yo'l bor joyda emas, qayiqni to'xtatib qo'yish mumkin bo'lgan har qanday joyda ham kutishga to'g'ri keladi. Tashkachi har doim kutishi kerak, degan edi Xege.

Mattis umidsizlanmay, qayiqning tubiga cho'zildi va yuzini oftobga tutdi. Qayiqdan yoqimli o'tkir hid kelardi — kecha teshik-yoriqlarni kanop qatroni bilan bекitgandi, hid o'shandan taralayotgan edi. Bu yoqda qirg'oq toshlari yorilgan, bu yoriqlardan ham nan's hid taralar, ammo bu butunlay boshqacha hid edi.

Mattis huzur qilib cho'zildi.

Buni qarang, men bu yerda yalqovlik qilib yotibman-u, aslida esa ishlayapman.

Uning kulgisi qistadi.

U ancha yotdi, ammo hech kim kelmadi, shunda u qayiqni yana suvga itardi va o'zlarining qirg'oqlariga qarab suza ketdi. Birdan shu payt u yerda kimdir paydo bo'ldi, endi Mattisni kutyapti. Balki odamlar tashkachilik haqidagi yangilikni eshitgandirlar yo mening ko'lda to'g'ri chiziq bo'ylab suzayotganimni ko'rgandirlar. Tashkachi bo'lishning o'zi bo'lmaydi: u yoqqa ham, bu yoqqa ham bir vaqtning o'zida ulgurish kerak. Qiziq, u buni eplarmikin?

«Tashkachi» deyishning o'zi ham ungayoqib qoldi: u — tashkachi, qanday salobatli eshitiladi bu so'z. Butun ko'lda qayiqni bu qirg'oqdan u qirg'oqqa to'ppa-to'g'ri suzdira oladigan bironta boshqa tashkachiyo'qligiga ishonchim komil. Mendan o'tqazib haydash hech kimning qo'lidan kelmaydi. Afsus, qayiqning izi suvda ko'p turmaydi-da, qaniydi bir necha kun yoyilmay ko'rinib tursa!

Mattis o'z qirg'oqlariga qaytib keldi — ammo bu yerda ham uni hech kim kutmayotgan ekan. U ishni tashlagisi va besh daqiqada Xegening oldiga borgisi keldi, ammo o'zini tiydi. Burch yuzasidan u ovqatlangani qirg'oqqa chiqdi. Endi Xege ta'na qilolmaydi, unga yuk bo'lish yo'q, u koi bo'yida yotar, o'zining halol nonini yer edi.

Jim!

Mattis quloq soldi.

Umuman, u kelganidan buyon atrofni jon qulog'i bilan tinglardi. U yoqda, g'arbiy yonbag'irlarda kimdir hoyhoylab chaqirayotganga o'xshardi. Lunjini nonga to'latib, anchagacha jimlikka quloq solib yotdi. Yo'q, bunday olisdan hech qanday hoyhoy ovozi kelishi mumkin emas. Harholda u tarafdin kimdir hoyhoyladi!

Mattis tezda ovoz kelgan yoqqa suza ketdi. Uni biron tanishi chaqirgan bo'lishi mumkin. Masalan, Xege... to'g'ri, agar u ko'l bo'yiga kelgan bo'lsa, albatta.

Aniq, bu Xege... g'o'ldiradi u va eshkak eshishni shartta to'xtatdi.

Hohoylayaptimi?

Birinchi kun! — Shunday bo'lsa-da, darrov meni chaqirishyapti! Ajabo, u yerda qichqirayotgan kim ekan — butun ko'l osha arang eshitildi bu ovoz? Odam qo'rqib ketyapti hatto. Yo'q, bu axir Xege-ku!

Bema'nilik!

Yaxshiyamki, kunduzgi payt hozir. Ammo tashkachilar kechasi ham ishlashadi. Tashkachini faqat yorug' kunda emas, qorong'i tunda ham chaqirib kelishlari mumkin.

Nima bo'lishidan qat'i nazar, hoyhoy ovozlari tindi. Mattis bor kuchi bilan eshkak eshganidan, terlab-pishib ketgan edi. Lekin buning ahamiyati yo'q. Bunday ish uning qo'lidan keladi — muhimi ana shu! Fikrlari eshkak eshishiga xalal bermasdi.

Shundaylikka shunday-ku-ya, ammo sohilda hech kim va hech nima yo'q. Qiyalab ketgan g'arbiy yon-bag'irlar eng tepasigacha o'rmon bilan qoplangan. Bu yerlarda chorbog'u tomorqalar tartibi o'rnatilmagan, faqat yowoyi o'rmon. Na uy-joy, na odamlar... huvillagan tog' kengliklari, xolos.

Ammo, unday desa, kim hoyhoyladi, axir?

Hech kim, bu ravshan. Bunday uzoq masofadan ovoz eshitilmasligi kerak, dedi Mattis jiddiy ravishda o'zicha. Ammo aslida bunday emas-ku! Mattis chinakamiga o'zini tashkachi deb bilganidan yonbag'irdan hozir kimdir chiqib keladi, deb ishonardi. Kirachilar kimlarni tashimaydi deysiz! Biroq yonbag'ir kimsasiz edi. Ammo bu yerda baland ovoz bilan kim qichqirdi, axir? Odatda odam bunday qichqirolmaydi.

Balki tashkachilar o'zining yetib kelgani to'g'risida ogohlantirishi kerakdir? Mattis qayig'ida tikkatik turdi va: «Hey!» deb chaqirdi hadik bilan. Har bir xatti-harakati risoladagiday.

— Men bu yerdaman! — qichqirdi Mattis, ko'p sirlarni yashirgan so'qir yonbag'irga yuzlanib.

Hech kim ko'l bo'yiga kelmadi. Bu yerda tashkachiga muhtoj odam yo'q edi.

Bunda bir gap bor, o'yladi Mattis.

Bu noto'g'ri edi.

Xege uzoq kutish kerak degan edi, o'zini o'zi yupatishga urindi u.

Ammo kimdir meni aniq-taniq chaqirdi-ku, axir?

U quloq solib turdi. Butun atrof ham qandaydir nafas yutib turganga o'xshardi, faqat odamni hushyor torttiruvchi bir shitir-shitir eshitildi.

Endi narigi qirg'oqda uni kimdir chaqirdi — uylari tomondan. Har qanday masofadan ham eshitiladigan o'sha ovoz. Yana bu Xegening ovozi edi. Ovoz xuddi tashkachini chaqirayotganga o'xshardi!

— Ha, ha! — Mattis titrab qichqirdi va o'zining eski, omonatgina qayig'ini orqaga burdi. — Lekin u yer juda uzoq-ku!

Aftidan, birinchi kun har doim shunday o'tsa kerak, o'yladi u, miyasi gangib. Yana ko'lni kesib suza ketdi. Bu safar shashti pastroq, chunki charchagan edi. Lekin baribir hammani ko'ldan o'tkazib qo'yaman, o'ziga o'zi va'da berdi.

Mattis avvalgiday to'g'ri chiziq bo'ylab suzar, qo'llari benuqson ishlar, indamay eshkak eshar edi. O'zlarining sohillariga chiqib kelganda bu yerda uni hech kim kutmayotganini ko'rди, vahm bosdi. O'zi bilgan yonbag'ir, hech zog' yo'q, ana uylari. Qo'rqqanidan Mattisning yuragi hiqildog'iga keldi. Qadrdon sohillar uni dahshatga solardi. Bittagina chorasi qoldi: uyga qarab Xegening oldiga yugurish... U ortiq o'zini Xege chaqirganiga ishonmas edi.

Mattis qayig'ini bog'ladi va uyi tomonga ko'tarila boshladi. Atrofga qarashga yuragi betlamas edi.

Xege pinagini buzmay xotirjam kofta to'qib o'tirardi. Aftiga qarab Mattis o'zining erta qaytganidan opasining noroziligini seza olmadi. Xege xuddi bo'shliqqa gapirganday:

— Darrov qaytib keldingmi? — dedi.

— Bu sen o'ylaganingdek emas, — dedi u. — Bugun ko'lda ahvol har doimgidan boshqacha.

— Nima har doimgidan boshqacha?

— U yerda nuqul sen meni chaqirasan. Bu qanaqasi?

— Bema'ni gaplami gapirma, Mattis.

— Men bu qirg'oqda bo'lsam, sen meni u qirg'oqdan, u qirg'oqqa borsam, sen meni bu qirg'oqdan chaqirasan. Bu sening ovozing. Va bu ovoz butun ko'l ustida yangrab eshitiladi. Shunday bo'lishi mumkinmi, axir?

- U yerda hech kim qichqirmagan! — dedi Xege tez-tez. Albatta unga bu gap yoqmasi.

— Ammo men eshitdim, axir!

— Sen tinimsiz, odamlar meni chaqirishadi, deb o'yiagansan, keyin senga chindan ham shunday bo'lib tuyulgan. Birov chaqirarmikin, deb quloq solib turmaslik kerak. Ko'lga xuddi bekorchilikdan borganday, birovda ishing yo'qday bor. U yerda hammasi joy-joyi-da.

Xegening bu so'zlaridan xotirjam tortdi.

— Men ishdan qochmoqchi bo'lmadim.

— Bilaman. Bor, boraver.

Mattis tinchlanib yana sohilga qaytib keldi. Ammo qayiqqa o'tirmasidan oldin yangitdan o'sha g'alati ovozlar yangradi. Ammo muhimi — bu gal eshitgisi kelgan ovozni eshitdi: tashkachini chaqirayotgan qat'iy ovoz. Avvalgiday bu yana Xegening ovozi edi.

Mattis umrimda ilk bor doimiy ishlik bo'ldim, deb o'ylardi. Shuning uchun ham menga turli chaqiriqlar eshitilayotgandek bo'lsa kerak... Xege shunday degan-di-ku, axir.

Men aftidan o'zimni birov chaqirishini istadim, shekilli. Shuning uchun meni odamlar chaqirganday bo'ladi-yu, ammo ko'zimga ko'rinmaydi, bu tushunarli holat. Lekin tez orada bular hammasi boshqacha bo'ladi.

Kirakashlik, bu — yengil ish emas. Birinchi kunlarda ular meni va men nimalarga qodirligimni sinab ko'rishmoqchi bo'lishayapti, o'yladi u. Ketyapman! Ketyapman! Mattis qayig'ini orqaga burdi va uni olis yonbag'irlarga qarata hayday ketdi. Bu yana bir og'ir safar edi.

U boshqa qichqiriqlar eshitmadi.

Nihoyat sohilga yetib bordi. Asablari tarangligidan yelkalari og'rirdi. Ammo u bu huvillagan qirg'oqqa va o'zini qo'rquvga solish mumkin bo'lgan hammanarsaga qarshi tayyorlanib kelgandi. Lanj kun boshlandi, u endi kuchlangan edi. Ammo sinov sinovda, qayiq ko'l tubiga g'ijirlab urildi. Mattis o'rnidan turib qaddini rostladi. U bunday qilaman deb xayoliga ham keltirmagan edi.

Kimsasiz qirg'oqqa qarab noma'lum odamni chaqira boshladi.

— Meni chaqirdingmi, demak, shu yerdasan, — Mattis balandlikka qarab qichqirdi. U ezilib ketgan, boshi aylanar edi, shunday bo'lsa ham bo'yi odatdagidan o'sib qolganday, tikkatik orqasiga suyanib turardi, birdan o'ta qo'rqinchli narsa ko'rinib qolsa, shu ondayoq eshkakni qirg'oqqa tirab qayiqni surib ketishga shay edi.

— Bu yoqqa kel! — qichqirdi u.

Hech kim chiqib kelmadi. Yonbag'irga minglarcha sirlar yashiringan edi. Mattis qirg'oqda hech bir tirik zot yo'qligidan qo'rqib, hatto bo'zarib ketgan, bor-yo'q kuchini jamlab arang tek turardi.

— Men bu yerdaman! — qichqirdi u. Qulog'i chidab bo'lmas darajada shang'llar edi.

Nihoyat, mana:

— Ketyapman! — degan ovoz. O'rmonning ichidan, olis-olisdan birgina «ketyapman» degan ovoz keldi.

Mattis olov tekkandek bir seskanib tushdi. Bu Xegening tovushi yoki xayolidagi allaqanday ovoz emas, inson ovozi edi, xuddi o'ziga o'xshagan bir erkak kishining ovozi unga javob qaytargan edi.

Men kimni chaqirdim?

Nima bo'lganda ham, bu — inson.

O'rmon jimjit, ammo kimdir ko'l bo'yiga tushib kelardi.

Mattis, avvalgiday o'ziga xavf tug'ilishi bilan qochishga tayyor bo'lib turardi. Hech kim unga tashkachilar qochishi mumkin emas, demagandi. U qayiqni sayozlikdan nariroqqa surdi, endi qayiq ishga shay eshkaklar bilan qirg'oq yonida chayqalib turardi.

Balki, tashkachilarga ko'pincha kutishga to'g'ri kelar, dedi u xayolan o'zi o'zini oqlab.

— Uh, — deb ketma-ket xo'rsindi u. - Uh.

Bu asno noma'lum odam daraxtlarni panalab goh ko'rinib, goh ko'rinmay yonbag'irdan pastga tushib kelardi. Boyagi qichqiriqlardan keyin bu juda qo'rqinchli edi, shunday bo'lishi ham kerak, deb o'yladi Mattis. Bu — sinov, hammasiga dosh bermasa bo'lmaydi.

— Bu yoqqa! — noma'lum odam qayoqqa qarab yurishni bilsin uchun yana qichqirdi.

— Ko'ryapman! — deb javob berdi u, bu gal javob yaqinroqdan eshitildi. Erkak ovozi.

Ha, mana uning o'zi.

Shundoq suv bo'yida ungan butalar ichidan bir odam chiqib keldi. Mattisni ko'rib, qo'l silkitdi va unga yaqinlasha boshladi.

Odamlar shapkasidagi yomg'irni silkib tashlagani kabi, Mattis ham o'zidagi ahmoqona qo'rquv ifodasini silkib tashlamoqchi bo'lganday, qattiq bir seskanib oldi. U kimni ko'raman deb o'ylovdi?

Qirg'oqqa tushgan odam oddiygina inson edi — yelkasida qopi bor edi. Mattis qayig'ini u chiqishga qiynalmasin deb qirg'oqqa yaqinroq keltirdi. Birinchi yo'lovchini qayiqqa olish buncha yoqimli bo'lishini bilmagan edi.

— Sen tashkachi izlayotganmiding? — Mattis, kelgan odam so'z ochishidan oldin, savol berishga shoshil-di. — Bu ko'lda men tashkachiman.

Notanish odam mamnun edi.

— Omadli ekanman, — dedi u. — Ko'rib turibsan, havo yaxshiligi uchun bu yerga tog' osha tushib keldim. Biron odamni uchratguncha sohil bo'ylab yayov ketmoqchi edim. Qaniydi bir odam bu yerdan o'tqazib qo'ysa, haqini bersam, albatta, deb o'ylagandim. Bujoylarda odam yashamasligini bilmasdim. Men bu xilvatlarga birinchi bor kelishim.

— Bugundan boshlab bu koida tashkachilik ishga tushdi, — dedi Mattis. - Men birinchi kun ishlashim. Birinchi bo'lib seni o'tkazib qo'yaman. Sen qaerga borasan, to'g'ri narigi qirg'oqqami? Men o'sha yerda turaman, Xege bilan birga, albatta.

Mattis sevinib ketganidan uzuq-yuluq va mujmal gapirardi. Lekin notanish kishi bunga e'tibor ham bermadi.

— Qayoqqa bo'lsa ham menga baribir, — deya g'alati javob berdi u. — Faqat tezroq narigi sohilga yetib olsam — bo'ldi. Faqat qo'rqib turibman — qayig'ing ikki kishini ko'tara olarmikin? Nazarimda, u juda ham tashkachilikka yaramasa kerak.

Notanish kishi shunday mensimay gapirgancha qayiqqa o'tdi va og'ir qopini yelkasidan yechdi. Lining bir chetidan katta bolta chiqib turardi — o'tinchi bo'lsa kerak-da... balki, ish izlab yurgandir. Ko'rinib turibdi, qattiqqo'l va kuchli o'tinchi. Mushaklari yenglarini yirtvorsa kerak. Har qalay, ko'rinishi shunday taassurot qoldiradi.

— Sen qayig'imni malomat qilma, — dedi Mattis. — Men bugun ilk bora odam tashiyapman, hali ishlab yangisini olganim yo'q, qo'limga kira haqiga bir ere ham tushmadi.

— Unday bo'lsa qanday kun ko'rasan? — so'radi o'tinchi, ammo Mattisning javobini kutmay, orqasiga o'girildi. Mattis zo'r bcrib eshkak eshishga tushdi. U notanish kishini yaxshilab kuzatish imkoniga ega edi. Lahjasiga qaraganda, olis joylardan kelganga o'xshaydi. Yoshi taxminan Mattisga teng, balki, biroz kattaroqdir. Chiroyli ham emas, xunuk ham — qandaydir o'rtamiyona. Kiyimlari oddiy. Hammasi keragiday. Hamma odamlar qatori kuchli va oqil ekani shundoq ko'rinib turibdi. Mattis eshib borarkan, ichi quvonchga to'la edi.

- Necha yoshdasan? — so'radi Mattis.

— Qirq uchda, nimaydi?

— Shunchaki so'radim-qo'ydim. — Mattis o'z yoshini ham aytmoqchi bo'lgandi, notanish kishi nimagadir alahsib, gapning beliga tepdi:

— Eh, jin urgur, ayrilib qolishimga sal qopti-ku, — dedi u birdan achchiqlanib va suvga bo'lgan qopini ko'tarib oldi. To'g'ri, Mattis qayig'ining teshik-yoriqlarini yangitdan yamagan edi, ammo faqat bir kishi chiqqanda suv ko'tariladigan joylarini yamagan ekan, ikki kishi chiqqanda suv ko'tariladigan joylari ta'mirlanmagan edi. Endi ikki kishi chiqqandan keyin yuqoridagi yoriqlaridan qayiqqa suv kira boshlagan edi.

Mattis o'zini oqlashga botinmadi. Qayiqqa suv kirayotganini ko'rgan bu oqil kishi qayiq egasiga ta'na qilishdan hayiqmadi. Mattis nima deyishni bilmay, go'yo alahsirardi:

— Sen boya shunday yo'l yo'q joydan chiqding, nima, adashib qolganmiding? Notanish kishi qayiqning oldiga qanday kelgani to'g'risida Mattisga izoh berdi, lekin istehzo bilan kulimsirab:

— Qanaqasiga adashgan bo'laman, to'g'ri menga ovoz bergan tashkachiga qarab keldim-ku! — deb javob berdi.

Aqlli bo'lgandan keyin shu-da, gapni topib aytishini qarang!

— Cho'michingmi yo shunga o'xshash narsang bormi, ishqilib? Aks holda bu yerdan u yoqqacha suzib o'tolmaymiz.

Mattis boshini egdi. Ha, qayiq hech narsaga yaroqsiz edi. U, notanish kishiga cho'michni berdi, notanish kishi qovog'ini uygancha qayiqqa kirgan suvni sepib tashlay boshladi. Mattis charchagani uchun, sekin-sekin eshardi, ammo qayiqni to'g'ri boshqarib borardi.

Qirg'oqqa ancha yaqinlashdilar. Notanish kishi jimlikni bo'ldi: - Bu atrofda bir kun tunab qolsa bo'ladigan uy-joy topilarmikin? Faqat yaqinrog'i... Men charchadim, uzoqqa borolmayman.

Bu gap eshkakni juda sekin eshayotgan Mattisga ta'na toshiday boidi.

— Seni suv o'tadigan qayiqda olib kelganim uchun, biznikida tunashing mumkin,

— dedi Mattis xijolat bo'lib.

— Uyinglar qayerda?

— Bu yerga yaqin... uzoq emas... — Mattis soyliqda turgan uylarini ko'rsatdi.

— Bo'ladi, — dedi notanish kishi, bir oz yumshab.— Menga bir kecha boshpana bersanglar, xursand bo'lardim.

— Xursand bo'lardim? — takrorladi Mattis. Uning notanish kishiga munosabati darhol o'zgardi.

— Bilasanmi, men bu yoqqa o'rmonda ishlagani keldim, — notanish kishi izoh berdi, endi u ham do'stona kayfiyatda edi.

Bu aqlli kishi ilk bor kirgan uyida kambag'allar turishini angladi. Faqat uning Mattisga e'tibori pasaydi. Eshik oldida Xege to'qish bilan band edi. U Mattis va notanish kishini bir oz hayronlik va ochiq yuz bilan qarshi oldi.

— Men bu kishini ko'ldan o'tkazib keldim. Bugunning o'zida, — dedi Mattis. — Faqat qattiq charchaganman.

— Salom alaykum, — dedi notanish kishi. — Rostdan ham sizlarnikida bir kecha tunasam bo'ladimi?

— U biznikida tunashiga rozi bo'lgandim. To'g'rirog'i, va'da berdim, — dedi Mattis, suhbatdan chetda qolmaslik uchun gapga aralashib. — Chordoqdagi xonada yota qolsin. Maylimi?

Xege shoshib qoldi. Bu, endi kutilmagan yangilik edi. Lekin, har qalay notanish kishiga qiziqsinib qarayotgani va uning tunab qolishiga qarshi emasligi ko'rinib turardi.

— Men unga ovqatlantirishimizni ham va'da qilgandim, — dedi Mattis, garchi bu haqda gaplashmagan bo'lsalar ham...

— Bir-biringizni bilasizlarmi? — so'radi Xege ukasidan.

— Yo'q, — deb tan oldi Mattis. — U butun yo'l davomida gapirmay keldi, hatto otini ham aytmadi. Qayiqqa kirgan suvni sepib keldi.

Notanish kishi oldinga bir qadam tashlab, oti Yorgenligini aytdi.

— Mening yeguligim bor, siz tashvishlanmang.

— Men unga, seni ovqatlantiramiz, deb va'da berganman, — Mattis o'jarlik bilan avvalgi gapini takrorladi.

Yotoq, yemak, balki, u biznikida butunlay qolib ketar? Xege oldiniga esankiragan bo'lsa-da, endi ozgi-na g'ayratga kirgandi. Mattis bunday voqeaga sababchi bo'lganidan, faxrlanayotgan edi. U Yorgen haqida yana ozroq gaplashib olish uchun, Xegening ketidan uyga ergashib kirdi.

— U ham senday aqlli, — deb ma'lumot berdi Mattis. — Xege, bu ishim uchun mendan achchiqlanmaysan-a?

Mattis shunchaki qoidali bo'lsin uchun so'ragandi, xolos, u Xege achchiqlanishni xayoliga ham keltirmayotganini ko'rib turardi. Opasi hayajonlangan, to'lqinlangan edi, hatto uning yurishlari ham o'zgarib qoldi.

— Balki, ertaga yana biron kishini ko'ldan o'tkazib qo'yarman, — dedi Mattis. — Balki, men har kuni senga yangi-yangi qo'noqlar opkelib turarman. Lekin, aytib qo'yay, bundaylarni topish oson emas.

Xege, chordoqdagi xonani yig'ib-terib, tartibga solish uchun narvondan yuqoriga chiqib ketdi. Mattis pastda Yorgen bilan birga qoldi. Ikkovlari ham churq etishmasdi. Charchoq Mattisni tebratayotgan edi.

29

Yorgen ularning uyidan ketadiganga o'xshamasdi. U yaqin orada o'rmondan o'ziga ish topadi va, yana sizlarnikida yashab tursam bo'ladimi, deb so'radi. Mattis va Xege, ayniqsa, Xege hayron bo'lsalar-da, xursandlik bilan rozilik berishdi. Xege boshqacha bo'lib qoldi. Mattis buni darhol fahmladi, ayni chog'da o'zi o'zgarib qolganini ham payqadi.

Yorgen kamgap edi. O'rmondan qaytib kelgach, bir-oz o'choq boshida aylanishib, o'ziga ovqat tayyorlardi. Keyin chordoqqa chiqib ketib dam olardi. U uy egalari bilan yaqindan tanishishga harakat qilmasdi. Opa-uka hayron edilar: Yetti yot begona odam keldi-da, ularnikida turishni xohlab qoldi.

Ustiga ustak Mattis kirachi edi.

U har kuni ko'lda suzardi. Ung?. hirinchi kundagi kabi omad boshqa kelmadi — hech kimda ko'ldan suzib o'tish zarurati yo'q edi. Ahyon-ahyonda bir motorli qayiq g'arbiy yonbag'irlarga tarillab o'tar, keyin qaytib yana qaylargadir g'irillab uchib ketardi — nima ish qilsa ham boshqa dunyoda qilardi. Mattis esa oddiy qayiqli haqiqiy tashkachi — charchash nimaligini bilmay ishlardi: u hech nima tashimasa ham, ortiq ko'l bo'ylab o'zini u yoqqa-bu yoqqa tashlamas, endi unga xayoliy qichqiriqlar eshitilmas edi. Ba'zi-ba'zida qaysidir qirg'oqda yo'lovchini kutib uxlab olishga odatlandi. Agar qattiq shamol bo'lmasa bir necha marta ko'lni u yoqqa-bu yoqqa kesib o'tari. Qayiq faqat bir kishi uchun yaroqli bo'lib, agar bir o'zi suzsa, unga suv kirmas edi. U o'ziga xush yoqadigan va Xege ham ma'qullaydigan ish qilayotganidan xursand edi. Tashishga odam bo'lmasa uning aybi nima?

Albatta, yangi qayiq olish uchun bir ere ham topmagani yomon, ammo kunlar o'tib ahvol o'zgarib qolar?

Bir kunmas — bir kun ko'ldan o'tishni xohlovchilar kelib qolar?

Qolaversa, Yorgen ularnikida turibdi va shu yerda qoladiganga o'xshaydi.

— Endi biz hammadaymiz, — dedi Mattis bir kuni. Bu gap Xegega tegib ketdi.

— Bunaqa bema'ni gapni valdirama? Biz ilgari ham boshqalardan yomon emasdik.

— Bilaman, — dedi u itoatkorona.

— Men bu gapni boshqa eshitmay! Mattis Xege juda o'zgarib ketganini sezardi. Xege endi ilgarigiday yaxshi muomala qilmas, Mattis Xege ima deb o'ylayotganini bilolmasdi: faqat goho-goho 'ziga g'alati qarayotganini payqab qolardi. Bir kuni Mattis yana bema'ni ish qilib qo'ygandi:

— Shuyam ish bo'ldi-yu! — deb, Xege uni furtkiladi.

— Sen juda o'zgarib qoldingmi? — dedi u o'zini baxtsiz his qilib. — Nega achchiqlanasan? Men har doim qanday bo'lgan bo'lsam, hozir ham shundayman. Nega jahling chiqadi?

Xege g'azablendi:

— Bo'lmag'ur gap!

— Menimcha, bu yerda boshqa gap bor, — dedi Mattis va Xegening ko'zlariga tikilib qaradi. — Menimcha, sening achchig'ing kelmayapti, ammo...

— Tushunmadim, ayt, bu nima deganing?

— Aytaymi? Hozirning o'zidami? — so'radi u qat'iyatsiz.

— Bo'lmasa bu gapga chek qo'yaylik. Ikkovlari ham chekinishdi.

Mattis Xegening aqlli va kuchli o'tinchiga qanday qarayotganini allaqachon sezgan edi. Yorgen esa, o'zi bilan o'zi ovora, undan o'rmon hidi kelar, ba'zi-ba'zida ob-havo haqida bir-ikki og'iz so'z aytishini hisobga olmasa, hech ortiqcha gapirmas edi. Uyga kechqurun qaytar, o'zi bilan o'rmon hidini olib kelar edi. Xege ovqat tayyorlashda yordamini taklif etdi, ammo u hammasini o'zi qilishga odatlangandi. Xege o'zini noqulay his qilib indamay chiqib ketdi. Yorgen o'zi haqida hech nima demas, bu haqda unga savol berilsa, o'zini eshitmaganga olib qo'ya qolar edi yo bo'lmasa men bilan hech kimning ishi bo'lmasligi kerak, der edi, men hech qanday yomon ish qilmaganman.

Xege Yorgenni zimdan kuzatar edi. Shunda Mattis Xegening yuzi go'yo jonlanganday o'zgarib ketishini payqar edi, bordi-yu Mattis bu haqda og'iz

ochguday bo'lsa, unga tish qayrardi. Bu yerda bir gap bor deb o'ylayman, dedi u Xegega.

30

Mattis kunba-kun ilgarigiday ko'lda suzib yurardi. Tashishga hali ham odam yo'q, ammo tashkachi baribir o'z joyida bo'lishi va yo'lovchini kutishi kerak edi. Bu unga hatto xush yoqardi. Xegedan esa borgan sari ko'ngli sovib borardi. Kun o'tgan sayin Xege injiq bo'lib ketyapti. Mattis gapirsa ham, biron ish qilsa ham — hammasi Xegening nazarida noto'g'ri edi. Ular yolg'iz qolishlari bilan Xege Mattisni arralay boshlardi.

— Bunday qilish mumkin emas! — dedi u bir kuni. — Gapimni qulog'ingga quyib ol.

Endi Xege har doim yasanib yurishga urinardi. Mattis ko'pincha Xege vaqtini pardozi-andozlarga sarflayotganini, qiyindan-qiyin sakkiz yaproqli gul naqshni to'qishga vaqti oz qolayotganini ko'rardi. Xege sochlarini boshqacha turmaklar, bu hatto Mattisga ham yoqardi. Qiz bola degan sochini chiroyli turmaklab yurishi kerak axir! Ammo bu negadir Mattisni xavotirga solardi.

— Sen u yoq bu yoqqa borasanmi? Xegening xayoli bo'linib cho'chib tushardi.

— Yo'q, — deb javob berardi u.

— Bo'lmasa nega yasanib olding?

— Shunchaki o'zim. Sen mening har qadamimni poylab yurasanmi? — deb qo'shib qo'yardi.

Mattis uyalib ketardi, chunki opasining aytgani rost edi.

Lekin har qalay Xege avvalgidan chiroyliroq bo'lishini xohlaydi. Xege o'tinchiga yoqish uchun yasanadi. Nega? Bu haqda o'ylamaslik kerak degan qat'iy qarorga keldi Mattis.

Buning nimasi yomon — hech qanday xavf-xatar yo'q-ku!

Bu haqda o'ylamaslik kerak.

Mattis, qo'lidan kelgancha, xavotirli o'ylarni o'zidan haydardi.

Bir kuni kechqurun Yorgen narvondan hovliqib tushdi-da Mattisning oldiga keldi. O'sha kuni Mattis uyga odatdagiday kechqurun kirib kelgan — tashishga odam boimagan edi. Ular endigina oqshom yemagidan turgandilar. Mattis divanda o'tirar, Xege o'z xonasida ish bilan band edi. Ehtimol, ko'zgu oldida orolanayotgan bo'lsa kerak, deya yoqimsiz xayollarga bordi Mattis. Deraza ortida oy yarqirardi. Xuddi shu payt Yorgen chordoqdan tushib keldi: u shunday tez chopib keldiki, Mattis hatto nafasini yutdi.

— Menimcha, sen ko'lga borib kelishing kerak, — dedi Yorgen unga.

Mattis sakrab turdi:

— Meni chaqirishdimi?

Xege yotoqxonadan chiqdi. Yasangan edi. Yorgen o'z aytganlariga o'zi ham ishorfmayotganidan, dovdiradi:

— Hatto, bilmayman... Chaqirishganday bo'ldi... Kimdir ko'ldan o'tishi kerakka o'xshaydi.

Mattis hayajonlanib ketdi:

— Nahotki kimdir meni chaqirgan bo'lsa? — dedi u pichirlab.

Yorgen unga juda qat'iy qarab turardi.

Mana, tungi kirakashlik chog'i ham kepti. Mattis hammadan ham shunisidan qo'rqardi. U bu haqda necha bora o'ylagan! Tashkachi har narsaga shay bo'lishi kerak.

— Sen xato eshitmagansan, Yorgen, — dedi u. — Bir kunmas bir kun kechasi ishlashga ham to'g'ri kelishini bilardim — Xege menga aytib qo'ygan edi.

Eski odatiga ko'ra Xegega ko'z tashlab qo'ydi. U orqasini o'girdi, shoshib deraza yoniga bordi va boshini chiqarib ko'chaga qaradi.

— Ha, tashkachi o'ziga o'zi xo'jayin, — dedi Yorgen. — Keragida ishlayveradi.

Mattis bosh irg'adi. U hatto bir oz tantanavor tusda yo'lga hozirlandi, issiq kurtkasini, shapkasini kiydi. Nihoyat, orqa o'girib turgan Xegega va u bilan yonma-yon turgan Yorgenga dedi:

— Mana ko'rasizlar, men uyga qaytganimda sizlarga aytar gapim bo'lmaydi. Faqat meni tez keladi deb o'ylamanglar.

— Bo'lmasam-chi... sen, axir, bu qirg'oqda hech kim bo'lmasa, narigi qirg'oqqa ham borib kelishing kerak bo'ladi, — dedi Yorgen.

Mattis uydan chiqib ketdi.

U qo'rqayotgan edi. Ammo Yorgenning oldida o'z qo'rquvini bildirgisi kelmasdi. Yorgen bilib qo'ysin: u ko'lga boradi!

Yam-yashil yonbag'ir tepasida qonday qip-qizil kuzgi oy muallaq osilib turardi. Bu go'zallikdan Mattisning nafasi giriboniga keldi. Shunday bo'lsa ham oyga mahliyo bo'lib turishga uning vaqti yo'q edi, u tezda qayig'i yoniga bordi. Qirg'oqda uni hech kim kut-mayotgan, butun tevaraklar jimjit edi. U Yorgenga ishongani uchun bu yerga keldi. Yorgen xato eshitmaydi, u oqil odam.

Suv yuzini yengil shabada silab o'tdi. Mayjlar toshlarga zaif-zaif urilar, oydinga ajabtovur yiltirardi.

Qayiq bu safar birdaniga dosh berolmasa-ya?

Yorgenni zo'rg'a-zo'rg'a olib kelgandi, axir! Keyinchalik u faqat yolg'iz o'zi suzib yurgandi.

Bo'lganicha bo'lar, bugun ham qayig'imga chiqqan odamga, kim bo'lishidan qat'i nazar, cho'mich berib qo'yaman — suvni sepib o'tiradi. U oddiy odam bo'lishi ehtimoldan uzoq.

Kechasi tashkachini chaqirgan odamdan har baloni kutish mumkin. Lekin u, kim bo'lishidan qat'i nazar, men uni to'g'ri chiziq bo'ylab, eng yaqin yo'ldan olib kelaman. Usta eshkakchi ekanligimni ko'rib qo'yadi! Hamma ham ko'rib qo'yadi! — dedi Mattis, o'jarlik bilan va qayig'ini suvga itardi.

Ko'lining o'rtasida qizil oy u qadar to'lin bo'lib ko'rinmasdi. Ammo bu yer shunday chiroyli ediki, odam umrbod tungi kirakash bo'lib ishlagisi kelardi. Mattis eshishni to'xtatdi, ko'tarilgan eshkaklar yiltirar va uchqunlanar edi. U qirg'oqlarga quloq soldi. Keyin yana suza ketdi. Chaqiriq ovozi eshitilmay qolmasin deb, sekin-sekin suzardi.

Ammo chaqiriq ovozidan darak yo'q edi. Bu, g'arbiy yonbag'irlarda bo'lsa kerak, degan xulosaga keldi. Qayiqni o'sha tomoga burdi. Vaqt o'tib borardi. Mattis

qirg'oqqa yetib kelganini ham payqamay qoldi. U butun ko'lni biron ovoz eshitmay suzib o'tgandi.

Bu yerda uni anglashilmas bir yuk bosganday bo'ldi. Faqat jala oldidan o'zini shunday his qilardi. Ammo qayiqni, to tubi qumloqqa urilib shig'illaguncha, eshib kelaverdi.

Ana endi shu yerdaman deb qichqirishim kerak.

Yo'q, bu juda qo'rqinchli. Yarim funda shu yerga suzib kelganining o'zi ham yetarli. Ammo kirakashlar qoidasiga amal qilmasa bo'ladimi? Qichqirish kerak, Mattis. Shu yerdaligingni bildirib, qichqir. Modomiki tas hkachilikni zimmangga olgan ekansan...

— Heeeey! — titroq ovoz o'rtaliqda g'alati do'rilladi. Mattisning manglayidan sovuq ter tomchilari oqdi. Tik turib bor ovozi bilan qichqirish o'rniga, Mattis qayiqning taxta o'rindig'ida g'ujanak bo'lib o'tirardi.

Hozir hech bir odam men bilan o'rin almashishga rozi boimasdi, o'yladi u.

Yonbag'ir sukut saqlar edi.

Yana bir marta qichqir, Mattis!

— Hey! — U qaytadan ayanch ovoz bilan qichqirdi. Daraxtlar orasidan javoban allaqaysi bir tun qushi sado berdi.

Bundan ortig'i darkor ham emasdi. Mattis eshkaklarga yopishdi — eshkaklar ostidan nuqralar tutuni otilib chiqdi. Ko'ksida hadsiz-nihoyasiz qo'rquv tipirlardi. Mattis bu qirg'oqdan olisroqqa suzib ketish uchun, dunyodagi hamma narsasini unutib, eshkak eshishga tushdi. Qo'rquvi asta-asta bosilgandan keyin to'xtadi. Bir fursat nafasi rostlanguncha harakatsiz o'tirib dam oldi.

Bu yerda tashiydigan odam yo'q, ko'rinib turibdi. Kimdir ikkimizni — meni ham, Yorgenni ham aldagan! Ajabo, bizni kim aldagan ekan?

U shoshilmay qadrdon sohil tomonga suzib ketdi. Hayronligining chek-chegarasi yo'q edi. Tun esa o'sha-o'sha juda chiroyli edi.

Vaqt allamahol bo'lib qolgan edi. Uni eshik oldida Xege bir o'zi kutib oldi. Haliyam yotmabdi-da? Nega yotmadiykin? Ko'rinib turibdi, hali yechinmabdi ham.

— Biron voqea bo'ldimi, Xege? U boshini chayqadi.

— Qanday yaxshi bo'ldi-ya, axiyri qaytib kelganing, — dedi Xege.

Mattisning ichiga issiq yugurdi: meni deb shu paytgacha o'tiribdi, mendan xavotir olibdi...

Mattis Xegening ketidan uyga kirdi, xonada chiroq yoniq turardi. Mattis lol bo'lib to'xtadi: oydinda bilin-magan edi, mana endi chiroqda ko'rди — Xegening yuzi baxtiyorlikdan porlab turardi.

— Mattis, — dedi u besababdan besabab.

— Nima?

— O'zimam bilmayman.

Mattis xotirjam tortdi, to'lqinlar bilan xatarli o'yinlardan keyin ziyon ko'rmay eson-omon kelguncha o'zini kutib o'tiradigan shunday yaxshi opasi borligidan benihoya sevindi.

— Sen yotaversang bo'lardi, — dedi Mattis. — Bu ish sen o'ylaganingday xavfli emas.

— Nima xavfli emas? — Xegening tili kalimaga kelmay dakki berdi.

— Nima deganing nimasi? — Mattis hayron bo'ldi: Xege juda g'alati-ya, birpasda nima bo'lganini unutdi-mi? - Har qalay meni kutib o'tirganing juda yaxshi-da, — dedi minnatdor bo'lib.

Xege boshini silkib qo'ydi, tavba, u hech o'ziga o'xshamaydi-ya.

— Faqat meni tashlab ketmasang bo'lgani, — dedi u, bu gap birdaniga ichidan otilib chiqdi.

Xege javob bermadi. Mattis ham javobga muhtoj emasdi.

31

Ertalab Mattis Xegening Yorgenga hadeb- ko'z uzmay qarayotganini payqadi. Ilgari Xegeda bunday odat yo'q edi. Endi bo'lsa Yorgendan boshqasini ko'rmaydi. Bu hoi Mattisga yoqmaydi. O'tinchi ketishga chog'lanayotganda shartta uning oldiga bordi.

— Kecha xato eshitibsan, seni deb ahmoq bo'lganim qoldi.

— Xato eshitgan boiishim mumkin, —javob berdi Yorgen.

Shunday dedi-yu, o'rmonga ketdi.

Boshqa bir so'z ham demadi. Yorgenning yoniga yaqin yo'lash oson emas. Xege bir chetda o'tirgandi, barmoqlari to'quv simlarida qotib qoldi. U erkaklarga... ko'z-quloq bo'lib turdi. Yorgen ketishi bilan, barmoqlari yana ishga tushdi.

Voqealarning borishi o'sha-o'sha, ammo harholda nimadir o'zgargandi. Mattis bu to'g'rida uzoq o'yladi va javob topdi. Obakidandonni sog'inibman, dabdurustdan xayoliga kelgani shu bo'ldi.

Do'konchining oldiga otlandi: boshidan o'tgan qo'rquvlardan keyin sal o'zini ovutmoqchi edi, ammo Xege unga pul bermadi.

— Bugun do'konga o'zim boraman, — dedi u. — Anchadan beri u yerga o'zim boryapman.

To'g'ri, Mattis buni unutibdi. O'zi har kuni ko'lda band.

— Sen tashkachilikdan qolsang bo'lmaydi, — davom etdi Xege. — Bu jiddiy masala. Do'konda senga doim bo'lar-bo'lmas savollar berib g'ashingga tegishadi.

— Hech kim g'ashimga tegmaydi.

— Endi xiralik qilishlari mumkin, chunki hech kim ularning mushugiga «pisht» demaydi. Tushunarlimi?

Xege shunday dadil gapirardiki, Mattis darrov taslim bo'ldi. Kecha Mattis uyga qaytib kelganida, Xege qanday baxtiyor edi-ya! Bugun ham yuzlaridan baxtiyorlik yog'ilib turibdi.

Shu orada Xege Mattisga yegulik solingan qog'oz xaltani ko'rsatdi.

— Yorgen nonushtasini uyda unutib qoldiribdi, — dedi u, tashvish tortib. — Do'konga borganda buni ham oborib beraman.

— Men eltib bera qolay, — taklif qildi Mattis. — Men u qayerda ishlashini bilaman.

— Yo'q, sen tashkachilikka borishing kerak, — javob berdi Xege. — Hech gapdan hech gap yo'q, ishni tashlab qo'yish mumkin emas.

Shunda Mattis lop etib o'ylaganini aytib yubordi:

—Endi ko'zingga Yorgendan boshqasi ko'rinmaydi. Hatto jirkanadi odam.

Xege shoshib qoldi.

- Senga nima bo'ldi? — so'radi u, bir oz vaqtni yutish niyatida.

— Menga bu ish yoqmaydi, — davom etdi

Mattis. — Sen nuqul uni o'ylamasliging kerak.

Xege kulib yubordi.

— O'zing-chi, Mattis, o'zing doim kimlarni o'ylaysan? — so'radi u, Mattisga ko'z qisib qo'yib. — Sen ham Inger va Anna ismli qizlarni o'ylaysan-ku, axir!

Ammo bu butunlay boshqa, demoqchi bo'ldi-yu, lekin fikrini bo'lakcha ifodaladi:

— Unday bo'lsa Yorgenga xohlaganingcha qarayver, — dedi u, shunda ko'ngli bir muncha yengil tortdi. Xege qanday oqila va yaxshi, o'yladi Mattis, Inger bilan Annani ham tushunibdi-ku, axir!

Xege Yorgenga nonushta olib ketdi, Mattis tashkachilik qilgani ketdi.

Qirg'oqqa borganda xayolini yangi fikrlar — tosh ostida yotgan ko'zlar egalladi.

Tosh ustida tosh, to'r ustida to'r bo'lsa bo'lar, ammo u ko'zlarni baribir yashirib bo'lmaydi.

U cheksiz-chegarasiz suv betiga tikilib qaradi. Mattisga madad ber, degan g'ira-shira fikr yilt etib o'tdi xayolidan.

Nimaga?

U seskandi.

— Yo'q, yo'q, — ma'nosiz g'o'ldiradi u va eshkaklarga yopishdi.

Qanotlar ichida o'q, o'yladi u, anov yoqda esa ko'zlarni bosib yotgan toshlar — tosh ustida tosh.

32

Yorgen ularnikidan ketmadi, umuman olganda, bu yaxshi bo'ldi. U o'rmonda o'tinchilikdan ko'p pul topar, ijara uchun Xegega tuzukkina haq to'lardi. Bu, bir tomondan Mattisni xursand qilsa, ikkinchi tomondan, ko'nglini g'ash qilardi; qalbinning tub-tubida bir vahm yashirib yotar, uni g'ajir edi. Bu yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham, bariga uning o'zi aybdor edi, chunki uyga o'tinchini o'zi yetaklab kелgandi. Bir bozor kuni Mattis Yorgen chordoqdan tushib, vaqtini Xege ikkimiz bilan birga o'tkazarmikin, deb toqatsizlik bilan kutdi, ammo Yorgen o'z xonasida juda uzoq o'tirdi. Keyin bir o'zi qirg'oq tomonga qarab ketdi. Xege u bilan birga ketmadi, chunki Mattis undan ko'zini uzmas edi.

Keyin, mana, yana bir bozor kuni keldi. Yorgen, odatiga ko'ra, o'z xonasida edi.

Mattis o'zini igna ustida o'tirgandek sezardi.

— Xege, — deb gap boshladi hadik bilan. U Xege va Yorgen haqida ko'p narsani so'rab bilgisi kелardi.

Mattis qilmishiga yarasha Xegedan eshitadiganini eshitdi.

— Sening hech kanda qilmay yashirincha kuzatishlaring jonimga tegdi! — deb gap boshladi Xege. Ovozidan, bu gal u quturib ketganga o'xshardi. — Ko'zlaringning dastidan bir qadam ham yurolmay qoldim!

Bu so'zlar Mattisni juda qattiq chaqib oldi. Mattis Xegening joniga tegdimi hali? Xege ochiqdan ochiq shunday dedi-ya!

Ammo Xege har doim achchiqlanganda bo'lgani kabi, bu safar ham aytgan so'zlaridan pushaymon bo'ldi. Yuzlari qaytadan yorishdi.

— Kel, bu so'zlarni men aytmadim, sen eshitmading, deb hisoblaylik. Chunki bu to'g'ri emas, sen jonimga tegmagansan.

— Aytishga aytib bo'lding, qanday aytmading, deb hisoblaymiz? — qo'rqibgina so'radi Mattis.

Xege uning oldida to'xtab turaverdi.

— Odam ba'zan aytgan so'zlari unutilishini xohlaydi. Senda hech bunday bo'lmaydimi? Men o'ylovdim-ki...

— Gap nimadaligini bilaman, — dedi Mattis birdan.

— Nimani bilasan? O'zi yo'q narsa bo'lsa, sen uni qayoqdan bilasan? — deb so'radi Xege shosha-pisha. — Sen jonimga tegmagansan.

U juda aqlli, o'yladi Mattis. Ammo hozir men undan aqlliroqman. Men Yorgen haqida gapirdim, u buni darhol tushundi va hiylada ustun kelmoqchi bo'ldi, ammo buning uddasidan chiqolmadi. Axir Mattis ko'lda suzarkan, behudaga kun-uzzukun bu haqda mulohaza yuritganmi? Agar Mattis Xegening joniga tekkan bo'lsa, demak, bu — Yorgen bilan bog'liq. Bunday davom etishi mumkin emas, buni hal qilib olish kerak!

— Yorgen, bu yoqqa tush! — Mattis tuyqusdan chordoqqa qarab qichqirdi; uning ovozi, dahshat solib, baland eshitildi.

Xege xavotirlana boshladi:

— Mattis! Nima qilmoqchisan?

— Bu yoqqa tush, Yorgen!

Xege, u batamom aqldan ozdi, degan xulosaga kelib, uni yelkalaridan changalladi, xonadan opchiqib ketmoqchi bo'ldi.

— O'chir! — dedi, qo'rqitish niyatida g'azab bilan shivirlab. — Nima, jinni bo'pqoldingmi? Seni nima deb o'ylashi mumkin? Ketdik ko'chaga, Yorgenni tinch qo'y!

— Yorgen!!!

— Bunga quloq solma, hammasi bema'nilik! — qichqirdi Xege chordoq tomonga.

— To'xta, mana, u tushib kelyapti, — Mattis o'jar-lik qilar, ketgisi kelmasdi.

Yorgen chindan ham narvondan pastga tushib keldi. Xege Mattisni qo'yib yuborib, o'z xonasiga qochib ketdi va tars etib eshigini yopib oldi.

— Nima gap, Mattis? — so'radi Yorgen xonaga kirib. — Mana, men keldim.

Yorgen bozor kuni kiyadigan kiyimlarida edi — o'ktam erkak, epchil o'tinchi. Mattis uning savoliga javob bermadi; o'ylamasdan qilgan qiligidan o'zi ham lolu hayron edi.

— Yana qanaqa bema'nilik? — juda keskin tarsillatib savol berdi Yorgen va Mattisga yaqinroq keldi.

Bu masalani uzil-kesil hal qilib olish kerak edi.

— Sen endi bu yerda qolishing mumkin emas, — dedi Mattis va olov bo'lib lovulladi. Bu so'zlar esini yig'ib ulgurmasidan burun lablaridan otilib chiqdi, u bu so'zlarni xayolan juda ko'p marta aytgan edi.

— Shunaqami? Qaysi aybim uchun? — so'radi Yorgen, u hatto achchiqlanmadi ham — shunchaki gap nimadaligini tushunmagan edi.

Mattisning ichidan:

— Men opam bilan birga kctib qolishingni istamayman! — degan so'zlar otilib chiqdi.

Yorgen o'zini har qachongidan ham yaxshi tutayotgan edi.

— Men opang bilan hech qayoqqa ketmoqchi emasman. Umuman bu yerdan hech yoqqa ketish niyatim yo'q. Nega ketishim kerak? O'zi endigina joylashdim-ku!

Mattis boshi berk ko'chada qolganday dovdiradi:

— Bilasanmi, Xege boshqacha bo'lib qoldi, seni deb...

— Nega? U senga nima dedi?

— Xege... — deya gap boshladi Mattis, ammo tutilib jim bo'lib qoldi. U, Xege yomon bo'lib qoldi, demoqchi edi, ammo gapini boshqacha qilib: — U awalgidek emas, — dedi.

O'rmonchi o'zini unutib, kulib yubordi.

Bu kulgi Mattisga shu lahzadayoq ta'sir qildi — u qattiq qahrlandi — o'ylarini idora qilolmay qoldi va Yorgenga, bu o'ziga ishongan odamga, ortiq gapirishga imkon bermay, jo'ya-nojo'ya, bo'lar-bo'lmas gaplarni to'rsillatib aytib tashladi:

— Nega kulasan? Men sen bilmagan narsalarni bi-laman! Sen mana shu yo'lda yurgan qushni bilasanmi? Bunday go'zal qushni umringda ko'rmagan bo'lsang kerak? Men esa ko'rganman! U mana shu yerda edi. Xege uchun keltirgandim. Men uni yaxshi bilaman! Nega endi sen bu yerlarda paydo bo'lding?!

Mattisning jasorati avvalambor o'zini hayratga solgan edi. U shu onda dadil-dadil so'zlari bilan Yorgenni ezib-ezib, yo'q qilib tashlamoqchi, bu yerlardan butunlay qorasini o'chirmoqchi bo'lgan edi.

Ammo boshqacha bo'lib chiqdi.

— Ha, mana, paydo bo'ldim, — dedi Yorgen xotir-jam. — Darvoqe, Xegening o'zi qani?

Mattis Xegening eshigini ko'rsatdi.

Yorgen to'g'ri o'sha yoqqa ketayotganini ko'rib:

— Qayoqqa? — deya so'radi xavfsirab.

— To'xtab tur, Mattis, hozir hammasini yaxshilik bilan gaplashib olamiz.

Shunday dedi-yu, Yorgen Xegening xonasiga kirib ketdi. Mattisning kuydi-pishdilaridan foyda chiqmadi. Xegening xonasida ularning shosha-pisha gaplashganlari eshitildi, keyin Yorgen va Xege ikkovlari birga chiqib kelishdi. Yorgen go'yo Xegeni himoya qilayotganga o'xshardi. Endi Xege ukasiga hadiksirab qarardi.

Yorgen kichkinagina miqti Xegeni yelkasidan quchoqladi va Mattisning oldiga yetaklab keldi. Hayratlanganidan Mattisning og'zi ochilib qoldi. Xege qizarib ketdi.

— Biz Xege ikkimiz yaxshi do'stlarmiz, — dedi

Yorgen. — Sen buni tushunishing kerak.

Xege Yorgenning quchoqlab olgan qo'liga qarshilik qilmadi, aksincha, itoat qildi. U hatto bundan xursand ham edi, ayni chog'da Mattisdan sal-pal qo'rqib-hadiksirab turardi.

— Sizlar endi haqiqatan bir-birlaringni sevasizlar-mi? — deb so'radi Mattis qiynalib.

Xege nihoyat boshini ko'tardi. Butun hayoti davomida Mattisning oldiga tovoqda yemak qo'yib kelgani bois, o'zini uning ko'zlariga tik qarashga haqli deb hisoblardi.

— Ha, Mattis, biz bir-birimizni sevamiz, — dedi u. Shunda yuzlari baxtli tabassumdan chunonam yorishib ketdiki... Mattis hech qachon uning yuzida bunday go'zal tabassumni ko'rmagan edi.

Keyin Xege yana boshqacha jilmaydi va shunday dedi:

— Menga Yorgenni sen olib kelgansan-ku, Mattis. Esingdami?

Endi Xegedan umrbod ayrilibman, degan dahshatli fikr birdan uni chulg'ab oldi va u bu fikr bilan hech chiqisholmasdi.

— Bir-biringlarni qachon sevib qoldinglar? — U zaifona, ammo qat'iyat bilan yana savol berdi.

— Sen tashkachilik qilib yurganingda.

Mattis, opasi Yorgenning quchog'ida huzur qilayotganini ko'rdi. Opasining aftini tanib bo'lmas edi — na charchoq bor edi, na g'ashlik, na g'amginlik... Ahvol Mattisni lolu hayron qildi — avvaliga sevinib ketdi, ammo keyin Xegeni umrbod yo'qotganini anglab, g'amga botdi.

Yo'q, yo'q.

O'zing ko'rib turibsan-ku. Uni yo'qotding, axir.

— Xege, nima uchun menga ilgari hech nima demaganding? — zorlanib so'radi nihoyat.

— Bunga avval o'zim ishonch hosil qilishim kerak edi, —javob berdi Xege. — Bu orada sen o'zing ham-masini fahmlab olding, chunki sen aqllisan.

Mattis maqto'vni eshitib, dovdirdi. Xege bu so'zlari bilan uni yumshatmoqchi edi. Mattisning badani jimirlab ketdi, go'yo gap hayot-mamot ustida borayotganday:

— Sen bu yerdan ketmoqchimisani? — deb so'radi.

— Bu gapni qayoqdan olding?

— Modomiki menga aytishdan hayiqqan ekansan...

— Yo'q, — dedi Xege, juda qat'iy qilib. — Biz hech qayoqqa ketmaymiz. Biznikida Yorgen siqilib qolmay-di. Hammasi ilgarigiday davom etadi.

Mattis quloqlariga ishonmas edi: ular mendan shun-cha narsani yashirishibdi-ya!

— Negayam men tashkachi bo'ldim-a, — ochiqdan ochiq afsuslandi u.

— Nega unday deysan? — Xege e'tiroz bildirdi. — Kun bo'yi ko'lda suzib yurish yomonmi?

— Men Yorgendan boshqa hech kimni o'tkazib qo'ymadim. Bu ishga unnalmasam bo'larkan...

Endi gapga kamgap Yorgen aralashdi:

— Balki yana kimnidir o'tkazarsan, — dedi u. Mattis boshini chayqadi.

— Kim biladi deysan, ko'lda har narsa bo'lishi mumkin, — davom etdi Yorgen.

Mattis so'zida qat'iy va mahkam turish uchun asoslari yetarli, deb hisoblardi.

— Men shu ishga unnamasam bo'larkan... Xege Mattis hammasini yana buzib qo'yishdan qo'rqib, gapini tugatishiga yo'l bermadi: u ukasiga yaqinlashdi va mahkam quchoqladi. Mattis esini tanigandan beri Xege hech qachon bunday qilmagandi, u bo'ynida opasining qo'llarini his qildi. Xegening yuzi g'alati edi.

Tashkachi bo'lganing uchun, Xudo senga ajru mukofotlar bersin, Mattis, — dedi Xege.

Shunday dedi-yu, yana xijolat bo'lib, Yorgenning yoniga o'tdi.

Mattis o'zidan so'radi: agar ular bir-birlarini sevishgan bo'lsa, nima uchun o'shanda Xegening mendan jahli chiqdi? Shuni ham undan so'rab ko'rsammikin? Yo'q.

— Hamma sevishganlar har xil bo'larkan-da, — deb qo'ydi savol berish o'rniga nozik mavzudan gap ochib.

Ular hushyor tortishdi. Buni ko'rgan Mattis, nahotki, bu gal aytgan gapim ularga tushunarsiz bo'lsa, deb o'yladi.

— Bu gaping bilan nimani nazarda tutyapsan? — so'radi Xege.

— Men boshqa sevishganlarni ham ko'rganman, shuni aytmoqchiydim, bo'lgani shu, — dedi Mattis. — Yozda men sevishganlar bilan sholg'om o'toqda birga ishlagandim. Ular nuqul bir-birining sonini chimchilashardi.

Xege bilan Yorgen kayflari chog' gul-gul ochilib ketishdi.

— Ular unchalik balog'atga yetmagan yosh yigit-qizlar boigan, — dedi Xege, — faqat shunday yoshlar bir-birini chimchilashadi.

Yorgen indamadi.

— Ammo ular hamma vaqt bir xil yaxshi insonlar edi, — dedi Mattis.

— Shunday bo'lishi ham kerak.

— Bo'lmasa nega sen menga achchiq qilarding? Bu Xegening gapiga javoban o'z-o'zidan otilib chiqqan so'zlar edi. Aytilgan gap — otilgan o'q, hech kim orqaga qaytarolmaydi. Qolaversa, buni ularga aytib qo'ygani yaxshi bo'ldi.

Xege uyalib ko'zlarini pirpiratdi.

— Menmi? Achchiq qilardimmi? Bo'lmagan gap, — u o'ng'aysizlik bilan o'zini oqlashga urinardi.

Ammo bunda ma'no yo'q edi, Mattis uni devorga tirab qo'ygandi, g'alaba Mattis tomonda edi.

— Mayli, men qayig'imga boray, — dedi. — Bir oz o'ylab olishim kerak.

— Yaxshi, — dedi Xege. U bir zumda chiqib ketdi.

Qirg'oqqa borib to'xtadi, bir oz o'ylanib, yana uy tomonga ko'tarila boshladi, ammo keyin yana pastga qaytdi.

O, loyxo'rak, mening qushginam, dedi o'zicha.

U qayig'ini suvga itarmadi, qirg'oqda uning yoniga o'tirdi — o'tkir yelim hididan chuqur-chuqur nafas oldi. U qayig'iga qarab turib, uni yomon ko'rib ketdi: Yorgen voqeasida qay birlari ko'proq aybdor — qayiqmi, o'zimi? Alohida-alohida olib qaralsa, na Mattis, na qayiq Yorgenni ko'ldan bu yoqqa o'tkaza olardi.

Yorgen ishdan kelib hordiq chiqarayotgan oqshomlarda Xege endi ochiqdan ochiq uning oldiga kirib ketardi. Bu o'sha muhim voqealar muhokamasidan keyin uyda yuz bergan birinchi o'zgarish edi. Mattis opasining xushchaqchaq-xushnudligini ko'rar, o'zi ham bundan xushchaqchaq-xushnud bo'lishi kerakligini tushunsa ham, hech bunday boiolmas, qo'rquv dastidan qutulolmas edi.

Bir kuni u dadillanib:

— Endi nima bo'ladi? Shu yerda qolasizlarmi? — deb so'radi.

— Hali bir qarorga kelmadik, — javob berdi Xege. — Hozircha qanday yashagan bo'lsak, hammasi shunday qolaveradi.

— Bir qarorga kelsanglar, unda nima bo'ladi?

— Ko'ramiz. Sen faqat bezovta bo'lma. Nahotki, Xege Mattis qo'rqayotganini tushunmasa?

U ketib qolsa, Mattisning yonida bo'lmasa, Mattis nima qiladi? U Xege bilan yonma-yon yashashga o'rganib qolgan. Shundoq qo'l uzatsa bo'ldi — Xege yonida bo'ladi.

— Ko'lga yiqilgan o'sha qush... — Mattis shunday deb gap boshladi-yu, ammo davom ettirilmadi.

— Ovchi o'ldirgan qushmi? Xo'sh-xo'sh?

— Yo'q-yo'q, shunchaki aytyapman, esingdami, unga o'q tekkandi.

— Mattis, jonim ukam, ortiq u qushlarni o'ylama, xudo olsin ularni, — dedi Xege beparvolik bilan: xuddi «nay-nana-num» deb o'ynab yuboradigandan o'zidayo'q xursand edi. Ammo Mattisning ko'zlari uni sergaklantirdi.

— Seni tushunmayman, — dedi Mattis jiddiy ohangda.

«Nay-nana-num»ning qorasi o'chganday bo'ldi.

— Erkaksan-ku, Mattis, erkak bo'lsang-chi, — dedi Xege qat'iyat bilan. — Ozgina erkakka o'xshab o'yla-gin.

— Nimani? — so'radi u diqqat bo'lib.

— Ozgina boshqalarni ham o'ylagin. Erkaklar boshqalar to'g'risida ham o'ylamasa boimaydi.

— Qanaqa boshqalami? — deb so'radi u ojizona, opasini vahimaga tushirib. Xege javob bermadi.

U tashkachilikka borardi. Endi tezda kimdir meni chaqirib keladi, deb o'ylardi u. Biri bo'lmasa, boshqa bir voqea yuz beradi-ku!

Erkak bo'l, dedi Xege. Ilgari Xege bunday so'zlardan gapirmasdi.

U qayig'ining teshik-tirqishlarini berkitdi. Har kuni ertalab u latta-putta qidirardi. Yangi qayiq endi istiqbolda, shunchalik olis-olisda ediki, sal keyinroq borib, umuman ko'rinmay, yo'q bo'lib ketdi.

Erkak bo'laymi?

Mattis bu talab ustida esankirab chuqur mulohaza yuritardi.

Xege baxtiyorlikdan tamoman es-hushini yo'qotdi, nima deyayotganini o'zi ham bilmaydi — hamma balo shunda bo'lishi kerak.

Mattis endi qayig'ini suvga itarmoqchi bo'lib turgandi, birdan yiroqlarda ustma-ust qalldiroq gumburlab qo'ydi.

Jala.

Tog'lar ortidan qora bulutlar ko'tarildi. Va shu ondayoq momaqaldiroq gumburladi.

Nima ham qildim, qaytishdan boshqa ilojim yo'q, o'yladi Mattis. Jalada tashkachilik qilish shart emas, ha, shukurlar bo'lsinki, bunday qilishim shart emas. U kuchli shamol ko'tarilish ehtimolini hisobga olib, qayig'ini yana bitta arqon bilan mahkam bog'ladi va eshkaklarni yashirdi-da, boshqa hech nimani o'ylamay, o'zining odatdagi boshpanasiga yugurdi. Bamisoli yog'ajak jala uni hamma majburiyatlardan ozod qilgandek edi. Uyga ko'tarilayotganda Xegening «erkak bo'li!» degan so'zi birdan yodiga tushib xayolidan ketmay qoldi. U to'xtadi va bir necha marta shu so'zni takrorladi.

Mattis uzoqdan Yorgenning uyga kirib ketganini ko'rdi. O'rmondan shikastlanib kelganmikin? Yo'q, unaqaga o'xshamaydi. Ko'rinib turibdi, u butunlay o'rmonga bormagan, butun bu vaqt davomida Xege bilan uyda birga bo'lgan. Ularni tushunib bo'lmaydi, o'yladi Mattis, Yorgen o'tin kesmay qo'ydi, Xege to'qishini to'xtatdi. Tez orada biznikida faqat men ishlayman, shekilli.

Momaqaldiroq kuchliroq qaldiradi. Mattis odimini tezlatdi. Balki uyga kirib, Xege va Yorgen bilan birga momaqaldiroq o'tib ketishini kutgani ruzukdir? Shu bahonada bir erkakligini ham ko'rsatib qo'yar?

Yo'q, dahshat bu, ro'yirost iqror bo'ldi Mattis va to'ppa-to'g'ri o'zining sinashta boshpanasiga ketdi. Bugun, balki, momaqaldiroq avvalgisidan kuchsizroqdir, ammo qo'rquv Mattisni o'z iskanjasiga olgan edi. U yugurib borib xalajoyga kirib oldi-da, eshigini mahkam bckitdi va barmoqlarini quloqlariga tiqdi.

Harholda momaqaldiroq kuchlikkina edi. Mana devor ortidan qabih momaqaldiroqning past qaldir-quldiri eshitildi, keyin u chinakamiga gulduradi. Mattis g'ujanak bo'lib oldi. Endi u erkak bo'lish to'g'risida ortiq o'ylamas edi. Voqea o'ta jiddiy tus olgan edi.

Ammo bu safar bu yerda xavfdan qutulishning iloji yo'qqa o'xshardi. Momaqaldiroq gumburlari ham, quloqqa tiqilgan barmoqlar ham Mattisni birdan shovqinlagan Yorgenning ovozidan qutqarolmadi.

— Mattis! Bu yoqqa chiq! — buyurdi Yorgen. Chiqib bo'larkanmi? Esi joyidami? — o'yladi

Mattis, lekin joyidan qimir etmadi, eshik ilgagi ilingan-ilinmaganiga qarab qo'ydi, xolos.

— Bu yoqqa chiq, Mattis! — deb buyurardi eshik ortidan.

Mattis yaqinida o'zi ham Yorgenga «chordoqdan tush!» deb buyurganini birrov yodga oldi.

Yorgen eshik ortidan qichqirdi:

— Yaxshilikcha chiqasanmi yo sudrab olib chiqay-mi?! Senga aytyapman, chiq bu yoqqa!

Bu nimasi? Mattis Yorgendan qo'rqmasdi-ku. Ubo'lsa, sudrab chiqaman, deyapti-ya! — bu so'zlardanso'ng xalajoyda qolishning iloji yo'q edi. Tashqaridamomaqaldiroq gumburlashda davom etayotgan, Mattisqo'rqqanidan rangi oqarib, oyoqlari paxtadaybo'shashib ketgan bo'lsa-da, eshikni ochib, tashqarichiqlashga qaror qildi — aks holda u o'zini shunchaki lavang-lapashang

holda ko'rsatgan bo'lardi. Aslida u qo'rqqanidan emas, Yorgen chaqirayotgani uchun o'zini tashqari chiqishga majbur etayotgan edi.

— Chiqyapman! — deb qichqirdi u ham eshik ortidan.

Ilmoqni tushirib, eshikni ochdi, aynan shu onda chaqmoq chaqib, ko'zlarini qamashtirdi va butun vujudini teshib o'tganday bo'ldi, ammo u bari bir ostonadan o't ustiga hatladi. Keyin ustiga momaqalldiroq quladi. Hali jala boshlanmagan edi. Mattis o'zining qayerdaligini idrok etolmas, ammo Yorgen shundoq qarshisida turardi. Mattisning qamashgan ko'zlari deyarli hech nimani ko'rmasdi. Yorgen tumanda tunaganga o'xshardi, hov narida eshik oldida turgan Xegeni ham tanidi. If Yorgenga, qo'li bilan, Mattisni o'z holiga qo'y, degandek imo qildi.

— Xo'sh, nima deysan, mana men shu yerdaman! — deb to'ng'illadi Mattis va oldinga bir odim tashladi. Oyog'i o'zinikiga o'xshamasdi. U Yorgenning ustiga bostirib bordi. Yorgen hatto tisanishga majbur bo'ldi. Yana chaqmoq yaraq etdi.

— Menda nima ishing bor, Yorgen!

Endi Yorgen indamay kutib turar, qo'zg'olmas edi.

Mattis chaqmoqni va momaqalldiroq gumburlarini pisand qilmay, yana oldinga bir qadam tashladi — u qop kabi qulamadi, barmoqlarini quloqlariga tiqmadi, ko'zlarini katta-katta ochgancha, to'ppa-to'g'ri o'zidan nimadir istayotgan Yorgenga qarab bostirib borardi. Qo'rqmayotganini bir ko'rib qo'ysin.

Mattis juda yaqiniga keldi. Yorgen uni joyidan qo'zg'olmay kutib oldi.

— Yaxshi, — dedi Yorgen. Boshqa hech nima demadi.

Ammo Mattis bu so'z tagdor qilib, hurmat bilan aytilganini his qildi.

U titrardi, shunday bo'lsa-da, oyoqlari zil-zambil gavdasini nochor-beixtiyor ko'tarib turardi. U Yorgenga bir qarab qo'ydi: unga ixlosi ortdimi yo undan qo'rqyaptimi buni o'zi ham bilmasdi.

— Xo'sh? — hayajonlanib so'radi u. — Ayt, mendan nima istaysan?

— Yur, biz bilan birga o'tir, boshqa hech nima kerak emas, —javob berdi Yorgen.

— Menimcha, bu joy senday ajoyib insonga noloyiq.

Mattisning g'azabi qaynadi, ammo bunday ob-havoda o'zini ko'rsatib qo'yishning mavridi emasdi. Yorgenning ketidan sudralib ketdi. Yuragi quturib, gurs-gurs urardi. Momaqalldiroq asta-asta pasaydi. Eng dahshatlisi ortda qoldi. Xege o'sha-o'sha ochiq eshik tagida edi. U Mattis uchun zarracha ham qo'rqmagani ko'rinib turardi.

— Bizga yo'l ber, — dedi unga Yorgen. — Qara, bizga xalaqit beryapsan, axir!

Xege nima deyishini bilmay, «xo'p-xo'p»lab yo'l berdi. Mana, ular uchovlari uyga kirishdi. Mattis nochorbir ahvolda kuchli va aqlli odamlar — Xege bilan Yorgenga jovdirab qarardi. Ammo, har neki bo'lsa-da, ular bilan birga o'tirolmas, hecham o'tirolmas — bu sinovlardan so'ng uni ojizlik o'rab-chirmab tashlaganday edi. Momaqalldiroq gumburlari pasayib borarkan, u o'rnidan turib, o'z divaniga borib yotdi. Tinkasi qurib ko'zlarini yumdi, u endi olis-olislarda edi.

Mattis har doim, endi Yorgen nima qilarkin, deb kutib yurardi. Yana undan nimani talab qilarkin? Bunday odamlardan har baloni kutish mumkin.

Ich-ichidan Mattis momaqaldiraq paytidagi ishi uchun Yorgendan minnatdor edi. Qisqa muddat ichida bo'lsa-da, Mattis o'zini haqiqiy erkakligini ko'rsatdi. U o'zi umuman ko'rinishdan nochor bo'lsa-da, aslida u qadar ojiz-notavon emasdi, faqat yomon narsalarni oldindan sezishi tufayli qiynalib yurardi. U Xege bilan Yorgen bir-biri bilan chiqishib ketganini, Yorgen o'rmondan qaytganda Xege ochilib ketishini ko'rib turardi. Zo'rg'a payqaladigan ko'pdan ko'p belgilar Xegening oldingi hayotdan va Mattisdan juda uzoqlashib ketganini aytib turardi.

Holim nima bo'ladi?

U tinimsiz Xege bilan Yorgenni kuzatardi.

Balki ular meni yolg'iz yashashi mumkin, deb o'ylashar? Ehtimol, bu haqda umuman o'ylashmas.

Bir kuni Mattis Xegedan to'g'ridan to'g'ri so'rab qoldi:

— Nega jala yog'gan kuni Yorgen meni chiqishga majbur qildi?

— Bunga qanchalik chidashingni bilmoqchi bo'ldi, —javob berdi Xege. — Ko'rdik, sen biz o'ylagandan ko'ra chidamliroq ekansan.

Bu so'zlar Mattisni junjiktirdi. Nimaga chidamli ekanman? O'shanda mazam qochganda, u rosa sevingandir? Ammo bu uning birinchi odimi edi.

U, xavotir va qora hissiyotlar qo'ynida ko'l bo'ylab suzardi. Ko'ldan o'tishni xohlovchilar yo'q, haliyam yonidan goho-goho motorli qayiq g'arbiy yonbag'irlarga o'tar, hech kim Mattisning yordamiga muhtoj emasdi.

Men Yorgendan faqat bittagina yaxshi narsani — qizlar bilan qanday muomala qilishni o'rgandim. Men ko'p narsani bilmas ekanman. O'shanda Inger bilan Annaning oldida noto'g'ri ish qilib qo'ymaganim — juda ajoyib bo'lgan ekan-da!

Ularning nomlari ham doim Mattisning xayolida. U qayig'ida bukchayib o'tirar va eshkaklarni ohista-ohista yurgizardi. Ko'p o'tmay Mattis yana kelguvsi hayot haqida gap ochdi.

— Biror qarorga keldinglarmi? — deyarli yovqarash qilib so'radi Xegedan. — Nimaga ahd qilganlaring-ku shundog'am ravshan.

— Yo'q, — dedi Xege beparvo. — Haliyam bir qarorga kelmadik. Yaxshi yashab turibmiz-ku. Sen ham bum' o'ylama.

Xegeni tanib bo'lmay qoldi: aytgan gapini ham eslamaydi. Opa-uka birga bo'lgan onlarida Mattis Xegening quvonchdan to'lib-toshib yurganlarini ko'rar, o'zini uning quvonchlariga sherikday his qilardi va ular bilan quvnoq va jasur, deyarli gerdayib muomala qilardi.

— Menga hamma gapni to'ppa-to'g'ri aytaversanglar bo'ladi, — deb qoldi bir kuni Mattis.

— Nimani aytyapsan?

— Men hammasiga chidayman, — ichida qattiq qo'rqayotgan bo'lsa ham, tashida sirli va'dalar berdi u.

Xege unga shubha bilan xavotirlanib qaradi, ammo hech narsani ko'rmadi. U tezroq o'z baxti qobig'iga keta qolgisi keJardi.

— Ilgari qanday edi, esingdami? — deb gap boshladi Mattis va gapini tugatmay o'rnidan turdi-da ketdi. Haddan ziyod ko'p xotiralar xayolida jonlana boshlagan edi.

Bir kuni ertalab Yorgen uning oldiga keldi — aniq-ki, yana nimanidir o'ylab topgan. Mattisning eti uvishdi: o'zini yangi sinov kutmoqda, bu galgisi oldingisidan ham jiddiyroq. Sovuqqina sentabr ertasi edi, ko'l uzra tuman parqulari suzib yurar, ularning orasida tumansiz joylardan ko'm-ko'k osmon ko'rinib turardi. Yorgen odatdagiday o'rmonga ketishga hozirlik ko'rardi, ammo oldin Mattisga murojaat qildi:

— Yur men bilan, o'rmonda birga daraxt kesamiz.

— Men tashkachilikka borishim kerak, — qisqa javob berdi Mattis.

— Kuzda hech kim ko'ldan o'tmaydi, — dedi Yorgen. — Bugun men bilan bemalol o'rmonga borsang bo'laveradi.

Bu deyarli buyruqday eshitildi. Endi Yorgen Mattis bilan faqat shu ohangda gaplashsa kerak...

— Men Yorgen bilan o'rmonga borishim kerak-mi? — so'radi Mattis Xegedan.

— Albatta, bor. U senga daraxt yiqishni o'rgatadi. Hozir men olib ketishingga nonushta tayyorlab beraman.

Mattis esankirab qoldi.

Endi yegulik tashvishiga o'rin yo'q, o'tinchi tufayli uyda oziq-ovqat yetarli, ilgarigi qiyinchiliklar orqada qolgandi. Mattis qarshilik qilmadi, ammo mushkul ahvolda edi.

— Yaxshi, — dedi Yorgen, hammasi tayyor bo'lganda.

— Nimaga sen bilan o'rmonga borishim kerak?

— Daraxt yiqishni o'rganishga.

Bu momaqalldiroq chog'ida uni xalajoydan sudrab chiqaman deb do'q-po'pisa qilaniga o'xshab ketardi. Holbuki, tashkachilik endi-endi yo'lga qo'yilgan, uning hech qiynalmay eplayotgan doimiy ishi bor edi.

Ular o'rmonning daraxt kesiladigan joyiga butun qishloqdan o'tib borishdi va odamiar Mattisning barcha asbob-uskunalar bilan qurollangan holda o'tinchi bilan birga ketayotganini ko'rdilar. Bu, garchi endi bahorgi ishiga qaraganda kamroq ahamiyatga ega bo'lsa ham, har qalay ko'ngliga o'tirishadigan ish edi. Axir, bu yil yozda chakana voqealarni boshidan o'tkazdimi?

Mattis beixtiyor kulib yubordi.

— Nega kulding? — yumshab so'radi Yorgen.

— Yo'q, shunchaki ilgari sholg'om o'tashni eplolmaganim esimga tushib ketdi.

— Hm, — Yorgen bu yerlik bo'lmagani uchun hech nimaga tushunmadi. Mattis buni payqadi.

— Orolcha, — dedi u.

— Bu nima degani — rushunmadim, — ro'yirost tan oldi Yorgen.

— Bunday bo'lishi tabiiy, — deb uning gapiga qo'shildi Mattis.

Ortiq hech nimani izohlamadi.

Ular daraxt kesiladigan joyga kelishdi, bu yerda jinni-pinni odam ishlaganga o'xshardi: ignabarglar sochilgan yerda, har tarafda yog'ochlar dumalab yotardi.

Yorgen Mattisga bu yog'ochlarning po'stlog'ini shilishni buyurganda, u o'zini kamsitilganday his qildi. Yorgen esa nariroqda bir o'zi daraxtlarni qiyratardi. Mattis bor kuchi bilan harakat qilardi, ammo eshkak eshish qayoqda-yu, po'stloq shilish qayoqda? U yoqda istagancha o'ylashing mumkin, bu yerda xayolga kelgan o'ylar bir-biri bilan to'qnashib, ishlashga xalaqit beradi.

Mattisning yog'ochini xuddi kalamushlar kemirib ketganga o'xshardi. Yorgen ishlayotgan yerda esa daraxtlar qular, atrofga shox-butoqlar uchar, yer zirillar edi.

Mattis terlab ketdi. Nihoyat u g'o'la tayyor bo'lganini aytdi. Yorgen uning oldiga keldi. «Ihm» deb qo'ydi. Nazarida g'o'la juda beo'xshov chiqqandi, ammo u ko'ngli to'lmaganini bildirmadi.

— Ozgina dam ol, — dedi u. — Men bum' sal-pal tekislay.

Mattis o'tirdi. Yorgenning qo'lida darhol g'o'la bo'ylab o'roqrandan u yoqdan-bu yoqqa ucha boshladi. Mattisning xayolini esa, nega men bu yerdaman, degan fikr g'ing'illayotgan xira pashshaday jondan bezor qilayotgan edi.

— Nega men bu yerdaman? — ovoz chiqarib so'radi u.

— O'rganish uchun, — javob berdi Yorgen.

— Menga nima keragi bor?

— O'tinchilik unchalik yomon kasb emas. Yorgen boshqa hech nima demadi. Mattis, u opamni olib ketmoqchi bo'lgani uchun menga bu ishni o'rgatyapti, deb o'yladi.

— Sen meni momaqaldiraq paytida ham sudrab chiqqanding.

— Ha. O'sha kuni sen haqiqiy mardligingni ko'rsatding. Hozir esa, kel, tamaddi qilib, bir oz dam olaylik.

U Mattisga non uzatdi.

— Men buni so'ramovdim.

— Bilaman. Yeb ol. Umr bo'yi qorning to'ymagan.

Yorgen chala-chulpa bo'lsa ham, har qalay do'stlik qilayotgan edi, Mattis esa buni qabul qilishga moyil emasdi.

— To'g'risini ayt, niyating nima? Nega meni bu yerga olib kelding?

Yorgen nonini ohista-ohista chaynar edi.

— Yo'q, harholda yomon niyatim yo'q, — dedi u. — Bo'lar-bo'lmas shubha-gumonlarga borma.

Qo'lidagi burdani yeb bo'lgandan keyin, yana gap ochdi.

— Nima qilishni hech o'ylab topolmayapmiz, — dedi u va Mattisning ko'zlariga tik qaradi.

— Menimi? — nogahoniy ziyraklik bilan so'radi Mattis.

— Ha.

Kuchga to'la o'tinchining yuzida yomonlik alomati yo'q edi, u Xege tayyorlab bergan nonushtani asta-asta tanovul qilardi. Mattis Yorgendan qo'rqmasdi, bor-yo'g'i Yorgen bilgan, ammo Mattisga aytgisi kelmayotgan noma'lum kelajakni o'ylab, dahshatga tushayotgan edi.

— Bu haqda keyin gaplashib olamiz, — dedi Yorgen. — Hozir esa sen boltada yaxshi ishlashni o'rganishing kerak. Ana o'shanda pul topa olasan va mustaqil bo'lasan.

— Men shundog'arn mustaqilman, — degan nido otilib chiqdi Mattisning og'zidan.

— Ha, lekin odam degan boshqalarning yordamisiz yashay olgani yaxshiroq, — dedi Yorgen, muloyim shafqatsizlik bilan.

Keyingi kunlarda Mattis hushyor bo'lib yurardi, mana endi birdaniga angladi; uni tashlab ketishmoqchi.

— O'rganmayman! — dedi u.

— Kerak! — dedi Yorgen. Momaqalldiroqqa chiqishni qanday buyurgan bo'lsa, hozir ham o'sha ohangda gapirdi.

Mattis bo'ysunishga majbur bo'ldi. Keyin to'satdan kallasiga bir ajoyib fikr keldi va quvonib shu fikrga yopishib oldi:

— Uyga borib kelsam maylimi? Orqasini o'girib ketayotgan Yorgen faqat yelkasini qisib qo'ydi, lekin Mattisga shuning o'zi ham kifoya edi. Chaqmoq yalt etganday, Mattisning boshida yangi reja tug'ildi. Endi uni darhol amalga oshirishi kerak edi.

— Hozir men emas, sen ahmoq bo'lding! — dedi Mattis Yorgenga. Keyin qochib ketdi.

36

Xege uyga chopib kelayotgan ukasini ko'rganda qo'lida ushlab turgan narsalarini tushirib yubordi, uy eshigidan ko'cha eshikka, ko'cha eshikdan so'qmoqqa otildi. Supurgi o't qoplagan tepalik orasidan o'tuvchi bu so'qmoq unga juda uzun ko'rindi.

— Daraxt bosib qoldimi?

— Kimni?

— Kimni deganing nimasi?

— Yorgenmi? Yo'q, u daraxt kesyapti, shundayki, boltasidan har yoqqa faqat payraxalar uchadi.

— Xudoga shukur-e, hammasi joyida bo'lsin iloyim.— Xege suyunib ketdi. — Sening shamolday uchib kelayotganingni ko'rib, bir balo bo'пти, deb o'yladim. Esingda bo'lsin, Mattis, daraxt kesiladigan joydan bunday chopib kelmaslik kerak, bo'Imasa, odamlar bir falokat yuz beribdi, deb o'ylashlari mumkin.

— Men buni unutibman, — dedi past ovoz bilan Mattis. — Xayolim butunlay boshqa narsada edi.

— Senga nima bo'ldi?

— Ha yo'q, hozircha hech nima. Men senga buni oldindan dangal aytolmayman. Mattis gaplari chalkashib ketayotganini sezib turardi.

— Men sen bilan gaplashib olishim kerakligi uchun uyga chopib keldim, seni ko'rgim kelgandi.

Xege piqillab kuldi.

— Meni ko'rging keldi? Topgan gapingni qara! Sen meni qo'rqitib yubording: u daraxt ostida qoptimi, debman.

Mattis qoyilmaqom rejasini darhol amalga oshiraman deb turganda oldindan nobop ahvolga tushdi. Yorgen o'rmondaligida Xegeni o'zimga og'dirib olaman degan umidda negayam jinnilarga o'xshab uyga yugurib keldi? U yerda o'ziga birdan-bir chora shu bo'lib ko'ringandi. Yo'q. Xege Yorgenni qattiq sevarkan: u daraxt tagida qolmaganidan shu qadar baxtli ediki, o'zini naq yettinchi falakda his qilardi.

Opa-uka shoxdevor yonida turardilar. Xege o'zi ham sezmagan holda Mattisga rejasini amalga oshirib ko'rishiga yordam berib yubordi. Xege sevinchi ichiga sig'may, Mattisni quchoqladi va uni do'nglikka o'zi bilan yonma-yon o'tqazdi.

— O'tir, nafasingni rostla, — dedi u xursandchilik bilan. — Chopganingda boshdan oyoq terlab ketibsan.

Ular xuddi ilgarigiday, dunyoda ikkovlaridan bo'lak hech kim yo'qday do'nglikka yonma-yon o'tirishdi. Mattisning ko'z o'ngida qutulish chorasi yarq etib ko'rindi — u nima qilish kerakligini tushundi.

Oldin u Xegega qarab jilmaydi. Xege ham xursandchilik bilan Mattisga qarab jilmaydi.

Keyin Mattis bosh irg'adi.

Xege ham bosh irg'adi.

Bu xuddi unutilgan va birdan qayta yodga tushgan eski o'yinga o'xshardi. Ammo Mattis Xege o'ylaganiday juda ham sodda, go'l odam emasdi: rejasi yodida edi.

— Mana sen bilan do'ngda o'tiribmiz, — deb gap boshladi Mattis.

Xege bosh irg'adi. Mattis davom etdi.

— Biz ilgari ham sen bilan do'ngda o'tirardik.

— Ha, — uning fikriga yopishib oldi Xege. — Bu yaqin-yaqinginada edi.

Mattis kulib yubordi, hammasi o'ylaganiday ketayotgan edi. Endi u Xegeni sezdirmay Yorgendan tortib olishi kerak edi.

— Sen bilan ikkimiz do'ngda o'tirganimiz — bundan ham yaxshiroq baxt bormi?

Xege biroz ajablendi, ammo Mattis fursatni qo'ldan chiqarmay qo'shimcha qildi:

— Menimcha, biz do'ngda Jco'proq o'tirishimiz kerak.

— Shunaqami?

— Seningcha qanaqa? Xege javob berdi:

— O'tiraver, hech kim senga xalal bermaydi. Mattis opasi o'zini undan ayirib olganini payqadi.

Chekinishga vaqt qolmagan, endi masalani ochdi-ochdi qilib olmasa boimasdi.

— Sen-chi, sen? Sen men bilan birga o'tirasanmi?

— Buni menga nima aloqasi bor? — so'radi u. Opasining ko'zlari o'ynab turar, bu esa Mattisning qalbini og'ritardi.

— Nega ammo?

— Kim bilan o'tirishimni bilasan-ku, — deb javob berdi u.

Xege buni shunday oddiy qilib aytdiki, Mattisning rejasi bir pul bo'ldi, undan nom-nishon qolmadi. Mattisning qat'iyati va kashfiyoti g'alvirdan o'tgan suvday oqib ketdi. U o'yinni boshlamasidan burun oxirigacha yutqazdi.

— Boshqa gaplashadigan gapimiz yo'q, — dedi u g'amgin va o'rnidan turdi.

Xege indamadi, hatto unga o'g'irilib ham qaramadi. Mattis qo'shimcha qildi:

— Ajab, do'nglik ham yordam bermadi. Men bo'lsam, Yorgen kelmasidan burun seni o'zimga og'dirib olish qo'limdan keladi deb o'ylagandim.

Xege hamon yumshoq o'tli do'ngda o'tirardi. Nihoyat u ham o'rnidan turdi.

— Eh, men hatto bilmayman ham, — deb qo'ydi u esankirab.

— Nimani?

— Biz sen haqda gaplashmaymiz deb o'ylaysanmi?

— Bilaman, gaplashasizlar, — dedi tez-tez Mattis.

— Biz qo'limizdan neki kelsa hammasini qilamiz,— dedi Xege. — Umid qilamanki, sen buni anglaysan.

Mattis uni eshitmasdi. U faqat opasining shoxdevor eshigini ochib ichkari kirganini, so'ng uyga yashiringanini ko'rdi, xolos. Mattisni endi boshqa masala — «zo'r fikr» degan gap qiziqtirardi. Zo'r fikr— nima u, ochig'ini aytganda? Hech nima. Sen zo'r fikr bilan kelib, aqlli odamga og'iz ochishing bilan u axlat chelakdagi axlat kabi yerga sochilib to'kiladi. Xegega bor-yo'g'i bir-ikkitagina so'z aytgan edi, Mattis o'zi xarob bo'ldi, rejasi ham kunpayakun boiib, xoki tuproqqa aylandi.

Biz qo'limizdan neki kelsa, hammasini qilamiz, dedi u. Bu borada Xege nimani ham tushunardi.

37

Tashkachilikka barham berishdi. Yorgen qaysar tabiat, bir so'zli odam edi. Har kuni ertalab Mattisni o'rmonga olib ketardi.

— Sen o'rganishing kerak, — derdi Yorgen. U kamgap edi, u bilan bahslashishdan foyda chiqmasdi. Mattis ming'ir-ming'ir qilsa ham, baribir, daraxt kesishga borardi. Bir kuni og'ir ishdan keyin ezilib qaytgan Mattisga Xege o'zgacharoq ziyofat berdi.

— Sen bu maktabdan o'tishing kerak, — dedi Xege. Mattis unga qanday anglatsin axir: butun fikru xayoli xuddi nur kabi to'ppa-to'g'ri eshkaklarga borib uriladi, qayiqda suzishdan boshqasi unga to'g'ri kelmaydi, na boltani tan oladi, na o'roq-randani. Xege hech nimani tushunmaydi.

O'rmonda Yorgendan yaxshisi yo'q. Mardligi o'ziga yetarli. U Mattis qiynalmay chopsin deb unga kichkinaroq daraxtlarni izlab topar, keyin uni yiqitibberar, deyarli hamma ishlarni Mattisning o'rniga o'zi qilardi. Mattisning ishi hech olg'a siljimasdi. U birgina narsani — Yorgenga Xege haqida gap ochishni istardi.

Nihoyat u bunga erishdi, ular o'tirib qahva ichishardi. Mattis juda kam ishlagan bo'lsa-da, qattiq charchagan, u o'zini archa shoxlari ostiga tiriklay ko'milganday his qilardi. Yorgen va Mattis boshlariga tosh qo'yib, yerga cho'zilishdi.

Mana, hozir ayni vaqti.

Qaldiraq sari olg'a! — deb o'yladi Mattis, o'zini o'zi tetiklantirish uchun. U bir oz qaddini ko'tardi. Yorgen shu ondayoq ko'zlarini ochdi — u hushyor yotgandi.

— Kel, Mattis, yana ozroq dam olaylik.

— Yo'q, men sen bilan gaplashib olishim kerak, — dahshat soluvchi ovoz bilan gap boshladi Mattis, boshqacha ohang unga to'g'ri kelmasdi.

— Unday bo'lsa, aytar gapingni ayt.

— Ko'rgandirsan, kundan kunga ishirn orqaga qarab ketyapti.

Bu to'g'ri edi. Mattisning ishlari rostdan ham avvalgidan yomonroq edi. Yorgen hammasini ko'rib-bilib yurgandi. Bu gapni Mattisning o'z og'zidan eshitish uning uchun yoqimsiz edi.

— Ha, men seni anchayin tushunmayman, sen qanday odamsan o'zi? — Bu gal Yorgenning ovozi darg'azab edi.

Ana shu darg'azab ovoz Mattisning kuchiga kuch qo'shdi.

— Sen o'zing qanday odamsan? Xegeni mendan kim tortib oldi? Bu yaxshimi, seningcha?

Yorgen xijolat bo'ldi.

— Shunday bo'lib qoldi, — dedi u.

Ular birpas jim o'tirishdi. O'rtalarida betaraf bo'lib Xege turardi. Ammo Yorgen:

— Sen o'zingni emas, Xegeni o'ylasang yaxshiroq bo'lardi. Uning uchun quvonsang bo'lmaydimi? — dedi. — Uning oldingi hayoti shirin edi, deb o'ylaysanmi?

Mattis o'q yeganday lol bo'lib qoldi, har narsaga buncha tez boshqa tomondan qarash uning qo'lidan kelmasdi. Yorgen, albatta, haq, faqat... U qimir etmay o'tirar va har qalay holsiz qanot qoqayotgan qushga o'xshardi. Bu dunyo birdan paydo bo'lib, odamni ezib tashlaydigan kuchga to'la. Bu kuch Xege, Yorgen va boshqa hamma aqlli kishilargina emas, yo'q, u yana shunday shafqatsiz va qit'iyatli kuchki, Mattisning o'zini o'z qayig'ida o'z kulfatini qo'ldan o'tkazib qo'yishga, o'z uyiga taklif qilishga majbur etdi. Endi u nima qilsin?

— Kel, bu haqda boshqa gaplashmaylik, — taklif qildi Yorgen, Mattis javob bermagandan keyin.

— Men hozir sen haqda yomon fikrlarga bordim, -dedi Mattis yovlik qilib.

— Bu senga yordam bermaydi.

— Nima yordam beradi?

— Bu gaplarni bas qilaylik, — dedi Yorgen qat'iyan. — Hammasi o'z holicha qoladi.

- Bo'pti, — dedi Mattis. Xayolida yovuz fikrlar charx urayotgan bo'lsa ham «bo'pti» va Yorgenga bo'ysunib, yana yerga yotdi.

Ular daraxtlari kesib olingan maydonda orqalariga dam berib chalqancha yotishardi. Atroflarida shox-shabba, g'o'lalar sochilgan, o'tlar orasidan qo'ziqorin-zamburug'lar bosh ko'tarib turardi. Yorgen qo'lga bir shoxni olib, xayol surgancha shundoq yonginasida dikkayib turgan qirmizi zamburug'ni savay ketdi. Uni sindirib-sindirib tashlagach, bu chiroyli qo'ziqorinlar to'g'risida gap boshladi: u gap mavzuyini boshqa yoqqa burib yubormoqchi edi.

— Qara, Mattis. Agar odam ana shu qirmizi qo'ziqorinni yesa, to'ppa-to'g'ri narigi dunyoga ravona bo'ladi.

Bir qirmizi qo'ziqorin zarbdan qoq ikkiga bo'linib ketgandi, lining ichi oppoq va qattiq bo'lsa ham, naq ajalning urug'i edi.

Mattis titrab ketdi, ammo yotgan joyida qirmizi qo'ziqorindan ko'zlarini uzmasdi.

— Rostdanmi?

— Ha, qirmizi qo'ziqorin — dahshatli zambu-rug', — dedi Yorgen. — Eski zamonlarda odamlar birovni o'ldirmoqchi bo'lsalar shu zamburug'dan sho'rva pishirib ichirarkanlar.

Mattis qirmizi qo'ziqorindan ko'zlarini uzolmasdi. Uni, o'ziga tanish bo'lmagan, halokatga olib borishi mumkin bo'lgan mash'um bir istak qamrab oldi va bu istakni yengib olish uning qo'lidan kelmasdi. Qirmizi qo'ziqorindan ko'rinmas to'lqinlar oqib chiqar va Mattisning zaif joylarini topardi, ular Mattisni butunlay cgallab olishdi.

— Rostdanmi? — takroran so'radi u.

— Ha, ularni yeb yurma tag'in, yo'qsa senga hech nima yordam bermaydi.

— Bunday gaplarni gapirmaslik kerak, — dedi Mattis, ammo bu — odam tushunib bo'lmaydigan bir to'ng'illash edi. U xuddi sehrlangandek shu qo'ziqoriga qarar va Yorgenga ham o'ziga bildirmay ko'z qirini tashlab qo'yardi. To'satdan bir qarorga keldi: u boshiga tushgan kulfatdan qutulishning chorasini shu qo'ziqorinni yeyishda ko'rди. Men shu qo'ziqorinni yeyman. Yeyman dedimmi, yeyman. Gap tamom — vassalom.

U shu zaharli isqirt narsani yulib olish uchun qo'lini cho'zdi.

— Tegma! — deb baqirdi Yorgen. — Bunaqa narsa bilan hazillashib bo'lmaydi! Esing joyidami?

Kechikkandi. Mattis epchilroq chiqdi — u qirmizi qalpoqchali qo'ziqorinning bir bo'lagini uzib oldi-da, og'ziga tiqdi. Zo'r berib, hatto mazasini ham sezmay, yutib yubordi. Nazdida tomog'iga olov oqqanday bo'ldi, ammo aslida hali hech nima bo'lgani yo'q.

Yengil-yengil kuydirishlar keyinroq yuz berdi — har holda bu oddiy ovqatga o'xshamasdi — Mattis it xirillaganday bir marta qattiq o'xchidi.

— Nega bunday qilding, to'nka?! Yorgenning chapaqay jahli chiqib ketdi.

— Qus hozir! — dedi u. — Ikki barmog'ingni bo'g'zingga tiq!

— Kech bo'ldi, — dedi bo'g'iq ovoz bilan Mattis, qo'rqqanidan a'zoyi badani qandaydir yot bo'lib qolgan edi.

— Kattasini yedingmi, qandoq edi? Gapir! Nima, tildan qoldingmi?

Yorgen quturib ketdi.

Mattis ko'zlari ola-kula, aqldan ozishini kutib, o'zini diqqat bilan eshitardi. U qo'rqib ketgan, nazarida tomog'ida olov yonayotganga o'xshardi. Kallasidan, hozir yonib adoyi tamom bo'laman, shoshilish kerak, degan fikr yalt etib o'tdi.

U Yorgendan ko'zlarini uzmasdi. Oshqozonda o'z ishini qilayotgan qo'ziqorin bilan har narsaga shay Yorgenning harakatlarini kuzatardi.

Yorgenning achchig'i bosilmas va: kim biladi, qo'ziqorinning qanday bo'lagini yedi, hayoti xavf osti-damikin, deb tashvishlanardi. So'ngan cho'g'lar ustidagi

safarlik qora qahvadanini chayqab-chayqab finjonga o'tkir o'rmon qahvasidan quydi va Mattisga uzatdi:

— Ma, ich!

— Nimaga? — so'radi Mattis jirkanib va finjonni shunday turtdiki, undagi qahva to'kilib ketdi. U o'z isyonidan o'zi qo'rqib ketgan bo'lsa ham, ayni chog'da takabburligi ham avjida edi: Yorgen kim bo'ptiki, Mattis uning amriga bo'ysunsa! Qo'ziqorinni uzdi-yu, yedi! Uning nima ishi bor?! Hozir u Yorgenga ko'rsatib qo'yadi! Mattisning telbaligi oshib, Yorgenga bir musht tushirmoqchi bo'ldi.

Yorgenning finjoni qo'lidan tushib ketdi, yuzibamisoli toshday qotgancha Mattisning bilagidan tutib qoldi — u musht tushirib ulgurmadi.

— Nima, miyang butunlay aynab qoldimi? Mattisning ko'zlari qinidan chiqquday olaydi:

— Qo'yvor!

Yorgen qo'yvordi, ammo Mattisning gapiga kir-ganidan emas, shoshib yerdan finjonni oldi va yonlarida oqib yotgan ariqdan suv to'ldirib keldi:

— Ich! Hoziroq ich! Keyin ikki barmog'ingni bo'g'zingga suqib, qusguningcha qitiqla!

— Xohlamayman, menga shunisi yaxshiroq, — Mattis yot ovoz bilan javob qaytardi.

Ich i da ham ma borlig'i yonayotganga o'xshardi va u bu o'zni o'chirgisi kelmasdi — shu yo'l bilan Yorgendan ustun kelmoqchi bo'lardi. Mattis o'zida kuch va aql juda tez zo'rayib borayotganini his qilardi.

Yorgen boshqacha usul qo'llamoqchi bo'ldi.

— O'zing bilasan, — dedi u. — Umuman olganda hech qanday dahshat yuz bermaydi — bir burda qo'ziqorin seni o'lдиrolmaydi. Bu juda ham oz. O'tir, o'zingni odamday tut.

— Nima? — xirillab so'radi Mattis. Ayni chog'da aytganini qildi: turib o'tirdi va hatto ozgina suv ham ichdi. Hammasi tushga o'xshardi. Mana, u endi avvalgi Mattis emas. O'zi ham boshqacha bo'lgisi kelgandi-ku! Shuning uchun ham u zaharli qo'ziqorinni yedi.

Kallasi va a'zoyi badani boshqacha bo'lib qoldi, ular hayron qolarli darajada qushday yengil — Mattis go'yo uchayotganga o'xshardi. U, nazarida, bir vaqtning o'zida turli joylarda turgandek edi. Go'yo hech nima bo'lmagandek o'zini o'rmon uzra uchib yurgandek his qilardi. Turgan gapki, u awalo loyxo'raklar juftlashuvini o'yladi.

— Sen ham turib o'tir, Yorgen, — dedi u ko'zlarini katta-katta ochib. — Men senga qanotlariga o'q tekkan, hozir tosh ostidan yotgan loyxo'rak haqida gapirib bera-man. Nega shunday bo'lgandi?

— Bu yana qanday bema'ni gap? — vaysadi Yorgen. — Yana nimani o'ylab topding? Yaxshisi, bor, uyga jo'na!

— Turib o'tir deyapman senga! — Mattis asabiylashgan edi. — Bugun bu yerda men buyruq beraman! Shunday kun ham kelishi kerak-ku, axir! Tushunarlimi?

Yorgen sabr-bardosh bilan turib o'tirdi.

— Mana, qulog'im senda.

— Xege senga allaqachon loyxo'rak haqida gapirgan bo'lsa kerak? — qat'iy ravishda so'radi Mattis.

— U menga ko'p narsa aytgan, ammo loyxo'rak haqida biron nima deganini eslolmayman.

Mattis unga ishonchsizlik bilan nazar tashladi.

— Nahotki uning uchun men ko'rgan juftlashuvdan ham muhimroq narsa bo'lsa?

— Bo'lishi mumkin.

— U senga o'ldirilgan loyxo'rak haqida gapirmaganmi?

— Gapirgan bo'lsa gapirgandir, ammo mening esimda yo'q. U qanday loyxo'rak edi, juda bunchalik bo'lakcha?

Qo'ziqorin zahridan sarxushlangan Mattis Yorgenga telbalarcha nazar tashlab qo'ydi.

— Biz loyxo'rak bilan bittamiz — biz nima-yu u nima, farqi yo'q, tushunasanmi shu gapni? Hozir esa u tosh ostida yotipti — ammo bu ahamiyatsiz, chunki u hozir ham bamisoli uyimiz ustida uchib yurganday... Bamisoli. tushunasanmi? Biz u bilan birday edik. Bamisoli birga uchib yuramiz. Bundan keyin ham har doim birga uchamiz. Qani, birontasi unga qo'l tekkizib ko'rsin-chi...

U qo'rquv ichrajim bo'lib qoldi.

— Sizlar loyxo'rak bilan. Tushundim. Sizlar loyxo'rak bilan bittasiz, — dedi ehtiyotkorlik bilan Yorgen, u endi hushyor cdi.

- Nega sen men bilan bunday gaplashasan? — Mattis keskin savol berdi, u axir endi o'zini o'zgargan deb hisoblardi. Ichida xuddi gulxan yonayotgandek edi.

— Endi Xege ikkovinglar bittasizlar, tushunasanmi?— dedi u o'jarlik bilan Yorgenga. — Ammo bu yaxshi emas, tushunasanmi? Tosh ostida yotganlar oilasi bilan tosh ustida yurgan odam bir bo'ladimi hech zamonda? Ular o'rtasida farq yo'qmi, axir?!

— Haaa, — dedi Yorgen.

— Nima haaa?

— Yo'q, — xijolat bo'lib javob berdi Yorgen. Mattis undan ko'z uzmay so'radi:

— Senga bir savol bersam maylimi? Ilgari buni so'rashdan hayiqardim.

Yorgen bosh irg'adi.

— Biz loyxo'rak bilan bittadaymiz. Biz u bilan birgamiz. Nahotki tushunmasang? Yorgen boshini chayqadi.

U masalaga paypaslab asta-asta yaqinlashardi. Nimadir paydo bo'ldi — buni aniq his qildi. Faqat nima u — bilmaydi. Paydo bo'ldi — bor-yo'g'i shu. U yerda, tunda. Olov. Halokat. Uning ko'zlari yonardi, u nigohlarini Yorgenga qadadi, shunda Yorgen yonib ketdi. Ajab bo'ldi, xo'p bo'ldi.

Bema'nilik. Men qirmizi qo'ziqorinni yedim, bu hammasi o'shandan. Qo'yib ber, dahshatli ko'zlarim Yorgenni yondirsin... Qo'yib ber... Men unga qarayveraman...

Birdaniga qora soya paydo bo'ldi va Yorgenni bosdi. Bular bari bema'nilik — bular bari men yegan qo'ziqorin tufayli. Men o'lmayman. Qo'yaver, Yorgen o'lsin!

Birdan Mattis Yorgenga otildi. Yirtqich hayvonday tomog'idan changalladi.

— Senga nima bo'ldi, meni o'ldirmoqchimisan? — so'radi Yorgen sovuq va xotirjam, shunda xippa bo'g'ib changallagani bir pul bo'ldi. U Mattisni boladay bosib oldi. — Yetar, ahmoqlik qilma!

Yorgen Mattisni ko'tarib olib, ariqqa obordi. Burishib o'zgarib ketgan basharasiga suv sepa boshladi. Oldiniga Mattis qarshilik qildi, ammo kuz oyining sovuq suvlari uning yong'inini o'chirdi. U tinchib qoldi va birdan ko'zi ochilganday bo'ldi. Shunda u nomusdan va pushaymonlikdan ingrab, bo'sh qopday yiqildi.

— Men seni o'ldirmoqchi emasdim!

— Meni o'ldirish oson emas, — dedi Yorgen.

— Xege qani? U yo'qmi endi? Yorgen seskanib tushdi:

— O'chir ovozingni! Nima deb valdirayapsan? Bo'ldi-da endi, bu hammasi g'irt ahmoqlik, tushunarli-mi?

Uning so'zlari shu qadar o'tkir va ayovsiz ediki, bu so'zlarni Yorgen emas, boltasi aytayotganga o'xshardi.

Mattis asta-sekin o'ziga kela boshladi. - Men nima qildim? — xijolat bo'lib so'radi u.

— Qayoqdagi bo'lar-bo'lmas narsalarni o'ylab, zaharli qo'ziqorinni yutib yubording, o'zingni to'nkaday tutding.

— Bular bari ahamiyatsiz, eng asosiysi sening tirikliging! — Mattis birdan sevinib ketdi.

Bu yurak izhorlaridan Yorgen xijolat tortdi.

— Bo'ldi-bo'ldi, keragi yo'q...

Endi Mattis, xuddi boshqachasiga mast bo'lganday, ikkinchi bir qarama-qarshi holga tushgandi: u yoqimli narsalar to'g'risida o'ylardi va Yorgenga yaxshi voqealarni hikoya qilib bergisi kelardi. Bu — Yorgenning tirikligi, Mattisning qo'ziqorin yeb ko'rsatgan jinniliklari chog'ida halok bo'lmay qolganligi uchun uning bir mukofoti edi.

— Inger va Anna, — Mattis bu so'zlarni samimiy bir minnatdorlik bilan tilga oldi va ularni buyuk birmukofotday Yorgenga taqdim qildi. — Sen loaqal ozgina bo'lsa ham ular haqda eshitganmisan?

Yorgen javob bermay, gapning davomini kutib turdi.

— Men senga ular haqda hikoya qilmabmidim?

— Yo'q. Kim ular?

— Qizlar, — dedi u mag'rurona.

— Bunisi menga tushunarli.

— Men ular bilan qayiqda suzganman. Biz orolchada boiganmiz. Do'kon yaqinidagi qirg'oqqa suzib kelganimizni butun qishloq ko'rgan.

— Ko'ngildagidek joyda bo'lgan ekan-da o'ziyam.

Mattis hayron bo'lib ko'zlarini pirpiratdi — Yorgen kerakli gapni aytgandi. U erkaklar uchun muhim bo'lgan narsani darhol tushungan edi.

Shuning uchun Mattis so'radi:

— Yorgen, senga yana bir savol bersam maylimi?

— Sen ko'p savol berding, ammo men hech nima tushunmadim. Mayli, shunday bo'lsa ham so'ray qol.

— Meni shu narsa qiziqtiradi, — deb atay shoshmasdan gap boshladi Mattis. — Sen hafta o'rtasida qizlarni o'ylaysanmi?

Bu butunlay kutilmagan savol edi, ammo Yorgen quloq ham qoqmay darhol javob qaytardi:

— O'ylayman.
— Rostdanmi?
— Chin so'zim.
— Shunaqa degin. — Mattis yengil tortib xo'rsindi. Bir oz jim turgach: — G'alati,
— dedi va boshini ko'tardi. Endi u Yorgenni o'ldirgisi kelmasdi.
— Nimasi g'alati?
— Eee, shunday... hammasi...
— Mayli, salqinlab olganimiz yaxshi bo'ldi, yetar endi, turaylik, — dedi Yorgen birdan va g'ayrat bilan ishga kirishdi.

Mattisni anglashilmas bir hissiyot qamrab oldi — bu hissiyotda quvonch ham bor edi, o'zidan qo'rqish ham. U qo'ziqorin qoldiqlarini toptab tashladi. So'ng xursand bo'lib kulib yubordi. Qayoqdagi bo'lar-bo'lmas narsalarni o'ylabman-a, deb o'zicha qattiqqo'l boshlig'ining so'zlarini takrorladi.

38

Bu voqea Mattisda kuchli taassurot qoldirdi. Birinchi quvonch bosildi, ammo qo'rquv bosilmadi. Qo'rquv u bilan qoldi.

Men Yorgenni oidirishimga sal qoldi — nahotki men shunday razil odam bo'lsam? Yoki bu qo'ziqorin zahridan bo'ldimikin?

Ikki kun Xegening izidan qolmay, qilmishimga yarasha ta'zirimni bersa kerak, deb kutib yurdi. Xege indamasdi, oxiri chidolmay gap ochishga majbur boidi.

— Yorgen senga hech nima demadimi?

— Nima deyishi kerak edi?

— Men to'g'rimda, sen to'g'ringda va umuman o'rmon to'g'risida. Qirmizi qo'ziqorin to'g'risida.

— Yo'q, shular haqida gapirishi kerakmidi?

— Yo'q.

— Biron voqea bo'ldimi? — so'radi Xege.

— O'zing ko'rib turibsan-ku, hech nima bo'lgani yo'q.

Mattis chiqib ketdi. Yorgenga hayron edi.

Ertasiga Yorgen yana Mattisni daraxt kesadigan joyga taklif qildi.

— Men endi u yoqqa bormayman! — dedi Mattis. Ovozi shu qadar qo'rquvga to'la bo'lib eshitildiki,

Yorgen uni borishga zo'rlamay qo'ya qoldi. Mattisning o'rmonda bo'lishi aslida unga ham xalal berardi. Shu boisdan Yorgen ham ichida suyundi.

Mattis o'z divanida bir nuqtaga tikilib o'tirar, Xege xavotirlanib atrofida girdikapalak bo'lardi. U Yorgendan surishtirib, o'rmonda bo'lgan voqeani bilib olgandi.

— Yana tashkachilik qilsang bo'larmidi, Mattis, — dedi Xege ehtiyotkorlik bilan.

— Bilmadim.

— Bu senga yoqardi, shekilli?

— Balki, endi yoqmas.

— Be'manilik.

Xege uy ko'tarishga tutindi. Endi sevgan kishisi borligi tufayli ishi bir muncha ko'paygandi. Uning epchil-chaqqon qo'llari barcha xonalarni saranjom-sarishta tutar, o'zi kundan kunga ochilib borardi. Mattis hammasini, hamma o'zgarishlarni ko'rardi. Bu o'zgarishlar uning ko'nglini og'ir savol bilan qiynardi:

Mening holim nima bo'ladi?

U ko'lga darhol ketmadi. Nimadir o'zgardi. U uy atrofida sandiroqlab yurarkan, shox devor ortida qandaydir qip-qizil narsani ko'rib qolib, titrab ketdi. Bu kattakon, sirli va dahshatli qirniizi qo'ziqorin edi.

Xuddi shoxdevorga yopishib olib, bu yoqqa, Mattisga mo'ralayotgandek tuyulardi.

Yo'q, yo'q, — bir zum qat'iyat bilan mulohaza qildi Mattis, — meni zaharlamasdan oldin uni sindirib, ezib tashlash kerak.

U qo'ziqoringa yaqin borib uni tepib-tepib tashladi. Qo'ziqorin portlab, havoga shiddatli qizil-oq bug' ko'tarildi.

Ammo Mattis tez orada shoxdevorning bu tomonida yana bitta qirmizi qo'ziqorin ko'rdi — bunisi yanada chiroyliroq edi. U bunisini tepib, sindirib tashlamadi, achchiqlab tezda bu yerdan jo'nab qoldi. Shoxdevor taglari ham, o't bosgan do'ngliklar ham, o'rmon ham — endi butun atrof qirmizi qo'ziqorin bilan to'laligini anglab yetdi.

Ularning uylari zaharli zamburug'lar bilan qurshalgan ekan.

Nahotki har doim shunday boigan bo'lsa? Ilgari buni payqamagan edi. Qaydan paydo bo'larkin bu zaharli qo'ziqorinlar? Balki inson nigohlari ostidan unib chiqarmikin?

Balki Yorgen ham ularning qurshovida o'lar? — o'yladi Mattis. — Axir u har tomonlama zahar bilan qurshalgan-ku!

Yo'q, yo'q! Men bunday bo'lishini istamayman!

Ammo bu fikr unga yana ilon kabi surgalib kelaverardi.

Nima qilsam ekan? — dahshatga tushib so'radi u, ammo turgan joyidan qo'zg'alishga madori yo'q edi.

Men nimadir qilishim kerak. Bo'lmasa yana unga tashlanishim mumkin.

Hammasi odatdagiday tugadi: u aqlli bir odamga murojaat qildi. Har doimgiday, awalo Xegega yorildi.

— Senga bu yil qirmizi qo'ziqorinlar juda ko'payib ketganday ko'rinmayaptimi? — deb so'radi u dab-durustdan, gapning oldi-ketiga ahamiyat bermay. U o'z gapini izohlamadi ham.

— Men payqamadim, — dedi Xege. — Yo'q, menimcha yo'q, — qo'shimcha qildi u va o'z ishlari bilan kuymanib ketdi.

Hech kim zaharli qurshovda emasligini ko'rsatuvchi bir alomatday, so'qmoqda bir qiz paydo bo'ldi.

Mattis ko'zlariga ishonmasdi. U qiz hatto unga tanishga o'xshardi: yozda sholg'om o'toqda ular birga ishlagan edilar. Bu o'sha yigitiga sonlarini chimchilatgan qiz bo'lsa kerak.

Bu mo'jiza edi — shunday og'ir bir daqiqada yo'ldan uylari tomonga so'qmoq bo'ylab tushib kelardi.

Mattis darhol, bu qiz mening oldimga kelgan, degan xayolga borib, o'zining orolchadagi sarguzashtini ham yodga oldi.

Ammo, ma'lumki, o'toqda birga ishlagan qizning o'z yigiti bor.

Bu yoqqa qizlar hech qachon kelishmasdi. Bu yerda Xegedan boshqa ayol zoti yo'q edi. Mattis qizni payqagan zahoti, balki bu Inger yoki Annadir, deb ham o'yladi. Ammo u yaqinroq kelganda ko'rdiki, Inger ham, Anna ham emas. Agar ulardan biri kelganda-ku, zo'r bo'lardi-ya! Ammo bu o'sha, o'toqda birga ishlagan qiz ekan, Mattis baribir bunga ham sevindi.

Mattis o'zini emin-erkin tutardi: ular birga ishlashgan-ku axir! O'sha kuni u Mattisga yaxshi muomala qilgandi. Ikkovlari ham o'sha kunni unutishmagan ekan. Qiz o'zining tanishini ko'rganday Mattisga bosh irg'ab jilmaydi. Mattisning butun ko'ngilsizliklari barham topib, zaharli o'rmon himoya qo'rg'oniga aylanganday bo'ldi.

Qiz unga yaqinlashib, salomlashib ulgurmasidan Mattis kutilmaganda:

— Endi bir-biringlarni sevmaysizlarmi? — deb so'radi.

Qiz kulib yubordi.

— Kimni aytyapsan?

— Dalada seni chimchilab yurgan yigitni.

— Gapingni qara-yu! Nima, abadiy qo'l ushlashib yurishimiz kerakmidi?

Mattis darrov siqilib qoldi. Nahotki, u yana bema'ni gap aytgan bo'lsa? O'ylab ko'rib, qiz chindan ham haqligini tushundi. Qiz esa Mattisni noqulay ahvoldan qutqardi:

— Yo'q, yanglishmading, to'g'ri aytding. Bizning o'rtamizda allaqachon hammasi tugab ketgan.

Mattisning yuragi sanchdi. Bir gal yoqimliroq, ikkinchi gal qattiqroq — ikki marta sanchdi.

— Sen nimaga bunday qo'rqib ketding? — so'radi qiz.

— Qo'rqib ketmadim, — deb g'o'ldiradi u.

— U nojiddiy odam ekan, — tushuntirdi qiz. — Sen, qarab tursam, meni ko'rgan zahoting hammasini to'g'ri anglabsan, — qalbi tozaligidan barini tan oldi qiz.

U «bo'lmasam-chi!» deb ochiqdan ochiq yolg'on uapirishga botinmadi, ma'nodor qilib «ihm» deb yo'talib qo'ydi, xolos. U qizdan bu gaplari uchun minnatdor edi.

— Endi sening yigiting bormi? — asabiy ravishda so'radi Mattis. — Biron yangisi bilan tanishdingmi?

— Yo'q, deyarli hech kimim yo'q, — qiz loqayd bosh chayqadi.

— Hm.

Qandaydir bir noma'lum sabab bilan qiz yana kuldi, ammo bu beg'araz, samimiy kulgi edi. Nihoyat u nega bu yerga kelgani haqida gap ochdi.

— Meni sizlarnikida yashaydigan, yanglishmasam, Yorgen degan o'tinchining oldiga yuborishdi. Faqat, u aftidan, kunduzi uyda bo'lmaydi shekilli?

— Ha, u o'rmonda, — qovog'ini uyib javob berdi Mattis. U yanglishibdi: qiz Mattisning oldiga emas, Yorgenning oldiga kelgan ekan.

— Bo'lmasa, gapimizni sen aytib qo'yarsan. Maylimi, adashib ketmaysanmi? — deb yuborganini o'zi ham sezmay qoldi qiz.

Mattis qizardi. Ammo qiz hamma yoshlarga xos xudbinligi tufayli buni payqamadi.

Mattis topshiriqni bo'yniga olishga botinmasdi: gapni chalkashtirib yuborishi mumkin edi. Ustiga ustak masala Yorgenga taalluqli edi.

— Yaxshisi opamga tayinlay qol, u hozir uyda, — maslahat berdi alam bilan.

Qiz jilmaydi.

To'g'ri aytasan. Men butunlay unutibman.

Qiz chaqqon odimlar bilan ketdi-qoldi. Mattis uning orqasidan qarab qolganda ichida uni kechirib bo'lgan edi. U bu yozda Inger va Anna bilan qayiqda suzgani uchun, momaqaldirroqdan qo'rqmagani uchun, tashkachilik qilgani uchun o'zgarib qolgan edi. U bu qizni aytilishi lozim bo'lmagan so'zlami aytvorgani uchun olijanoblik bilan kechira olardi.

Asosiysi uning kallasiga yalt etib turli rejalar kelib qolardi. Hozir ham shunday bo'ldi. U bu qiz bilan yana biroz gaplashgisi kelardi. Uy tomondan unga va Xegega ko'rinmaslik uchun yuqoriga, so'qmoqning pastqam joylariga ko'tarildi. Qaytar chog'ida qiz albatta shu yerdan o'tishi aniq edi.

Hammasi o'ylaganidek bo'ldi. Tez orada qiz so'qmoq bo'ylab xuddi shu tomonga keldi-da, tuzoqqa tushganday Mattisga to'qnashdi. Ammo qiz xijolat bo'lmadi.

— Shu yerdamiding? Orqaga qaytishimni poylayotganmiding?

Aqllilar hammasini tez anglashadi, o'yladi u. Deyarli hammasini... U qizning savoliga beg'amlik bilan javob qaytara olmas, shu onda uning xayolini juda murakkab, hatto aytish mumkinki, tantanali fikrlar band etgan edi. U qizga yaqinlashdi va jiddiy ravishda:

— Seni ozgina kuzatib qo'ysam maylimi? — deb so'radi. — Faqat yo'lgacha.

— Mayli, agar xohlasang... —javob berdi qiz.

— Modomiki endi yigitning yo'q ekan, kuzatsam hech narsa qilmaydi, deb o'ylayman, — deb qo'ydi Mattis duduqlanib.

— Men yigitim yo'q, demadim, deyarli yo'q dedim, bittasi bor har qalay.

Mattis ko'zlarini katta-katta ochib, odimini sekinlatdi. Uning yuzida taajjub aks etardi. U bunday voqealarni tushunmasdi.

— Qani, kuzatasanmi? Yo fikringdan qaytdingmi?— deb so'radi qiz. — Xohlamasang kuzatma.

— Xohlamasang? — u hech narsaga tushunmasdi. Har qalay yigiti bor bo'lsa, uni kuzatishi mumkinmi, axir? U holda Mattisning qizga nima keragi bor, axir?!

Qiz ketishga chog'landi, ammo Mattis xuddi bir narsani tutmoqchi bo'lib, bu fikridan qaytganday qo'lini ko'tardi. Bu harakat qizni to'xtatdi.

So'qmoq chetida oppoq yassi tosh bor edi. Mattis o'zini tanibdiki, har doim shu toshning yonidan o'tardi— mana kelib-kelib bugun esa bu tosh barcha nomsiz narsalar orasida boshqacha bo'lib oqarib turardi. Mattis ketmoqchi edi-yu, ammo bu tosh... U nima xohlayotganini o'zi ham anglamasdi. Mattis qizga toshni ko'rsatdi va shosha-pisha:

— Yassi toshlarda o'tirsa yaxshi bo'ladi, — deb qo'ydi.

Uning ovozdagi allaqanday bir seyr qizni o'tirishga majbur qildi. Mattis undan buni kutmagandi.

Shunaqasi ham bo'larkan-da, o'yladi u va yonma-yon o'tirdi.

Tosh kattagina edi. Mattis qizga tegib ketmaslik uchun nariroqqa surildi. U nimani xohlardi? Bunday savolga uning o'zi ham javob berolmagan bo'lardi. Biron gapini eshitmoqchimidir? Yonida o'tirgisi kelganmidir? Ammo jim o'tirish noto'g'riligini tushunardi: qiz unga talabchanlik bilan qaradi — biron gap aytishini kutayotgandi.

— Aqlli fikr-a, to'g'rimi? — deb so'radi Mattis o'zgarib.

— Qaysi fikr?

— Yassi tosh haqidagi fikr. Yassi toshda o'tirish yaxshiligini aytdim-ku.

Qiz piqirlab kulib yubordi va sakrab o'rnidan turib ketdi.

— Qo'lingdan bir nima keladimi o'zi? — deb so'radi qiz, hafsalasi pir bo'lib. Iya, undan jahli chiqdi, shekilli...

Jahli chiqdi...

— Nimani aytyapsan? — toshdan turmay, qo'rqib so'radi u.

Qiz hozir ketib qoladi. Mattis qimirlashga ham qo'rqardi.

— Bunday deyish mumkinmasligini bilmabman, — deb g'o'ldiradi u.

— Mayli, zarari yo'q. Baribir ketadigan paytim bo'lgan.

— Bilasanmi...

Qiz uning gapini kesdi:

— Qo'ysang-chi, o'ylaydigan narsalar oz emas. Lekin hech narsaning ikkimizga aloqasi yo'q Kelishdikmi?

Qiz yo'lga qarab keta boshlagan edi. Mattisga do'stona bosh silkib qo'ydi. Hatto sal-pal qizarganday bo'ldi. So'ng kctdi-qoldi. Mattis o'z xotiralariga yopishib oldi.

— Ular butunlay boshqacha edi, — dedi u. — Biz ular bilan uzoq gaplashgandik.

Qiz birdaniga to'xtadi.

— Kim ular? Kimlarni aytyapsan?

- Ular — Inger va Anna, — dedi u past ovoz bilan. — Sen ular haqida eshitganmisan?

— Bo'lmasam-chi?

— Biz kun bo'yi ko'l bo'ylab suzgan va gaplashgan edik. Ular tamomila boshqacha qizlar edi.

Qiz Mattisning oldiga qaytib keldi. Uning ko'zlariga qarab qo'ydi, u taassufda edi. Mattisning ko'zlari katta ochildi. U nimani kutardi, buni o'zi ham bilmasdi. Ammo kutardi.

— Mattis, jonim. Mattis titrab ketdi.

— Nima?

Qizning o'zi ham esankirab qoldi. Mattisning ko'zlariga shunday jovdirab qaradiki!

— Yo'q, men... deb boshladi qiz. — Men hatto sendaqalarga nima gapirishlarini ham bilmayman.

Qiz shunday deganidan keyin Mattisning yuzlarini tez-tez silab qo'ydi-da, chinakamiga oshig'ich va yengil odimlar bilan jo'nab qoldi — bir lahzada ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Mattis o'z ahvolini tushunishga ham urinmadi, u hamma-hammasi uchun ortig'i bilan mukofotlangan edi. Bu qiz allaqanday mas'ud ichki sezgi bilan na Inger, na Anna qilmagan narsani qilib, Mattisning hayotida o'ziga xos o'rinni egalladi.

Mattis endi bu toshda uzoq-uzoq o'tirardi.

40

Munavvarlik shu asnoda keldi. Munawarlikning o'zgachasi: chaqmoqdan o't chiqdi-yu uning barcha kulfatlarini bir yoqlik qildi. Birdan hammasi ravshan bo'ldi-qo'ydi. Ravshanlikka ravshan, ammo ancha qiyin...

U yassi toshdan sakrab turdi.

Chaqmoq chaqnadi. Faqat shunda uning ichida ham chaqnadi va butun borlig'ini yoritdi — munavvar qildi.

Yo'q! — dedi qo'rqib, bir oz o'ylagach, unday qilolmayman.

U endi qizni unutgan edi. Qiz tortiq qilgan quvonchdan lazzatlanib o'tirganida yalt etib keldi bu fikr. Qalbida yuz bergan ana shu yorishish unga muammodan qutilish yo'lni ko'rsatdi — rejasi boshdan oyoq unga ravshan bo'ldi.

Bu reja Mattisni bosib yotgan kulfatlar ichidan rahm-shafqat bilmay bir lahzada unib chiqdi. Mattis butun borlig'i yonib-tutashib ketsa ham uni hech so'zsiz va qo'rquvsiz qabul qilmay iloji yo'q edi. Endi u nima qilish kerakligini bilardi, u buni tushundi va bunga itoat qildi.

Mattis, qiz tabarruk qilgan toshda o'tirardi. Shu asnoda to'satdan uning miyasiga bu fikr keldi. Bu uqubatli nochorlikdan qutulishning birdan-bir yo'li edi...

Xege, Yorgen, Mattis, o'ylar edi u. Orada loyxo'rak yo'q, u boshqa yerda.

Mattis o'zi buning farqiga bormagan holda hamon toshda o'tirardi.

— Bu shu qadar og'ir, — dedi u baland ovoz bilan.

Ammo bum hech kim eshitmadi. Aqli bo'lish og'ir, o'ylar edi u.

41

Reja maxfiy edi. Hamma ishni nihoyatda qattiq sir tutgan holda ado etish lozim edi. Hatto Xegega ham bir og'iz so'z aytmadi — aytsa, u shu ondayoq aralashadi va uni amalga oshirishga yo'l bermaydi.

Reja juda og'ir sharoitlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham munavvarlik quvonchi pasaygach, Mattis maqbulroq bir chora topishga haqqim bor, degan xulosaga keldi.

Ertasi kuni u Yorgen ishga ketguncha sabr qilib o'tirdi-da, so'ng tantanavor ko'rinishda Xegening oldiga kirdi. Xege o'z koftalarini to'qib o'tirar va o'zicha ming'illab bir narsani xirgoyi qilar edi.

— Nima bo'ldi, Mattis? — so'radi u kuylashni to'xtatib. Mattisning afti-angoridan qandaydir juda jiddiy gap ochmoqchi ekanligi ko'rinib turardi.

— Bu muhim, — dedi u. — Sen o'ylaganingdan muhimroq.

— Qani, ayt bo'lmasa, — bir oz sabrsizlik bilan talab qildi Xege.

Mattisning ovozi xuddi tomog'i qurigandek eshitildi.

— Ayt, Yorgen bilan bo'lishni xohlaysanmi, men bilanmi... endi... — u gapning po'stkallasini aytib qo'ya qoldi.

Ortiq Xegega izohning keragi yo'q edi. O'ylab o'tirishga ham muhtojligi yo'qdek ko'rinardi.

— Hammasi qanday bo'lsa, shunday qoladi, — dedi u qat'iy ravishda. — Men kim bilan bo'lishimni o'zing ham bilasan, men o'sha bilan bo'laman... Endi...

— Ha, lekin u holda... — dedi Mattis qat'iyatsiz. Lekin gapni xato boshlaganini, ortiqcha gapirib yuborishiga sal qoiganini payqab, o'zini to'xtatib qoldi. Xege har narsani bir yoqlama baholardi.

— Bu tabiiyligini tushunmaysanmi, axir? O'zing o'ylab ko'r.

U o'ylab ko'rди va Xegening haqligini tan olishga majbur bo'ldi, ammo hali hammasi o'zgarishi mumkin-ku! U bu fikrga yopishib oldi. O'zgarishi' mumkin, bilaman. Tugadi. Tamom. Dalada bir-birini chimchilaganlarning muhabbati tugagani kabi.

— Xege, hech narsa o'zgarmasligiga ishonasanmi? — hammasi uning javobiga bog'liq edi.

— Ha, shu yerda o'tirganimga ishonganimday ishonaman, —javob berdi u. — Xudoga shukur.

Mattisning boshi egildi:

— Nima ham der edim...

Xege nima deyayotganini biladi. Uning ovozi toshday qattiq edi. Endi Mattisda Xegeni o'ziga qaytarishga hech qanday umid qolmadi.

— Bu oqil va qiyin ish, — dedi Mattis. — Ha, unday qilish oson emas.

— Nimani? Qanday qilish? — so'radi Xege. — Nahotki Yorgen ikkimizni keragicha daromad ishlab topisholmaydi deb o'ylasang?

Mattis lol bo'lib qoldi: Xege hech nimani tushunmabdi.

— Sen men uchun sevinishing kerak, Mattis, — Xegening bu so'zlari hammasini hal qildi.

Shirq: qulf qulflandi.

— Ha... sevinishim... — dedi u. Berkildi. Endi gaplashadigan gap qolmadi.

— Yana bir nima demoqchimiding? — do'stona ohangda so'radi Xege, chunki Mattis indamasdi, ammo ketmasdi ham.

Mattis boshini chayqadi. Xege, hammasi ravshan... Bundan ham ravshanrog'i bo'lmaydi, deb javqb berdi unga. Demak, masala hal. U o'zining

buyuk rejasini amalga oshirishi kerak. Ammo oldin bu yerda yana ozroq tura turadi.

42

Omborxonada ko'p yillardan beri eshkak yasash uchun tayyorlab qo'yilgan yog'ochlar yotardi. Mattis hech ularga tegmas, eskilarini amal-taqal qilib ishlatib yurardi. Endi o'sha yog'ochlarni olib chiqib, randalay boshladi.

Yangi reja uning kallasida butunicha va darhol shakllangan, bu dag'al yog'ochlar yaxlit rejaning bir qismi edi. Hammasi ko'ngildagidek! — o'yladi u o'zining g'alati zaifligini sezib: uning taqdiri noma'lum bir kuchning qo'lida edi.

Yorgen o'rmondan qaytdi va Mattis randa bilan yog'ochlarni egib eshkak tayyorlayotganini ko'rdi. Yangicha manzara.

— Senga yangi eshkaklar kerakmi?

— Ha, ko'pdan beri eshkak qilishni mo'ljallab yurgandim.

— Yana tashkachilik qilasanmi? — so'radi Yorgen, beixtiyor xavfli mavzudan gap ochib.

— Bo'lishi mumkin.

Mattis boshini ko'tarmadi. To'g'risini aytolmaydi, reja barbod bo'ladi, hammasini taqiqlashadi — bo'ladigani shu. Balki oyoq-qo'limni bog'lab qo'yishlari ham mumkin.

— Yaxshi o'ylabsan, — dedi Yorgen. — Bekor sandiroqlab yurish odamga ziyon.

— Keyin oshiqib uyga, Xegening oldiga kirib ketdi.

Eshkaklar juda katta va yo'g'on edi. Mattis ularni oppoq va dumaloq qilib salgina randaladi — ular deyarli mukammal bo'lib ko'rinardi. Ammo aslida ular hali bitmagan, yog'och holida edi. Rejaga ko'ra shunday bo'lishi kerak edi. Bu eshkaklar bilan u qirg'oqqacha suzib borishi va qutilishi yoki ular bilan birga cho'kib, abadiy ko'zdan g'oyib bo'lishi kerak edi. Rejasining eng asosiy qismi shundan iborat edi.

O'shanda peshonamga nima yozilganini bilaman. Undan u yog'i o'sha yerda ma Mum bo'ladi.

Eng chuqur joyga borganda, qayiq tubidagi teshikni ochib yuboraman va qayiq cho'kadi, u butunlay chirib bo'lgan. Suzishni esa bilmayman. Bu og'ir eshkaklarni ushlab olaman va agar taqdirimda omonlik bor bo'lsa qirg'oqqa yetguncha suzaman va uyga qaytib kelib, ilgarigiday Xege va Yorgen bilan birga yashayman.

Faqat buni men emas, boshqalar hal qilishi kerak.

Ammo bu qiyin, o'ylardi u.

Mattis eshkaklarni tayyorlab bo'lib, yotdi, ular endi oppoq edi, hammasi tayyor va boshqacha, g'ayrioddiy edi. So'nggi ish qoldi, xolos.

Faqat ertaga emas, o'yladi u.

Nega ertaga emas, kimdir undan qattiq turib va sabrsizlik bilan so'radi.

O'zim ham bilmayman, javob berdi u. Shunday bo'lib chiqdi.

U o'z divanida derazadan tun osmonini kuzatib yotar edi.

U kechqurun uyga qaytib kelganida, xonada Xege va Yorgen yo'q edi. Ammo chordoqda ularning past ovoz bilan gaplashayotganlari eshitildi. Mattis bunday holga ko'p marotaba duch kelgandi. Odatda ularning suhbatlari ko'ngilli suhbatlar bo'lardi. Bunaqasini Mattisning o'zi ham orzu qilardi. Ammo Mattisga tegishli boshqacha gap-so'zlar ham eshilib qolar, bularni ko'ngilli suhbatlar deb bo'lmasdi, bular Xege va Yorgen uchun og'ir suhbatlar ekanligini Mattis sezmasligi mumkin emasdi.

Ammo eshkaklar tayyor, tez orada hammasi ravshan bo'ladi. Mattis hozir kelajakni ko'z oldiga keltirgisi kelmasdi. Shuning uchun xayoliga kelgan bu fikrni o'zidan haydadi. U o'ziga o'zi kelajak momaqaldiroqdan ko'ra dahshatliroq emas deb qo'ydi.

Tepada tinimsiz ularning ovozlari eshitalardi. Ba'zan mayin ovoz yangrar va bu ovoz oyoq ostida koptokdek o'ynoqlar edi. Baxtli chog'larida Xege shunaqa kulishni ham bilarkan-da. Ilgari shunday kulganini hech eshitganmi?

Mana endi ular Mattis haqida gaplasha boshladilar. Buni ularning kulgisi to'xtaganidan ham bilsa bo'lardi.

Shamol devorni tiqillatdi.

Keskin kuz shamoli.

— Xo'p, xo'p, eshitdim! — deya kulib javob berdi Mattis baland ovoz bilan va o'rnidan turib o'tirdi.

Ularning puturdan ketgan uylariga shamol urilgan chog'larida Mattis darrov g'o'ldiray boshlar va uyning ichi past ovozlarga to'lardi. Daraxtlar uzun-uzun xo'rsinishdi. Ko'l uzra ko'pikli mavjlar pildiray boshladi.

Qanday yaxshi. Mattisga halovat keldi.

Ertaga ham shamol bo'lishi muqarrar. U rejaning amalga oshishiga xalal beradi. Men faqat tinch havoda suzaman. Endi uxlash mumkin.

U darhol uxlatdi — kun og'ir va notinch o'tgan edi.

43

Tinch, shamolsiz havo. Sokin ko'l — bu Mattisning birdan-bir sharti edi. U o'zini sinayotganda suv oynadek bo'lishi kerak. Shu boisdan shamol bo'lish-bo'lmasligini kuzatib turishga to'g'ri kelardi. Mattis bu shartlarning darkorligi o'z-o'zidan tushunari deb hisoblardi.

Shamolli havo bir necha kunga cho'zildi.

Eshkaklar tayyor edi. Turgan gapki, qayiq ham shay.

Mattis har kuni erta bilan ko'lda nima gap ekan deb yuragi dukillab uyg'onardi.

Ammo har kuni ertalab shamol esar va Mattisning ko'ksiga botgan chovutlar xuddi bo'shashganday bo'lardi.

Yana bir kun, o'ylar edi u. Ammo, ajabo, bundan hech kimning xabari yo'q.

Keyin u shunday bo'lishi kerakligini tushunib yetdi.

U hech nima bilan mashg'ul bo'lmas, Yorgen ham tashkachilik nima bo'ldi, deb so'ramasdi. O'rmonga yur, deb ham qistamas edi.

Zaharli qo'ziqorinlar uning jig'iga tegib joy-joyida qizarib turardi, ammo endi ular Mattisni hayajonga solmasdi. Hech nimani o'zgartirolmasdi.

Va hech kimning hech nimadan xabari yo'q. Xege va Yorgen haddan tashqari yo'g'on eshkaklarni ko'rardilar-u, ammo xayollariga hech nimani keltirmasdilari. Ular shunchaki eshkaklarni yupqaroq qilishni eplolmagan, deb o'ylashardi.

Balki men chindan ham aqlli bo'lib qolgandirman.

Hozir menga aqlli bo'lish juda asqotardi, o'ylar edi u.

Yana ertalab Mattis bekinib oldi va butun kuchi-yu irodasini jamladi — chidash kerak: hozir Xege oshxonada Yorgenga bugun suv ko'zgudek, deb aytadi. O'shanday kun kelganda, u baribir titrab ketishini bilardi. Xege buni boshqacha aytishi ham mumkin. Chunonchi, bugun qilt etgan shamol yo'g'-a yoki bugun havo bekorga bu qadar tinch boimasa kerak, deyishi ham ehtimoldan uzoq emas. Mattis Xegening har xil holatlarini ko'z oldiga keltirardi.

Ammo Xege unday ham, bunday ham demadi. U Yorgen bilan muhimroq narsalar to'g'risida gaplashardi. Shamol va yomg'irning ularga hech qanday ahamiyati yo'q edi. Yorgen har qanday ob-havoda ham o'rmonda ishlardi.

Shunday bo'lgach, Xege hatto hech nima demasa ham suv ko'zguday bo'laverishi mumkin, deb o'ylardi Mattis o'z divanida yotgancha. Butun vujudi tosh bosganday og'ir bir ahvolda u o'rnidan turdi. Derazaga yugurdi.

Aha...

Shamol to'xtamabdi. Bulutsiz osmon ostida, ko'l yuzida to'q moviy to'lqinlar yugurardi. Shunday ahamiyatli paytda ularga qarash g'alati-ya! Mayli, yana bir kun orqaga surildi.

Nonushta chog'ida Mattis Xegening o'ziga diqqat bilan tikilib turganini sezib qoldi. Ularning ko'zlari bir-biriga to'qnash keldi. Bir lahzada ishtahasi bo'g'ildi va yemakxonadan chiqib ketdi. Nahotki, aftimdan bir narsa sezilib turgan bo'lsa! U o'z uskunalarini topdi, yemakxonaga qaytib, ko'lga qayig'ini sozlagani borishini aytdi.

— Mayli, qayig'ingni sozla, — Xege mamnun edi.— Aytganing yaxshi bo'ldi, endi qayerdaligingni bilaman.

— Xohlasang deraza yonida meni kuzatib o'tirishing mumkin.

— Menga buning nima keragi bor?

— Kuzatmaysanmi, axir?

U qayig'ini sozlagani ketdi. Odam o'tiradigan ko'prikchanning tagida, qayiqning tubidagi bir chirik joyini topdi. Ha, mana shu joyni bor og'irligi bilan bossa teshiladi. Mattisning og'irligi esa o'ziga yetarli, hatto keragidan ham ortiqcha. Ertalab turganda o'zining og'irligini o'zi sezgandi.

Yassi toshlarda o'tirish yaxshi, g'o'ldiradi u, ishga kirisharkan. Yaxshi aytilgandi bu gap, ammo qiz buni tushunmadi, darvoqe, menga baribir.

U ko'l bo'ylab sho'xlik bilan o'ynab yurgan shamolga yuzini tutgancha, qayig'i yoniga o'tirdi.

— Es, shamol! — yashirincha yolvorardi u. Uni ustma-ust fikrlar toshqini bosdi.

— Hamma ko'zlar ham tosh ostida qoladi, — dedi u birdan.

Inger va Anna... O'sha uzun kun.

Qushlar o'tirgan har bir daraxt.

Opam Xege yuzidagi har bir ajin so'qmog'i.

Ammo bular bari juda ham murakkab. Boshqa bir gap ham qo'shishga jur'at qilolmadi.

Qayiqdan odatdagiday yelim hidi kelar, chirik yog'ochlardan quyoshning hovuri taralardi. Mattis shamol suv yuzida qanday qilib egatlar ochayotganini kuzatardi. Oyoqlari yonida to'lqinlar pildirardi.

Ammo tez orada shamol baribir tinadi. U axir abadiy esavermaydi-ku! Shamoisizlik ham abadiy emas. Biz loyxo'rak ikkimiz birdaymiz — uning fikrlari chuvalashib ketdi.

44

Qayiq ishlari bitgandan keyin Mattis Xegening yoniga chiqib keldi.

— Nima bo'ldi? Qayig'ing odam tashishga tayyor-mi? — so'radi u, xuddi Yorgen singari, Mattisning g'ayratini qo'zg'ab.

— Ha, endi hammasi joyida. Ertaga ertalab bosh-lashim mumkin, — javob berdi Mattis, u opasidan ko'zlarini olib qochardi.

— Yaxshi, demak, ertagayoq boshlarkansan-da, — dedi Xege va qattiq ovoz bilan qo'shimcha qildi: — Bu juda ham yaxshi, Mattis.

U qirg'oqdaligida opasiga aytadigan hamma gaplarini o'ylab qo'ygandi. Hammasi xamirdan qil sug'urgandek ketayotganidan xursand bo'ldi.

— Agar kuchli shamol bo'lmasa... — davom etdi u. — Qayiq chirib ketgan — shamolli havoda unda suzish xafli. Bexosdan qayiqning tubini ezib, teshvorish hech gap emas.

Mattis bu gapni juda qoyillatib aytolmagan bo'lsa-da, umuman yomon chiqmadi. Xege birpasda tashkachilikka shoshirganini unutdi, endi u ukasining xavf ostida ekanligidan xavotirga tushdi.

— Demak, u tinch havoda ham u qadar ishonarli emas. Menimcha, sen u qayiqda umuman boshqa suzmaganing ma'qul.

Mattis piqirlab kuldi:

— Xuddi men o'z qayig'imni bilmaydiganday!

— Unga ishonasanmi? Men suv ostiga cho'kib ketishingni hecham istamayman.

— Bema'nilik.

Mattis xuddi o'z rejasini og'izdan gullab qo'ygandek, qattiq hayajonlandi. Ammo hammasi jo'yali, o'zining fikricha, faqat kerakli gaplarni, faqat aqlli gaplarni aytdi, u qaysi biri aqlli gaplar ekanini o'zi yaxshi biladi. Faqat shunisi g'alatiki, odamga aql had-dan tashqari kech kelarkan.

— Havo yaxshi bo'lsa, men bu qayiqda kun-uzzukun suzib yura olaman, — dedi Mattis. — Sen xavotir olma, Xege, men nima mumkin emas-u nima mumkinligini, qayerga oyoq bosish mumkin-u qayerga yo'qligini yaxshi bilaman.

— Iltimos, ishqilib ehtiyot bo'l, — dedi Xege va chiqib ketdi. Ammo shu ondayoq yana qaytib kirdi: — Men har qalay Yorgenga aytay: qayig'ingni ko'rib bersin,

balki unga ishonib bo'lmas. Yorgen qayiqqlarning farqiga boradi. Agar u qayig'ingni yaroqsiz desa, sen unda suzmasliging kerak.

— Yana Yorgen, — achchiqlandi Mattis. Kelib-kelib shu paytda u Yorgenning nomini tilga

olmasa bo'lardi. Mattisning jahli qirqqa chiqib ketdi.

— Yorgenning menga keragi yo'q! Usiz ham amallayman. Agar uni sudrab kelsang, bilmadim, nima qilib qo'yarkinman.

Xege sapchib orqaga tashlandi.

— Mattis, jonim...

— Yorgeningni har yoqqa suqaverma! Agar yana oldimga kelsa, kimligini basharasiga aytaman!

— Sekin, sekin, tinchlan, — dedi Xege. — Yorgenga yomon gap ayta ko'rma. U yaxshi inson va senga yaxshilik tilaydi.

Mattis endi o'zini to'xtatolmadi.

— Hammasini ob-havo hal qiladi, — dedi u umidsizlik bilan.

— Ob-havo?

— Ha, eshitdingmi? Ob-havo va shamol. Balki sen meni o'ylashni bilmaydi, deb hisoblarsan.

Mattis tufayli ilgari uyda bu gap tilga olinmasdi, endi bo'lsa, uni Mattisning o'zi ishlatdi va xuddi devorga mix qoqqanday qattiq qilib aytdi.

Xege chekinmasa bo'lmas edi:

— Sen o'ylashni bilasan, albatta, — dedi u. — Shu kunlarda uyda yuz bergan voqealar tufayli, hammamiz ham juda ko'p o'yladik.

Xege uchun uyda bittagina voqea yuz bergandi, Xege faqatgina Yorgen haqida gapirayotgan edi. Mattis hozir opasining oldida motamsaro bir ahvolda turardi. Opasi endi boshqa ayol edi, Yorgenning bir qismiga, yanada aniqrog'i, uning yarmiga aylangandi.

— Sen qanday qilib bunaqa bo'lib qolding-a? — so'radi u.

— Qanaqa?

— Hozir qanaqa bo'lsang — shunaqa. Men seni taniyolmay qoldim. Senga nima bo'ldi o'zi?

— Menga nima bo'пти? Menga nima bo'lganini o'zing ham bilasan. Men senga aytganman. Men juda baxtliman, — Xege o'zining baxtiga qattiq ishonardi. — Esingdami, men baxtiyorligimdan hatto seni quchoqlagan edim.

Yorgen o'zi bu yerda yo'q bo'lsa ham, uning yonida turganday edi, ana shu hoi Mattisning ehtiroslarini bosib turardi. Mattis o'zini tiyib, murosaga keldi va:

— Unday bo'lsa Yorgenning oldiga bor! Xege go'yo ajablanmadi:

— O'zimam shunday qilmoqchiydim, — dedi va indamay chiqib ketdi.

Mattis bir o'zi qoldi. Deraza ortida g'ir-g'ir shamol esardi. Shom kirib, qosh qoraydi. U eski odati bo'yicha atrofni ko'zdan kechira boshladi. Istamasa ham, bundan o'zini tiyolmadi. Chordoqdan Xege bilan Yorgenning noaniq ovozlari eshitilardi — ular tinimsiz gaplashishar, gaplari hech adoq bo'lmasdi. Mana endi hammasi tayyor, o'yladi u. Men qayiq haqida o'ylaganlarimni xohlaganimday qilib ayta oldim. Endi shamol to'xtaydimi, yo'qmi, menga bari bir, hech nima menga bog'liq emas.

U Xege bilan shunday og'ir kurashga chidadi va umuman bu kun davomida shunchalik ko'p o'ylaydiki, buning oqibatida o'lguday charchadi va o'rniga odatdagidan ertaroq kirib yotdi.

Ortiq chordoqdagi ovozlari ham eshitilmay qoldi. Mattis bunga sevinishi kerakmi, yo'qmi, bilmasdi. Deraza ortida shamol ming maqomda guvullardi, aftidan, ertaga ham shunday shamol bo'lishi aniqqa o'xshardi.

45

Ammo shamol to'xtadi.

Mattis kechasi uyg'ondi, uyquni o'zidan silkib tashlamasdan burun, shamol yo'qligini payqadi. Shamol tingandi, u esa va'dasining ustidan chiqmadi. Daraxtlar sukutda, yaproqlar shitiri ham eshitilmasdi.

Faqat kechasi emas — Mattisning xayoliga kelgan birinchi o'y shu bo'ldi. Men hech qachon, bu ishni kechasi qilaman, deb aytmaganman.

Erta bilan yana shamol boshlanishi mumkin. Hozir u tingan, odatda kechalari shunday bo'ladi. Derazadan to'lin oy yog'dulari yog'ilardi. Avvalgi safar tunda ko'lga chiqqanda ham xuddi shunday oy to'lishgan palla edi. Mattis yana bir marta, shamol ba'zan kechalari tinadi, ammo bu yordam bermaydi, deb takrorladi. Shamol hecham tunda tinmagan. Bema'nilik, men uxlab yotgan bo'lsam, buni qayoqdan bilay?

Uyda qilt etgan ovoz eshitilmasdi.

Ajabo, Xege hozir qayerda — o'z xonasidami yo Yorgenning oldidamikin? Nima ishim bor, dedi u o'zi o'ziga qat'iyon. Shamol tinganining o'zi ham menga kifoya qiladi.

Mattis yota olmas va kuta olmas, tashqarida hammasini o'z ko'zi bilan ko'rishi lozim edi. U asta-sekin kiyindi — uyda hamma narsa o'lganga o'xshardi. U chiqib ketdi.

To'lgan oy ko'lga yo'l ochgan edi. Shamol yo'q edi. hatto qilt etgan shabada ham suv yuziga tekkani sezilmasdi. Ko'l hech qachon bunchalik bepoyon bo'lmagandi. Mattis sehrlanganday undan ko'zini ololmasdi.

U o'rmonga, yashil yonbag'irga, qirg'oqlarini o't bosgan ariqqa ham qaradi. Faqat shu ariqdan suv ichsang, deb o'yladi birdan.

Shabnamli soylikdan o'tib ariqqacha bordi. Ariq kichkina edi. Mattisga indamadi, ammo har qalay yig'laganday hiqillab qo'ydi.

Mattis suvga egilmoqchi emasdi, egilsa unda o'z aksini ko'rgan bo'lardi, o'ziga yot va toshday qotib qolgan bu yuzni ko'rgisi yo'q edi, yana ayni chog'da bu oydin yorug' kechada o'ziga bir marta qarab qo'ygisi ham kelardi.

Qilt etmay harakatsiz yotgan ko'lga qaragan chog'ida, Mattis kimdir aniq-tiniq qilib: «Najot yo'ling — ikkita, sen qay birini afzal ko'rasan?» — deya savol berganini cshitdi, qayiqda ne voqea sodir bo'lganini kim biladi? Hech kim.

Mattis bu haqda o'ylagisi kelmas, o'ylay olmas ham edi. U boshini ko'tarib, xuddi porlab turgan to'lgan oyga murojaat qilganday, baland va qat'iy ovoz bilan:

— Bu menga bog'liq emas, bu ishni kimdir mening nomimdan qiladi, tanlash uning ixtiyorida, — deb qo'ydi.

U oyga shunday dedi. Keyin yonbag'ir bo'ylab shoxdevorga, yo'sin qoplagan do'nglikka, shunday ajoyib va ilgari ham, hozir ham so'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan narsalar tomonga qarab sekin-sekin odimlay ketdi. Mana butun hayotim, o'yladi u, ammobu fikrni ham o'zidan haydadi. Bu haqda gap ochmagani yaxshiroq!

Pirovardida u bir muhlatga yo'sin bosgan do'nglikka o'tirdi. Bunday yaxshi va qutli do'ngliklar juda ko'p edi — balki bir oz vaqt shu yerda bo'la turar? U o'z soyasi bilan birga oy yog'dulari ichra sirli nur va soya o'yiniga aralashib qolgan arvohga o'xshab ko'rinardi.

Ko'p o'tmay unga sovuq o'tdi va o'tzor bo'ylab uyga yo'l oldi. Yana o'rniga kirib yotdi. Ammo endi uyqusi kelmasdi.

Suvning tubi, o'yladi Mattis. Behalovat fikrlar oxir-oqibatda uni shungacha olib bordi. Suvning tubi har xil — qumli, toshli, balchiq bo'lishi mumkin. Kim biladi, balki hech kim ko'rmagan shaklda — butunlay boshqacha bo'lishi ham mumkin.

Agar boshqacha bo'lsa-chi, deb o'ylardi umidsizlik-ka tushib. Shunda uni qo'rquv bosdi.

Demak, o'sha yerga tushamanmi? — deb so'radi, bu fikrga yopishib olib.

Ha, dedi u yana.

Shu tariqa uxlamadi. Shamol yo'q edi.

46

Ertalabga yaqin u har qalay mudrab ketgan bo'lsa kerakki, Xege uning yonidan o'choq boshiga o'tganini eshitmadi. Yorgen o'tganini ham eshitmadi. Mattis uyg'onganida, ular ikkovlari oshxonada edilar. Unga idishlarning taqir-tuquri va:

— Bugun ko'l shu qadar tinchki... — degan so'zlar eshitildi.

Xege o'z so'zlarini biron maqsad bilan aytmadi. Yorgen olib ketishiga yegulik tayyorlayotibmi yoki unga qahva quyayotibmi, shunchaki yo'l-yo'lakay aytdi.

— Shunday degin, — javob berdi Yorgen beparvo.

— Demak, bugun u ko'lga bora oladi, — dedi Xege.

Mattis Yorgen nima deb javob berganini eshitmadi. Ammo butun a'zoyi-badanini titroq ipi ilma-teshik qilganday bo'ldi. Fikriari har yoqqa sochilib ketdi va uni tang ahvolda qoldirdi. U har qalay bir amallab fikrlarini tizginladi va asta-sekin o'zini qo'lga oldi.

Har yoqqa sochilmay joyingizda turing, dedi u fikrlariga va kiyina boshladi. Endi u rejasini amalga oshirishi kerak edi.

Derazadan ko'lni ko'rди, u kechasi qirg'oqqa chiqqanda qandoq bo'lsa, o'shandoq harakatsiz edi, faqatgina yengil tuman pardasi asta-asta siljib kelar, bu bir ajoyib

kuz ertasi edi. Quyosh hali ko'tarilmagan, ammo tezda yuz ko'rsatadi, yerni isitib, tuman qoldiqlarini tarqatib yuboradi.

Mattis o'z fikrlarini bari bir jamlay olmadi. Oshxonaga kirganda bu uning yuzlaridan ko'rinib turardi. Xege bir o'zi o'tirar, Yorgen allaqachon o'rmonga ketgandi — Mattis bundan quvondi.

— Nima bo'ldi? — bu erta boshqachaligini ko'rgan Xege Mattisni darhol savolga tutdi.

Mattis boshini chayqadi — bor-yo'q javobi shu bo'ldi.

— Ayt, nima gap? — eski odatiga ko'ra buyurdi u. Mattis oxirigacha bo'lmasa-da, har qalay itoat qildi.

— Men o'ylayverib-o'ylayverib o'layozdim, — deb javob berdi u. Bu — haqiqat edi.

— Bor-yo'g'i shumi?! Mattis cho'chib tushdi.

— O'tirib ovqatingni ye! U ozroq ovqatlanishga harakat qildi. Uning javobi Xegeni qanoatlantirdi shekilli, ortiq hech narsa so'ramadi. Mattis undan ko'zlarini uzmasdi, nihoyat u:

— Bugun tashkachilikda ishlay boshlayman, — deb ma'lumot berib qo'ydi.

Xege sevinib uni qo'lladi:

— Yasha, azamat. Bunisi zo'r bo'пти.

Nahotki u buni shunchalik intizor kutgan bo'lsa? Ammo u qayiqqa ishonib bo'lmasligini eslab qoldi.

— Mattis, sen bir kuni qayig'im teshilib qoldi, deganding. Ichiga suv ko'p kiradimi?

— Unchalik emas.

— Yaxshilab tekshir, agar unda suzish xavfli bo'lsa...

— Men senga aytgandim — tinch ob-havoda qo'rqinchli emas. Shamol bo'lganda boshqa masala.

— Iltimos qilaman, ehtiyot bo'l, — deb so'radi u endi bir oz ishiga shoshilib. — Men senga yegulik berib yubormayman, qorning ochgan zahoti uyga kel. Xo'pmi?

— Xo'p, — dedi Mattis. U endi tayyor edi — ketish kerak — birdan xona o'rtasida to'xtadi.

— Bir nima bo'ldimi? — so'radi Xege.

— Yo'q.

Shu bilan ketdi. U hozir Xegega ko'p gaplarni aytishi mumkin edi. Ammo aytmasligi kerak edi. Hech narsa deymay ketish, naqadar og'ir.

U ko'lga tushib borguncha tepalar ortidan quyosh ko'tarildi. Endi uning nurlari u qadar issiqmas — kuzga xos edi. Quyoshdan butun atrof shaffof bo'lib ketdi. Yiltirayotgan yaproqlar ichida yurib borish xuddi yengilday edi. Holbuki, Mattisga yengil emasdi.

U, kunduzning qay tariqa kuch yig'ayotganiga qarab borardi.

— Zap odam tashiydigan kun ekan-da! — dedi Mattis baland ovozda qaysarlik bilan, chunki bugun ko'lgacha tushib borish shu qadar uzoq va mashaqqatli bo'lib ko'rindi.

Bir necha qadam yurganidan keyin:

— Bugun menga ko'p odam keladi, — deb qo'shimcha qildi.

Yana ikki qadam yurganidan so'ng:
— Bunisi yaxshi, — dedi.

Qirg'oqqa va qayiqqa eltuvchi qadrdon so'qmoqni arang bosib o'tdi. Uni ertalabki quyosh hovuridan qo'zg'olgan yelim hidi kutib oldi. Qandog'och butalari ichida katta-katta yangi eshkaklar yotardi, yangi shilingan yog'ochlar yilt-yilt qilib yiltirardi. Mattis ularni olib, qayiqqa qo'ydi.

Xo'sh, mana hammasi tayyor.

Yana nima?

Yo'q...

Endi tez harakat qilish kerak edi. Tezroq qayiqqa. Qayiq suvga itarildi. Mattis atrofiga alangladi. Bir siltab qayiqni burdi, qirg'oq toshlariga qayta sakrab tushdi, qirg'oqqa toj bo'lib turgan qayin va qandog'och butalariga otildi. U qandog'och oldiga borib, uning och kulrang po'stlog'iga tishini botirdi, qandog'och suvi lablarini kuydirdi. Bu harakatini hech kim ko'rmasligi kerak edi va bu, bor-yo'g'i bir lahza cho'zildi. Aqldan ozgan shu bir lahza davomida Mattis daraxt oldida qotib turdi, keyin esa xuddi bir narsadan qutulganday, qayiqqa yugurdi, qandog'och po'stlog'idagi tishlarning izi qizara boshladi.

Endi nima?

Boshqa hech nima.

Qayiq qirg'oqdan sirg'alib ketib, g'oyib bo'ldi. Mattis eshkakni eshar, ammo o'zi tashlab ketayotgan narsalardan ko'zlarini uzolmasdi.

47

Agar olislarda taraq-taraq qilayotgan va borgan sari kichrayib ketayotgan motorli qayiqni hisobga olinmasa, ko'lda hech kim ko'rinasdi. Mattis o'ylaganlarini boshqalarsiz amalga oshirmoqchi edi. Sevgan va o'rgangan narsalarining hammasini yo'qotish uni qattiq tanglikka solayotgan edi. Shunday bo'lsa ham baribir u har vaqtdagi kabi fikrining butun quwatini o'ng va so'l qo'llarga yuklashni eplay oldi — qayiq ravon suzibborardi. Eshkaklarni eng oddiy kunlardagi kabi eshardi. Faqat to'g'ri chiziq bo'ylab suzishga urinmas, qaysidir ma'lum joyni mo'ljallab boshqarardi va bu odatga ko'ra ko'ngildagiday chiqayotgan edi.

Qayiqning burni huvillagan g'arbiy yonbag'irlarga g'aribona qarab borar, eshkakchi esa, u yoqqa orqa o'girib o'tirardi. Mattis qancha uzoqqa suzgan bo'lsa, qadrdon qirg'oqlar ham shunchalik kengayib borayotgan edi va o'tirgan joyidan shundoq ko'zga tashlanib turardi. Ko'rinayotgan narsalarning hammasi unga jondek aziz edi.

Ora-chora, u yoqqa qaramaslik kerak deb o'ylar va shunday onlarda ko'zlarini pastga qaratib olardi.

Ammo fikrlardan qutulib boiarmidi? Bir odam unday yaratilgan, boshqasi bunday, o'yladi Mattis, bu fikrni rivojlantirishga haqqi yo'q edi. O'z rejasini amalga oshira olishi uchun u o'zini tizginda tutishi kerak.

Endi hal qiluvchi men emasman, tanlov mensiz amalga oshiriladi.

Eshkaklar suv ustiga ko'tarilganda, ular olisda qolgan qirg'oqqa imo qilganday bo'lardi. Agar qayiq suvga cho'ksa, yangi qo'pol eshkaklarda suzish qulay boiadi. Yaxshiyamki u suzishni butunlay bilmaydi, hecham bilmaydi. Agar suzishni bilganda bunday sinov o'tkazishda ma'no ham bo'lmas edi.

Tiniq havo va oltin daraxtlar Mattisning ko'zini o'ynatib, sinab ko'rish istagini kuchaytirib yubord. Bu istak qay ko'rinishda kelmasin, Mattis ularni ko'nglidan haydashga urinardi.

Uzoqroqqa, uzoqroqqa. U qayerga suzib ketayotir? Agar uzoq ketmasa qirg'oqdagilar uni ko'rib qolib, ishga aralashishlari turgan gap. Hovli-joylardan va umuman qirg'oqlardan uzoqroqqa suzib kctish kerak edi.

Men koining eng ichkari-ichkarisiga, uzoqdan ham uzoqqa suzib borishim kerak, buni faqat o'sha yerdagina qila olaman.

Kerakli joy muqarrar ravishda yaqinlashmoqda edi.

Men bu yerlarda bo'lmaganman, degan fikrni o'ziga singdirishga harakat qilardi.

Bu yerlarda uni yaxshi bilsalar-da, u xuddi bu yerlarda tasodifan kelib qolgan begona odamlarday suzardi.

Kutilmaganda Mattis eshkaklarni ko'tardi — manglayidan yirik-yirik ter tomchilari chiqdi. Nima bo'ldi? Shu yerda. Mana o'sha joy. Hamma qirg'oqlardan, hamma ko'zlardan yiroqda, shu yerda. Endi unga hech kim xalal berolmasdi. Aynan shu yerda! O'ylamaslik kerak.

U ho'l eshkaklarni qayiqqa ko'tarib oldi, ular quyoshda yiltirar, qayiq esa yana ozgina oldinga sirg'alib bordi va nihoyat taqqa to'xtadi. - Mana shunday, Xege, — dedi u suvga.

U buni baland va qattiq ovoz bilan aytmoqchi boigandi, ammo bunday chiqmadi. Lekin o'z rejasini hech bir to'siqsiz amalga oshirdi. Xuddi begonaday shalviragan qo'llari bilan qayiq ko'prikchasini surib tashlab, o'sha o'ziga tanish, o'zi belgilab qo'ygan eng chirik joyini topdi. Oyog'i ham begona oyoqqa o'xshardi, shunga qaramay bor og'irligi bilan chirigan joyni shunday bosdiki, u poshna ostida osongina teshildi. Mattis xuddi kuygandek oyog'ini tortib oldi. Qayiqqa shildirab suv kira boshladi. Mattis qaltirab uning tubiga o'tirdi va eshkaklarni ikki qo'ltig'iga qisib oldi.

Qani mening badanim? — deb o'yladi u. Kim bunday qildi? Faqat men emas. Lekin mana endi nima to'g'ri-yu, nima noto'g'riligi aniq bo'ladi. Hamma yog'i yorilib, chirib ketgan qayiq tez suvga to'lib, Mattisning tagidan sezdirmaygina ayrildi. U esini yig'ibham ulgurmay, eshkaklarga osilib qoldi. Hammasi o'zi istaganiday bo'ldi.

Suvning ustki qatlami unchalik sovuq emasdi, hali yoz iliqligi arimagan edi. Ammo ko'Jning teranliklari uning oyoqlariga chang soldi, shunda Mattis qaltirab ketdi. Suv yuzasida faqat uning boshi turtib chiqib turardi. U qirg'oqqa suzib borishga urinib qo'llari va oyoqlarini suvga ura boshladi. Rejada bunday harakatga yo'l qo'yilgandi. U eshkaklarni qo'ltiqlaridan chiqarmay, bor kuchi bilan tipirchilar va asta-asta suzar edi. Suv ko'zguday tiniq, unda to'nkarilgan yer va osmon aks etardi.

Mattis tipirchilar va suzar edi. Uning ko'zlari g'arbiy yonbag'irlardagi eng yaqin bir nuqtaga qadalgan edi. Bor kuchi bilan joni chiqquday tipirchilash -bunga ham rejada yo'l qo'yilgandi.

Tez orada, xuddi birov puflaganday, suv yuziga mavjlar yugurdi, goh u yerdan, goh bu yerdan suv bo'ylab soya sirg'alib borardi. Mattis buni ko'rmadi, u oyoq-qo'llarini xuddi savdoyilarday ishlatar va og'ir-og'ir nafas olib, kerakli yo'nalishda shoshihnay olg'a siljir edi. Bu asno orqasida ufqlar osha bulutlar devori ko'tarilganini ham u ko'rmadi, albatta.

U eshkaklarni qo'ltiqlaridan chiqarmay tipirchila-gancha olg'a harakat qilishga berilib ketganidan, ko'zlariga hech nima ko'rinmasdi. Badani hamon o'ziga begonaday, g'alati va qo'rg'oshindek og'ir edi. U suzib o'tgan masofa, qirg'oqqacha bo'lgan masofaga qaraganda hech narsaga arzimas, sohil ilgari qancha uzoqda bo'lsa, hozir ham deyarli shuncha uzoqda edi.

— Xege! — Mattis nihoyat shamol boshlanganini payqab, birdan qichqirdi. Demak, bugun ham har qalay shamol boshlanishi kerak ekan-da! Shamol mavjlarni yugurtirmoqda.

Mattis rangi o'chib olis-olislarda ko'l yuzida paydo bo'lgan to'q moviy yo'lga qaradi. U tez yaqinlashib kelardi. Mattisning ortida ko'tarilgan bulutlar devori ichidan moviy va qudratli shamol ko'tarildi... Shu ondayoq butun suv to'lqinlanib ketdi.

Shamol oppoq ko'pikli to'lqinlarni ko'pirtirdi, ular Mattis tiqilsin uchun va eshkaklarni qo'yib yuborsin uchun og'zini suvga to'latmoqchi bo'lardilar.

— Mattis! — tim qorong'ilikda umidsizlik olamidan qichqirdi u, orqasiga o'girilib. Kimsasiz ko'l uzra uning ovozi xuddi notanish qushning ovoziday eshitildi. Kattamidi yo kichikmidi bu qush, ovozidan buni aniqlab bo'lmasdi.